



FERUZA
BOBOJONOVA

**BUXORO ME'MORIY
OBIDALARI TARIXI**

O'quv qo'llanma



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FERUZA BOBOJONOVA

BUXORO ME'MORIY OBIDALARI TARIXI

O'quv qo'llanma

Ta'lim yo'nalishi: 5120300 – Tarix. Buxoro tarixi

**BUXORO
FAN VA TA'LIM nashriyoti
2022**

UO'K 725.94(575.146)

85.13ya73

B 79

Bobojonova, Feruza Xayotovna

Buxoro me'moriy obidalari tarixi [Matn] : o'quv qo'llanma / F.X. Bobojonova .-

Buxoro : Fan va ta'lim,2022.-284 b.

КБК 85.13ya73

Mas'ul muharrir:

Inoyatov S.I. – tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Qurbonova M.B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shukrullayev Yu.A – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur qo'llanmada uzoq o'tmishga ega Sharif Buxoroning 2500 yillik tarixi davomida yaratilgan tarixiy-me'moriy obidalari, nodir yodgorliklari xususida so'z yuritilib, obidalarining tarixi, qurilish arxitekturasi, ular bilan bog'liq xalq afsona va rivoyatlari keng va batafsil bayon etilgan. Ushbu qo'llanma Buxoro tarixi yo'nalishidagi kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish talablaridan kelib chiqib, fanning mohiyati va ahamiyatini ochib berishda xorijiy ilmiy-metodologik yondashuvlardan foydalanildi.

В данном пособии рассматриваются исторические и архитектурные памятники, редкие памятники, созданные за 2500-летнюю историю Бухары, имеющей многовековую историю, дается подробное описание истории памятников архитектуры, народных легенд и мифов, связанных с ними. В данном пособии используются зарубежные научно-методические подходы для раскрытия сущности и значения науки, исходя из требований повышения качества подготовки кадров в области истории Бухары.

This manual deals with the historical and architectural monuments, rare monuments created during the 2,500-year history of Sharif Bukhara, which has a long history, a detailed description of the history of monuments, architecture, folk legends and myths associated with them. reported. Based on the requirements of improving the quality of training in the field of history of Bukhara, this manual used foreign scientific and methodological approaches to reveal the essence and significance of science.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 2-avgustdagi 257-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan. Ro'yxatga olish raqami 257-034.

ISBN 978-9943-8614-2-8

SO'Z BOSHI

Azaldan G'arb bilan Sharqni bog'lagan Buyuk ipak yo'lining muhim chorrahasida joylashgan Buxoro boy va shonli tarixga ega. Buxoroning tarixiy obidalari uning buyukligidan guvohlik beradi. Bu shaharning har bir go'shasi boy tarixga ega bo'lib, minoralari, osori-atiqalari, muqaddas qadamjolari va obidalarida olis o'tmishning aks-sadosi, qoldirgan izi bor. Buxoro o'zining ko'plab tarixiy-me'moriy yodgorliklari bilan butun dunyo diqqatini o'ziga tortib kelgan. Bu qo'hna shaharning har bir ko'cha-yu xiyoboni, go'shasida olis o'tmishning aks-sadosi bor. Ko'kka bo'y cho'zgan minoralar inson aql-zakovatini namoyish qiladi. Buxoro Sharq-u G'arbda ochiq osmon ostidagi muzey, shavkatli tarixning jilvador ko'zgusi, degan faxrli nom olgan. Buxoro jahonning eng qadimiy va tarixiy-me'moriy obidalarga boy go'zal shaharlaridan biri bo'lib, u azaldan islom olamida yuksak nufuzga ega bo'lgan.

Buxoroi Sharifda qadimiy obidalar benihoya ko'p. Ularning har biri qadrli. Har biridan moziy nafasi kelib turganday bo'ladi. Har biri ajdodlarimizning qanday insonlar bo'lganliginining tilsiz guvohidek tuyuladi. Aslida ham shunday. O'zbek xalqining tarixi yozma manbalar bilan bir qatorda osori-atiqalarimizda ham muhrlanib qolgan. Kitoblar o'qiladigan dalillar bo'lsa, yodgorliklar ko'riladigan dalillardir. Osori-atiqalar tarixini bilish ham o'tmishimiz haqidagi taassurotlarimizni boyitadi va aniqlashtiradi. Xalqni tarixiy, moddiy va madaniy merosni o'rganish bilan tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir katta-kichik yodgorlik o'zbek xalqi tarixidagi muhim bir voqea yoki sana bilan bog'liq, yoki bo'lmasa davlat ahamiyatiga molik biror zarurat tufayli bunyod etilgan.

Buxorodagi me'moriy obidalarda ajdodlarimizning yuksak aql-zakovati o'z ifodasini topgan. Shahar markazidagi Chor Minor ansambli Sharqda yagona hisoblanadi. Xo'ja Zayniddin, Baland masjidleri, Mir Arab madrasasi yuksak muhandislik, g'aroyib san'at va tengsiz go'zallik namunalariidir.

Buxoro eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, YUNESKOning Butunjahon me'moriy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Turli davrlarda bunyod etilgan nafis san'at va me'morchilik durdonlaridan iborat shahar 1997 -yilda o'zining 2500 yilligini nishonladi. Qadimiy Buxoroga ko'rk salobat baxsh etib turgan me'morchilik obidalari ota-bobolarimiz aql-u zakovati, iste'dodining yorqin timsoli sifatida hali-hanuz dunyo ahlini hayratga solib kelmoqda. Xuddi to'r bilan qoplangan Ismoil Somoniy maqbarasi, Ulkan qo'rg'on va Buxoro hukmdorining mustahkam qarorgohi Ark, Minorai Kalon, jonli labirint kabi ko'plab masjid va madrasalar, karvonsaroylar, hammom kabi yodgorliklar muqaddas Buxoroning tengi yo'q marvaridlaridan bo'lib qoladi. Ayniqsa, dunyoni maftun etgan Buxoro shahri sayyohlar uchun o'ziga xos mo'jiza hisoblansa ajabmas. Buxoroning tarixiy

arxitekturasi aks etgan betakror ma'lumotlar uning 2500 yillik tarixga ega ekanligini ma'lum qiladi.

Sharq Venetsiyasi, deb nom olgan Buxoroda 140 dan ortiq yirik tarixiy-me'moriy yodgorliklar mavjud. Ular orasida Buxoro Arki, Somoniylar maqbarasi, Chashmai Ayyub maqbarasi, Mag'oki Attori masjidi, Namozgoh masjidi, Poyi Kalon ansambli, Qal'a-devor qoldiqlari, Minorai Kalon, Masjidi Kalon, Mir Arab madrasasi, Tim va toqilar, Labihovuz ansambli, Ulug'bek madrasasi, Chor minor, Bolohovuz masjidi, Sitorai Mohi Xossa ansambli va boshqa obidalar sayyohlarni maftun etadi. Bunday qadimiy me'moriy yodgorliklarni saqlab qolgan Buxoro sayyohlarning eng sevimli joylaridan biri bo'lib qolaveradi. Buxoro o'zining jozibasini bilan butun dunyodan millionlab kishilarning e'tiborini tortib keladi.

Yer yuzida insoniyat ma'naviy yuksalishiga beshik bo'lgan, kechmishi bir necha ming yillik tarixga borib bog'lanadigan, bashariyatning barcha taraqqiyot bosqichlariga guvoh bo'lgan, bag'rida ham olis o'tmish, ham bugungi tamaddun jarayonlarini namoyon etuvchi shaharlardan biri bo'lgan Buxoro Sharifdagi tarixiy va madaniy obidalarni o'rganish uchun nafaqat dunyo ahli, balki o'zimizning yosh avlod ham buyuk tariximiz haqida bilishga haqlidir va o'rganishi kerak.

Ushbu o'quv qo'llanma bugungi yosh avlodni tarixni sevish, uni chuqurroq o'rganish, tarix bilan qurollanish, eng muhimi, mavjud osoru- atiqalarimizni asrab-avaylash ruhida tarbiyalaydi.

Xullas, "Buxoro tarixi" yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan ushbu o'quv qo'llanma Buxoro me'moriy obidalar tarixi bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimlar berib, fan bo'yicha ko'nikma va malakaga ega bo'lishga ko'maklashadi. Har bir mavzu so'nggida berilgan nazorat uchun savollar talabalarga mustaqil ravishda fikr yuritishga, mavzu bo'yicha olgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlashga yordam beradi.

1-MAVZU: KIRISH. BUXORO ME'MORIY OBIDALARI TARIXI FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI.

1.1. Buxoro me'moriy obidalari fanining ob'yekti, predmeti, maqsad va vazifalari.

Buxoro me'moriy obidalari fanining ob'yektini masjid, minora, maqbara, tarixiy-me'moriy majmuasi, hovuzlar, sardobalar, hammomlar, qadimiy qal'a qo'rg'onlar, gidrotexnik inshootlari, mudofaa inshootlari, devorlar, darvozalar, Ark, madrasalar, toq, qadimiy bozorlar, karvonsaroylar, me'moriy ansambllar, ichki va tashqi saroylar, qadimiy turar joylar, muqaddas qadamjolar tashkil etadi. Fanining predmetini esa Buxoro me'moriy obidalari tarixini o'rganish tashkil etadi.

Fanning maqsadi - Tarixning davlat va jamiyat taraqqiyoti hosilasi ekanligi, jamiyat rivojlanishida davlatchilikning muhim voqelik hisoblanishi, tarixning keyingi taraqqiyot bosqichida fan, texnika, madaniyat, axborotlar tizimini o'zlashtira borishi, ulardagi jamiyatga bog'liq bo'lgan hodisalarni ko'rsatib berish, jumladan, mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy islohotlarni tahlil etish. Mamlakatimizda tarixni o'rganish, o'tmish haqiqati bilan qurollanish, tarixiy xotiraga ega bo'lish siyosatining ustivorligi tushunchalarini talabalarga yetkazish. Buxoro me'moriy obidalari tarixi fanining maqsadi tariximizni kengroq yoritish, talabalarning tarixiy tafakkurini yuksaltirish, tarixga nisbatan xolisona baho berishga o'rgatishdan iborat.

Bularni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- fandagi Buxoro me'morchilik inshootlarining ijtimoiy hayotdagi o'zni masalalarini tahlil etish;
- Buxoro me'moriy obidalarining shahar jahoniy shuhratini oshirishdagi ahamiyatini tadqiq etish;
- Shahar tarixiy yodgorliklarining o'timishi va bugungi holatini qiyosiy jihatdan ilmiy tadqiq etish;
- Buxoro me'moriy obidalari arxitekturasini tahlil etish.

Fanning vazifalari:

- Buxoro me'moriy obidalari tarixining milliy va ma'naviy jihatlarini ilmiy tahlil etish;
- O'rta Osiyo xalqlari moddiy merosining tarixiy ahamiyatini talabalarga tushuntirish;
- Talabalarda Buxoro me'moriy obidalari tarixi haqida tushuncha va ko'nikmalarni hosil qilish;
- Talabalarda Buxoro me'moriy obidalarini asrab-avaylash tuyg'usini rivojlantirishdan iborat.

Ushbu fan orqali talabalar Buxoro me'moriy obidalarining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini xronologik tartibda o'zlashtiradilar. Buxoroning qadimgi

davrdan XX asr oxirlariga qadar bo'lgan tarixiy- madaniy obidalar haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

1.2. Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Talabalarda Buxoro me'moriy obidalar tarixi mustaqil fan tarmog'i bo'lishiga qaramay, o'z maqsad va vazifalarini yechishda gumanitar fanlarga tayanadi. Xususan, tarix, arxeologiya, xronologiya, epigrafika, numizmatika fanlari bilan o'zaro bog'liq hisoblanadi.

Tarix fani – davlat va jamiyatning taraqqiyot bosqichlari, mazkur rivojlanishning sabab va omillarini o'rganadi. Mazkur fanga asoslanib, turli davrlarda inson qo'li bilan bunyod etilgan moddiy yodgorliklarni o'rganish va tadqiq qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Arxeologiya – insoniyatning o'rta asrlarga oid tarixini qazishmalar yordamida tadqiq qiladi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan ashyolar va imorat qoldiqlarida aks etgan tarixiy obidalarini o'rganishda ushbu fan muhim o'rin tutadi.

Xronologiya – tarixda sodir bo'lgan voqea-hodisalarning vaqtini o'rganuvchi fan bo'lib, me'moriy obidalar tarixining rivojlanish bosqichlarini davrlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Epigrafika – bitiklarni o'rganuvchi fan bo'lib, yozuvlarda aks etgan bezaklarni ushbu fan bilan aloqadorlikda o'rganish mumkin.

Numizmatika – tangashunoslik fani bo'lib, turli davrlarda zarb qilingan tangalar va qogoz pullardagi tasvirlar hamda bezaklarni o'rganishda ushbu fan yordam beradi.

Shunday qilib, Buxoro me'moriy obidalar tarixi fani boshqa fanlar bilan bevosita aloqador bo'lib, ularning yordamiga tayanadi va o'z navbatida o'zi ham boshqa fanlar rivojiga ko'maklashadi.

1.3. Buxoro shahridagi me'moriy obidalar to'g'risida umumiy tushunchalar.

Buxoro olis tarixi davomida bir necha bor qaytadan bunyod etilgan. Lekin shahar o'z tarixiy ildizlaridan hech qachon uzilib ketmagan. Uning bag'rida olis o'tmishdan to bugungi kungacha qurilgan ko'plab me'morchilik yodgorliklari saqlanib qolgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, XX asr boshlarida ular soni 550 ga yaqin bo'lgan. Salkam bir asrga yaqin vaqt ichida sho'ro dahriylarining tariximizga nisbatan buzg'unchilik munosabati o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bugungi kunga kelib, shaharda 300 ga yaqin yodgorliklar saqlanib qolgan. Mustaqillik yillarida Buxoroni zamonaviy va milliy shaharsozlik asosida qayta qurish, obodonlashtirish hamda bunyodkorlik ishlari ana shu yodgorliklarni asl tarixiy holda tiklashdan, ta'mirlashdan boshlandi. Dastlab Bahovuddin Naqshband, Sayyid Amir Kulol, Chor Bakr kabi tarixiy majmualar asl tarixiy asosida qayta qad rostladi. Keyin shahar bag'ridagi Chashmai Ayub, Dahmai Behishtiyon, Hazrati

Abu Xafs Kabir, Shayx Abu Bakr Gulobodiy, Xoja Ismatulloh Valiy kabi ulug' allomalar nomlari bilan bog'liq ziyoratgohlar, maqbaralar, masjid va madrasalar asl holida qayta tiklanib, obod qilindi.

Buxoroda har qadamda tarix bilan yuzlashasiz. Uning har bir obidasi, madrasa, masjidi, minorasi, hovuz, xiyoboni, bozor va ko'chalari o'tmish guvohlari sifatida namoyon bo'ladi. O'z davrining hayotiy ehtiyojlari tufayli bunyod etilgan bu hayratomuz inshootlar, imoratlarda keksa tarix bilan birgalikda ajdodlarimizning yuksak aql-zakovati, donishmandligi, ilmiy salohiyati, dunyoviy madaniyati, g'aroyib san'ati ham o'z ifodasini topgan.

Darhaqiqat, mamlakatimiz mustaqillikka erishgach milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish, madaniy meros, ayniqsa tarixiy-me'moriy obidalarni asrash, ularni kelgusi avlodga etkazish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda Buxoroda 660 ta moddiy-madaniy meros ob'ektlari ro'yxatga olingan bo'lib, 231 tasi arxeologiya ob'ektlari, 364 tasi arxitektura yodgorliklari (8 ta maqbara, 47 ta masjid, 14 ta karvonsaroy, 39 ta madrasa), 19 tasi monumental san'at asarlari, 22 tasi arxitektura ansambllari va 24 tasi diqqatga sazovor joylardir. Shulardan 331 tasi Respublika ahamiyatidagi va 329 tasi mahalliy ahamiyatdagi moddiy-madaniy meros ob'ektlari hisoblanadi.

Buxoro shahrida 300 dan ortiq hovuz bo'lganligi XIX asr hujjatlarida qayd qilingan. Chashmadek qayta ko'z ochgan Buxoro hovuzlari esa asrlar osha shaharga ko'rk-u tarovat baxsh etaveradi.

Buxoroda 140 dan ortiq yirik tarixiy-me'moriy yodgorliklar mavjud. Ular orasida Buxoro Arki, Somoniylar maqbarasi, Chashmai Ayyub maqbarasi, Mag'oki Attori masjidi, Namozgoh masjidi, Poyi Kalon ansambli, Qal'a devor qoldiqlari, Minorai Kalon, Masjidi Kalon, Mir Arab madrasasi, Tim va toqilar, Labihovuz ansambli, Ulug'bek madrasasi, Chor Minor, Bolohovuz masjidi, Sitorai Mohi Xossa ansambli va boshqa obidalar sayyohlarni maftun etadi. Bunday qadimiy me'moriy yodgorliklarni saqlab qolgan Buxoro sayyohlarning eng sevimli joylaridan biri bo'lib qolaveradi. Buxoro o'zining jozibasini bilan butun dunyodan millionlab kishilarning e'tiborini tortib keladi.

Tarixiy obidalar qurilishi, me'morchiligi, arxitekturasi me'moriy xazina sifatida ming yillik tarixdan so'zlaydi. Ularning bugunga qadar mavjudligi siri hech shubhasiz, mohir usta me'morlarning bilimi, aql-zakovati, imoratlarda ishlatilgan qurilish ashyolari, materiallari natijasidir. Obidalar qurilishida uning qorishmasiga tovuq tuxumi, echki suti, turli kukun va moylarning aralashtirilganligi qator kitob va manbalarda uchraydi. Ta'kidlash o'rinliki, bugungi kunda ham inshootlarning umrboqiyiligini ajdodlarimizning aniq fanlarni chuqur o'zlashtirgani, o'lchov va hisoblashlarni bexato amalga oshirgani ta'minlamoqda.

1.4. Buxorodagi moddiy- madaniy meros ob'ektlarining milliy ro'yxati.

“Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk ob’ektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19 dekabrda PQ-4068-son qaroriga muvofiq Buxorodagi moddiy madaniy merosning ob’ektlarining milliy ro‘yxati e‘lon qilingan. Shunga muvofiq Buxoro shahrida 448 ta moddiy madaniy merosning ob’ektlari mavjud. Arxeologiya yodgorliklari sifatida Karvonsaroy va Hammom qoldiqlari (XIV — XVI) asrlar va Tali Murda Partau (IV — XII asrlar) ikkita yodgorliklar mavjud.

Arxitektura yodgorliklari sifatida esa Buxoroda quyidagi madrasalar saqlanib qolgan: Xoja Qurbon madrasasi (1906-1907 yillar), Ibrohim Oxund madrasasi (XIX asr), Turkman madrasasi (1905- yil), Isteza madrasasi (XIX asr), Mir Said Kamol madrasasi(1906- yil), Mehtar Anbar madrasasi (XIX asr), Mavloni Assiri madrasasi (XVIII asr), Domullo Hasan madrasasi (XIX asr), Said Kamol madrasasi (XIX asr), Mir Boqiy tim madrasasi qoldiqlari (1911-yil), Hotam Hindu madrasasi (XX asr), Rashid madrasasi (XVIII-XIX asrlar), Chuqur madrasasi (XIX asr), Husayni madrasasi (XVIII asr), Mirzo Hamdam madrasasi (XIX asr), Kundjak madrasasi (XIX asr), Xo‘rjin madrasasi (1864-1865- yillar), Salimbek madrasasi qoldiqlari (XIX asr), Ulug‘bek madrasasi (1417- yil), Abdulazizxon madrasasi (1651-1652-yillar), Modarixon madrasasi (XVI asr), Abdullaxon madrasasi (XVI asr), Amir Olimxon madrasasi (1914-1915-yillar), Domullo Tursunjon madrasasi (1796-1797-yillar), Jo‘ybori Kalon madrasasi (1670-1671- yillar), G‘oziyon madrasasi (1730 — 1734-yillar), Rahmonqul madrasasi (1794-1795- yillar), Xoja Porsa madrasasi (XV - XVIII asrlar), Tosh Saroy madrasasi (XVIII asr), Eshoni Pir madrasasi (XVII asr) Chor Minor madrasasi (1806-1807).

Shuningdek, hozirda Buxoroda saqlanib qolgan masjidlar: Abdullo Qo‘chqor masjidi (1744- yil), Ko‘kaldosh masjidi (XVI asr), Ravg‘angaron masjidi (XVII asr), Do‘stim–Chorg‘osi masjidi(1585-1586 -yillar), Tagbandbofon masjidi (XVII asr), Bozori Kord masjidi (XVI asr), Arabon masjidi (1880- yil), Quyi Daraxt masjidi (1909- yil), Xojaxo masjidi (1828- yil), Siddiqiyon masjidi (XVIII asr), Labi Hovuzi Qozi Kalon masjidi (XVIII asr), Oybinoq masjidi (XVIII-XIX asrlar), Imom G‘azoli Vali masjidi (XVI asr), Zabiyan-Dabiyan masjidi (XVIII asr), Kemuhtgaron masjidi (XVIII asr), Shohi-Ahsi masjidi (XVII asr), Kunjak masjidi (XVII asr), Sallaxona masjidi (XIX asr), Xoja Bulg‘or masjidi (XVIII asr), Quyi Xonoqo masjidi (XVII asr), Mirza Usmon masjidi (XVII-XVIII asrlar), Bozori Gul masjidi (XVIII asr), Said Kamol masjidi (XIX asr), Shoxi Zanjir (XVIII asr), Xoja Porso masjidi (XVIII asr), Mir Ibrohim masjidi (XVIII asr), Pochchaqul Xoja masjidi (XIX asr), Azizon masjidi qoldiqlari (XIX asr), Degrezi masjidi (XIX asr), Xoja Halim masjidi qoldiqlari (XVIII asr),

Quyi Murg‘ Qush masjidi (XVIII asr), Siyohgaron masjidi (XIX asr), Chor Xaroz masjidi (XIX asr), Mullo Payravi masjidi (XIX asr), Kokuli Kalon masjidi qoldiqlari (XIX asr), Xoja Ismat masjidi (2006 -yil), Baland masjidi (XVI asr), Nomozgoh masjidi (XII — XVI asrlar), Mag‘oki Attori masjidi (XII — XVI asrlar), Mag‘oki Ko‘rpa masjidi (1636-1637 -yillar), Volidai Abdulazizxon masjidi (XVI asr), Xoja Tabband masjidi (XVIII asr), Poyi Ostona masjidi (XVIII-XIX asrlar), Eshoni Pir masjidi (XVII asr), Sarrafon masjidi (XX asr), Kokilayi Xurd masjidi (XVIII asr), Toqi Zargaron masjidi (XVI asr)da qurilgan masjidlar kiradi.

Buxoroda saqlanib qolgan savdo inshootlarga: Toqi Sarrafon (XVI asr), Toqi Telpakfurushon (XVI asr), Toqi Zargaron (XVI asr), Timi Abdullaxon (XVI asr) kiradi.

Shuningdek, karvonsaroylardan: Rashid karvonsaroyi (XIX asr), Olimjon karvonsaroyi (XIX asr), Kulita karvonsaroyi (XIX asr), Poyi ostona karvonsaroyi (XIX asr), Jo‘rabek karvonsaroyi (XIX asr), No‘g‘ay karvonsaroyi (1720-1721 yillar), Boroyi Ko‘hna karvonsaroyi (qoldiqlari) (XIX asr), Mirzo Ulug‘bek tamokifurushon karvonsaroyi (qoldiqlari) (XVIII asr), Ahmadjon karvonsaroyi (qoldiqlari) (XIX asr), Ayojjon karvonsaroyi (XIX asr), Fothullajon karvonsaroyi (XIX asr), G‘ulomjon karvonsaroyi (XIX asr), Karvon boshi karvonsaroyi (XVI asr), Sayfiddin kavonsaroyi (XIX asr), Badriddin karvonsaroyi (XIX asr)da qurilgan karvonsaroylar hozirda Buxoroda mavzud.

Bundan tashqari xonaqolardan Xonoqo Fayziobod (XIX asr), kanallardan esa, Buxorodagi Shohrud kanali (XVI asr) saqlanib qolgan. Shuningdek, Buxoroning XVII asrda qurilgan mashhur Zindoni ham tarixiy-me`moray obida hisoblanadi. Buxoroning mudofaa inshootlariga esa: Kunji qal‘asi qoldiqlari (XIX asr), Shahar qal‘asi qoldiqlari (XVI asr), Talipoch qal‘a darvozasi (XVI asr), Qorako‘l qal‘a darvozasi XVI asrda qurilgan inshootlar kiradi.

Buxoroda hozirda saqlangan quyidagi hammomlar mavjud: Hammomi Kunjak(XVI asr), Hammomi Bozori Kord (XVI asr), Hammomi Sarrafon (XVI asr). Shuningdek, hovuzlardan esa Hovuzi Ismoil Somoniy (XVI asr), Havzi nav XVII asrda qurilgan hovuzlar hozirga qadar saqlangan.

Buxorodagi mavzud bo‘lgan maqbaralar quyidagilar: Boboi Porado‘z maqbarasi (XIX asr), Said Bandi Kusho maqbarasi (XVII asr), Sufiyoni Savri maqbarasi (XVI asr), Pushtai G‘aribon maqbarasi (XVI asr), Imom G‘azoli Vali maqbarasi (XVIII asr), Bexishtiyon (Mozori Sharif) maqbarasi (2007 yil), Ismoil Samoniy maqbarasi (IX asr), Chashmai Ayub maqbarasi (XII — XIX asrlar), Sayfiddin Boharzi maqbarasi (XV asr), Boyon Qulixon maqbarasi (XIV asr), Turki Jandi maqbarasi (XVII asr), Imom Qozixon Abdulloh maqbarasi (XVI asr), Zinda Felli Ahmadiy Jomiy maqbarasi (XV asr), Xoja Ismat maqbarasi (2006 yilda)

Shuningdek, Buxoroning tarixiy – me'moriy majmualariga esa: Ark majmuasidagi quyidagilar kiradi: Darvoza (Ark majmuasi) (XVII asr), Nog'oraxona (Ark majmuasi) (XVIII asr), Jomiy masjidi (Ark majmuasi) (XIX asr), Taxt (Ark majmuasi) (XIX asr), Childuxtaron binosi qoldiqlari (Ark majmuasi) (XVII asr), Hammom qoldiqlari (Ark majmuasi) (XVIII asr), Abdulg'ozixonahon qoldiqlari (Ark majmuasi) XIX asr, Arxeologiya qoldiqlari (Ark majmuasi) III — XVIII asrlar, Qushbegi hovlisi qoldiqlari (Ark majmuasi) XVIII asr, Dolon (yopiq yo'lak) III — XVIII asrlarga oiddir.

Labi Hovuz majmuasiga esa quyidagilar kiradi: Ko'kaldosh madrasasi (Labi Hovuz majmuasi) 1568 — 1579 yillar, Nodir Devon Begi madrasasi (Labi Hovuz majmuasi) 1622-1623 yillar, Nodir Devon Begi xonohosi (Labi Hovuz majmuasi) 1619-1620 yillar, Nodir Devon Begi hovuzi (Labi Hovuz majmuasi) 1620 yilda qurilgan.

Xalifai Xudoydod majmuasiga quyidagilar kiradi: Sardoba (Xalifai Xudoydod majmuasi) XVII asr, Madrasa (Xalifai Xudoydod majmuasi) XVII asr, Masjid (Xalifai Xudoydod majmuasi) XVIII asrda bunyod etilgan.

Poi Kalon majmuasiga esa quyidagilar kiradi: Kalon (Poi Kalon majmuasi) 1514- yil, Miri-Arab (Poi Kalon majmuasi) 1526 — 1537- yillar, Kalon (Poi Kalon majmuasi) 1127 — 1129 -yillarda qurilgan.

Bolo Hovuz majmuasiga: Masjid (Bolo Hovuz majmuasi) 1712-1713- yillar, Hovuz (Bolo Hovuz majmuasi) XVII asr, Minora (Bolo Hovuz majmuasi) 1916-1917 -yillarda qurilgan binolar kiradi.

Gavkushon majmuasiga quyidagilar kiradi: Gavkushon madrasasi (Gavkushon majmuasi) 1562 — 1566 yillar, Xoja Kalon masjidi (Gavkushon majmuasi) 1573 — 1579 yillar, Xoja Kalon minorasi (Gavkushon majmuasi) 1573 — 1579 yillar, Abduraxmani A'lam madrasasi (Gavkushon majmuasi) XIX asr, Xoja Kalon hovuzi (Gavkushon majmuasi) 1573 — 1579 yillarda bunyod etilgan.

Xoja Zayniddin majmuasiga kiradi: Masjid (Xoja Zayniddin majmuasi) XVI asr, Hovuz (Xoja Zayniddin majmuasi) XVI asrda qurilgan.

Hazrati Imom majmuasi esa quyidagilar kiradi: Hazrati Imom masjidi va bog'i (Hazrati Imom majmuasi) XVI — XX asrlar, Hovuz (Hazrati Imom majmuasi) XVI — XX asrlar, Minora (Hazrati Imom majmuasi) XVI — XX asrlar, Maqbara (Hazrati Imom majmuasi) XVI — XX asrlar, Chillaxona (Hazrati Imom majmuasi) XVI — XX asrlar, Maktab (Hazrati Imom majmuasi) XVI — XX asrlar, G'uslxona (Hazrati Imom majmuasi) XVI — XX asrlar, Mazor Pushtayi Hazrati Imom mazori (Hazrati Imom majmuasi) XVI — XX asrlarda qurilgan.

Sitorai Moxi-Xossa majmuasiga quyidagilar kiradi: Olimxon saroyi (Sitorai Moxi-Xossa majmuasi) 1911—1916 yillar, Ayvon (Sitorai Moxi-Xossa majmuasi)

1911 — 1916- yillar, Sakkiz qirrali bino (Sitorai Moxi-Xossa majmuasi) 1911 — 1916 -yillar, Haram (Sitorai Moxi-Xossa majmuasi) 1911 — 1916- yillar, Ikki qavvatli yotoqxona (Sitorai Moxi-Xossa majmuasi) 1911 — 1916- yillar, Hovuz (Sitorai Moxi-Xossa majmuasi) 1911 — 1916-yillar, Shiypon (Sitorai Moxi-Xossa majmuasi) 1911 — 1916-yillar, Otxona (Sitorai Moxi-Xossa majmuasi) 1911 — 1916- yillar, Darvozaxona (Sitorai Moxi-Xossa majmuasi) 1911 — 1916- yillar, Ahadxon hovlisi va bog‘i (Sitorai Moxi-Xossa majmuasi) 1911 — 1916- yillarda qurilgan.

Abdulqodir Jeloniy majmuasi esa quyidagilar kiradi: Maqbara (Abdulqodir Jeloniy majmuasi) XIX asr, Hovuz (Abdulqodir Jeloniy majmuasi) XIX asr, Minora (Abdulqodir Jeloniy majmuasi)

Shuningdek, Mavlonoi Sharif majmuasi quyidagilar kiradi: XIX asr, Madrasa (Mavlonoi Sharif majmuasi) XVI — XIX asrlar, Masjid (Mavlonoi Sharif majmuasi XVI — XIX asrlar, Maqbara (Mavlonoi Sharif majmuasi) XVI — XIX asrlar, Kovshi Olak hammomi (qoldiqlari) yili aniqlanmagan, Darvozaxona (Mavlonoi Sharif majmuasi) XVI — XIX asrlarda qurilgan.

Buxoroning qadimiy turar joylariga madaniy meros ob‘ekti sifatida 99 ta qadimiy hovlilar ro‘yxati keltiriladi. Bulardan ayrimlari: To‘raqulboy uyi 1918 -yil, Karimi Po‘st uyi XIX asr, Binolar majmui XIX asr, Qadimiy hovli XIX asr, XIX asr Qadimiy hovli joy (F. Xodjaev uy-muzeyi) lar kiradi

Buxorodagi darvozalariga: Shayx Jalol darvozasi 2012-yil, Sallohxona darvozasi 2012-yil, Samarqand darvozasi 2012-yil, Hazrati Imom darvozasi 2012- yil, Shuningdek, Buxoro shahristoni Mil.avv III asrdan mil. XIX asrlarda qurilgan darvozalar kiradi.

Buxoroning hozirda saqlanib qolgan muqaddas qadamjolariga esa: Hazrati Abu Xavzi Kabir qabri XVI asr, Xoja Ismat qabri XX asr, Abdulloi Safed Muy qabri yili aniqlanmagan, Xo‘ja Axmadiy Paron qabri yili aniqlanmagan, Mir Poyanda Muhammad Shoyaxsiy Fayziobodiy qabri yili aniqlanmagan, Shayx Sayfiddin Boharzi qabri XV asr qurilgan qadamjolar kiradi.

Bundan tashqari Usto Shirin Murodov byusti 1985-yil, Nasriddin Afandi haykali 1980-yil, Abu Ali Ibn Sino haykali 1980-yil, A. Fitrat haykali 1999-yil, F.Xojaev haykali 1998-yil, A.Navoiy byusti 1995-yil, A.S.Pushkin byusti 1995-yil, S. Ayniy byusti 1995-yil, A. Donish byusti 1995-yil, A.Fitrat byusti 1995-yil, M. Ulug‘bek byusti 1995-yil, Beruniy byusti 1995-yil, Abu Ali Ibn Sino byusti 1995-yil, Hamza byusti 1995-yil, F. Xojaev byusti 1995-yil, Abu Ali Ibn Sino byusti 2003 -yil, S.Ayniy barelefi 1978-yilda qurilganlar ob‘ektlar kiradi.

Shuningdek, Buxorodagi qadimiy tepaliklariga esa: Kazak Xonimtepa I — XIII asrlar, Turkan Xachirtepa I — XVIII asrlar, Ko‘rtepa IV — XII asrlar, Mullo Yaxshibektepa O‘rta asrlar, Kush Talalien X — XIII asrlar, G‘aibotatepa yili aniqlanmagan, Kadam gohi O‘rta asrlar, Shaxsiy Rumiyotatepa O‘rta asrlar,

Tali Arabxona O'рта asrlar, Abu Xavs-Sigir-Safkardogitepa O'рта asrlar, Rabotioxun tepa IV — XII asrlar, Sultan Sheyxali Bobotepa IV — XII asrlar, Shexantepa IV — VIII asrlar, Xodja Saidi Vakkos Valitepa IV — XVIII asrlar, Xodja Abdullox Sefetmuytepa IV-V asrlar, Akrobattepa Ilk O'рта asrlar, Dexchatepa yili aniqlanmagan, Xodja G'aibtepa O'рта asrlar, Aniqlanmagantepa IV-V asrlar, Midjonatepa O'рта asrlar, Childuxtarontepa O'рта asrlar, Do'rmontepa IV — VIII asrlar, Zirabodtepa IV — VIII asrlar, Tali Asbobotepa yili aniqlanmagan, Xodja Alloxiddintepa IV-V asrlar, Xodja Umar Perontepa XVI-XVII asrlar, Gulabiontepa Ilk O'рта asrlar, G'aribontepa Ilk O'рта asrlar, Xodja Arabshotepa O'рта asrlar, Xodja Zaynil Obidin Bemortepa IV — XIX asrlar, Navxos Atotepa IV — XIX asrlar, Shanbatepa IV — XIII asrlar, Xumintepa XI-XII asrlar, Kesaktepa IV — XIII asrlar, Bobo Shakar dexkantepa IV — XVII asrlar, Hazrat Qizbibitepa XIII — XIX asrlar, Childuxtoron Ilk O'рта asrlar, G'aibota avliyotepa XVI-XVII asrlar, Xo'ja Koniddintepa XII-XIII asrlar, Hazrati Eshon Kabudpushtepa IV — XII asrlar, Xo'ja Ismoiltepa VI — XII asrlar, Labi Denavtepa VI — VIII asrlar, Said Ato Xo'ja Varrontepa VI — XIII asrlar, Turkilitepa VI — VIII asrlar, Xo'ja Marzitepa VI — XIII qishlog'i, Dogduztepa IV — XIII asrlar, G'aribontepa yili aniqlanmagan, Kangavtepa X — XII asrlar, Xo'ja Bozortepa IV — XIII asrlar, Xuja Bichasttepa VI — XII asrlar, Nufortepa VI — XIII asrlar, Tali Sho'rabodtepa VI — XIII asrlar, Shaxli bobo avliyo VI — XIII asrlar, Hazrati bobo Sangreztepa VI — XIII asrlar, Axmadi Parontepa IX — XIII asrlar, Zargartepa 1 XI-XII asrlar, Zargartepa 2 XI-XII asrlar, Talipochtepa X — XII asrlar, Tali Zamuchatepa yili aniqlanmagan, Xuja mir Faraket V — XII asrlar, Ko'rtepa IV- XII asrlar qurilgan tepaliklar kiradi.

Shuningdek, Chor Bakr majmuasi: Maktab (Chor Bakr majmuasi) XVIII asr, Hammom (Chor Bakr majmuasi) XVIII asr, Tahoratxona (Chor Bakr majmuasi) XVIII asr, Sadilloxoja xazirasi (Chor Bakr majmuasi) XVIII asr, Atoulloxoja xazirasi (Chor Bakr majmuasi) XVIII asr, Akobirxoja xazirasi (Chor Bakr majmuasi) XVIII asr, Nasriddinxoja xazira (Chor Bakr majmuasi) XVI — XVIII asrlar, Nomi aniqlanmagan xazira (Chor Bakr majmuasi) XVIII asr, Nomi aniqlanmagan xazira (Chor Bakr majmuasi), XVIII asr, Darvozaxona miyona (Chor Bakr majmuasi) XVII asr, Sultanoyim xazirasi (Chor Bakr majmuasi) XVIII asr, Childuxtaron binosi (Chor Bakr majmuasi) XVII asr, Xoja Kalon xazirasi (Chor Bakr majmuasi) XVI asr, Nomi aniqlanmagan xazira (Chor Bakr majmuasi) XVIII asr, Nomi aniqlanmagan xazira (Chor Bakr majmuasi) XVIII asr, Nomi aniqlanmagan xazira (Chor Bakr majmuasi) XVIII asr, Darvozaxona (Chor Bakr majmuasi) XVIII asr, Chillaxona (Chor Bakr majmuasi) XVIII asr, Abu Sa'id xazirasi (Chor Bakr majmuasi) XVI asr, Nomi aniqlanmagan xazira (Chor Bakr majmuasi) XVIII asr, Janubi darvozaxona (Chor Bakr majmuasi) XVI asr, Honako masjidi (Chor Bakr majmuasi) XVI asr, Madrasa (Chor Bakr

majmuasi) XVI asr, Masjid (Chor Bakr majmuasi) XVI asr, Minora (Chor Bakr majmuasi) XX asr, Tashqi hovuz (Chor Bakr majmuasi) XX asr, Ichki hovuz (Chor Bakr majmuasi) XXI asr, Ichki hovli (Chor Bakr majmuasi) 2000-yil, Janubi darvozaxona(Chor Bakr majmuasi) 2000-yil, Minora masjidini XVIII asr, Tagitut masjidini XIX asr, Tosh masjid XIX asr, Hazrati Bobo masjidini XVIII asr, Xo‘ja Rabot masjidini yili aniqlanmagan, Xo‘ja Chaqmor masjidini XVI asr, Qavola masjidini XIX asrlarda barpo etilgan majmualar kiradi.

Moddiy- madaniy merosning milliy ro‘yxatiga quyidagi ob‘ektlar ham kiradi: 2-Passaj binosi XIX asr, 1-Passaj binosi 1903 -yil, Mullo Payravi chillaxonasi XIX asr, Sardoba Eshoni Imlo XVIII asr, Eski maktab XVIII asr, Eski Bank binosi XIX asr, Viloyat harbiy qo‘mita binosi XIX asr, Spiddan saqlanish kasalxonasi 1-binosi 1913-yil, Spiddan saqlanish kasalxonasi 2-binosi 1913- yil, Buxoro shahar elektr tarmoqlari binosi 1937-yil, 6-sonli maktab binosi 1927- yil, 1-sonli dorixona binosi 1887- yil, Ichki ishlar idorasi binosi 1932-yil, Buxoro viloyat kasalxonasi 1-2-3-4-5-6-7-8-9-10-binolari 1924-yil, Buxoro viloyat norkalogiya dispanseri binosi 1924- yil, Ichki ishlar boshqarmasi binosi 1932 yil, Olimlar-uyi binosi XX asr, Cherkov binosi XIX asr, Axborot markazi binosi XIX asr, suv quvuri minorasi XX asr, S.Ayniy teatri XX asr, Xoja Ismat xazirasi 2006-yil, Hazrat Abu Xavzi Kabir xazirasi X — XX asrlar, Sallaxona (maktab) XIX asrlarda qurilgan inshootlar kiradi.

Tayanch so‘z va iboralar: masjid, minora, maqbara, tarixiy-me‘moriy majmua, hovuz, sardoba, hammom, qal‘a, devor, darvoza, madrasa, toq, bozor, karvonsaroy, ansambl, saroy, turar joylar, qadamjo

Savol va topshiriqlar:

- 1.Me‘moriy obidalari so‘zining ma‘nosi nima?
- 2.Buxorodagi me‘moriy obidalarini sanab bering.
- 3.Buxoro me‘moriy obidalari fanining ob‘yektiga nimalar kiradi?
- 4.Buxoro me‘moriy obidalari tarixi fanining maqsadi haqida ma‘lumot bering?
- 5.Buxoro me‘moriy obidalari tarixini qaysi kitoblar orqali organishimiz mumkin?

Manba va adabiyotlar

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Форс-тожик тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1966. Б–120.
2. Бобожонов Ш. Шариф шаҳар ёдгорликлари (Бухоро тарихий обидаларига саёҳат). Бухоро. “Бухоро”. 2017. Б-184.
3. Бухоро шарқ дурдонаси. Тошкент. “Шарқ”.1997. Б-207
4. Сухарева О.К. Бухара XIX – начало XX в. – Москва: Наука, 1966. С– 327.
5. Наимов Н. Бухоройи Шарий. Holy Bukhoro (тарихий очерклар). Бухоро.1997.

2-MAVZU: BUXORO VOHASIDAGI QADIMIY QAL'A QO'RG'ONLAR TARIXI.

2.1. Poykent – savdogarlar, bahorilar va yaltiroq matolar shahri.

Buxoro vohasining eng qadimgi shaharlaridan biri, tarixiy manbalarda «Madina-al-tujjor», «Savdogarlar shahri» deb ta'riflangan qadimgi Poykent So'g'diyonaning janubiy-g'arbiy chegarasidagi shahar bo'lgan.

Shaharning paydo bo'lishi, moziyning uzoq o'tmishlariga borib taqaladi. X asrda yashab o'tgan tarixchi Muhammad Narshaxiy Buxoro tarixi asarida "Poykent Buxorodan qadimiyroqdir", deb yozib qoldirgan. Buyuk Ipak yo'lida joylashgani, qulay geografik imkoniyatga egaligi bois, shahar xalqaro tranzit savdoda ishtirok qilishini e'tiborga olib, Narshaxiy quyidagi fikrlarni: "Baykand aholisi hammasi savdogar bo'lgan. Ular Xitoy bilan va dengiz (orqali boriladigan) mamlakatlar va hattoki Janubiy dengizlarda ham suzib savdo qilganlar va juda boy bo'lganlar", deb yozib qoldirgan.

Mashhur «Shohnoma» kitobida, Firdavsiy afsonaviy ohanglarda Poykentning bunyod etilishiga to'xtalib, "Kayxusrav Poykentda olov ibodatxonasini qurdi, devorlariga zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»ni oltin harflar bilan yozdirib qo'ydi", degan satrlarni bitgan. Buyuk ipak yo'li ustida joylashgan bu shaharning ichki qismi o'sha davrda juda katta maydonni egallamagan bo'lsada, Ark, 1-shahriston va 2-shahriston qismlaridan tashkil topib, kuchli mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Bundan tashqari venger olimi Herman Vamberi ham o'zining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" asarida atroflicha bayon etadi. "Ulug' islomning tayanchlari G'arbiy Osiyoda barpo qilinganligidan keyin, arablarning g'olib qo'shinlari buyuk Iskandar yo'li bilan Movarounnahrda kirib keldilar. Ubaydullo ibn Ziyod 672-yilning oxirida eng qadimgi savdo markazi va juda boy poytaxt bo'lgan Baykand shahrini fath qilgan. 705-yildan arablarning Movarounnahrda yurishlarining yangi davri boshlanadi. Qutayba ibn Muslim Poykentga qarshi yurish boshlaydi. Poykent butun Movarounnahrning janubiy-g'arbiy darvozasi bo'lganidan, uni fath etish arablar uchun muhim ahamiyatga ega edi. Qadimgi Poykentda ilm-fan ham o'z davrida yuqori darajada bo'lgan. Fiqh, falsafa va hadisshunoslik sohalarida yetuk olimlar yetishib chiqqan. Poykent arablar istilosigacha va undan keyin ham (garchi turli davrlarda bosqinchilar tomonidan buzilgan bo'lsada) rivojlangan shahar edi. Buyuk ipak yo'lida joylashganligi hamda islom dini kirib kelishi ilm-fan, madaniyatning rivojlanishiga sabab bo'lgan. Shuning uchun ham Poykentdan nafaqat Markaziy Osiyo, balki dunyoga mashhur olimlar yetishib chiqqan hamda o'z davrida jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shishgan.

O'sha davr tarixchilarining yozishlaricha, mudofaa devorlarining tashqarisida 1000 dan 3000 tagacha rabotlari, karvonsaroylari va qasrlari mavjud bo'lgan.

Shaharning ichkarisidagi ayrim yo‘llar va aksariyat yo‘laklar tosh plitalar bilan qoplangan bo‘lib, oqava suvlarini shahar tashqarisiga chiqaruvchi kanalizatsiya va o‘sha davr uchun juda qimmat turadigan ichimlik suvi tarqatadigan suv oqava tizimi barpo etilgan bo‘lgan. Milodiy eraning XII asri o‘rtalariga kelib suvsizlik oqibatida shahar tanazzulga uchragan va vayronaga aylangan. Keyinchalik mahalliy xalq orasida «Shahri vayron» nomini olgan.

XIX asrning II-yarmidan rus tarixchi tadqiqotchilari Qadimgi Poykent shahri xarobalarini o‘rganish bilan qiziqqa boshlagan. 1897-yilda podpolkovnik I.T. Poslavskiy shahar xarobalarini aylanib chiqqan va bu haqda ma’lumotlar yozib qoldirgan. 1913-1914 yillarda arxeolog L.A. Zimin shaharning Somoniylar va Qoraxoniylar davriga mansub bir necha xonalarini ochib o‘rgangan, hamda qiziqarli numizmatika va sopol materiallarini to‘plagan.

1981-yildan e’tiboran hozirgacha bu yerda O‘zbekiston Respublikasi F.A.Arxeologiya Instituti va Rossiya Davlat Ermitaji hamkorligidagi Buxoro arxeologik ekspeditsiyasi o‘z tadqiqotlarini olib borib, shahar hayotining turli davrlariga oid juda ko‘plab ma’lumotlarni yig‘di. Qariyb 10 mingga yaqin noyob arxeologik eksponatlar to‘plandi. Shular asosida Buxoro davlat muzeyi qo‘riqxonasi Qadimgi Poykent tarixi muzeyi tashkil etildi. Muzeyda tariximiz, o‘tmish san’atimiz va hunarmandchiligimizning turli yo‘nalishlarini o‘zida aks ettirgan ajoyib ekspozitsiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Muzeyning ilk o‘rta asrlarni yorituvchi zalida Poykentdan topilgan sopol terrakota-ayol ma’buda haykalchasi namoyishga qo‘yilgan. Bu haykalcha So‘g‘dning janubiy-g‘arbidagi Poykent shahridan topilgan eng qadimgi san’at namunalaridan biri bo‘lib, V- VI asrlarga mansubdir. Ayol ma’buda haykalchasi zardushtiylik an’analarini asosida maxsus qolipda qo‘yilgan bo‘lib, zardushtiylik e’tiqodidagi Anaxita timsoliga o‘xshab ketadi. Ushbu haykalcha bilan birga, muzeyda qariyb shu davrlarga mansub, budda haykalchasining bosh qismi (4,9 sm), qo‘lida pazux-(aso) ushlagan noaniq erkak personaj (ehtimol qadimgi xudolardan biridir, balandligi 10,12 sm) namoyish qilingan. Bu keyingi ikki shakl ham sopol dan ishlangan bo‘lib, maxsus qolipda qo‘yilgan hamda shu usulda tayyorlangan ko‘p sonli mahsulotlardan nusxalar bo‘lsa ajab emas.

Islomgacha bo‘lgan davrda Poykentda ham Varaxsha, Afrosiyob, Panjikent kabi shaharlardagi singari devoriy rasm san’ati mavjud bo‘lgan. U bino ichki bezaklarining ajralmas qismi sanalgan. Poykentdagi devoriy rasmlar yuqorida tilga olingan shaharlardagiga nisbatan kam va aytish mumkinki juda yomon ahvolda topilgan. Bunga sabab yana o‘sha shaharning kam o‘rganilganligi hamda arab istilosi davrida ko‘proq vayronaga uchraganligida deyish mumkin.

Shuningdek muzey ekspozitsiyasidan rangtasvir namunalarining o‘rin olganligini, unda qizil, qora, sariq va jigarrang bo‘yoqlarda ishlangan ajoyib

kompozitsiya qoldiqlarini ham ko‘rish mumkin. Topilgan devoriy surat bo‘laklarida tasvirlar jonli tarzda aks ettirilgan. Masalan ,devoriy suratlardan birida ayol nigohi shunchalik jozibali ta’sirchan aks ettirilganki, tomoshabin unga qaysi tomondan qaraydigan bo‘lsa, go‘yoki nigoh ham unga shu tomondan qarayotgandek bo‘laveradi.

Poykentdan topilgan boshqa bir devoriy rasm bo‘lagida hayvonlar, ya’ni sher bilan bog‘liq sahna aks ettirilganini ilg‘ash mumkin. Bu narsa rangtasvirning o‘sha davrda Varaxsha, Afrosiyob shaharlaridagi singari an’analari asosida yaratilganligini ko‘rsatadi. Biz bilamizki,binokorlikda qadimdan binolar ichkarisini bezash ham ajoyib san’at darajasiga ko‘tarilgan. Muzey zalida devoriy rasmlar qoldiqlari bilan birgalikda islomgacha bo‘lgan davrlarga tegishli xonadonlar ichki interyerlari bezaklari ham namoyish qilingan. Bu bezaklar oddiy loydan maxsus qolipda quyib tayyorlangan. Ularda geometrik, o‘simliksimon va zoomorf ornamentlar tasvirlangan. Misol uchun xonalar va xonadagi jihozlar sufalar, g‘ishtin sandiqlar, ba’zi hollarda otashkadalar burchaklarini bezatishga mo‘ljallangan, kolonnalarni ko‘rsatish mumkin. Ularda to‘rtburchak, romb, aylana elementlari, «trilistnik» - uch o‘simlik yaproqlari, yana o‘sha davr uchun muqaddas hisoblangan tovus tasvirlari aniq va mahorat bilan ishlangan.

Movarounnahr hududiga arablarning kirib kelishi bilan bir qatorda o‘lkaga islom dini kirib kela boshlaydi. X asrga kelib bu yerda dastlabki masjidlar quriladi.

Poykent Arkida katta jome’ masjidi bunyod etilgan. Masjid o‘rni Rossiya Davlat Ermitaji muzeyi ilmiy hodimlari bilan ochib o‘rganilgan. Shuningdek, II-shahriston va janubiy rabot hududlaridan ham kichik mahalla masjidlari topilgan. Ushbu jamoat inshootlari o‘zining katta o‘lchamlari, noodatiy ichqi intereri va ganchkorlik bilan naqshlangan mehrobi mavjudligi bilan ham ajralib turgan. Janubiy rabotning 52-xonasidan topilgan masjid mehrobining tomonlari ganchkori bezak bilan bezatilgan bo‘lgan. Qazishmalar chog‘ida bino polidan, boshqa bir panel tozalab ochildi. Qachonlardir, geometrik va o‘simliksimon naqshlar bilan va shunga mos uyg‘unlikda naqshlari qizil hamda ko‘k ranglarda bo‘yalgan ushbu panel mehrob atrofini o‘rab turgan. Ikki uslubdagi, yirik va mayda o‘ymakorlik mehrob atrofi ikki davrda bezalganligini ko‘rsatib turadi. Ushbu masjid mehrobi dastlabki xulosalarga ko‘ra XI asr ikkinchi yarmiga taalluqli bo‘lib, nafaqat yurtimiz, balki butun dunyodagi eng qadimgi masjid mehroblaridan biri deb, taxmin qilinmoqda.

O‘lkaga islomning kirib kelishi, islomlashtirish bilan bog‘liq ravishda Poykentdagi san’at uslublari va shakllari ham o‘zgara boshlagan. Bu yerga jonli narsalarni tasvirlash madaniyati o‘rniga naqsh san’ati kirib kelgan. Buni shahar binokorligida, kulolchiligida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Movarounnahr zaminida

islomning qaror topishi, ba'zi san'at turlarining ilgarigi taraqqiyotini sekinlashtirgan bo'lsada, lekin batamom yo'qolib ketishiga olib kelmagan.

X-XI asr Poykent kulolchiligida ilgarigi an'analar hali davom etayotganligini ko'rish mumkin. Qadimgi Poykent tarixi muzeyida saqlanayotgan X-XI asrlar kulolchilik mahsulotlarida turli xil hayvonlar va qushlar tasvirlari uchraydi. Ekspozitsiyadagi sopol qolipda hayvonlar mavzusidagi syujet o'yib ishlangan. Qolipning sopol buyumlarni ko'p miqdorda ishlab chiqarishda foydalanilganligini inobatga olinadigan bo'lsa, hali hayvonlar mavzuidagi syujetlar tasviri ommaviy bo'lgan, deb xulosa qilish mumkin. Qolipda yasalgan sopol idish qopqoqlarida ko'proq chumchuq, o'rdak va kabutarlarning tasvirlarini ko'rish mumkin.

Islomlashtirish bilan bog'liq ravishda, badiiy dunyoqarash, san'at uslublari va shakllari ham o'zgarib boshlaganligi ma'lum, ushbu omil ta'sirida Movarounnahr san'atida yangi davr yuzaga kelgan. Bu holat qadimgi Poykent shahrida ham o'z aksini topgan. Tasviriy madaniyat o'rnini egallagan naqsh san'ati ham badiiy hunarmandchilik, ham me'moriy bezashda inshootlarni yetakchilik maqomini olgan.

Afrosiyob, Lashkari Bozor, Samarra, Termiz saroylari X-XI asrlarda monumental ganchkorlik namunalari bilan bezatilganligi ilgaridan ma'lum. Qadimgi Poykentning ko'proq vayronaga uchragani sababli bu xildagi monumental ganchkorlik namunalari yaxlit holda saqlanib qolmagan. Biroq shaharda arxeologik ishlar hali yakuniga yetmaganligini va u uzoq vaqtlar o'rganishlar davom ettirilishini inobatga oladigan bo'lsak kelgusida, albatta, bunday monumental ganchkorlikning yuksak namunalari topilishiga aminmiz.

Poykentda hali biron joyda uchramagan X-XI asrlarga mansub, islomiy va handasaviy mavzular yassi va yupqa bezaklar orqali tasvirlangan ganchkorlik kompozitsiyalari oddiy shaharliklar xonadonlaridan topilgan.

2001-2002-yillardagi arxeologik qazishmalarda Qadimgi Poykent II shahristoni hududida bir xonadon devoriy ganch qoldiqlari ochib olingan va dala sharoitida bu namunalar sintetik polimer PBMA bilan ishlov berilib qadimgi Poykent tarixi muzeyiga olib kelingan. Uzoq davom etgan me'moriy tiklash amaliyotlaridan so'ng ushbu namunalar yaxlit holatga keltirilib muzey ekspozitsiyasiga qo'yilgan.

O'zbek xalqining yuksak madaniyati va san'ati taraqqiyotida xalqimizning o'tmishi, qadimiy ajdodlar, turmush tarzi, voqelikni o'zlashtirish va o'zgartirish, shuningdek, badiiy-estetik dunyoqarashlaridan guvohlik beruvchi qadimgi Poykent shahar qoldiqlarining o'zni juda katta bo'lib bugungi avlod, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2.2. Varaxsha - buxorxudotlar saroyi.

Varaxsha- qadimiy shahar xarobasi. Buxorodan 40 km shimoliy-g'arbda, Dashti Urganji ko'lining qadimgi Rajfandun vohasida joylashgan. Varaxsha

maydoni 9 ga va 10— 20 metrli ulkan tepa shaklida saqlangan. Varaxsha va uning atrofida V.A.Shishkin (1937-1939, 1947-1954) keng ko‘lamda arxeologik tadqiqotlar olib borgan; A.Muhammadjonov (1975—1977), O.V.Obelchenko (1977—79), G.V.Shishkina (1987—1990) ham Varaxshaning ayrim qismlarida qazishmalar olib borishgan. Arxeologik qazishmalardan ma‘lum bo‘lishicha, Varaxsha mil. av. II-asrda bir-biriga tutashgan bir nechta istehkomli qishloqlar tarzida qad ko‘targan. Varaxsha xarobalarining shimoliy-g‘arbida qadimiy qo‘rg‘onlardan birining tashqi devori hamda yarim doira shakldagi burji (ichki sahni 4,5x5 m) kovlab o‘rganilgan. Devor (qalinligi 1,8—1,9 m) xom g‘ishtdan (hajmi 37x41x10 sm) qurilgan. Devor va burjlarida paykonsimon nishon tuynuklari (ichki tomoni 38—40 sm, tashqarisi 75—80 sm, kengligi 20—22 sm) ochilgan. Miloddan avvalgi II-I asrlarda va milodiy I-II asrlarda Varaxsha va uning atrofida madaniy hayot gullagan. III – IV asrlarda Varaxsha tanazzulga uchragan. V-asrda Varaxsha yana tiklanib, Buxoroning qadimgi hukmdorlari-buxorxudotlarnint qarorgohiga aylangan. Shu davrda Varaxsha mustahkam devor bilan o‘ralgan, uning janubiy qismida Ark qurilgan.

VIII—X asrlarda ayniqsa, obod bo‘lgan. Varaxsha va uning atroflari 12 kanal bilan sug‘orilib, Rajfandun vohasidagi eng yirik va markaziy qal‘alardan biriga aylangan. Buxoro va Xorazm oralig‘idagi karvon yo‘li Varaxsha orqali o‘tgan (Istaxriy va Ibn Havqal ma‘lumotlari). Har o‘n besh kunda Varaxshada bir kunlik, yil oxirida 20 kunlik bozor sayli (navro‘zi kasho varzon, ya‘ni dehqonlar yangi yili) o‘tkazilgan (Narshaxiy). Buxorxudotlar qarorgohi qilinishi bilan Varaxsha yirik shaharga aylangan. XI—XIII asrlarda uning hududi eniga 6 km dan ziyod bo‘lgan. XII asrda Varaxsha vohasidagi hayot to‘satdan noma‘lum sabablarga ko‘ra to‘xtab qolgan.

1949-1954-yillarda Varaxsha tarixi va me‘morligi o‘rganildi. Kvadrat shakldagi yirik xom g‘ishtlardan qo‘shminora tarzida o‘rab chiqilgan tagkursi (bal.15 m) larning biriga podsho sapoyi va ikkinchisiga soqchixonali darvozaxona bino qilingan. Arkning sharqiy qismida tomi ravoqsimon gumbaz tarzida yopilgan uzun yo‘laksimon (navkarxona va darvozaxona) xonalar mavjud bo‘lgan. Arkning markazida janubiy tomoni mudofaa devoriga yondoshgan Varaxsha hukmdorining saroyi joylashgan. U Sharqiy (11,5x17 m) va G‘arbiy (6,6x7,25 m) mehmonxona hamda Qizilxona (zal) (8,5x12 m) lardan iborat bo‘lgan.

Saroy g‘arb tomonidan 3 ravoqli ganchkori ustunlar o‘rnatilgan hashamatli peshayvon bilan o‘ralgan. Ayvon ravoqlarining ustunlari va toqilari ganchkori qabartma tasvirlar hamda turli xil girixlar bilan bezatilgan. Saroyning Qizilxona va Sharqiy mehmonxonalari to‘la kavlab ochilgan. Xona devorlari mayda somonli loy suvoq ustidan yupqa ganch suvoq qilinib, devoriy rasmlar qizil, sariq, kulrang, qora, zangori, pushti va jigarrang bo‘yoqlar bilan bezatilgan. Ularda turli xil

manzaralar, fil mingan shahzoda va chokarlarning old va ortdan chovut solgan qoplonlar bilan olishuvi; qayrilib nishonga kamondan o‘q uzayotgan ot ustidagi chavandoz, qanotli tuya shaklidagi oltin taxtda o‘tirgan hukmdor tasvirlangan. Sharqiy mehmonxona devorida tiz cho‘kib, qo‘lida qadah tutgan malika, belida shamshir, bir qo‘lida qisqich ushlagan podshoh, o‘rtada vazasimom otashgohda yonib turgan muqaddas olov-azarxurro, otashgoxdan o‘ngda beliga xanjar taqilgan shahzodaning tiz cho‘kib ibodat qilayotgan tasviri yoki sovut va dubulg‘a kiygan, qo‘llarida nayza, qalqon ushlagan suvoriylarning jang qilayotgan, shuningdek butazor, to‘qay ichidagi ov manzarasi kabi tasvirlar ayniqsa diqqatga sazovordir. Arxeologik topilmalardan aniqlanishicha, janubiy xonalarning ikkinchi qavatidagi xona ganchkori naqshlar bilan bezatilgan ekan. Ko‘plab topilgan qabartma ganchkori naqshlar orasida hovuzda suzib yurgan baliqlar, yelkasidan o‘q yegan arxar, yelib borayotgan jayran, bedanalar, ayol boshli baxt qushi — Humo, hamlaga tayyorlanayotgan ajdarho, taqimiga sadoq bog‘lagan suvoriy hamda ko‘pdan ko‘p ayollarning bosh qismlari uchraydi.

2.3. Vardonze mashhur qal‘a va qo‘rg‘on yodgorligi.

Vardonze-Varzonze, Vardona, Vardanzi-Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi «Qo‘rg‘oni Vardonze» nomi bilan mashhur qal‘a, qo‘rg‘on yodgorlikdir. (VI- XIX asrlar). Qo‘rg‘onning uzunligi 110 m, kengligi 60—70 m, balandligi 45—50 m. Vardonxudotlarning maxsus qarorgohi bo‘lgan.

Rivoyatlarga ko‘ra, Shopurkom (Shopur+kom (ariq)) atamasi sosoniylar shahzodasi Shopur ismidan olingan. Shopur Buxoroga kelib, buxorxudotlar yer olib qasr va qishloq qurdirgan va unga ariq keltirgan. Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida qayd etilishicha, Vardona (Vardonze) katta bir qishloq bo‘lib, muhandizga, katta va mustahkam hisorga ega. U qadim zamonlardan podshohlarning turar joylari bo‘lgan. Vardona Buxoro shahridan qadimiyroq. U yerda haftada bir kun bozor bo‘lib, savdogarlar ko‘p kelar edilar. Narshaxiy bu joydagi matoning sifatiga alohida urg‘u berib, “U yerdan chiqadigan narsa ham yaxshi xil “zandaniychi” bo‘lgan”, deya yozib qoldirgan.

Arablar hujumi arafasida (VIII asr boshida) Vardonze Buxorodan alohida mustaqil podsholik poytaxtiga aylangan. Vardonze hukmdori vardonxudot arablar uchun buxorxudotlardan xavfliroq bo‘lgan. X asrda Vardonze obod shahar edi. Vardonzeda to‘qilgan ka‘bapo‘sh Makkaga olib borilgan.

Yov bosib kelganda qo‘rg‘on aholisi yurtni mardonavor himoya qilgan. Tashqi dushmanlarga bo‘yin egmagan. Turkistonning chegarasida joylashgani bois u muhim qal‘a sanalgan. Bu yerda hunarmandchilik rivojlangan, tanga zarb etilgan. Savdo karvonlari Vardonzeni mo‘ljal olib kelgan. Bozori gavjum bo‘lgan. Afsuski, tabiat injiqliklari, xususan, qum ko‘chkilari, qurg‘oqchilik tufayli gullab-yashnab turgan go‘sha asrlar osha asta-sekin tanazzulga yuz tutgan.

Akademik Ya.G'ulomovning arxeologik va etnografik kuzatishlari Vardonzening XIX asr oxirlarigacha obod savdo hunarmandchilik shaharchasi bo'lib kelganligini ko'rsatadi. XVIII-XX asr boshlarida Vardonze Buxoro amirligining Shofirkon tumani markazi bo'lgan. XVIII- XIX asrlarga kelib Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasidagi ichki nizolardan Vardonze ancha jabrlangan. S.Ayniyning guvohlik berishicha, 1880-yillarda Vardonze va uning atroflarini qattiq shamol natijasida kuchli qum bosadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, Vardonze XX asrning boshida ham obod bo'lib, savdo va hunarmandchilik markazi sifatidagi o'z mavqeini saqlab qoldi.

Vardonze va uning atroflari Buxoro amirligi, qizil askarlar tomonidan tugatilgach, BXSReda boshlangan mujohidlar harakatining asosiy markazlaridan biriga aylandi (1920-1924- yillar). Aholi 1954-yilgacha Vardonze qo'rg'onida yashagan, so'nggi qum bosishdan keyin uni tark etishga majbur bo'lgan. Bugungi kunga kelib Vardonze o'rnida qo'rg'on tepalik mavjud. Qo'rg'onning ustida marmartosh saqlanib qolgan. Hozirgi paytda qo'rg'on atrofi nurab, ancha yemirilib, ayrim joylari o'pirilib ketgan. Bu hududda Qo'rg'oni Vardonze, Ko'hna Vardonze qishloqlari bor. Vardonze davlat tabiat yodgorligi tashkil qilingan.

Vardonze – noyob qo'rg'on. U Buxorodagi boshqa shunday madaniy meros ob'ektlaridan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Qo'rg'on atrofida qadimda dushmandan himoyalaniş maqsadida suv havzasi barpo etilgan. Qal'aga kirish uchun yashirin yerosti yo'llari bo'lgan. Ular hozir ham saqlanib qolgan. Shu yo'l yoki g'orga kirib tepaga qarasangiz, ajdodlarimiz bundan uch ming yil muqaddam beton qorishmalar tayyorlash sir-asrorlarini bilishganiga amin bo'lasiz. Yodgorlikdan topilayotgan osori -atiqalar ham ajdodlarimiz aql-zakovatidan darak beradi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Qal'a hududi 1979- yilda qo'riqxonaga aylantirildi. Yon-atrof saksovulzor-u yulg'unzor bo'lgan. Tustovuq, quyon, tulki va qushlarning ko'plab turi uchragan. "Vardonze qo'rg'oni" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4- oktyabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk ob'ektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan davlat muhofazasiga olingan.

Yodgorlikni ilmiy o'rganish maqsadida bir necha yildan buyon belgilangan tartibda O'zFA Milliy arxeologiya markazi hamda Italiyaning Rim universiteti hamkorligida xalqaro qo'shma arxeologik ekspeditsiya olib borilmoqda. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, birlamchi konservatsiya qilinyapti. Shuningdek, ob'ektni YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritish maqsadida Xalqaro Markaziy Osiyo tadqiqotlar instituti (MITSAI) bilan hamkorlikda ilg'or va yuqori texnologik uskunalardan foydalangan holda nomzodlik hujjatlari tayyorlanmoqda.

2.4.Buxorodagi tepaliklar.

Buxoroda quyidagi tepalar mavjud bo`lgan: Varaxsha, Poykent, Setalaktepa, Xandartepa, Ashur-tepa, Oqsochtepa, Lavandoktepa, Nurtepa, Xo`ja Porso (XII-XIII asr), Qal`ai Mir Arab (XVIII asr), O`rtatepa (Romitan I (II v.do n.e.)), Sekuloh (XII asr), Uchkuloh (XII asr), Kumuchqatortepa, Narchoqtepa, Oyimtepa, Kallontepa, Qo`shtepalik, Shahri vayron, Talli kumux, Talli safed, Vardonze

Tepalik paxsadan ishlangan qadimgi inshootlarning xarobalari va ularni to`ldirgan madaniy qatlamlardan hosil bo`lgan do`nglik bo`lib, arxeologik yodgorliklarning ushbu turi asosan O`rta Osiyo va Yaqin Sharqda ko`proq uchraydi.

O`rta Osiyoda keng tarqalgan tepaliklarning aksariyati Buxoro vohasiga ham to`g`ri keladi. Narshaxiy Poykent qal`a, Romitontepa, Zandanatepa, Varaxshatepa, Vardonze tepaliklarini sanab o`tadi. Shuningdek, Buxoroda yana Gurjon, Vang`ozicha, Bargi, Ag`zun, G`ijduvon, G`ishtiy, Kaptarxona, Malik, Xoja Za`faron, Shikorkent, Jig`achi, Qizil qir, Xirmatihiy, Xoja Porso, Bibi Ma`sumai pok, Urg`un, Shibirtonota, Polvonato tepaliklari hamda Qumsulton, Shovarak, Sardoriy, So`fitikan, Narshax, Bibi Kabudpo`sh, Kumushkent qal`alari kabi bir qator qal`a tepaliklar mavjud bo`lgan.

Buxoro shahri va uning atroflarida bugungi kunda tepaliklarga aylanib qolgan 500 dan ortiq qadimgi va o`rta asr qal`a, qo`rg`on va shahar xarobalari mavjud. Birgina Poykent qal`asining atrofida yuzdan ortiq rabotlar tilsimsiz tepaliklarga aylanib qolgan.

Hozirda saqlangan tepaliklar XIV asrdan keyingi geografik o`zgarishlardan keyin yuz ko`rsatgan joylar bo`lib, ularning o`rni IV asrdan to XIX asrgacha qal`a, rabot, ko`shk, diza, qo`rg`onlar bo`lgan. Buxoro va o`zga hududlarda suv tanqisligi, ariqlarning kamsuv bo`lganligi sabab, aholi qal`a, qo`rg`on, dizalarni tashlab pastga tushgan hamda qishloqlar bunyod eta boshlagan. Bugungi Org`un, O`rg`un, Metanrabot, Siyozpoyon, Siyozbolo qishloqlari Ag`zun qal`aning farzandlari bo`lsa, Orjon, Gurjon, Orifon, Hinduvon, Dabusiya qishloqlari esa Gurjon tepaligi tuhfasidir. Vobkent tomonidagi bir qator qishloqlar Narshaxqal`a sabab paydo bo`lgan aholi manzilgohlari hisoblanadi. Doimiy ravishda qo`rg`on, rabot, dizadan chiqqan aholi qal`a nomini o`zi bilan birga olib ketgan.

Sersuv Zarafshon daryosining irmog`lari o`zanini o`zgartirgach, Azg`unqal`ani aholi tark etadi. Bugun katta qabriston maqomini olgan aholi yashash maskanida masjid, madrasa, turli hunarmandchilik do`konlari bo`lgan. Uning bag`ridagi odamlar avlod-avlod bo`lib suvloqlarga ko`chib o`tadilar. U yerda maskan tutib, o`rnashgan joylari nomini Ag`zunga aylantiradilar. Narshaxqal`a va Gurjonqal`ada ham Zarafshon daryosi suvi kamaygach

qal'adagilar oqar ariqlar bo'ylariga tushib ketib, makon tutadilar. Qadimiy qal'alar o'rni esa Amir Temur ko'rsatmasi asosida qabristonlarga aylana boshlanadi.

Buxoro tepaliklari orasida Romitan qal'asi eng qadimiy qal'alar sirasiga kiradi. Tarixchilarning Poykent bilan Romitan qal'alarini Afrosiyob bir vaqtda tiklagan degan fikrlari tarixiy manbalarda uchraydi. Poykent arab istilochilari tomonidan yer bilan tekislangan bo'lsada, ammo Romitan taqdirida bunday bo'lmagan. Ayrim qariyalarning ma'lumotlariga qaraganda, Romitan qal'asida 1960-yilgacha aholi yashagan ekan. Qo'rg'onida yashagan kishilarning hikoya qilishicha, tepalikda bir vaqtlar shuncha ko'p aholi yashaganki, hatto Qo'rg'onning u tomonidan bu tomonigacha mushuklar tomma-tom bemalol yurishgan.

Buxoro vohasi qadimiy qal'a qo'rg'onlari, tepaliklari bir qator sayyoh va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, arab muarrix Mutaxxar Ibni Toxiri Muqaddasi X asrdayoq Zarafshon vodiysi oqimlaridagi yuzlab tepaliklarni shaxsan o'zi tadqiq etib, 961- yilda "Kitob ul bad vat-tarix" nomli asarida bayon etadi. Unda Buxoro vohasini "Ming shaharlar mamlakati" deb ataydi. Haqiqatan ham, vohadagi har bir tepalik shahriston, qal'a va devorlar bilan o'rab olingan mustahkam mudofaa qo'rg'onlardan iborat bo'lgan. Ana shunday mukammal ihotalangan qadimiy qal'alar sifatida Xurmetan, Qalayi Mugjin, Qo'rg'on Romitanlarni misol keltirish mumkin. Somoniylar saroyida vazirlik lavozimida ishlagan Abu Ali Muhammad ibn Muhammadi Bal'amiy, muarrix Abu Abdulla Muhammad Ahmad ibn Sulaymon Buxoriy hamda XI asr tarixchisi Xo'ja G'unjorilar ham Buxoroning ming yillik tarixga ega ko'hna qal'a qo'rg'onlari haqida o'z asarlarida ma'lumotlar keltiradi. Shuningdek, X asrda yashagan Eron muarrix Abu Ja'far ibni Chaririy Tabari "Tarix ar-rusul val muluk" nomli asarini arab tilidan tojik tiliga tarjima qiladi. "Tarixi Tabari" nomi bilan shuhrat topgan uch jildli bu asarda Xurmeton, Romiton tepaliklari tarixi bir muncha tilga olinadi.

Tepaliklar orasida Qo'rg'on Romitan tarixi deyarli barcha muarrixlar asarlarida uchrashi uning o'tmishda muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Qo'rg'on haqida shunday ma'lumotlarni o'qish mumkin: "Bu katta bir quhandizga ega va mustahkam bir qishloq bo'lib, Buxorodan qadimiyroqdir. Ba'zi kitoblarda bu qishloqni Buxoro deb ataganlar. Bu qishloq qadim vaqtlarda podshohlarning turar joylari bo'lgan, Buxoro shahari bino bo'lgandan keyin, podshohlar qish faslidagina bu qishloqda turadigan bo'lganlar. Bu yerlar islom davlatiga o'tganda ham shunday bo'lib turgan. Marhum Abu Muslim Buxoroga kelganida shu qishloqda turgan".

Vatanparvarlik, tarixni sevish, ajdodlarga hurmat ruhi jo'sh urgan jasoratli xalqimiz o'z tarixini asrab qolish ishida birinchi jonbozlik ko'rsatgan edi, albatta.

Tayanch so'z va iboralar: qal'a, qo'rg'on, saroy, voha, savdogar, Poykent, Varaxsha, Vardonze, yodgorlik.

Savol va topshiriqlar

1. Buxoro vohasidagi qadimiy qal'a va qo'rg'onlarni sanab bering?
2. Tarixiy manbalarda Poykentga qanday ta'rif berilgan?
3. Buxorxudotlar saroyi bo'lgan Varaxsha qayerda joylashgan?
4. Mashhur qal'a va qo'rg'on yodgorligi bo'lgan Vardonze haqida ma'lumot bering.
5. S. Ayniy Vardonze haqida qanday fikrlarni bildiradi?

Manba va adabiyotlar.

1. Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахийнинг “Бухоро тарихи”. Форс-тожик тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1966. Б–120.
2. Бобожонов Ш. Шариф шаҳар ёдгорликлари (Бухоро тарихий обидаларига саёҳат). Бухоро. “Бухоро”. 2017. Б-184.
3. Бухоро шарқ дурдонаси. Т., “Шарқ”.1997. Б-207
4. Жумаев Қ. Пайкенд қадимги шаҳар. // Бухоронома. 2012 йил, 7 июль. № 53
5. Херман Вамбери. Бухоро ёхуд Моварауннахр тарихи. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1990. Б– 96.

3-MAVZU: BUXORONING SUV TA'MINOTI VA GIDROTEXNIK INSHOOTLARI

3.1. Rudizar yoxud Oltinariq

Qadim Buxoroni suv manbai bilan ta'minlagan mashhur Rudizar ming yillar davomida tarix va tabiat sinovlaridan omon qilib, bugunga qadar buxoroliklarning obihayot timsoli bo'lib kelmoqda. "Shahr-rud", "Shahar arig'i", "Shohrud", "Shoh ariq", "Zari rud" nomlari bilan mashhur bo'lgan inshootning paydo bo'lishi va boy tarixi ko'pchilik uchun muhim va qiziqarlidir.

Shaharning shakllanishi va taraqqiy etishida esa daryo o'zanlarining biri Shohrud arig'i muhim rol o'ynagan. Arxeologik izlanishlarning dalolat berishicha, shaharning hozirgi kichik relefidan daryo shohobchasining yo'nalishini bilib olish mumkin. U Buxoroning eski qismining markazida bo'lgan. Shohrud o'rta asrlarda yaratilgan yozma manbalarda "Rudi zar" ya'ni "Oltin ariq" yoki "Ro'di zar" – "oltin tashuvchi daryo" nomlari bilan atalgan. Narshaxiy esa Buxoro va uning atrofida o'n ikkita anhor bo'lib, ularning o'n ikkinchisini Rudi Zar deydidar. Bu shaharni sug'oruvchi anhoridir. Sersuv bo'lgan bu daryoni xalq qo'llari bilan qazib chiqargan, deb yozadi. Mazkur ariq Buxoro paydo bo'lgunga qadar hozirgi Ulug'bek va Abdulazizxon madrasalari, Toqi Zargaron, Mir Arab madrasasi, Minorai Kalon va Masjidi Kalon hududlaridan oqib o'tgan. Shuningdek, Zarirudning ikki sohili bo'ylab shahar shakllana borib, avvalo, uch manzilgoh paydo bo'lgan. Ulardan biri daryoning o'ng sohilida hozirgi Ark qo'rg'oni, qolgan ikkitasi Poyi Kalon ansambli va o'rta asr shahristoni hududlaridir.

Mahdimiyning bayon etishicha, Rudi zar suvi Kalobod hududi tomonidan shaharga kirgan. Mazkur hududda yog'ochdan to'g'on qilingan. Yoz mavsumida suv sathi ko'tarilib, to'g'ondagi yog'ochnlar birma-bir olinib, daryo suvi sharsharalar orqali Poykentga qarab oqqan. Suv yo'nalishining Qorako'l hududiga qaratilganligiga sabab shaharning suv bosishi oldini olishdan iborat edi. Shuningdek, viqorli daryoning shaharga kirish va undan chiqadigan joylarini boshqarish uchun murakkab gidrotexnika inshootlari o'rnatilgan. Daryo shaharning Mozori sharif darvozasi (hozirgi Yuridik kolleji hududlari) orqali kirar ekan, Talipoch darvozasi (hozirda Dehqon bozori yonidagi shahar devorida joylashgan) orqali oqib chiqqan. Ma'lumotlardan shuni narsa a'yon bo'ladiki, Shohrud shaharning qadimiy qismini sharqdan g'arbga tomon kesib o'tadi.

Asrlar osha Buxoro xalqiga beminnat xizmat qilgan zar ariq bora-bora tubida 10-12 metr suv loylari cho'kib qola boshlashi, Zarafshon suvining boshqa hududlarga ko'plab oqib ketishi oqibatida o'z ahamiyatini yo'qotadi. Qadimiy kanal ichida loy uyumlari to'planib qolgan.

3.2. Hovuzlar-obihayot manbai.

Buxorodagi hovuzlar ilgari aholini suv bilan ta'minlashda muhim manba bo'lgan. Masalan, birgina Labihovuzdan saksonta meshkob suv olib, xonadonlar, choyxona, karvonsaroylarni obihayot bilan ta'minlab turgan.

Hovuzlarga suv Shohrud arig'i orqali oqib kelgan. Bunda usti g'ishtlar bilan yopilgan tazarlar, ya'ni er osti kanallari juda qo'l kelgan. Hovuzlar atrofi marmar toshlar bilan bezatilib, zinalar hosil qilingan. Zinalarning pishiq, mustahkam bo'lishi uchun toshlar osti va orasiga tut yog'ochi qo'yilgan. Hovuz sathini begona o't qoplamasligi uchun ham zarur choralar ko'rilgan. Yana bir e'tiborli jihati, qayerda mahobatli imoratlar tiklangan bo'lsa, unga yaqin joyda, albatta, hovuz barpo etilgan. Negaki, hovuz va uning atrofida o'stirilgan tut hamda gujumlar yer osti sizot suvlarining yuqoriga ko'tarilishiga g'ov bo'lgan, madrasa-yu masjidlar poydevorini zaxdan himoya qilgan. Ularning shahar iqlimini mo'tadil saqlashdagi beminnat "xizmati"ni-ku aytmay qo'ya qolaylik...

Qadimiy hovuzlar atrofi hozir ham yozning issig'ida shahar aholisi, sayyohlar uchun eng so'lim, diltortar maskan bo'lib xizmat qilmoqda. Labihovuz, Bolohovuz, Sitorai Mohi Xossa muzeyidagi hovuz ana shular jumlasidan.

Buxoro hovuzlari XX asr boshlarigacha Buxoro aholisini suv bilan ta'minlab kelgan suv manbalari bo'lgan. Buxoro aholisining suv bilan ta'minlanishi qiyin ahvolda edi. Buxoroliklar asosan hovuz suvlaridan foydalanishgan. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoroda 100 tacha, uning atrofida 250 ga yaqin hovuz bo'lgan. Hovuzi Devonbegi, Hovuzi Rashid, Hovuzi Xo'ja Zayniddin, Labi hovuz va Bolo hovuzlari Buxoroda mashhur bo'lgan. Shahar hovuzlarining atrofi marmar yoki yo'nilgan toshlar bilan ishlangan. Eshoni Imlo va Xalifa Xudaydod hovuzlari ustiga sardoba qurilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, yoz oylarida Zarafshon daryosining suvi Buxorogacha yetib bormaganligidan aholi hovuz suvi bilan ta'minlangan. Buxoro hovuzlari yozda ikki haftada bir marta suv bilan to'ldirilgan. Ba'zi yillari hovuz suvi o'zgartirilmay, aholi o'rtasida turli kasalliklarning, ayniqsa rishta kasalligining tarqalishiga sabab bo'lgan. Buxoro amirligining devonxonasi, madrasa, karvon saroy, bozorlar, choyxona, boy xonadonlarini meshkoblar hovuz suvi bilan ta'minlab turganlar. Masalan birgina Devonbegi hovuzidan 80 ta meshkobchi suv tashigan.

Qadimgi Buxoroning suv ta'minoti tizimi irrigatsion tarmoqlarga (ariqlarga) asoslangan bo'lib, faqatgina eski shahriston (Ark va uning orqa tomoni) ariqlardan sug'orilmagan. Shahristonning shaharga nisbatan balandroq bo'lganligi sababli Shohrud (qadimda Zarirud) arig'ining suvi shahristonga chiqmagan. Shu sababli shahristonda o'simliklar va daraxtlar mavjud bo'lmagan. Shahriston aholisi esa quduqlardan foydalanishgan. Faqatgina shahristonning shimoliy qismida joylashgan Qozikalon hovuzi va shahristonning sharqiy qismidagi Xojakalon

hovuzlari bundan mustasno bo'lgan. Ammo, bu hovuzlarning qurilishi uchun yer ostidan ariq o'tkazib, hovuzni ko'cha sadhidan 8-10 metr chuqurroq qazishga to'g'ri kelgan.

Qadimgi Buxoroda XX asrning 20-yillarigacha 114 hovuz bo'lib, hovuzlarga suv asosan Shohrud (shoh arig'i) orqali kelib tushgan. Shahar atrofini sug'orishni mirob nazorat qilgan. Shahar atrofini sug'orishda Laylak, Foshin, Bog'idasht, Zarminoq, Gulobiyon, Qalandarxona, Amirobod, Jonmurod va shu kabi o'ndan ziyod ariqlardan foydalanilgan. Ariqdagi suvlar shahar ostonasiga yetib kelgandan keyin ularni endi mirob emas xalifa, rais o'rinbosari boshqargan. U rais kabi shahar obodonchiligini, bozorlarni, ustaxonalarni kuzatgan va suv ta'minotini nazorat qilgan. Suv hovuzlarga kelgandan keyin maxsus odamlar, meshkoblar (suv tashuvchilar) o'zlarining charm meshlarida hovuzdan suv olib uyma-uy tashib berishgan va shuning evaziga kichik maosh olib tirikchilik qilishgan. Har bir guzarda o'zining hovuzi va meshkoblari bo'lgan. Hovuzlarning usti ochiq bo'lib har bir hovuzga xalifa tomonidan tayinlangan odamlar bo'lgan va ular hovuzdagi suvning tozaligi uchun javobgar bo'lgan. Qadimda Buxoroda quyidagi hovuzlar mavjud bo'lgan: Qadimgi G'oziyon hovuzi, qadimgi Kosagaron hovuzi, qadimgi Nodir Devonbegi hovuzi (Labi hovuz), qadimgi Oybinoq hovuzi, qadimgi Mulloxon Hoji Hasan hovuzi, qadimgi Qozi Hijobon hovuzi, qadimgi Xo'ja Bulg'or hovuzi.

Labi hovuz Buxoroning eng taniqli va mashhur joylaridan biri hisoblanadi. Qadimda ham (1620-yillarda) xuddi hozirgi kabi Labi Hovuz majmuasi Buxoro jamoatchiligining sergavjum markazlaridan bo'lib, maydonda kichik savdo maydonchalari, go'zallik koshonalari, umumiy ovqatlanish va dam olib, hordiq chiqarish nuqtalari, hammomlar qizg'in faoliyat yuritgan. Dastavval bozor maydoni bo'lgan xolos. Keyinchalik maydon o'rtasidan sun'iy hovuz qazdirilgan. Atroflari sinchlar bilan mustahkamlangan.

Buxorodagi eng katta hovuzlardan biri bo'lgan Labi hovuz 1620-yilda Buxoro xoni Imomqulixonning bosh vaziri Nodir Devonbegi tomonidan qurilgan. O'lchamlari: uzunligi 42 metr, kengligi 36 metr, chuqurligi 5 metr bo'lgan. Bu hovuzning qurilish dasturi Nodir Devonbegi tomonidan taklif etilgan. Mazkur hovuz va boshqa 200 ta hovuzlar shahar aholisini suv bilan ta'minlash uchun suv zahirasi sifatida qurilgan. Toza saqlangan hovuz suvidan asosan ichimlik suvi sifatida foydalanilgan.

Shahardagi ikkita hovuzning usti yirik gumbaz bilan yopilgan bo'lib, bu hovuzlarga yer osti suvlari va bahor mavsumida keladigan yomg'ir suvlari jamlangan. Ulardan biri Xalifa Xudoydot hovuzi, ikkinchisi esa Eshoni Imlo xonaqosi oldida joylashgan hovuzdir. Bulardan tashqari qator chashmalar bo'lib, ular suvlarining shifobaxshligi bilan mashhur bo'lgan. Ana shunday

chashmalardan shahar ichkarisida Xo‘ja Nurobod, Chashma-Ayub, shahar tashqarisida Xo‘ja Ishoq va Hazrati Imom chashmalaridir.

Buxorodagi eng qadimiy hovuz bo‘yiga qurilgan Xo‘ja Mahmud Zayniddin masjidi uylar zich joylashgan eski mahalla ichida joylashgandir. Xo‘ja Zayniddin hovuzning qirg‘oqlari marmar bilan qoplangan, suvga zina bilan tushiladigan joyida ajdaho ko‘rinishdagi suv quyg‘ich bor. Masjid murakkab naqsh va epigrafika bilan ulkan gumbaz, tashqari qismining janubi-sharqiy tomoni ochiq ayvonlar bilan bezatilgan.

Tarixiy manbalarda aytilishicha, masjid Xo‘ja Zayniddin hazratlarining tashabbusi bilan XV asrda qurilgan. Xo‘ja Mahmud Zayniddin kubraviya-zayniya tariqatining Buxorodagi peshvolaridan bo‘lgan. Uning asli kelib chiqishi Xorazmdan bo‘lib, Buxoroda qozikalon lavozimini ishlagan. Masjid Abdulaziz ibn Ubaydulloxon davrida ta‘mirlangan. Keyingi ta‘mirlash ishlari 1904-yili Ahadxon bin Muzaffarxon (1885–1910) buyrug‘i bilan amalga oshirilib, masjid hovlisida katta hovuz qurdirilgan.

Xo‘ja Zayniddin yashagan mahalla guzari Paykondiyon yoki Imom Buxoriy mahallasi deb atalib, mahalla ilm-u fan ahllari bilan mashhur bo‘lgan. Masjid qurilishi paytida hovuzning tuprog‘i loy qilinib, masjid yonidagi xumdonda g‘isht pishirilib, bino barpo etilgan. Shu davrda Mir Arab madrasasi ham qurilgan, o‘shanda Miri Arab (Abdulloxon Yamaniy) da‘vo qilib, hovuzning zahi madrasaga ta‘sir etishi mumkinligini bildirgan. Xo‘ja Zayniddin esa, madrasaga hech qanday zax ta‘sir etmasligini ilmiy jihatdan asoslab bergan ekan...

Bugungi kunga qadar qadimgi Buxoro hovuzlaridan atigi 12 tasi yetib kelgan bo‘lib, ular davlat muhofazasiga olingan. Buxorolik keksalar o‘tgan asrning ellinchi yillarida Labihovuzning suvi quritilib, o‘rni voleybol maydonchasiga aylantirilganini yaxshi eslashadi. Hozir esa eski shaharning qoq markazida bundan 412 yil muqaddam barpo etilgan bu hovuz yonidan sayyohlar qadami uzilmaydi. Bu yerda bunyod etilgan favvoralar, qadimiy tutlar, hovuzda emin-erkin suzib yurgan o‘rdak va g‘ozlar, yon-atrofdagi ajib bir osoyishtalik ko‘ngillarda shukronalik uyg‘otadi. Vaholonki, sho‘ro tuzumi davrida o‘nlab masjidida madrasa, xonaqoh qatori bu hovuzlarga ham eskilik sarqiti sifatida qaralgan, ularning ko‘pchiligi ko‘mib tashlangan, qarovsiz qoldirilgandi.

3.3. Buxoro hammomlari

Ko‘hna Buxoro shahrida hammomlar juda ko‘p bo‘lgan. Hozirgacha ularning yigirmaga yaqini saqlanib qolgan. Arslonxon farmoni bilan Buxoroning Darvoza mahallasi oldida podsholikka xos saroy va hammom qurilgan. Saroy darvozasi oldida “Misli ko‘rilmagan boshqa bir hammom ham solindi”, deb yozgan edi. Buxoroda Toki Sarrafon va Toki Telpak furushonda ikkita katta erkaklar hammomi, Toki Mizgaronda ayollar hammomi bo‘lgan.

Toqi Sarrafon hammomi 500 metr kvadratdan ziyod joyni egallagan bu maskan 1568-yilda Abdullaxon hukmronligi davrida qurilgan. Bozori Korddagi hammom ham mavjud bo'lgan. Uzoq o'tmishda hammom maxsus tayyorlangan shamlar vositasida isitilgan. Qadimda ajdodlarimiz hammomga mo'ljallangan suvni isitish yo'lini bilishgan. Tazar, ya'ni kanalizatsiya quvurlaridan biogaz olishgan va uni maxsus moslama vositasida yoqish orqali suvni isitishgan. Bilamizki, tazarlar qadimda sopoldan tayyorlangan. Mana shu dalillar ham hammomning mo'jiza ekanini, uning o'zi tugul, qurilishi-yu ishlatilishi ham sir – asrorga to'la ekanini ko'rsatadi.

Hammomlar issiqlikni saqlash maqsadida yerni chuqur qazib, deyarli yer ostida, yarim yerto'la tarzida qurilganini ko'rsatadi. Buxoroda XVI asrda qurilgan Misgaron, Sarrafon hammomlari saqlangan. Arxitekturasi bir-biriga juda o'xshash bo'lgan bu hammomlarning yechinish xonasi, choy ichib hordiq chiqariladigan katta (yog'och ustunli) xona, o'rtada asosiy uqalash xonasi, uning atrofida yuviniladigan xonalar bo'lib, ular katta va kichik gumbazlar bilan yopilgan. G'isht, tosh terib ishlangan hovuzak (bak) larda issiq va qaynoq suvlar, xonalar ostidan qaynoq havo bilan isitilgan. Xonalardan xonalarga o'tilgan (xonalar ichkariga tomon tobora isiy borgan). Oqava suvlar uchun ariqchalar qazilgan, xushbo'y moddalar va kul suv (ishqorli suv) uchun mo'ljallangan hovuzchalar sirti suvga chidamli maxsus qorishmalar (qir) bilan qoplangan.

Hammomlar katta bo'lib, bir vaqtning o'zida 50 tagacha mijozni sig'dira olgan. Ularda dam olish xonasi va kiyinish xonasi va oyoq yuvish uchun joy (ular toza oyoq bilan hammomga kirishgan), pol ostidan isitiladigan ulkan samovarlardan issiq va sovuq suv keladigan umumiy hammom bor edi. Samovarlardan cho'zilgan jo'mraklar yordamida suv yig'ilgan. Zaldan havo harorati har xil bo'lgan hammom xonalari chiqib ketgan va ularning ostida stoker, yoqilg'i saqlash uchun shiypon va quduq borgan. Hammomlarning barcha binolari yoki ularning cho'milish zallari va xonalari yarim yer osti bo'lib, bu havo haroratida yoqilg'ini tejash va isrof qilmaslik imkonini bergan. Ishlatilgan suv boshqa quduqqa boradi, u toza suv olingan birinchi quduqdan ancha uzoqroqda bo'lgan va undan ancha chuqurroq edi: toza va nopok suv yer osti suvlarida uchrashmasligi kerak edi.

Bundan yuz yil avval Buxoro shahrida 19 ta hammom ishlagan. Bular quyidagilar: Muhammad poi, Chashmai Ayub, Tukum duzi, Abdulla xodja, Shishaxona, Naqib Obi tosh, Juybor, Goziyon, Gavkushon, Bibi-xalfa, Hammomi Kunjak, Kavush gilon, Sarrafon, Bozori kord, Qozi kalon Hammom poyi oston, Xodja Porso. Hammomning ichkariga kirgan sari, ichki havo harorati ko'tarilgan. 2-xona dam olish o'rtacha haroratli dam olish xonasi, u yerda

odamlar suv va massaj protseduralaridan dam olishgan, sekin suhbatlashib va choy ichdganlar. 3-xona-bu yuvinish va massaj qilish uchun mo'ljallangan katta gumbaz (katta gumbaz deb tarjima qilingan) yoki mion-saroy (o'rta zal deb tarjima qilingan) deb nomlangan markaziy zal bo'lgan. Uning markazida sufa - massajchilar mijozlarni kutayotgan divan, bu eng katta xonaning yon tomonlarida kichik yuvinish xonalari va to'g'ridan to'g'ri eng issiq xona-suv idishi joylashgan garmxona, so'ngra o'rnatilgan. Hunuxona - sovuq xona, sovuq suv ombori bo'lgan xona.

Barcha xonalarning devorlari gidroizolyasiya ohaklari bilan ishlangan. Kanalizatsiya pol ostidan o'tgan va shuningdek, alabaster ohak ustida kuygan g'ishtdan qilingan. Hammomlarda vestibyul, kiyim-kechak xonasi, sovun va massaj xonalari, issiq suvli basseyn va stoker mavjud. Gumbaz va gumbazli xonalarning tizimi xonalarning kichik o'lchamlari tufayli ishonchli va murakkab bo'lmagan.

Hammomi Kunjak, deb nomlangan hammom Majidi Kalonning orqa chap burchagida joylashgan bo'lib, ayollar uchun mo'ljallangandir. Bozori Kordagi hammom Toqi Zargaron tomondan Toqi Telpakfurushonga kirish eshigi oldida va pichoq bozori – Bozori Kord ro'parasida joylashgan. Tarjimom gazetasi "Buxorodan maktub" deb nomlangan maqolada 1897-yili qozi kalonning harakati bilan Guzari Qo'ng'irotda 50 ming rubl sarf etilib bir hammom qurilgani haqida ma'lumotlar berilgan.

Narshaxiyning yozishicha, X asrda Buxoroda bir necha hammom bo'lgan, ulardan eng mashhuri "Hammomxon" (Xon hammomi) bo'lgan. XIX asr o'rtalariga kelib bu yerda allaqachon 16 dan ortiq hammom mavjud bo'lgan.

Shayboniyalar va Ashtarxoniylar sulolalariga mansub bo'lgan Ubaydulloxon (1533-1540 yillar) va Abdulloxon II hukmronlik yillarida Zarafshon daryosi suv ayirg'ichi, suv omborlari va kanallar barpo etilib, poytaxtni suv bilan ta'minlash muammosi to'laligacha yechilganligi natijasida XV-XVI asrlarga kelib Buxoroda aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, jismonan tozalanish uchun barcha sharoitlar yaratilgan, hammomlar va xonadonlardagi tashnovlar oqava suvlarini shahar tashqarisiga chiqarib tashlashning mukammal tizimi vujudga keltirilgan.

XX asr boshlariga kelib Buxoroda yigirmaga yaqin hammom saqlanib qolgan edi. Ayni mahalda Buxoroda qadimiy hammomlardan faqat uchtasi saqlanib qolgan. Bu Buxoroda eng yirik hisoblangan Sarrofon timi yaqinidagi hammom hamda Telpakfurushon timi yonidagi "Bozori kord" va Masjidi Kalonning g'arbiy tomonidagi "Hammomi Kunjak" ayollar hammomidir.

3.4. Sardobalar – suv jamlash inshooti.

Sardoba (fors, tojik, sard-sovuq va ob-suv)-suv tanqis hududlarda uni to'plash va saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuz. Sardobaning devori silindr

shaklida, diam. 12-13 m, chuqurligi 10-15 m, hovuz yuzasi yer sathi bilan bir tekis bo'lgan. Sardoba gumbazi sifatli pishiq g'isht va ganchdan ishlangan, tepasi tuynukli, atroflarida hovuzga suv tushadigan teshiklar qilingan. Kirish uchun sardobaga eshik ham o'rnatilgan, uning oldi suvni toza saqlash maqsadida devor bilan o'ralgan. Sardoba yoniga mollarni sug'oradigan oxur qilinib, unga hovuzdan maxsus tarnov orqali suv oqizilgan. Ba'zi sardobalarda ularni nazorat va tozalab turuvchi miroblar uchun xonalar ham bo'lgan. Sardobalar geografik joylashuvi, joyning tabiati, relefiga ko'ra, bir necha xil qor yomg'ir suvlari, anhor ariq suvlari, yer osti suvlari (korizlardan) yig'iladigan sardobalar ham bo'lgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Movarounnahrda 44 ta sardoba bo'lgan. Ulardan 29 tasi Qarshi cho'lida, 3 tasi Mirzacho'lda, 3 tasi Toshkent bilan Farg'ona o'rtasidagi qadimgi savdo yo'lida, 1 tasi Karmana yaqinida-Cho'li Malikda qurilgan. XIX asr oxirigacha ishlatilgan sardobalardan biri hozirgi Turkmanistondagi Sandiqli cho'lida XVII asr o'rtalarida Kerki va Qarshi shaharlarini bog'lovchi karvon yo'lida qurilgan, hovuzining diam. 17 metr bo'lgan Sangi suvloq sardobasidir. Sardobalar qadimda dasht va cho'llarda chorvani va savdo karvonlarini suv bilan ta'minlashda muhim o'rinda turgan. Hozirda saqlanib qolgan sardobalar tarixiy etnografik ahamiyatga ega. Abdullaxon II hukmronligi davrida Buxoro xonligida ichki va tashqi savdo keng rivojlangan. Karvon yo'llari bo'yida ko'plab inshootlar: karvonsaroylar, rabotlar, sardobalar barpo etilgan, savdo karvonlari xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rilgan.

Me'morchilikning rivojlangan yo'nalishlari savdo-sotiq bilan bog'liq inshootlar qurilishida ham ko'zga tashlanadi. Amirlik poytaxti Buxoroda shaharida ko'plab ixtisoslashgan yopiq bozorlar mavjudligi, shaharda karvonsaroylar sonining muttasil oshib borishi, savdo yo'llari bo'yida rabotlar, sardobalar qurilishi fikrimizning dalilidir. Ular ichida XIX asr o'rtalarida amir Nasrullo tomonidan Buxoro-Qarshi yo'lida qurilgan Kakir sardobani, Raboti Malik, Shoh raboti O'rta Osiyodagi monumental me'moriy yodgorlik hisoblangan.

Qadim Buxoro-Samarqand yo'lining Cho'li Malikdagi yirik chegara va savdo bekatida sardoba bunyod etilgan. Katta karvonsaroy, hozirgi Navoiy shahri yaqinida. Bizgacha uning faqat peshtoq qismi (diametri — 12,6 m.) saqlangan. Janub minorasi (bal. 5,5 m) 1930 yilgacha mavjud bo'lgan. Raboti Malik karvonsaroy vazifasidan tashqari, istehkom, qo'rg'on sifatida ham muhim rol o'ynagan. Rabot katta keng hovli (22,5x22,5 m) va atrofi o'ralgan 2 qavatli xona va hujralardan iborat bo'lib, ularga sopol quvurlar orqali suv o'tkazilgan. Markaziy qismi to'ridagi muhtasham saroy oldi bir qatorli ravoqli ayvon (7,5x13 m) 2 qanotiga joylashgan. 20 ta g'ishtin ustun ishlangan. Unga janubdagi peshtoqli darvoza orqali kirilgan. Atrofi qalin devorlar bilan o'ralgan (janub va shimol bal.2,35 m, g'arb va sharqiy qismi 1,5 m, uz.84—86 m, old devor balandligi 12 m

ga yaqin). Maydonga qaragan janub tarzi o'rtasidagi ulkan peshtoq (bo'yi 18 m, eni 12 m) O'rta Osiyoda eng qadimiy bo'lib, 8 qirrali yulduzlar, turli handasaviy shakllar mavjud. 2 chekkasida burj bo'lib, ular o'zaro baland devor bilan ulangan. Devor o'rtasida piltavor burjlar qatori tepasi kichrayuvchi ravoqlar bilan bog'langan. Devor yuqorisi g'ishtin kufiy xatlar bilan hoshiyalangan.

Burjlar tepasida ravoqli ko'shk bo'lib, undan atrofni kuzatish qulay bo'lgan. Ko'shk ostida ganchdan yasalgan ikki qator yirik sharafa va kufiy xat halqasi ko'zga tashlanadi. Rabot devorlarining o'zagi xom g'ishtdan (28x28x6,5 sm) terilgan, sirti pishiq g'ishtdan (24x24x4 sm) ishlangan. Bezaklari, asosan, g'ishtin, oz miqdorda o'yma ganch naqshlar ham uchraydi. Raboti Malik xarobasi davlat muhofazasiga olingan.

3.4. Buxorodagi "Shuxov suv minorasi" me'moriy yodgorligi.

Minoraning tuzilishini Rossiyaning ensiklopedik bilimli muhandisi deb tan olingan V.G.Shuxov yaratgan. Muhandis Vladimir Shuxovning "To'rsimon dastxat" minorasi bugun yana qayta "jonlandi". 92 yillik tarixga ega suv inshooti tarixiy va hamisha navqiron Buxoroning me'moriy yodgorligi sifatida xizmat ko'rsata boshladi. Buxoroda 1920-yillarda arxitektor shahar aholisini suv bilan ta'minlash uchun qurilgan suv bosimi minorasi endi turistlar tomoshagohiga aylangan, Turizm qo'mitasi xabarida aytilishiga ko'ra, minoraning birinchi qavatida kafe va axborot markazi, ikkinchi qavatida restoran va uchinchi qavatida tomosha maydonchasi barpo etiladi. Minora ustiga chiqish qulay bo'lishi uchun uning yonida kichik lift ham qurilgan.

Minoraning ustki qismi giperboloid shaklida tutashtirilgan yuzlab ingichka temir bo'lalaridan tashkil topgan. Qadim shaharning qoq o'rtasida, hukmdorlar qarorgohi Ark qal'asining darvozasining ro'parasida joylashgan balandligi 33 metrli minora haqiqatdan ham turistlar uchun qiziqarli tomosha maydonchasiga aylanishi mumkin. Minoraning Bolohovuz masjidi orqali ko'rinishi sun'iy suv ombori ekanligidan dalolat beradi. Odatda g'isht bilan qoplangan va ko'pincha shahar maydonlarining markazida joylashgan. Bolohovuz majmuasi va Ark qal'asi o'rtasida yaxshi holatda saqlanib qolgan Buxoro "Shuxov minoralari"dan biri joylashgan. 1920-yillarning oxirlarida Buxoro viloyatida Eski Buxoro suv kanali qurilishi boshlandi.

Muhandis Shuxov tomonidan ishlab chiqilgan to'rtli suv minorasi ushbu tizimning bir qismi bo'ldi. Minora qurilishi uchun montaj mahsulotlari to'plami, ya'ni mazkur inshootning metall konstruksiyasi Moskva mashinasozlik zavodi ishchilari tomonidan tayyorlangan. Tuzilishi jihatidan to'rsimon ko'rinishga ega, markaziy qismida ustun mavjud bo'lib, uning atrofiga zinapoyalar ulangan. Bu inshoot shaharni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida barpo etilgan.

Arxitektor Vladimir Grigorevich Shuxov loyihasi asosida barpo etilgan suv minorasining qurilishi 1927-yilda boshlangan va 1929-yilda yakunlangan.

1970-yillarning birinchi yarmida Buxoro suv ta'minoti takomillashtirildi, Shuxov minorasi o'zining dastlabki funksiyasini yo'qotdi va ma'lum muddat foydalanilmay qoldi. 1975-yilda yong'in natijasida uning yog'och panellari yonib ketgan, suv idishi buzilmagan. Shundan so'ng minora foydalanishni to'xtatdi. 1990-2000-yillarda ushbu tarixiy va madaniy ob'ektdan foydalanishga qaror qilindi, minorada lift o'rnatildi. Bir tadbirkor qadimiy Buxoroga qaragan minora tepasida restoran tashkil qildi. 2019-yildan buyon minoraning yuqori qismi mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun tomosha maydonchasiga aylantirilgan. Hozir restoran yo'q, lift demontaj qilingan. Bir necha yillar davomida Shuxov minorasining qarovsiz qolgan.

Tayanch so'z va iboralar: *hovuz, sardoba, Shuxov minorasi, hammom, Rudizar, ariq, Shohrud arig'i, gidrotexnik inshoot, miroblar, karvonsaroy, rabot, me'morchilik, inshoot, arxitektura.*

Savol va topshiriqlar

1. Rudizar yozma manbalarda qanday nom bilan atalagan?
2. XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi hovuzlarni sanab bering
3. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoroda nechta hovuz bo'lgan?
4. Shohrud arig'i haqida ma'lumot bering?
5. Labihovuz qachon va kim tomonidan barpo etilgan?

Manba va adabiyotlar

1. Абу Бақр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Форс-тожик тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1966. Б–120.
2. Иброҳимов И. Дарё бўйидаги ташналик ёхуд Бухорода археолог-олимлар тайёрлаш муаммолари хусусида. // Бухоро ҳақиқати. 1997.
3. Иброҳимов И. Бухоро ҳовузлари. // Халқ сўзи. 2013 йил, 4 июль. № 129 (5803)-сон.
4. Муҳаммаджонов А. Зарафшон водийсининг сув хўжалиги тарихидан. Т., “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока” ва “Ўзбекистони Сурх” бирлашган нашриёти. 1959.
5. Sodiқ Djurayevich Zaripov. Buxoro vohasi sugorilish tarixiga doir ayrim mulohazalar. Scientific progress volume 2 | issue 1 | 2021 Issn: 2181-1601

4-MAVZU: ARK QAL'ASINING ME'MORIY OBIDA SIFATIDA O'RGANILISHI.

4.1. Ark qal'asining bunyod bo'lish tarixi.

Ark — O'rta Osiyo ko'hna shaharlaridagi hukmdorlar qarorgohi joylashgan qal'aband o'rda. Yozma tarixiy manbalarda „Ko'handiz", "Diz", "Koh", „Qasr", „Qal'a", "Hisor" nomlari bilan ham tilga olinadi. Tabiiy baland tepa yoki maxsus yaratilgan baland do'nglik ustiga qurilib, atrofi baland devor bilan o'ralgan, bir yoki ikki darvozasi bo'lgan. Ark ichida podshoh va amirlarning, amaldor va lashkarboshilarning uy-joylari, davlat devonlari, zarbxona, masjid, sardoba va boshqa binolar bo'lgan. Ko'hna Ark tashqi qal'aband devorlari. ichkaridagi serhasham saroy binolari saqlanib qolgan.

Eng ko'hna madaniy meros ob'yektlaridan biri Ark qal'asi bo'lib u qadimda Buxoro shahrining markazi hisoblangan. Buxoro Arki milodning boshlarida qurila boshlanib, XVI asrda Shayboniylar sulolasi davrida ansambl holiga kelgan.

Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida Buxoro Arkining bino etilishi haqida quyidagi fikrlarni bayon etadi. Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr buning ajoyabotlari haqida to'xtab, shunday deydi: Abu Hasan Nishopuriyning «Xazoin ul-ulum»da aytishicha, Buxoro qo'handizining, ya'ni Buxoro Arki hisorining bino etilishiga mana shu (voqea) sabab bo'lgan: Siyovush ibn Kaykovus o'z otasidan qochib Jayhun daryosidan o'tib, Afrosiyobning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul etdi va o'z qizini unga xotinlikka berib, aytishlaricha, barcha mulkini ham unga topshirdi. Bu viloyat o'ziga vaqtincha berib qo'yilgan joy ekanligi tufayli, Siyovush bu yerda o'zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi. Shunday qilib, u Buxoro hisorini bino qildi va ko'proq vaqt o'sha joyda turar edi. (Kimlardir) u bilan Afrosiyob o'rtasida yomon gap yurgizdi va (natijada) Afrosiyob uni o'ldirdi hamda ana shu hisorda sharqiy darvozadan kiraverishingda «Darvozayi g'uriyon» deb atalgan somonfuruslar darvozasining ichkarisiga dafn etdilar. Shu sababli Buxoro otashparastlari o'sha joyni aziz tutadilar va unga atab har bir erkak kishi har yili navro'z kuni quyosh chiqishidan oldin o'sha joyda bittadan xo'roz so'yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o'ldirilishiga bag'ishlab aytgan marsiyalari bo'lib, u barcha viloyatlarga mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy tuzganlar va qo'shiq qilib aytadilar. Qo'shiqchilar uni «otashparastlar yig'isi» deydilar. Bu gaplar bo'lganiga hozir uch ming yildan ortiqroq vaqt o'tdi. Shunday qilib, mana shu rivoyatga ko'ra bu hisorni Siyovush bino qilgan, ba'zilar esa Afrosiyob bino qilgan deganlar. (So'ng) bu hisor buzilib ketib, ko'p yillar vayronligicha qoldi".

VII asrda Buxoro hokimi Bidun vayrona holiga kelgan Arkni qayta tiklatgan. Bidun Buxorxudot taxtga o'tirganidan keyin, odam yuborib bu hisorni tuzattirdi, undagi qasrni ham u tuzattirdi va o'z nomini temirga yozdirib qasrning eshigiga mahkam o'rnattirdi. Shu xat bitilgan temir tarjimonning zamonigacha o'sha qasr

eshigida mavjud edi. Lekin Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Hisorni vayron qilganlarida u eshikni ham buzib yuborganlar.

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja'far va Abu Hasan Nishopuriy bunday deganlar: Bidun Buxorxudot u qasrni bino qilganida buzilib ketdi, qaytadan bino qilgan edi, yana buzildi. U necha marta bino qilmasin yana vayron bo'laverdi. Hukamolarni yig'ib ulardan maslahat so'radilar. Ular bu qasrni osmondagi etti qaroqchi yulduzlari shaklida yettita tosh ustun ustiga qurishga qaror qildilar; shu shaklda (qurilgandan keyin) qasr buzilmadi. Yana bir ajoyibi shuki, bu qasr bino qilingandan beri bunda hayot kechirgan hech bir podshoh mag'lubiyatga uchragan emas, aksincha, hamisha g'alaba qozongan. Yana bir ajoyibi, bu qasrni bino qilganlaridan beri na kofirlar davrida va na islomiyat davrida — biror podshoh ham uning ichida o'lmagan; podshohning ajali yetgan vaqtda biror sabab yuz berib u qasrdan tashqariga chiqqan va boshqa bir joyda vafot topgan — bu qasr bino qilinganidan to'vayron bo'lgunicha shunday bo'lib kelgan. Xuddi shunday ma'lumotlar, Ark qal'asi to'g'risida birinchi yozuvlar Abu Baxr Narshaxiyning (899-939-yillar) "Buxoro tarixi" kitobida ham uchraydi.

O'sha davrda Ark oldida katta maydon – registon, uning atrofida savdogar va zodagonlarning yuzlab qo'rg'onlari bo'lgan. Hokim va uning qarindoshlari qo'rg'oni yonida asosiy shahar–shahriston joylashgan. Ko'plab me'moriy yodgorliklarni o'zida jamuljam etgan ko'hna Ark qal'asi ko'p asrlar mobaynida amirlikning qarorgohi bo'lib kelgan. Bu yerda amir, uning bosh vazirlari, harbiy boshliqlar, amirning ko'p sonli xizmatchilari yashaganlar. Ark qal'asida hukmdorlar uchun saroy, ko'rinishxona, masjid va turar joy binolari bunyod etilgan.

Ark qal'asi baland mustahkam peshtoq bilan ulug'langan. Registon maydonining salobati hokimiyatning buyukligini ko'rsatgan, uni bosib olish mumkin emaslik belgisini bildirgan. Uning devorlari tevaragida shahriston joylashgan. Shahristonni savdo hunarmandchilik maskani – rabot qurshab turgan.

Ark qal'asida Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Farobiy, Umar Xayyom singari ulug' insonlar yashab ijod qilganlar. Ark to'g'risida Abu Ali ibn Sino quyida keltirilgan fikrni bildirgan: "Men bu yerdagi kutubxonada shunday kitoblarni topdimki, ularni avval ko'rmaganman va umrimda boshqa ko'rmadim ham. Men ularni o'qidim va shundan keyin har bir olimning o'z fani bo'yicha o'rnini angladim. Mening oldimda fanlarning tubidagi shunday eshiklari ochildiki, men ularni tasavvur ham qilolmasdim. Arkdagi kutubxonaning keyingi taqdiri sir bo'lib qolgan. Kutubxona janglardan birida talab ketilgan bo'lsa ajab emas", degan ma'lumotlar bor.

4.2. Ark qarorgohining turli davrlarda o'zgarib borishi.

Ark qarorgohining ikkita darvozasi bor, biri sharq tomonda, biri g'arb tomonda; sharq tomondagisini «Dari g'uriyon», g'arb tomondagisini «Dari Registon» deydilar, tarjimonning davrida keyingisini «Dari alaffurushon» deb ataganlar. Hisorning o'rtasida bu darvozadan to u darvozagacha to'g'ri yo'l bo'lgan. Bu hisor podshohlar, amirlar va askar boshliqlarining turar joylari bo'lib, zindon, podshohlik devonlari va podshohlar turadigan qasr qadimdan shu yerda bo'lgan. Haram saroyi va xazina (ham) shu hisorda bo'lgan. Tarjimonning davrida bu Hisor buzilib ketgan. Bundan bir necha yil ilgari Arslonxon uni yangilashga buyurdi va o'ziga turar joy qilib oldi hamda Hisorni (ma'lum) shartlarga muvofiq idora qilib tursin uchun, ulug' bir amirni kutvol qilib tayinladi. Bu Hisor xalq ko'zida zo'r e'tiborga ega edi.

Besh yuz o'ttiz to'rtinchi yil oylaridan birida (1139yil 28- avgust — 1140 yil 16 avgust) Xorazmshoh Buxoroga kelganida amir Zangi Ali xalifa hamda Sulton Sanjarning farmoni bilan Buxoroning voliyi edi. Xorazmshoh uni qo'lga olib o'ldirdi va Hisorni vayron qildi. Hisor ikki yildan ortiqroq shu vayronligicha qoldi. Besh yuz o'ttiz oltinchi yili (1141yil 6- avgust – 1142 yil 26- iyul) Go'rxon tomonidan Buxoroga voliy qilib tayinlangan Alptegiya o'sha yiliyoq Hisorni obod qilishga buyurdi va uni o'zi uchun turar joy qilib oldi. Hisor ilgarigidan ham yaxshiroq bo'ldi. Besh yuz o'ttiz sakkizinchi yili ramazon oyida (1144 yil 8-mart-6-aprel) g'uz askarlari Buxoroga yetib keldi. Aynuddavla, Qarochabek va Shahob vazirlar Hisorga qamaldilar, ko'p jang va qiyinchiliklardan keyin g'uz askarlari Hisorni olib, Shahob vazirni o'ldirdilar va Hisorni vayron qildilar, Hisor shu vayronligicha qoldi.

Besh yuz oltmishinchi yili (1164 yil -1165 yil 18- noyabr-6- noyabr) Buxoro shahrining aylanasiga devor qurmoqchi bo'ldilar; devorning tagini pishiq g'ishtdan ishlash zarur bo'ldi. Hisorning tagi va minoralari pishiq g'ishtdan edi, uni buzib olib Buxoro shahrining devoriga ishlatdilar. Hisor bir yo'la vayron bo'ldi va u qasrdan hech bir imorat va nishon qolmadi. Olti yuz to'rtinchi yili (1207 yil 28- iyul—1208 yil 15- iyul) Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash Buxoroni olib, Hisorni qaytadan tikladi; xitoyliklar yengildilar. Olti yuz o'n oltinchi yili (1219 yil 19-mart—1220 yil 7-mart) esa tatar lashkari keldi, ularning amiri Chingizxon edi. Ular qal'aning darvozasida o'n ikki kun jang qilib, uni oldilar va vayron qildilar.

4.3. Arki oliy – Buxoro amirlarining qishgi qarorgohi.

Ark qal'asi ko'p yillar muqaddam mahalliy amaldorlarining rasmiy idorasi bo'lgan va mahalliy davlatchilik qudratining naqadar yuksak mavqeda ekanligini namoyon etib kelgan. U 16-20 metr balandlikdan iborat bo'lib, minglab qullarning mutlaqo qo'l mehnati yordamida barpo etilgan. Uning maydoni 4 gektardan iborat.

Buxoroliklar odatda bu qo'rg'onni "Shahar ichidagi shahar" deya atashgan. Binobarin ushbu qo'rg'on ichida xuddi shahardagi kabi ko'p qulayliklar mavjud bo'lgan. Misol uchun katta ko'cha, kichik boshi berk ko'chalar, ma'muriy idora, masjid, qo'li gul hunarmandlarning ustaxonalari, savdo do'konlari, hammomlar, sartaroshxonalar, turganlar ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilgan. Bugungi kunda ham sayyohlar va ziyoratchilar qal'aning zabardast devorlari ustidan bemalol Buxoroning maqtashga arzigulik betakror qiyofasini ko'rib, zavqlanish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Shu qal'a ichida turib sayyoramizda mana shunday mo'jizakor joylar mavjudligini, unda bamisoli vaqt ma'lum bir lahzaga to'xtagandek tuyulib, siz o'zingizni o'sha o'tmish ko'chalariga o'tib qolgandek his qilasiz.

Buxoro amirligida davlat mutlaq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo'lgan amir tomonidan boshqarilar edi. Davlat ahmiyatiga molik bo'lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy va boshqa masalalar Buxorodagi bosh qarorgoh – Arkda ko'rib chiqilgan hamda hal etilgan. Bosh qarorgoh hisoblangan Arkda amir va uning oilasidan tashqari qushbegi, shig'ovul, to'pchiboshi, mirzaboshi kabi saroy amaldorlari o'z oilalari va xizmatkorlari bilan yashagan.

4.4. Ark qal'asi ansambil sifatida o'rganilishi.

Arkning o'zida me'moriy inshootlarning katta bir majmuasi joylashgan, sharqiy qismi hozirda arxeologik yodgorlikdir. Uning tepasiga chiqib qaragan kishiga ko'hna Buxoroning betakror manzarasi kaftdek namoyon bo'ladi. Usta me'morlar Arkni bo'lajak me'morlar uchun darslik deb ataydilar. Ark devorlarida g'isht terilishi, qurilish xomashyolaridan tarixda qanday foydalanilgani yaqqol ko'rinadi.

Ark qal'asi yer ustidagi katta balandlik, u balandligi 20 m cha bo'lgan tepalik ustiga qurilgan. Ark g'arbdan sharqqa cho'zilgan noto'g'ri to'rtburchak shakliga ega. Janubi-sharq burchagi biroz kesilgan. U qadimiy va hamisha navqiron Buxoro shahrining g'arb tomonida joylashgan. Qal'a devorining uzunligi 789,6 m., balandligi 16-20 m., yer maydoni 3,96 ga ni tashkil etadi.

Ark qal'asi bir necha marta ta'mirlangan va qayta qurilgan. Ko'tarila boruvchi yo'l (pandus) orqali arkning g'arb tomonidan ulkan yog'och darvoza (XVI asr) orqali ichkariga kiriladi. Pandusning uzunligi 20 m ni tashkil etadi. Uning ikki yoni massiv toshli piramida bilan o'ralgan.

Ark qal'asi peshtoqining ikki tarafidagi burchaklardagi minorachalar – "guldastalar" konstruksiyasi va ular oralig'idagi uch qavatli bino yaxshi saqlangan. Ark ichkarisiga olib kiradigan uzun dolon – yo'lakning chap devorida 12 ta va o'ng devorida 13 ta taxmon-tokcha joylashgan. Chap tomondagi tokchalarning ba'zilarida zindonga kiradigan eshikchalar bor.

“Guldasta”lar tagida xavfli jinoyatchilar saqlanadigan zax va dim yerto‘la – kanaxonalar bo‘lgan. Dolonning o‘ng tomonidagi o‘rta tokchada afsonaviy qahramon Siyovush arvofiga Navro‘z bayramlarida chiroq yoqilgan. Amir saysxonasiga (otxonasiga) ham shu yerdagi zinadan kirilgan (otxona mahbuslar joylashgan xonalar ustida bo‘lgan).

Dolondan chiqaverishda to‘pchi boshining mahkamasi, shu yerdagi ayvon tagidagi yerto‘lada esa qiynoqxona bo‘lgan. Undan sal narida (g‘arbiy burchakda) XVIII asrda peshayvonli Juma masjidi qurilgan. Masjid devorlarini ichki tomonidagi naqshlar orasiga Qur‘on oyatlaridan bitilgan. Peshayvon shipi murakkab girrix naqshlar bilan bezatilgan.

Ark qal‘asining shimoli-g‘arb burchagida to‘pchi boshining uyi joylashgan. Masjidning sharq tarafida oshxona, orqa tarafida zarbxona (oltin, kumush va chaqa tangalar zarb qiladigan xona) joylashgan. Zarbxonaning shimoli-sharqida zargarxona, janubida devonbegining mahkamasi va qushbegiga qarashli binolar bo‘lgan (ba‘zi binolar hozir ham bor). Juma masjididan boshlangan tor yo‘lak qushbegi hovlisi orqali chorsuga tutashgan.

Chorsuning chap tomonida tosh yotqizilgan katta hovli–ko‘rinishxona o‘rnashgan. U yerda elchilar qabul qilingan va amirlarning taxtga o‘tirish marosimlari o‘tkazilgan. Hovliga kiraverishdagi naqshli peshtoq 1605-yilda qurilgan. Hovlining uch quyosh tushar tomoni peshayvon bilan o‘ralgan. Oldingi peshayvonda ikki qator naqshli ustunlar bo‘lib, ularning qoshi pastdan yuqoriga yo‘g‘onlashib boruvchi muqarnaslar bilan bezatilgan. Nurota marmaridan qilingan taxt ana shu ayvondagi taxtiravon tagida turgan.

Hovlining janub tomonida Mehmonxonai Rahimxoniy va qorixona qurilgan (XVIII asr). Bu binolar tagida yerto‘lalar bo‘lib, ularda xazina saqlangan. Arkning g‘arb tomonidagi hovlida mirzalar va xizmatchilar uchun ikki qavatli binolar qurilgan. Sal narida salomxona, undan sharq tomonda mehmonxonalar, mansabdorlarga qarashli boshqa binolar (miyon hovli) joylashgan. Janubroqda hammom, uning sharq tomonida kichkina masjid qurilgan, ular hozirgacha saqlangan.

Arkning markazida o‘rda (amirning xotinlari turadigan uylar), shimolida qushbegi xotinlari turadigan uylar joylashgan. Hammomning sharqida duxtaron – amir haramidagi qizlar uylari o‘rnashgan. Shimoli-sharqiy burchakda Childuxtaron masjidi va Battolg‘ozi mozori bo‘lgan. Arkning sharqiy devori bo‘ylab g‘ulombachchalar (soqchilar) xonasi, janubi-sharqiy burchakda dorixona (o‘q-dorilar xonalari) joylashgan. Hozirgi paytda bu binolarning taxminan 20%i saqlangan. Arkning g‘arbiy devoridan boshqa hamma devorlari va ularning burchaklardagi minoralar buzilib ketgan. Ark ansambli mustaqillik yillarida so‘nggi bor restavratsiya qilingan.

Ark butun bir shaharga o'xshagan edi. Unda davlat mirzoxonalarning, amir, uning xotinlari, qarindoshlari va amaldorlari uylarining hovlilari bir-bir bilan zich joylashgan edi. Qal'a devorlarining trapetsiyasimon kontir ichida qurilma to'rtburchak shaklda bo'lgan, unda odatiy bir-birini kesib o'tgan bosh ko'chalar olamning to'rt tomoniga mo'ljallangan. Ular orasida quyidagilar joylashgan: amir uyi-salomxona, qabulxona-ko'rinishxona, politsiya boshqarmalari, otxona, kiyim, qolin, idish-tovoq, qimmatbaxo narsalar, qurol omborlari, shuningdek, zindon, tangaxona, uchta masjid, mozor, zargarlik ustaxonanalari va boshqa qurilmalar.

Qulli-qushbegi yoki qushbegi-bolo- bosh qushbegi saroyi doimiy yashagan u amir nomidan butun davlatni boshqargan. U Arkni tark etishi mumkin emas edi. Oilasi ham shu yerda hayot kechirgan. Shuningdek, maxfiy politsiya boshlig'i to'pchibosh ham Arkda doimiy yashagan.

Kunduzi Arkda Qushbegimning 80 ta xizmatchisi (kanselyariyaning mirzolari va topshiriqlar uchun amaldorlar-shogirdpesha), 30 yoki 40 ta to'pchiboshi xizmatchilari, 20 ta oshpaz, 10-12 ta zargar, 6-8 ta duradgor, 1-2 ta suvoqchi, tangaxona ishchilari, musiqachilar, o't yoquvchilar, suv tashuvchilar va boshqalar bo'lgan. Ularning hammasi shaharda yashagan va Arkda faqatgina ish paytida bo'lganlar – ertalabki "bomdod"dan "shom" namozigacha. Tunashga hech kim qolmagan edi. XX asr boshlarida Arkda 3 mingga yaqin odam yashagan. Bizgacha qolgan qal'aning hammasi binolari Ashtarxoniyalar sulolasi hukumronligi davriga (XVII asr) va Mang'itlar (XVIII - XX asrlarda) davriga tegishli bo'lib, taxta karkas, xom go'sht va suvoqdan qilingan.

Birinchi saqlangan qurilma-Ark darvozasi, u g'arbga Registon maydoniga qaraydi. Bu darvoza Abdulaxon davrida qurilgan, chetlari va o'rtasi gujum (qayrag'och)dan qilingan, ammo pasiki ostonasi atayin tutdan qilingan, u boshqa jihatlari bilan ancha mustahkam bo'lgan qayrag'ochga nisbatan namlikka chidaydi. Darvozaning janubiy qismida daricha – kichgina eshik bo'lgan. Shu yerning o'zida, Arkning ochiq darvozasi oldida Qo'shbegi va to'pchiboshi juma namozini o'qiganlar. Amirning muazzini namozga chaqirgan, buni muazzinlar uni eshitib, qo'shilishgan va Buxoro namozga chaqiriqqa to'lgan.

Qasrga kirish joyi keskin ko'tariladigan yo'lak taxtapul bo'yicha borgan, uning ostida kanaxonalar joylashgan. Darvoza teppasida katta qamchi osib qo'yilgan – amir hukumdorligining ramzi. Kirish joyi sufada pushkalar turgan. Darvozaning ustki yarusida Qo'qondan olib kelingan soat –har soat jom uradigan kurantlar osib quyilgan. O'sha yerda joylashgan ayvonda maqom ijro etadigan musiqachilar dastasi o'tirar edi, ularning musiqasiga qarab, shahar aholisi vaqtni aniqlaganlar. Nog'oraxona ayvonidan amir o'g'illari bayram bazmlarini hamda Ark yonidagi maydonda bo'ladigan katllarni kuzatganlar.

Jome masjidiga usti yopiq dolon olib boradi, uzunligi 20 metr ga yaqin, kengligi 3-5 metr. Tomi 1893-yilda almashtirilgan, oldingisi archadan qilingan edi, hozirgisi-qayrag'ochdan. Dolonning ikki tomonidan ravoqlar bor: o'ng tomondan qo'riqchilar, chap tomondan uchta xona "obxona, "kanaxona" deb nomlangan. XVI asrgacha barinchi va ikkinchi xonada suv saqlangan, keyinchalik mahbuslarni vaqtincha saqlanadigan xonalarga aylantirilgan. Uchinchi xona – "kanaxona"ga o'ta xavfli jinoyatchilar qo'yilgan.

Jome' masjidi XVIII asrda katta mahalla masjidi ko'rinishida qurilgan, unda ustunli qishki zal va uch tomondan 12 ta qayrag'ochdan qilingan ayvon bo'lgan. Oxirgi imorat ishlari Amir Olimxon davrida (1910-1920) olib borilgan, ularni Buxoroning ganch o'ymakorlini bo'yicha eng yaxshi ustasi – Usto Shirin Murodov boshqargan. Bu masjidda juma kunlari amirning o'zi hamda qasrni tark etish huquqidan mahrum bo'lgan shaxslar namoz o'qiganlar.

Qushbegi binosi majmuasiga boradigan ko'cha ikkita darvozadan o'tib, sharqqa ichki hovli – "o'rdaga" boradi. Qushbegi xonasiga boradigan ikki tavaqali qayrag'ochdan yasalgan darvoza 1904-yilda qilingan. Bu darvoza yarim tundan tong otguncha yopiq edi, tashrif buyuruvchi dolondan binolar bilan qurshab olingan hovliga o'tadi. Yo'lning ikki tomonidan g'ishtdan qilingan kursilar bo'lib, ularda shogirdpeshalar o'tirganlar. Chap tomondagi eshik hovliga chiqadi,- bu yerda keladigan rus vakillari va shogirdpeshaning xonalari joylashgan.

Kirishdan o'ng tomonda g'ishtdan terilgan sufa joylashgan. U qolin bilan qoplangan bo'lib, issiq yoz tunlarida ularda navbatchi shogirdpeshalar uxlaganlar. Shu yerning o'zida telefon bo'lib, uning oldida doimo ikkita telefonist navbatchilik qilganlar. Telefon 1900-yilda, avval Kogondan Arkkacha olib kelingan, keyinchalik shahar tashqarisidagi saroylar-Sitorai Moxi Xossa, Shirbudin hamda turli binolar va muassasalar bog'langan edi. Toksimon qoplama Chorsu to'rt yo'l chorraxasi (kesishmasi)ni bildiradi. Bitta yo'l Jome masjididan Salomxonaga, uchinchisi – otxona Saisxonaga, to'rtinchisi – taxtxona "Ko'rinishxona" ga boradi.

Ko'rinishxona – taxtxona. Bu zalning xususiyati shundaki, u ochiq havoda joylashgan. Ayvonli sufa ko'rinishxonani o'rab turadi. Monarxiyaga qarshi to'ntarish munosabati bilan Buxoroda 1920-yilda Arkda yong'in boshlandi, u 4 kun davom etgan, natijada saroyning ko'pchilik qurilmalari qulga aylandi. Hozirgi kunda qal'aning butun sharqiy qismi – bu arxeologik qo'riqxona. Ko'rinishxona XVII asrda qurilgan. Amir o'tiradigan joy "shaxnishin" marmardan qilingan "taxt" hisoblanadi, u nuratolik ustalar tomonidan G'ozg'on marmaridan 1669-yilda qilingan.

Zalga kirishdagi devorning nomi "g'ulomgard", fors tiladan "qul aylangi" ma'noni bildiradi. Hech bir kishi hukumdorga orqasini qilib chiqish mumkin emas edi, bu harakat hurmatsizlik hisoblangan va qattiq jazolangan. Mehmonlar ta'zim

qilib, devorgacha borganlar va faqatgana devorni aylanib, chiqib ketganlar. Hukumdorlar bu zaldan kam foydalanganlar, shuning uchun u juda oddiy bezatilgan.

Kirish peshtoqi XVII asrda qurilgan va oq, sariq, ko'k toshlar bilan bezatilgan. Yuqorida Alloh va Muhammad payg'ambar nomlari arabcha yozilgan. Taxt yonida sufaning janubi – sharqiy burchagida 6 ta to'nka turgan, ular bir chiziqda 3-4 sm masofada tik yerga ko'milgan edi. Ustki qismi tilla va kumush tangalarni zarb qilish uchun xizmat qilgan. Dastlab hech qanday yozuvga ega bo'lmagan, doira shaklidagi tangalar yasalib, keyin Rahimxon mehmonxonasi oldidagi binoga olib o'tilgan.

Tangaxonaning o'zi "Soqqaxona" Jome' masjidida joylashgan. Bu yerda 4 ta kumush va tilla tanga yasaydigan ustaxona bo'lgan. Har bir ustaxona 9-10 kishi ishlagan. Ko'rinishxonada yer ostida 2 ta derazaga ega bo'lgan xazina joylashgan edi. Bu 30 x 30 metr maydonli xona bo'lgan, metall pullar – tilla va tangalar charm xaltalar—"sanoch" ga 10 va 5 ming tangadan solingan. Xazina kaliti xazinachi qo'lida bo'lib, hech qachon hech kimga berilmagan.

Hukmdorlar paytida salomxonaga taxtxona va qo'riqxonaga (hozirgi arxeologiya bo'limi) orqali o'tilgan. Qo'riqxonaga kirib, qabulni kutganlar. Salomxonaga hovlisida g'arb tomonidagi ikkita oxirgi derazalar oldida ikkita 2x2 metrli maydoncha bo'lib, u yerda hukumdor qo'lini ziyorat qilish baxtiga muyassar bo'lgan odam turgan. Amir 56 x 56 sm li deraza yonida past taxtada to'rtga bukilgan ko'rpaga o'tirgan. Deraza yopiqligi qabul boshlanishi bilan ochilgan, oldinga ikkita udaychi – marosimchilar chiqqanlar.

Otxona-saixona. Ayvonsiz xovlida ustunchalar "yakkamex"ga otlar bog'lab qo'yilgan, ularga beda va arpa matodan to'qilgan torlarda berilgan. Otlar soni 15 – 20 ta bo'lgan. Otlar ko'pkari (ot va echki bilan o'yin), yuk tashiydigan poddonok, polongi, sayohat uchun otlar bo'lgan. Tarkibi 4 ta amir uchun ot 8 ta poyga uchun toz, 8 ta yuk ko'tarish uchun. Arkda bu otlar faqat u yerda amir paydo bo'lishi bilan turgan. Ular amirning riqobi tarkibida kirganlar. Riqobi – Buxoroda bu so'z bilan amirga sayohatga hamrohlik qiladiganlarni ataganlar. Amir riqobi hamda hokimlar xonadonidagi otlardan tashqari Arkdan tashqaridagi uning janubiy devori oldida qushbegi poyon binosida ham taxminan 50-80 ta ot bo'lgan. Bu yerda turli zotdagi Loqay, Hisordan olib kelingan eng yaxshi otlar saqlangan. Keyinchalik Abdulahadxon paytida hatto amerikalik otlar paydo bo'lgan. Ark tashqarisida uning sharqiy tomonidan yana bitta otxona bo'lgan, 50 yaqin otlar "shogirdpesha" lar xizmatida bo'lganlar. Shu hovlining o'zida mirzoxona bo'lgan, u yerda Rossiyaning siyosiy agentligi bilan xat almashilgan. Otxonada ombor "borxonaga" joylashgan edi. Umuman olganda, Arkda 3 ta omborxonaga bo'lgan. Ular xazina va bevosita amir turadigan xonalarga yaqin joylashgan.

Omborxonalarda turli xil qimmatbaho narsalar saqlangan. Har xil baxmal matolari, ipak, jun matolari va to‘nlar qimmatbaho to‘nlar, qimmatbaho to‘nlar soni 15-20 mingga yaqin edi, zardo‘zi, baxmal va ipakdan tikilgan. Omborxonalarda ayollar kiyimlari, ko‘rpalar, metallar va chinni idishlar saqlangan. Qolinxona salomxona hovlisi ostida joylashgan edi, u yerda 2 mingga yaqin ishlatilmaydigan qolinlar saqlangan.

Otxonadan Registonga ajoyib manzara ochiladi. Bu maydon Arkning sharqiy timonida arablar vaqtida shaharning ijtimoiy markazi sifatida barpo bo‘lgan. XIII asrgacha u yerda devonlarning ma‘muriy binolari, qasrlar qurilgan, keyinchalik bu yerni bozor qurilmalari to‘ldirgan. Maydonga kirish joyida Rastai Tirgaron barpo bo‘lgan, bu yerda qurolsozlar mahsulotlari sotilgan. Markazda Toqi Ord Furushon bo‘lgan. Arkning kirish joyida lashkarlar, bosh harbiy–qushbegi hamda Katta Poyanda masjidi, hunarmand ustaxonalarining mahalliy masjidlari, Go‘sfand bozori qassoblari madrasasi bo‘lgan.

Hovuz yonida sartaroshxona, dori, choy sotiladigan do‘konchalar bo‘lgan. Shu yerning o‘zida “Dar ash shifo” kasalxonasi bo‘lgan, bu yerda tajribali shifokorlar shifobaxsh ichimlik va ovqatlar bilan davolaganlar.

Tayanch so‘z va iboralar: me‘morchilik, inshoot, minora, ark, qal‘a devorlari, madrasa, karvonsaroy, majmua, ansambil, saroy, qarorgoh, darvoza, dahliz, xonaqo, ayvon.

Savol va topshiriqlar

1. Ark qal‘asining qanday bunyod etilgan?
2. Abu Ali ibn Sino Ark to‘g‘risida qanday fikr yuritgan?
3. Narshaxiy o‘zining Buxoro tarixi asarida Buxoro arkining bino bo‘lishini qanday ta‘riflaydi?
4. Arkda joylashagan binolarning nomini ayting.
5. Arkning tuzilishi haqida gapirib bering.

Manba va adabiyotlar:

1. Абу Бақр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Форс-тожик тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1966. Б–120.
2. Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк (кремль) Бухары в конце XIX – начале XX в. Душанбе. 1972.
3. Ахмедова Х. Қадимий Арк қайта юз очади. // Бухоро ҳақиқати. 1992 йил, 28 ноябрь.
4. Йўлдошев Н. Сиёвуш қабри. У Бухоро Аркининг қайси бир дарвозаси яқинида жойлашган? // Бухоро ҳақиқати. 1997 йил, 21 май.
5. Қосимов.Ф. Тилсимотнинг очилиши. Аркининг шарқий деворини таъмирлаш жараёнида очилган қадимий ер ости йўли шунга ишора эмасми?// Бухоро ҳақиқати. 1997 йил, 21 май.

5-MAVZU: BUXORONING MUDOFAA INSHOOTLARI

5.1. Kampirak devor – Buxoro vohasining ihota devoir.

Bizning yurtimizda ham qadimda me'morchilikning muhim tarmog'i bo'lgan mudofaa me'morchiligiga katta e'tibor berilgan. Xususan, ulkan devorlar qurilishi uzoq tarixga ega bo'lib, o'z an'analari va turli xil sermazmun atamalarga ega qadriyatlardan hisoblanadi. Qadimgi Buxoro vohasini o'rab olgan Kampirak devor shular jumlasidandir.

Devor-qal'a, qo'rg'on va shahar (hatto biror davlat)ni o'rab, dushman hujumidan mudofaa qilish uchun quriladigan inshoot. Mudofaa devorlari – aholini dushman hujumidan saqlash maqsadida qadimgi dehqonchilik vohalari atrofiga qurilgan devorlar. Mudofaa devorlari bunyod qilishdan asosiy maqsad vohani ko'chmanchilarning hujumidan himoya qilish, shuningdek, vohadagi o'troq aholini chet el bosqinchilari istilosi va hukmronligi hamda mahalliy zo'raonlarni ularga yordamlashib turgan ko'chmanchi qabilalardan ajratib, yakkalab qo'yish, itoatkorlikda saqlash edi.

Qadimgi Buxoro, Sug'd, Ushrushona vohalari atrofidagi devorlar o'zaro tutashtirilib, alohida vohalarnigina emas, balki butun bir mamlakatni o'ragan yagona mudofaa tizimiga aylantirilgan.

Kampir devor, Kampir devor, Devori kan(m)pirak—O'rta Osiyoda dehqonchilik vohalarini ko'chmanchilar hujumidan himoya qilish maqsadida barpo qilingan mudofaa inshootlari tizimining xarobalari. Ma'nosi "qazilgan" (choh) demaqqdir. Talaffuzda "n" bilan "m" almashuvi kuzatiladi. Pir so'zi esa qadimiy payrya—aylana, o'rov ma'nosida. Demak kan(m)pir so'zining o'zi xandakli devor degani. Devor so'zi kanpir so'zining tub ma'nosi unutilganda qo'shilgan.

Qadimgi Buxoro vohasidagi shahar qishloqlarni o'rab olgan mudofaa devori (Devori kanpirak). M.Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asaridagi ma'lumotga ko'ra, Kanpir devor 782—831 yillarda qurilgan. Mas'udiyning yozishicha, Kanpir devor qadimgi Sug'd podsholari zamonida bino qilingan.

Narshaxiy ma'lumoti Kanpir devor qayta tiklangan davriga to'g'ri keladi. Kanpir devor xarobalarini arxeologik jihatdan o'rganish yozma manbalardagi ma'lumotni to'la tasdiqladi. Mas'udiy xabar qilgan dastlabki ko'hna devor Narshaxiy yozgan Kanpir devorga qaraganda ancha kichik maydonni egallagan. Sun'iy marza holida saqlangan. Kanpir devor xarobalarining eni 25—35 m, bal. 1-3 m, ba'zi yerlarda 4 m gacha yetadi. Dastlabki vaqtlarda uning kengligi 12—14 m, bal. 8—10 m, uz. 336 km bo'lgan. Qadimgi Sug'd vohasini o'rab olgan Kanpir devor VIII asr oxiri — IX asr boshlarida bino qilingan. Uzunligi 120 km. Sun'iy ko'tarma holida saklangan Kanpir devor xarobasining kengligi 15—20 m, balandligi 2—4m; VIII — IX-asrlarda O'rta Osiyoda arablar hukmronligi davrida

Buxoro, Sug‘d va Ushrushona vohalari atrofidagi Kanpir devorlar bir-biri bilan tutashtirilib, yagona mudofaa tizimi vujudga keltirilgan.

Kanpir devorlar ko‘chmanchi qabila, elatlarning o‘troq dehqonchilik vohalariga bosqinchilik, talonchilik yurishlariga qarshi to‘siq hosil qilish uchun bino etilgan. Ularning yo‘nalish chiziqlari Buxoro, Sug‘d, Ushrushona, Toshkent va G‘arbiy Farg‘ona vohalarining VIII — IX-asrlardagi obod yerlari chegaralari va katta-kichikligini aniqlashga yordam beradi. X-asrda (Somoniyilar davrida) Kanpir devorlar o‘z ahamiyatini yo‘qotib, xarobaga aylana boshlagan.

Narshaxiy Buxoro tarixi asarida Buxoro shahrining devori to‘g‘risida quyidagi fikrlarini bayon qiladi. Buxoro xalqi Xuroson amiri Muhammad ibn Abdulloh ibn Talxa at-Tohirin tomonidan Buxoro amiri bo‘lib turgan Ahmad ibn Xolidan: “Shahrimiz atrofida devor bo‘lishi kerak, toki biz kechasi darvozalarni berkitib, o‘g‘rilar va yo‘lto‘sarlardan tinch bo‘laylik”,—deb iltimos qildilar. Shundan keyin u devor qurishga buyurdi va juda yaxshi mahkam devor qurib, minoralar qurdilar, darvozalar o‘rnatdilar. Bu ish ikki yuz o‘ttiz beshinchi yilda (849yil 26- iyul, 850 yil 14- iyul) tamom bo‘ldi; har qachonki biror lashkar Buxoroga qasd qilsa devorni qaytadan tuzatishar edi. Arslonxon o‘z (hukmronligi) davrida eski devorning oldiga boshqa (yangi) devor (ham) urishga buyurdi va ikkala devor bir-biriga yopshiib mustahkam bo‘ldi. (Lekin keyinroq) bu devor ham buzilib ketdi. Besh yuz oltmishinchi yili (1164 yil 18- noyabr, 1165 yil 6- noyabr) odil va bilimdon hoqon, dunyo va dinning suyanchig‘i Mas‘ud Qilich Tamg‘ochxonning,—xudouning yotgan yerini nurlantirsin,— buyrug‘i bilan Buxoro shahri eski devorining tashqarisidan devor qurdilar; u ham vayron bo‘ldi. Olti yuz to‘rtinchi yili (1207 yil 28 -iyul, 1208 yil 15 -iyul) Xorazmshoh Muhamad ibn Sulton Takash Buxoroni oldi va yana sirdan devor qurishga buyurdi; ikkala devorni yangiladilar. Olti yuz o‘n oltinchi yili (1219 yil 19- mart, 1220 yil 7 -mart) tatar lashkari kelib Buxoroni oldi va u devorlar yana vayron bo‘ldi.

Akademik Abdulahad Muhammadjonovning ma‘lumot berishicha, Buxoroda o‘tkazilgan arxeologik ekspeditsiya natijasida moddiy madaniyat izlari orasida 15,5 metr hamda 18,5 metr chuqurlikda kovlab ochilgan qadimgi ikki mudofaa devorlari qoldiqlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, birinchi mudofaa devori 2,5-3, ikkinchisi 2-2,5 metr balandlikda saqlangan. Miri Arab madrasasining yaqinida olib borilgan qazishmalar chog‘ida 4,5 metr chuqurlikda shaharning qadimgi mudofaa devorlari qoldiqlari qayd etildi. Devor paxsa hamda xom g‘ishtdan bo‘lib, 5-6 metr balandlikda saqlangan. Ushbu mudofaa inshooti V-VI asrlarda qad ko‘targan bo‘lib, bir necha bor ta‘mirlanib, qayta-qayta tiklangan. Shu sababdan ilk o‘rta asrlarda kelib uning kengligi 17 metrga etgan.

Professor M.E.Masson ham Kanpirak devori haqida biroz ma‘lumot berib, u manbalar asosida devorning uzunligini 200 kilometr deb aniqlagan. Qadimgi

Buxoro vohasining obod yerlarini tashqi dushmandan mudofaa qilish uchun qurilgan bu devorning uzunligi 350-400 kilometr masofaga cho‘zilgan bo‘lib, uning kengligi 12-14 metr va balandligi 8-10 metr bo‘lgan. Asrlar davomida tabiat kuchlari va o‘zaro urushlar natijasida devor nurab yemirilib, hozirgi uzun ketgan sun‘iy bir qir holiga kelib qolgan. Qirning balandligi turli joylarda har xil bo‘lib, o‘rta hisobda 1 metrdan 3 metrgacha, hatto 4 metrgacha etgan. Uning kengligi ham har joyda turlicha saqlangan va o‘rtacha 20-30 metrni tashkil etadi.

Buxoro devori ko‘plab hukmdorlar tomonidan qayta qurilib ta‘mirlangan. Xususan Ahmad ibn Xolid, Mas‘ud Qilich Tamg‘ochxon, Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash davrlarida devor yangidan qurilib, ta‘mir etilgan. Ammo Somoniylar hukmdori Ismoil Somoniy Buxoro devorini qurishni ham, tuzatirishni ham rad etgan va u: “To men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo‘laman” deb, ustiga olgan vazifani to‘la bajargan, u doimo janglarda o‘zi qatnashgan va Buxoro viloyati ustidan dushmanlarning zafar topishiga yo‘l qo‘ymagan.

Buxoro shahrining mudofaa devorlari mustahkam qurilganligi tufayli, u “misdan quyilgan shahar” yoki “misdan yasalgan istehkom”ga ramziy qiyos qilinib, unga “mis shahar” ma‘nosini anglatuvchi “Madinat us-sufriya” atamasi berilgan. Bundan tashqari Buxoroning mustahkam qo‘rg‘on shahar ekanligiga nisbat berilib, Numijkat, Bumiskat, deb atalgan. Bu nomlardan birinchisi Navmichkat, u uchta fors-tojikcha “nav”-yangi, “mich”-qal‘a, istehkom va “kat”-qishloq kabi so‘zlardan iborat bo‘lgan. U “Yangi qal‘a”, “Yangi qo‘rg‘on” ma‘nolarini anglatgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, Buxoro hududlari mustahkam va qalin mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan hamda o‘z davrining qudratli davlati hisoblangan.

5.2. Buxoro dastlabki etti darvozasi.

Darvoza-shahar, qal‘a, saroy, qo‘rg‘onning kirish joyiga o‘rnatiladigan katta eshik, qopqa. Qadimda O‘rta Osiyo shaharlarining atrofi qal‘aband mudofaa devorlari bilan o‘ralgan bo‘lib, bir nechtdan darvozalari bo‘lgan. Masalan Buxoroning qadimda 7 ta darvozalari bo‘lgan.

Darvozalar odatda archa, qayrag‘och daraxtlari yog‘ochidan yasilib, usti temir hoshiya bilan qoplangan, turli zulfinlari badiiy naqshlar bilan bezatilgan. Darvozalarning yuqori qismi ko‘pincha panjarali bo‘lgan.

Buxoro o‘rta asr shahar qurilishi an‘analari asosida bunyod etilgan bo‘lib, 3 qism: Ark, shahriston va raboddan iborat bo‘lgan. Buxoro Arkida 2 darvoza bor edi. G‘arbiy darvoza-Registon, Alaffurushon yoki Somonfurushon, Sharqiy darvoza-Go‘riyon deb yuritilgan. Shahristonda esa 7 darvoza bo‘lib, ular shaharning 4 tomonida joylashgan.

Shahriston shimolida Haq (RohXufra), janubida Attoron (Bob ul Madina) va Ohaniyon (Temirchilar), sharqida Nav (Nur), g'arbida esa Ko'handiz, Muhra (Bani Asad) va Bani Sa'd darvozalari bo'lgan. Atgorondan Xurosonga, Haq Rohdan Samarqandga, Nur (Nav) orqali esa Nasaf (Qarshi) tomonga yo'llar ketgan. Qolgan 4 ta darvoza orqali podshoh qarorgohi Arkka borilgan.

Rabod atrofida dastlab ichki devor, 849—850 yillarda tashqi devor bino qilinib, uning 11 darvozasi bor edi. Ichki devorning darvozalari shimolida Bobul Hadid, Samarqand va Mug'on, janubida Puli Suvayk, Abduhoshim Kanoniy, Ruhba, Moh, g'arbida Darvozacha, Forjak, sharqida Puli Abdulhasan va Moh darvozalari joylashgan. Rabod tashqi devori bitganidan so'ng uning shimolida Navbahor, Samarqand va Riv, sharqida Mardikushon, Kalobod hamda g'arbida Romitan, Forjak, Qo'shanj nomli darvozalari bo'lgan.

Qadimiy Buxoro shahri VIII-XVI asrlar mobaynida atrofi baland devorlar bilan o'ralgan bir qal'a shaklida bo'lgani va qal'aga etti darvoza orqali kirilgani tarixdan ma'lum. Bu darvozalar:

1. Temir darvoza.
2. Qo'handiz darvozasi.
3. Binni Asad darvozasi.
4. Binni Sad darvozasi.
5. Attorlar darvozasi.
6. Nur (Nav) darvozasi.
7. Hakroh darvozasi.

Qadim darvozalarning qurilishi, nomlanishi ham o'ziga xos tarixga ega. Mazkur inshootlarning asrlar sinovidan eson-omon o'ta olishi uchun dastlab qurilish materiallariga, texnologiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Chunonchi, qurilishda ishlatilgan birgina loyni tayyorlash uchun ko'mir kukuni, qamish kuli, ohak-ganch, qum va suvdan iborat qorishma o'n ikki soat qaynatilgan. Tayyor qorishma darvoza devori mustahkamligini ta'minlash bilan birga o'zidan nam o'tkazmagan va shu orqali yemirilish oldini olgan. Shuningdek, asos (fundament) bo'ya yoki qamish bilan yopilib, uning ustidan ikki qator 25x25 sm. o'lchamdagi g'ishtlar terilgan. So'ng ikkita guldasta yasalib, arka, timpan, kitoba, dandonalar qal'a devori balandligiga tenglashtirib yasalgan. Lekin har bir darvozaning tashqi ko'rinishi, me'moriy yechimi bir-biridan farq qilgan.

5.3. Buxoroning 11 darvozasi.

Buxoroning 7 tilga olingan darvozalar Chingizxon bosqini (XIII asrning boshi) davrida ancha vayron etilgan edi. Oradan bir necha asr o'tgach esa Shayboniy hukmdorlardan biri Abzulazixon Buxoro qal'asini qayta tiklashga qo'l uradi. 1557-1560 yillarda u Buxoro qal'asi hududini kengaytirib, himoya devorlarini qaytadan tiklashga kirishadi. Natijada oldingiga nisbatan ancha

kengaytirilgan shaharga endi yettita emas, o'n bitta darvoza orqali kirib kelinadigan bo'ladi. Bu quyidagi darvozalar:

- 1) Qarshi darvozasi
- 2) Mazor darvozasi
- 3) Samarqand darvozasi
- 4) Hazrat Imom darvozasi
- 5) O'g'lon darvozasi
- 6) Talipoch darvozasi
- 7) Shergiron darvozasi
- 8) Qarako'l darvozasi
- 9) Shayh Jalol darvozasi
- 10) Namozgoh darvozasi
- 11) Salloxon darvozasi

Buxoro uzoq tarixi davomida bir necha bor urushlar natijasida vayron qilingan. Ayniqsa, Qoraxoniylar bilan Somoniylar o'rtasidagi kurashlar davrida, Chingizxon hujumi oqibatida shahar devor va darvozalari buzib tashlandi. XVI asrda shayboniylardan Abdullaxon II davrida Buxoro atrofi yangi devor bilan o'rab olindi va darvozalar qurildi.

Tarixiy davrlar o'tishi bilan Buxoro darvozalarini nomlash ham o'zgarib bordi. XIX asr o'rtalariga kelib Buxoro darvozalari: Sallaxona, Qavola Mahmud, Qarshi, Bahovuddin, Fayzobod, Samarqand, Imom, O'g'lon, Talipoch, Shirgiron, Qorako'l nomlari bilan yuritilgan. XX asr boshlarida Buxoro shahrining darvozalari quyidagicha nomlangan: shaharning shimolda Imom va Samarqand, janubda Shayx Jalol, Namozgoh va Sallaxona; sharqida Mozor va Qarshi; g'arbida O'g'lon, Talipoch, Shirgiron va Qorako'l.

1920-yilning kuzida sho'ro mustabidlarining Buxoro bosqinida, o'nlab obidalar qatori Buxoro darvozalari ham katta shikast ko'rdi, ko'plari buzib tashlandi, yondirildi va yo'qotildi. Hozirgi kunda Qorako'l va Talipoch darvozalari o'tmish yodgorligi sifatida bir qadar saqlanib qolingan.

Buxoroning mahobatli darvozalari sharif shaharning noyob me'moriy obidalari sirasiga kiradi. Muharrixlarning ma'lumot berishlaricha, VIII-XVII asrlarda Buxoroda ettita darvoza mavjud bo'lgan. Asrlar o'tib, aholi sonining oshishi hamda shahar hududi kengayishi tufayli ular soni avvaliga o'n bittaga yetgan.

Quyida Buxoroning o'n ikki darvozasi haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

1.O'g'lon Darvozasi. Buxoroi sharifning mazkur mahobatli darvozasi Chorbaqoli yaqini, qadimiy Romitan qo'rg'oniga boradigan katta yo'l yoqasida joylashgan. Shimoliy tomonda O'lon Ato mahallasi, janubda Nog'orachilar mahallasi bo'lgan. Darvoza va unga tutash O'g'lon Ato madrasasi va masjidi

1948-1950 yillarda buzib tashlandi. Ayni paytda bu joyda dehqon bozori qad rostlagan.

2. Hazrati Imom Darvozasi. VIII asrgacha Darvozai Navs (Yangi darvoza) deb yuritilgan. So'ngra buxorolik mashhur ulamo Abu Hafs Kabir imom Buxoriy (767-832-yillar) sharafiga Haqroh darvozai imom, deb atala boshlangan. Narshaxiyning ma'lumot berishicha, Abu Hafs Kabirning qabrlari ham shu darvoza yonidagi tepalikda joylashgan. Abdullaxon tomonidan qayta ta'mirlangan. Samarand yo'li orqali keladigan G'ijduvon, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlardan, uzoq xorijdan kelgan mehmonlar, savdogarlar shu darvozadan shaharga kirishgan. Darvoza yaqinida aravasoqlik, yog'och materiallari, eshik, deraza bozori bo'lgan. Keyinchalik amir Abdulahad, Amir Olimxon davrida yozgi saroy-Sitorai Moxi Xossaga eltuvchi yo'l shu darvoza orqali o'tgani bois, bu maskan savdogarlar uchun juda ahamiyatli hisoblangan. O'tgan asrning 60-yillarida shahar kengayishi bahonasida buzilgan inshoot o'rnida hozir darvoza asl qiyofasi asosida qayta bunyod etildi.

3. Mozori Sharif Darvozasi. Abdullaxon Buxoroni kengaytirgan vaqtida Bahouddin Naqshband ziyoratgohiga boradigan yo'lda ushbu darvozani qurdiradi. Darvozaning yonidan Shohrud arig'i o'tgan. Haftaning har seshanba-chorshanba kunlari, ayniqsa hayit bayramlarida darvoza oldi Markaziy Osiyoning turli shaharlaridan keluvchi ziyoratchilar tashrifi tufayli gavjumlashgan.

4. Qavola (Qarshi) Darvozasini ba'zi manbalarda darvozai Rangrez , deb ham yuritishgan. Shayxi Rangrez matolarga gul bosishda g'oyat hunarmand, karomatgo'y avliyo ham bo'lgan ekan. Uning karomatlarini ko'rgan Shayxul Olam Sayfiddin Boharziy (XIII asr) shogirdini haqqa yetgan deb hisoblab, unga o'z qishloqlaridan birini hadya etgan. Keyinchalik Abdullaxon shaharni kengaytirgani chog'ida ushbu qishloq ham qal'a devori ichida qolgan. Unda qurilgan darvoza esa Qavola, deb yuritila boshlandi. Ammo darvoza asosan Qarshi, Kesh aholisining asosiy kirish joyi hisoblangani bois, mahalliy aholi uni Qarshi darvoza, deya atay boshladi.

5. Salloxona darvozasi. Salloxona yoki Mir-Mas'ud darvozasining tashqi tomonida amir askarlari joylashgan bo'lib, bu yerda 1920 yillarga qadar harbiy mashq o'tkazilgan. Sobiq sho'ro davrida ancha vaqtlar parad va anjumanlar shu maydonda o'tkazilar edi. Salloxona darvozasi Abdulazizxon tomonidan 1540-1549 -yillarda qadimiy devor bilan birga qurilgan. O'sha davrda ziyoratchilar uchun maqbara, masjid, hovuz, quduq va hujralar bunyod etilgan. Afsuski, ular bizning davrimizgacha etib kelmagan. Salloxona darvozasi haqidagi ma'lumotlar vaqf hujjatlarida (1683-1684- yillar) uchraydi. Darvozaning balandligi 11 metru 10 sm, kengligi 21 metr, asosi bir yarim metrni tashkil etgan. Usti 21 ta gultoждан tuzilgan, "guldasta" lar ikki qavatli bo'lib, qorovullar turadigan xonasi bo'lgan.

Shaharga kiraverishda yoʻlning oʻng tomonida ikki qavatli Abdullabek hovlisi boʻlgan. Uning yonida esa Arabon masjidi qurilgan boʻlib, bu masjidida mahalla ahli namoz oʻqigan.

6. Namozgoh darvozasi. Namozgoh darvozasi qurilgan yili maʼlum boʻlmay, Abdulazizxon tomonidan 1540-1550-yillarda qayta taʼmirlangan. U juda chiroyli mayolika va koshinlar, terakotalar ishlatilib, arka svodtimpan kiteba qilib, “guldasta” larning usti oltita gultojar bilan bezatilib qurilgan. Yuqori qismi 12 ta gultojdan iborat boʻlib, eski qalʼaga tenglashtirib bunyod etilgan. Odamlar shahar ichidagi masjidlariga sigʻmaganlari uchun Ibrohim darvozasidan Namozgoh masjidiga yigʻilishgan. Namozgoh gavjum boʻlgan. Turk xoqoni Arslonxon farmoni bilan Namozgoh atrofi toʻliq tartibga solingan. Bogʻlar barpo etilib, pishiq gʻishtdan minorali devorlar qurilgan. Darvoza balandligi 11 metr-u 6 sm, kengligi 13,8 metrga teng qilib bunyod etilgan.

7. Xoʻja Ismat (Xoʻjayon) darvozasi. Abdulazizxon 1540-1549-yillar orasida Buxoroning gʻarbiy tomonini kengaytirib, Oʻgʻlon Ato, Chashmayi Ayub, Abdulloxon madrasasining orqa tomonidan Shayx Jalol darvozasigacha pishgan gʻishtdan, Xoʻja Ismat (Xoʻjayon) darvozasigacha xom va paxsa gʻishtdan devor qurdirgan.

Darvozai Xoʻjayon viloyat kasalxonasi qurilgan davrda ham boʻlgan. Bu darvoza orqali Namozgoh yoʻliga qoʻshilib, janubga boradigan katta yoʻl oʻtgan. Xoʻjayon darvozasi atrofida Fayzulla Xoʻjaevning hovlisi ham boʻlib, hozirgi vaqtda bu hovli muzeyga aylantirilgan. Parfenov, Feninlar tomonidan chizilgan Buxoro devorlari xaritasida darvozaning joylashgan oʻrni aniq qoʻrsatilgan. Darvozai Xoʻja Ismat (Xoʻjayon) viloyat kasalxonasining eski darvozasidan toʻgʻri boradigan yoʻlda joylashgan. Shu atrofda yashovchi aholi vakillari (Mahbuba Sayfieva – 76 yoshda, Abram Yakubov – 80 yoshda, Hasanjon Asadov) bilan uyushtirilgan suhbatlar darvoza joyini aniqlashda yordam berdi. 1952-1953 yillarda boʻlib oʻtgan zilzila oqibatida Xoʻjayon darvozasi buzilib ketgan. Oʻrtasi gumbazli qilib yasalgan toʻrtta “guldasta”dan iborat boʻlgan darvoza Buxoro shahrining qadimiy qalʼa devorlariga moslashtirib bunyod etilgan.

8. Shayx Jalol darvozasi. Buxoroning eng qadimiy darvozalaridan yana biri shaharning janubida joylashgan Shayx Jalol darvozasidir. XVI asrda hukmdorlik qilgan Abdulazizxon piri Shayx Jaloliddin sharafiga ilgari Bobi Morkushon (ilon oʻldiruvchilar darvozasi) deb yuritilgan darvozani Shayx Jalol deb atashga farmon beradi. 1549-1550-yillarga oid hujjatlarda Shayx Jalol darvozasi hamda shu nom bilan ataluvchi mahalla haqida maʼlumotlar bor. Darvoza yaqinida juda katta bogʻlar, jumladan Xoja Ismatulloi Buxoriy bogʻlari va maqbaralari boʻlgan. Istiqlol sharofati hamda viloyat hokimining tashabbusi bilan ushbu bogʻlar, Ismat Buxoriy maqbaralari qayta tiklandi. Ayni paytda bu xayrli ishlar davom ettirilib,

xuddi Samarqand darvoza kabi Shayx Jalol darvozasi ham asl o‘rnida qaytadan bunyod etilgan.

9. Qorako‘l (Haj) darvozasi - Buyuk ipak yo‘li savdo tarmog‘idagi asosiy darvozalardan biri bo‘lgan. Eron, Xuroson, Turkiya davlatlaridan keladigan savdogarlar shu darvoza orqali shaharga kirishgan. Darvozaning ichki tomonida katta bozor bo‘lgan. Ayni paytda qal‘a devorlaridan ajratilgan holda yakka o‘zi bo‘y cho‘zib turibdi.

10. Shergiron darvozasi ham Abdullaxon II davrida qurilgan bo‘lib, darvoza joylashgan hududda bir paytlar sherlar saqlanadigan qo‘riqxonaga o‘rnashgan. Sherlar xazinani qo‘rilash va janglarda foydalanish maqsadida o‘rgatilgan. Shu bois ham darvoza "Shergiron" (sher saqlovchi) deb atalgan. XVI asrdan boshlab, ushbu darvozadan Mir Do‘stim xonadoniga qadar joyda yopiq bozor faoliyat yuritgan. Ahmad Jomiy qabrlari ziyoratgohi ham shu darvoza yaqinida joylashgan

11. Talipoch darvozasi. Bugungi kunga qadar saqlangan mazkur inshoot 1557-1598-yillarda Abdullaxon II davrida bunyod etilgan. Bu darvoza orqali Amirobod, Chorbakr, Jondor, Xorazmga borilardi. Darvoza 1960-yilda usta Aminjon Salomov, 2005-yilda esa me‘mor Tuyun Boboev rahbarligida qayta ta‘mirlandi. Hozirgi vaqtda Talipoch darvozasi yonida Buxoro markaziy bozori joylashgan.

Buxoroyi Sharifning o‘n ikkinchi darvozasi to‘g‘risida ikkita talqin mavjud. Birinchi talqin tarixchi olim R. Almeevga mansub bo‘lib, unga muvofiq Buxoroning atrofida o‘n birta darvoza bo‘lgan. O‘n ikkinchi darvozasi – bu Ark darvozasi hisoblanadi. Chunki Ark shahar ichidagi shahar hisoblanadi va u yerda amir-u amaldorlar yashab faoliyat ko‘rsatayotganlar. Ularni himoyachisi sifatida bu hashamatli darvoza xizmat qilib kelgan, deb asoslanadi. Ikkinchi talqinga muvofiq shahrimizning o‘n ikkinchi sonli darvozasi sifatida “Xo‘ja Ismat (Xo‘jayon) darvozasi” hisoblanadi.

Shahar darvozalari kechqurun soat sakkizda yopilib, ertalab bomdod namozidan so‘ng ochilgan. Darvozalar shaharga kelib ketadigan odamlarni nazorat qilish, aholi xavfsizligini ta‘minlash barobarida savdo-sotiq ishlarini yo‘lga qo‘yishda bojxona vazifasini ham o‘tagan. Chunki bu darvoza qiblaga qaratilgan bo‘lib, 1920-yildagi inqilob oldi buxoroliklar undan chiqib Haj ziyoratiga borganlar. O‘ninchi-Shergiron darvozasidan hozirgi kunda hech narsa qolmagan. Faqat uning tarixiy joyi ma‘lum. Yagona to‘liq shakl va shamoyilini saqlangan darvoza bu -Talipoch darvozasidir. U hozirgi dehon bozori oldida joylashgan.

Tayanch tushunchalar: devor, qal‘a, rabot, shahriston, darvoza, Kampir devor, mudofaa devorlari, shahar, minora, ark, Alaffurushon darvozasi, Imom darvozasi, Samarqand darvozasi, Shayx Jalol darvozasi, Namozgoh darvozasi, Sallaxona darvozasi, Mozor darvozasi, Qarshi darvozasi.

Savol va topshiriqlar

- 1.Narshaxiy Buxoro tarixi asarida Buxoro shahrining devori to‘g‘risida qanday fikrlarini bayon qiladi?
- 2.Mudofaa devorlari bunyod qilishdan asosiy maqsad nima bo‘lgan?
- 3.Kanpir devor to‘g‘risida nimalarni bilasiz?
- 4.Buxoroning 11 darvozasi haqida ma’lumot bering.

Manba va adabiyotlar

- 1.А.М.Беленский, И.Б. Бентович, О.Г. Большаков Средневековый город Средний Азии’’. -Л.: Наука,1973.
- 2.Умняков И.И. «К вопросу об исторической топографии средневековой Бухары» (сборник Туркестанского Восточного института, в честь проф. А. С. Шмидта, Ташкент, 1923).
- 3.Абу Бакр Мухаммад ибн Жаъфар Наршахий „ Бухоро тарихи’’ форс-тожик тилидан А. Расулов таржимаси– Тошкент .„Шарк баези,, ,1993.
- 4.Ремпель Л.И. Далёкое и близкое записы-Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары.-Т.:Гафур Гулям,1982.
- 5.Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары.-Москва.:Наука,1976.

6-MAVZU: BUXORONING MASJIDLARI

6.1.Masjidlarning ijtimoiy hayotdagi o‘rni.

Islom dinining VII Movarounnahr xususan, Buxoro zaminiga kirib kelishi natijasida Buxoroda masjidlar qurildi. Ushbu masjidlarda dastlab ilm majlislari olib borildi. Masjidlarda ko‘p sonli Buxoro ahlining ibodatlarini ado etishi va ilm majlislari (suhbatlar, bahslar, munozaralar)da ishtiroki alohida ta’lim maskani qurish zaruratini yuzaga keltirdi. Masjid barcha musulmonlar uchun Allohga sajda qiluvchi muqaddas qarorgohdir.

Masjid-machit (arab.-sajda qilinadigan joy) — musulmonlar jamoa bo‘lib, namoz o‘qiydigan joy, ibodatxona. Masjidlar, asosan, kundalik besh vaqt namoz o‘qish uchun mo‘ljallangan. Juma va hayit namozlari esa jome masjidlarida o‘qiladi.

Jome masjid — shahar markazidagi yoki nisbatan katta hududdagi asosiy va eng katta bosh masjid. Jamoa uchun zarur turli xabarlar e‘lon qilinadigan, haftalik juma, xayit namozlari jamoa bo‘lib o‘qiladigan maxsus bino. Shahar tashqarisida musallo, namozgoh. Juma masjid, guzar (mahalla) masjidlariga nisbatan uning tuzilishi salobatli. O‘rta Osiyoda Jome masjidning umumiy tarxi murabba yoki to‘g‘ri to‘rtburchakli xonaqoh bo‘lib, bir (old yoki yon) tomoni, ikki (janubiy va sharqiy yoki shimoliy va sharqiy) yoki uch tomoni ayvon bilan o‘ralgan. Xonaqoh tomi gumbazli yoki to‘sinli. Ayvon va xonaqoh kattaligi to‘sinlar soni va qatori bilan belgilangan, ba‘zan xonaqoh 1, 2, 4 gumbazli, ayvonlar atrofi qator ustunli, burchakda azon aytishga muljallangan mezana va hovli o‘rtasida hovuz bo‘lgan. Buxoroda birinchi Jome masjid 713-yil Qutayba ibn Muslim tomonidan ishga tushirilgan. Ushbu masjid uchun mahalliy majusiylar ibodatxonasi moslashtirilgan.

Buxorodagi masjidlar:

1. Fayziobod jome masjidi
2. Kalon jome masjidi
3. Boloj Hovuz jome masjidi
4. Dilkusho jome masjidi
5. Piridastkir jome masjidi
6. Volidai Abdulazizxon jome masjidi
7. Xalifa Xudoydod jome masjidi
8. Xoji Mir Ali jome masjidi
9. Shox Axsaviy jome masjidi
10. Xo‘ja Tabband jome masjidi
11. Xo‘ja Abdullo Safedmuy jome masjidi
12. Masjidi Baland jome masjidi
13. Mavlono SHamsuddin Mahbubiy jome masjidi

14. Sayfiddin Boxarziy jome masjidi
15. Xo'ja Orif Moxitobon jome masjidi
16. Xo'ja Zayniddin jome masjidi
17. Tagband Bafon jome masjidi
18. Imom G'azzoliy jome masjidi
19. Abu Hafsi Kabir jome masjidi
20. Said po Bandi Kusho jome masjidi
21. Maxmud Tarobiy jome masjidi
22. Poyi Ostona jome masjidi
23. Shayx Sa'diy jome masjidi
24. Abu Bakr Assiddiq jome masjidi
25. Xo'ja Ismat jome masjidi
26. Xiyobon jome masjidi.
27. Oybinoq jome masjidi

6.2. Mag'oki Attori masjidi. Shohrux kanali yaqinida, shahar shahristonida g'oyat antiqa obida – Mag'oki Attori masjidi joylashgan. Arablar istilosigacha uning o'rnida Moh (oy) bozori bo'lgan, bu yerda but, dorivor va ziravorlar bilan savdo qilingan, otashparastlar ibodatxonasi ham shu yerda edi. Narshaxiy asarining oxirgi tahririda ibodatxona o'rnida qurilgan masjid «Mag'og'», ya'ni «chuqurlikda» deb nomlangan. Chunki jadal o'sayotgan madaniy qatlamlar uni o'sha paytdayoq yarmigacha ko'mib yuborgan edi. 937-yilgi yong'in shimoliy darvozadan Moh masjidgacha keldi, masjid yonib ketdi va butunlay kulga aylandi, deb yozadi Narshaxiy .

Moh yoki Mag'oki Attoriy mahalla masjidi Buxoroda XII–XVI asrlarda qurilgan. U Markaziy Osiyodagi eng ko'hna masjidlardan biri hisoblanadi. Masjid dastlab X asrda qurilgan, ungacha uning o'rnida majusiylar – otashparastlarning ibodat qiladigan binosi bo'lgan. Yer sathidan 4,5 metr pastda joylashgan, o'yma naqshlari e'tiborni tortadi. Masjid arablar istilosidan oldin butlar, dorivorlar va ziravorlar sotiladigan bozor ichida joylashgan edi, shuning uchun u ba'zan “Attorlar masjidi” deb atalgan.

Uning yaqinida Oy ibodatxonasi bo'lgan, shuning uchun ikkinchi nomi Moh (forscha ماء) masjididir. Masjid yana “mag'oq”, ya'ni “chuqurda” ham deb ataladi, chunki o'sha paytdayoq u tez o'sib borayotgan madaniy qatlamlar ortida qolib ketgan edi.

Mag'oki-Attori masjidi Buxoro markazidagi Labi Hovuz ansambli yonida joylashgan qadimiy masjidlardan bo'lib, me'morchilik san'atining mukammal namunalaridan biri sanaladi. Asrlar davomida madaniy qatlamlar yig'ilgani sayin masjid atrofidagi yer sathi ko'tarilib boravergan. Buning natijasida, bugungi kunga kelib masjid shahar sathidan 6 metr pastlikda joylashgan.

Ilgari masjid binosida Oy (Moh) otashparastlar ibodatxonasi bo'lgan. Keyinchalik, arablar istilosidan so'ng (VII asr) uning o'rnida ilk masjidlardan biriga asos solingan. O'sha paytda ham masjid madaniy qatlamlar o'sgani natijasida yarmigacha ko'milgan. Shu sababli unga "Mag'oq" ("chuqurlikda") hamda attor bozori yaqinida joylashgani sababli "attori", ya'ni "Mag'oki attori" nomi berilgan.

Mazkur masjid bilan bog'liq afsonalardan birida, Buxorodagi ilk sinagoga paydo bo'lgunga qadar ushbu masjidda musulmonlar bilan birga, lekin binoning boshqa-boshqa taraflarida yahudiylarning ham ibodat qilgani aytiladi. Boshqa bir afsonaga ko'ra esa, yahudiylar masjidga musulmonlardan so'ng ibodat qilib ketganligi ma'lum qilinadi.

Me'moriy obidaning qurilishida xom va pishgan g'isht, yog'och, loy, maxsus "qir" qotishmasi, tosh, ganch va shunga o'xshash ashyolardan keng foydalanilgan. Me'moriy obidaning dizayni: Qadimiy 4 ustunli Moh masjidi (IX asr) o'rnida XII asrda eski loyiha asosida qayta qurilgan (1934-yilda arxeologik tadqiqotlar asosida aniqlangan). XIV asrda ta'mirlangan, XV asrda peshtoqining yuqori qismi buzilgan. Shayboniy Abdulazizxon davrida (1541-1542-yillar) binoning yuqori qismi, gumbazlari qayta qurilgan. Masjid tarhi (13,35×17,6 m) sodda yechimga ega, ichkarisi 6 ustunli, 12 gumbazli, o'rta gumbazi balandroq bo'lib, uning asosidagi darchalar orqali bino ichiga yorug'lik tushadi. Sharqiy qismini keng pillapoyali zina egallagan. Bosh tarzidagi peshtoq g'ayriodatiy ravishda binoning yon tomonida joylashgan. Keyinchalik sharqiy qismi qayta qurilgan. Peshtoqining ko'rinishida yoysimon chuqur ravoq va undagi o'ziga xos bezaklar muhim o'rin tutadi. Ganch va mayda g'isht bo'lakchalaridan bezatilgan peshtoq hashami g'oyatda nafis va yuksak badiiy did bilan bajarilgan. Namoyon o'lchamlariga mutanosib ravishda murakkab bo'rtma naqshlar ishlangan. Ustun go'shalari o'yma naqshlar bilan, bog'chasi vazasimon shaklda ko'kalamzorlashtirilgan.

Me'moriy obida Sharq me'morchiligi an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, "Chor" uslubida bunyod etilgan. Me'moriy obidaning o'ziga xos tomonlaridan biri, Mag'ok (chuqurlik)da va Attor bozori yaqinida joylashganligi sababli „Mag'oki Attori madrasasi" deb atalgan. Inshootning bezaklari XII asr Buxoro me'morchilik maktabining yuksak na'munasi sifatida O'zbekiston me'morchiligi tarixida alohida o'rin tutadi. Vaqt o'tishi bilan masjid ko'milib ketgan.

Masjidning sharqiy peshtoqidagi yozuvlarga ko'ra, 1547-yili Abdulaziz bin Abdulloh (1539–1550) masjidni buzdirib, o'rniga qaytadan yangi masjid qurdirmoqchi bo'ldi. Ammo o'sha davrdagi naqshbandiya tariqatining peshvosi va xonning murshidi Mahdumi A'zam bu masjiddan o'tgan ulug'larning ruhlari hozirligini aytib, bunga yo'l qo'ymadi. Ushbu masjid minbarida Abdulloh G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshband kabi pirlar xutba o'qiganlari ham

ta'kidlangan. Murshidning so'zlariga itoat qilgan Abdulazizxon eski masjidning g'arbiy tomoniga chambarchas qilib yangi masjid qurdirdi. Shu yerdagi baland zinadan Mag'oki Attori masjidining XII asrda qurilgan 6 ustunli va 12 gumbazli katta zaliga tushiladigan bo'ldi.

Xonaqohning poli ochib tekshirilgan, IX–X asrlarga oid ganchkorlik materiallari topilgan. Undan ham pastroqda xom g'ishtdan qurilgan devor bo'lib, uning ganchkorlik materiallardan ham qadimiy ekanligi aniqlandi. XII asrga mansub peshtoq va uning ikki yonidagi pilon an'anaviy shaklda ishlangan. Peshtoq eshikning tepasidagi gumbazsimon ravoq uch qismga bo'lingan. Har bir qism alohida mayda va yupqa g'ishtlardan bir-birini kesishuvchi kvadrat shaklli bezak hosil qilgan. Qismlarning burchaklari sharafa bilan bezalgan, tepasiga esa kesishgan oltiburchak shaklidagi g'ishtlar ko'ndalang terilgan. O'yma terrakota yozuvlar hoshiyasi eshik va ravoqning ustki qismini bezagan peshtoq devorlari alohida pannolarga bo'lingan. Ularga o'simliksimon va geometrik naqshlar ishlangan. Peshtoqning ikki yoniga g'ishtdan geometrik naqsh ishlangan. Bu g'ishtin naqshlar zaminida ganchdan ishlangan o'yma bezak (girih) bo'lgan. Masjid burchaklaridagi burjlarga jimjimador girih ishlangan.

1934-1935-yillari V.A.Shishkin rahbarligida masjidda arxeologik qazishlar o'tkazilgan. Natijada masjidning janubiy peshtoqidagi bezaklar, sirkor parchinlar yemirilgani aniqlangan. Keyinchalik bular Usta Shirin Murodov ishtirokida qayta tiklangan.

Mag'oki Attori masjidi rivoyatlarda usta Moh tomonidan qurilganligi aytilgan. Ayniqsa, uning janubiy peshtoqi faqat Buxoroninggina emas, balki butun O'rta Osiyo madaniyatining qimmatbaho yodgorligi sifatida qadrlanadi.

Me'moriy obidaning 1939-1949-yillarda peshtoqi mustahkamlanib ta'mirlangan, atrofi obodonlashtirilgan. Bundan tashqari, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, yurtimizdagi boshqa me'moriy inshootlar qatorida ushbu inshoot ham ta'mirlandi. 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Mag'oki Attor masjidi ham qayta ta'mirdan chiqdi. Mag'oki Attor masjidi YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. 2000-yil 30-avgustda "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 2008-yil 12-sentabrda "Muzeylar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni kabilar me'moriy obidaning huquqiy kafolatidir.

Sharq me'morchiligining turli an'alarini o'zida mujassam etgan ushbu me'moriy obida, tarixiy manba'larga ko'ra, XII, XVI va XX asrlarda qayta ta'mirlangan. Bugungi kunda uning binosida 1991-yilda ochilgan gilamlar muzeyi o'rin olgan.

6.3. Namozgoh masjidi.

Musulmonlarning ikki asosiy bayrami – qurbon hayit va Ramazon hayiti namozlar ado etiladigan alohida masjidlar, ya'ni namozgohlarning paydo bo'lishini belgiladi. Bu yerda bayram kunlari butun shahardan va atrofdagi qishloqlardan ko'p musulmon yig'ilishgan, shuning uchun namozgohlar shahar tashqarisida, barcha keluvchilarni sig'dira oladigan keng joylarda qurilgan.

Shunday namozgoh Buxoro janubida 1119-yili qurilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, butun maydon baland g'ishtli devor bilan o'ralgan, o'rtasida mehrob va yonida imom va'z qiladigan minbar bo'lgan. Binoning oldida yog'och ustunli yengil shiypon qurilgan. Nafis naqshlar va yozuvlar hamda o'ymakorlik bilan bezalgan mehrob hozir ham saqlanib qolgan. Biroq XV asrda Amur Temur buyrug'i bilan butun mehrob atrofidagi devor va bitilgan yozuvlar ta'mirlanib, rangdor koshinburush (terrakota) bilan qoplangan. XVI asrda Abdulloxon bin Iskandar tarafidan (1551–1598) jiddiy qayta qurish amalga oshirilib, old qismida baland qubbali ayvon bilan uch oraliq peshayvon qurilgan, yoniga esa yangi minbar o'rnatilgan. Masjid minbaridan mashhur ulamolar xutba o'qiganlar. Jumladan, Naqshbandiya tariqatining peshvolari Xoja Muhammad Porso, Mahdumi A'zam, Xoja Islom Jo'yboriy kabilarning nomi tarixda keltirilgan. Shuni aytish joizki, Namozgoh masjidi shu davr ko'pgina mojarolarida sulh tuzish maydoni vazifasini ham bajargan.

Namozgoh masjidi qadimiy Buxoro shahrining janubiy chekkasiga qurilgan. U yiliga ikki marta shahar tashqarisiga chiqib, tantanali namoz o'qishga mo'ljallangan edi.

6.3.Kalon jome masjidi. (Masjidi Kalon)

Jome masjid Buxorodagi me'moriy yodgorlik hisoblanadi. Markaziy Osiyoda kattaligi bo'yicha Bibixonim masjididan keyin ikkinchi o'rinda turgan. Masjid temuriylar arxitekturasi an'analari asosida qurilgan bo'lib, qadama naqsh bilan bezatilgan. Kalon jome masjidi Movarounnahrda qurilgan ilk masjid bo'lib, 1997-yili Buxoro shahrining 2500 yilligiga tayyorgarlik jarayonida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbuslari bilan Masjidi Kalon to'liq ta'mirlangan. Buxoro shahri markazidagi tarixiy me'moriy yodgorliklar qatorida masjidi Kalon ham YUNESKO jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Masjidi Kalon inshooti o'rta asrlarning noyob me'morchilik namunasi bo'lib, uning o'rnida dastlab qoraxoniylar sulolasi hukmronligi davrida Juma masjidi bunyod etilgan. Shayboniylar davrida esa u Masjidi Kalon sifatida qayta qurildi. Masjidning hozirgi ko'rinishi Shayboniylar sulolasiga mansub xonlar tomonidan bunyod etilgan.

Me'moriy obidani bunyod ettirgan shaxslar haqida gapiradigan bo'lsak, inshootning ko'pgina qismlari Ubaydullaxon, Abdulazizxon va Abdullaxon davrida qurilgan. Abdulazizxon (1509-1550) Shayboniylardan, Ubaydullaxonning o'g'li, Xorazm hokimi (1538-1539) otasining vafoti (1540)dan so'ng mamlakatda ikki hokimiyatchilik yuzaga kelib, Abdulazizxon Buxoro xoni (1540-1550), Ko'chkinchixonning o'g'li Abdulatifxon esa Samarqand xoni (1540-1551) bo'lgan. Abdulazizxon o'z hukmronligi davrida davlat va aholi manfaatlarini ko'zlab qaror islohotlar o'tkazgan, ayrim soliqlar (tanob puli, tafovut va tavfiri va b.)ni bekor qilgan, Buxoro atrofini yangi devor bilan o'rashga kirishgan (uni Abdullaxon II bitkazgan bo'lib, XX asr boshlarigacha saqlangan). Bundan tashqari u Buxoroda madrasa, ulkan kutubxona, Bahouddin Naqshband qabristonida xonaqohlar bunyod ettirgan.

Abdullaxon (to'liq ismi: Abdulla ibn Iskandarxon ibn Jonibek sulton ibn Xoja Muhammad ibn Abdulxayrxon) (1534, Miyonqol, Ofarinkent qishlog'i – 1598, Samarqand, Buxoro yaqinidagi Bahouddin majmuasiga dafn etilgan) – o'zbek davlatchiligi tizimidagi Buxoro xonligining shayboniylar sulolasidan chiqqan eng yirik hukmdori (1583-1598), davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan, ma'rifat, madaniyat homiysi. Bobosi Jonibek sulton Karmana va Miyonqol hokimi bo'lgan. Otasi Iskandar sulton o'g'li tug'ilgan paytda Ofarinkentni, keyinchalik, aftidan aka-ukalaridan biri vafot etgach, Karmanani boshqargan. Abdullaxon II Shayboniyxon vafotidan keyin parchalanib ketgan mamlakat hududini qayta birlashtirish, markaziy davlat hokimiyatini mustahkamlash uchun yoshlik chog'idan qattiq kurash olib borgan. Abdullaxon II hukmronligi davrida Buxoroda ilm-fan, san'at, shaharsozlik, adabiyot va shu kabi sohalar gullab-yashnadi.

Buxoroning eski shahar qismida joylashgan Masjidi Kalon rivojlangan va so'nggi o'rta asrlarning o'ziga xos me'moriy inshooti bo'lib, 1121-yilda bunyod etilgan bo'lsa, 1514-yilda u qayta qurila boshlagan. Me'moriy obidaning bunyod etilishida xom va pishgan g'isht, loy, yog'och, tosh, ganch va chorsu pishiq g'ishtidan keng foydalanilgan.

Me'moriy obidaning dizayni haqida gapiradigan bo'lsak, masjid to'g'ri to'rtburchak tarhli (127×78 m), keng hovli atrofini gumbazli bostirma ayvon egallagan. 188 qubba (gumbazcha) 208 ustunga tayangan. Ular o'ziga xos mahobatli ko'rinishga ega bo'lib, ustunlarga keyinchalik murabba tarhli poyustunlar o'rnatilgan. Hovlining to'rt tomoni markazida naqshinkor peshtoqlar bor. Sharqdagi tashqi ulkan peshtoq mahobati va muhtasham bezagi bilan ajralib turadi. Masjidi Kalonning tashqi 7 eshigi bo'lib, asosiy sharqiy darvoza oldida va ichida keng ayvonlar joylashgan. Peshtoq ravoqidagi boloxona va uning yon tomonidagi qirrali ravoqlar koshin va sirlashgan g'ishtlar bilan bezatilgan.

Ayniqsa, ganchkori ravoqlar alohida ajralib turadi. Peshtoq orqali hovli to'ridagi xonaqoh maksuraga o'tiladi. Xonaqohning tashqi poygumbazi baland, moviy gumbazi uzoqdan tashlanib turadi. Ichki gumbaz bag'allariga "qolibkori" uslubida qator mayda ravoqcha (16 ta)lar ishlangan. Mehrob bezaklari nafis koshinkorlik san'atining yuksak namunasidir. Masjidi Kalonning bosh fasadi sharq tomonga qaragan. Yirik va mozoika bilan pardozlangan masjid peshtoqi biroz balandda joylashgan. Masjid hovlisiga bir necha pog'onali zinadan kiriladi. Hovlining ichki tarafida ikkita moviy gumbaz joylashgan. To'g'ri to'rtburchak shakliga ega bo'lgan bu hovlining atrofi 228 gumbazdan galereya bilan o'ralgan.

Me'moriy obidaning uslubini yoritir ekanmiz, Sharq me'morchiligining gumbazsimon "Chor" uslubida qurilgan. Me'moriy obidaning o'ziga xos tomonlari shundaki, uning hajmi va binokorlik bezakchiligi u darajada bo'lmasa-da, rejaviy masshtabligi jihatidan Samarqanddagi masjidlardan qolishmaydi. Masjidi Kalon (forscha – katta masjid) peshtoqi oldidagi sahdagi ko'shkni qayta ta'mirlashda (pavilyon) XX asrda Usta Shirin Murodov qatnashgan. Buxorodagi katta masjidlardan biri bo'lganligi uchun Masjidi Kalon nomi bilan atalgan. Me'moriy obidaning bugungi kundagi holati haqida gapirar ekanmiz, 1997-yil Buxoro shahrining 2500 yillik yubileyi munosabati bilan masjid qayta rekonstruksiyanidan chiqarildi va atrofi ko'kalamzorlashtirildi.

6.4. Boloi Hovuz masjidi tarixi.

Boloi Hovuz jome' masjidi 1712-yilda Ark qarshisidagi Registon maydonida qurilgan. Ark Buxoro amirlarining qarorgohi bo'lgan. Masjid qurilish sanasi Ashtarxoniylar sulolasining oxirgi podshohi Abulfayzxon (1711-1747-yillar) hukmronligi davriga to'g'ri keladi, lekin xonning o'zi tomonidan qurilmagan, balki uning amaldorlaridan biri taxminan Muhammad Hakimbey tomonidan qurilgan. Abulfayzxonning o'zi bu masjidni qura olmasdi, chunki o'sha davrda davlat g'aznasi bo'shab qolgan edi. Abulfayzxonning davomchisi Ubaydulloxon katta boy mulkdorlardan katta foizlar evaziga qarz olib iqtisodni tiklashga bo'lgan urinishi davlat iqtisodiyotini, qishloq xo'jaligini butunlay izdan chiqarib yuborgan va xon avlodining obro'sizlanishiga olib kelgan. Buning oqibatida katta yer egalari vaziyatdan foydalanib ko'pgina boylik orttirishgan va Abulfayzxon ularning qo'lida o'yinchoq bo'lib qolgan. Ko'rinib turibdiki bu holatda masjid xonning aynan o'zi tomonidan qurilishi imkonsiz bo'lgan.

Boloi Hovuz jome' masjidi XVII asrda qurilgan bizgacha yetib kelgan yagona yodgorlik bo'lib, uning tarixiy qiymati ham shunda. Boloi Hovuz jome' masjidi boshidan jome' masjidi sifatida qurilgan bo'lib, keyinchalik XIX asrga kelib ikki yon taraflariga xonalar barpo qilingan va madrasa sifatida foydalanilgan. Masjid shimoliy qismida bir necha hujrali va chiqish qismi hovliga olib chiquvchi madrasa bo'lgan, ammo hozirgi kunda undan asar ham qolmagan, faqatgina masjid

devorlari qurilish bo'lganini tasdiqlaydi xolos. Keyinchalik sharq tomonda 2-qavatda hujralar qurilgan.

Masjid simmetrik shaklda va qirralari perpendikulyar tarzda qurilgan. Masjidning sharq tomoni to'liq ayvon bilan o'ralgan. Masjid kvadrat shaklda bo'lib ichki qismi "x" tarzda qurilgan. Masjid mehrobi yarim sakkiz burchak shaklda qurilgan. Gumbazi yarim sfera tarzida qurilgan bo'lib ustki qismidan 3 gorizontali yo'nalishli g'isht qatori hamda 8 lentasimon qoplam bilan o'ralgan. Hujralar ikki tomonda 3 tadan hamda shimol tomonda 4 ta joylashgan. Masjid ayvoni 20 yog'ochli ustundan iborat. Hozirgi kunda faqatgina 2 ta ustun to'g'ri holatda qolganlari ancha egilgan va ta'mirtalab ahvolda. Ayvon yuqorisi maxsus bezatilgan va hashamatli qilib ishlangan.

1914-1917 yillarda xalq ustasi Usto Shirin Murodov tomonidan masjid kapital ta'mirlangan. Shunda usto masjid yaqinida bir minora ham qurgan. Hozirgi kunda Bolo Hovuz jome' masjidi minora, 8 burchakli hovuz va masjidni o'z ichiga oluvchi va 100 yillar davomida qurilgan yaxlit bir majmuadir. Masjiddan 20 m masofada hovuz joylashgan. Hovuz 8 burchak shaklida qurilgan. Uning chuqurligi 4.75 m. Hovuz, masjid va minora yaxlit bir majmuani shakllantirgan.

Malika Registon atrofidagi tijorat rastalarida savdo qiluvchi musulmonlarning ibodat qilishlariga qulaylik bo'lsin, deb jome masjidi va kambag'al miskinlar bemalol bilim olishlariga imkon yaratish maqsadida ushbu madrasani qurdiradi.

Bolo Hovuz xonaqohidagi hujralar soni o'ndan oshiq. XX asr boshlarida mashhur usta Shirin Murodov, usta Abdusalom va usta G'afur tomonidan qayta tamirlangan. Tamirlash mobaynida uning hovuzga tomon sharqiy qismiga bir necha go'zal ustunlar bilan ayvon qo'shilgan.

1704-yili rasmiylashtirilgan hujjatda voqifning ismi uning oliy tabaqaga mansub ayolligini ifodalaydigan sifatleri "davron Xadichasi", iboralari bilan berilgan. Hujjatning tepasida esa "Sitorai Mohi Xossa" nomi turibdi. Otasi marhum Xoja Mir Abdulloh, deb ko'rsatilgan. Demak bu oliy tabaqaga mansub ayolning otasi Ashtarxoniy Abdulazizxon va Subhonqulixonlar davrida yashagan. Mavjud malumotlar umumlashganda, bizda "zamon Bilqisi" Sitorai Mohi Xossa xonim Subhonqulixonning xotini va Ubaydullaxon hamda Abulfayzxonning onasi, ekani ma'lum bo'ldi.

Ilm ahli o'rtasida Sadri Ziyo taxallusi bilan tanilgan Muhammad Sharif Maxdum (1865-1932) Buxorodagi xonaqoh va masjidlar to'g'risida so'z yuritib: "Bolo Hovuz xonaqohi, atrofida tahoratxona va hujralari bor. Uni Mir Abdulloh xojaning qizi, Subhonqulixonning xotini, xon Shahidning 2-onasi Bibi Oyposhsha qurdirgan", deb yozadi. Malumotlar asosida Sitorai Mohi Xossa xonimning tarjimai holini qisqa lavhalarda bo'lsa-da, tasavvur qilishimizga imkon

beradi. U XVII asrning ikkinchi yarmida Xoja Mir Abdulloh xonadonida, Buxoroda tugʻilgan.

Amir Olimxon saroyi va “Boloi Hovuz madrasasi” nega bitta nom bilan atalib qolganiga ham qiziq boʻlsa kerak. Sitorai Mohi Xossa xonimning tarixdagi oʻrni aniq boʻlgach, bu ikki mashhur inshoot nomdoshligining ayrim sabablari oʻz - oʻzidan koʻrina boshladi. Avvalo “Sitorai Mohi Xossa” saroyining sohibi Amir Olimxon ushbu marifat olami malikasining sakkizinchi avlodi boʻlib chiqdi. U nasl- nasabda Amir Olimxon ibn Amir Abdulahad ibn Amir Muzaffar ibn Amir Nasrulloh ibn Amir Haydar ibn Shamsiyabonu binti Abdulmoʻminxon ibn Abulfayzxon koʻrinishida Sitorai Mohi Xossa (Oyposhsha bibi)ga borib ulanadi. Qurdirgan saroyi nomini ham uzoq katta buvisining xotirasi sharafiga qoʻygan boʻlishi mumkinligi barcha taxmin va naqllardan koʻra haqiqatga yaqin turibdi. XIX asrdagi mangʻit hukmdorlari hayoti bilan bogʻliq bazi marosimlarning “Boloi Hovuz” da oʻtkazilishi ham balki shundan dalolatdir.

Shuningdek, qurilishi qadimiyroq boʻlgan “Sitorai Mohi Xossa madrasasi” nomi unutilishining bitta sababi aniq. Bu joy oʻsha davrlardayoq “Boloi Hovuz” deb atalgan ikkinchi nomi bilan ham koʻproq mashhur edi. Bu nomi keyinchalik “Sitorai Mohi Xossa” ga parda boʻlib qoldi. Buxoroda Sitorai Moxi Xossa xonim kabi qavm ravnaqi, mamlakat obodligi, taraqqiyoti gʻamida oʻrnak boʻlarli ishlarni amalga oshirgan ayollar kam emas. Ularning har biri millat qalbining betakror ifori, shu yurt oʻtmishining bezagidir.

Tayanch iboralar: masjid, ibodat, musulmon, Magʻoki Attori masjidi, moh, jome masjid, juma masjid, Boloi hovuz masjidi, Namozgoh masjidi, kalon jome masjidi, inshoot, madrasa, xonaqoh, Abdullaxon, Sayfiddin boharziy” masjid.

Savol va topshiriqlar

1. Magʻogʻ deganda nimani tushunasiz?
2. XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi mavjud boʻlgan masjidlarni sanab bering
3. Namozgoh masjidi qachon qurilgan?
4. Masjidi Kalon meʼmoray obidasi haqida nimalarni bilasiz.
5. Boloi Hovuz jomeʼ masjidi qurilishi haqida maʼlumot bering.

Manba va adabiyotlar

1. Абу Бакр Мухаммад Наршахий . „Бухоро тарихи” . Тошкент, 1991.
2. “Ал-Бидоя ва Нихоя” Абдулло Исмоил ибн Касир . Байрут. 1990.
3. Садриддин Салим Бухорий . Масжиди Калон. „Бухоро хафтаномаси” . . 1996.
4. “Табакот аш-шифойия ал-кубро ”, Имом Тожиддин ас- Сукбий. Байрут 1991.
5. Р.Т Шамсиддинов, Б.Расулов „Туркистон мактаб ва мадрасалари тарихи”.(XIX охири ва XX аср бошлари). Андижон, 1995.

7-MAVZU: Buxoroning muqaddas qadamjolar me'morchiligi

7.1. Tabarruk manzillardagi diniy inshoot va ob'ektlar. Tug'lar.

Maqbara (arab, marqad, turbat)-biror mayitning jasadi joylashgan me'moriy inshoot, yoki tosh tobut (daxma, sag'ana). Maqbara usti qubbali chortoqli bino bo'lib, ramziy g'oyalarni o'zida ifodalagan. Chortoq-yer kurrasini ifoda etuvchi barqaror shakl, qubba-osmon gumbazi ramzi, bular birgalikda Koinotni anglatgan.

“Tug'” eski turkiy tilda “bayroq, bayroq yuqorisidagi buyum, harbiy qism bayrog'i” kabi ma'nolarni anglatgan. Tug'lar islom dinining ramziy belgisi bo'libgina qolmasdan, O'rta Osiyoda islom dini tarqalgunga qadar mahalliy xalq orasida ham foydalanilgan. Islom dini O'rta Osiyoga kirib kelishi bilan tug' ko'tarish transformatsiyaga uchragan. Endilikda tug'lar oldingi vazifasidan tashqari, islom dinining elementlarini ham o'zida aks ettirishi kerak bo'lgan. Ushbu tug'lar bugungi kunda saqlangan bo'lsada, xalq ularning tub mohiyatidan yiroqlashgan.

Tug'lar asosan, yirik avliyolar dafn qilingan maqbaralar ustiga o'rnatilgan. Ushbu tug'larning asosiy vazifasi avliyoning qabrini yoki uning atrofida joylashgan qabristonga boruvchi yo'lni ziyoratchilarga uzoqdan ko'rsatib turishdan iborat bo'lgan. Shuningdek, tug'lar uzun butadan tayyorlangan yuqoriga qarab ingichkalashib boruvchi tana, eng yuqori qism – “toji tug'”, tana va toji tug'ni bir-biriga mahkamlovchi band, o'ng qo'lning ochilgan kafti – “panja” (forsiyda), “hamsa” (arabiyda), uchburchak oq (ba'zan qora va jigarrang) mato, anor, qo'ng'iroqchalar, ot yoli yoki qo'tos dumi, yarim oy, besh qirrali yulduz va boshqa ramziy elementlar. Yarim oy va besh qirrali yulduz-islom dinida yarim oy vaqtning boshlanishini bildiradi. Shuning uchun uni turli joylarda uchratishimiz mumkin. Yulduz esa besh (sakkiz) qirrali bo'lib, doimo hilol (yangi oy) yoki biror aylana ichki qismiga joylashtirilgan.

Ziyoratgohlardagi tug'larning past-balandligi shu yerda yotgan qabr egasining hurmatini ham bildirdan. Yirik shayx, avliyolarning qabri ustiga qimmatbaho metaldan yirik tug'lar o'rnatilgan. Tug'lar XIV asrdan ziyorat joyining belgisi sifatida nisbatan ko'proq qo'llanila boshlangan. Tug'larni g'oziylarning qabriga o'rnatilishi ularning ham diniy, ham harbiy funksiyalarini ko'rsatadi. Tug' yuqorisidagi oq yoki qizil mato musulmon g'ozi qabrini bildirgan. Ko'chmanchilarda tug' yuqorisidagi oq mato «yaxlik», to'qima lentalar esa «xelem» deb yuritilgan. Arablarda harbiy bayroq «sayfi a'lam» diniy bayroq «bandi a'lam» deb yuritilgan.

Buxoro vohasida keng tarqalgan tug' ko'tarish odatiga keladigan bo'lsak, ularda “panja”, “anor”, “ot yoli”, “qo'ng'iroq”, “oy va yulduz” ramziy ahamiyat kasb etgan. Ularga quyidagicha alohida tasnif berish mumkin:

“Anor” - metall nusxasi „quddus as-sirruhu” ,ya’ni Ollloh sirlarini biluvchi va bu sirlarni Xizr (a.s.)dan o‘rgangan kishilarning qabrlari ustiga ko‘tarilgan. Shuningdek, anor tashqarisidan turib ichki qismi qandayligini bila olmaslik, ya’ni tashqi ko‘rinishga qarab baho bermaslik kerakligini anglatadi. Tasavvufiy qarashlarda, anor orqali islom dinining ichiga kirib borgan sari uning sirlari ko‘pligini tushintirishga ham harakat qilingan. Anor tasavvufiy ahamiyat kasb etgan bo‘lib, Buxoroning yetti pirlarining barchalari qabri ustidagi tug‘larning yuqori qismiga “tojitug‘” – “anor” o‘rnatilgan.

“Ot yoli” – yuqorida keltirilgan magik holatlardan tashqari ot yoli inson vafot etgandan so‘ng “sirot” – qil ko‘prikdan o‘tadi hamda u ot yoli kabi o‘ta mayin va kesgir bo‘ladi degan ma’no ham kasb etgan.

“Panja”-o‘ng qo‘lning ochilgan kafti. Bosh barmoq - Muhammad, ko‘rsatgich barmoq - Fotima, o‘rta barmoq - Ali, nikoh barmog‘i - Hasan, kichgina barmoq – Husaynlarning nomlari bitilgan. Ba’zi panjalarga “Alloh, Muhammad, Ali» ismlari yozilgan. Yana ba’zilariga kalimayi toyyiba “Lo iloha illolloh Muhammadar-rasulolloh, “Alloh, Muhammad, Fotima, Ali, Hasan, Husayn” ismlari yozilgan.

Bahouddin Naqshband ziyoratgohidan keltirilgan tug‘ juda yirik bo‘lib, unda “Yo Ollloh, amali usto Abdulhakim (tayyorlagan usta nomi), 1300 hijriy (milodiy 1882-1883-yil)” so‘zlari tushirilgan. Tug‘lar ko‘rsatgich vazifasini ham bajargan. Avliyo qabri atrofida mahalliy kishilarning dafn qilinishi natijasida o‘sha hudud yirik qabristonga aylangan. Tug‘ esa ziyoratchilarga avliyoning qabri qayerdaligini ko‘rsatib turgan.

7.2. Chashma-Ayub maqbarasi-sobirlar sultonining sabr chashmasi.

Buxoroning mo‘jiza obidasi–Chashmai Ayub (ya’ni “Ayub bulog‘i”) maqbarasi saqlanib qolgan. U XIV–XIX asrlar mobaynida ko‘p bor qaytadan qurilgan murakkab yodgorlik bo‘lib, oqibatda, turli o‘lchamdagi xonalar ustida shaklan xilma-xil bo‘lgan gumbazlar bilan tugallangan cho‘zinchoq qirrador shaklga kirib qolgan. Maqbara xilxonalar devorlariga yozilgan yozuvlar shuni ko‘rsatadiki, u Amir Temur ko‘rsatmasiga binoan 1379-yili qurilgan. Maqbara g‘arbdan sharqqa cho‘zilgan to‘rtburchak shaklga ega bo‘lgan. Sathi – 19x26 metr.

Chashmai Ayub maqbarasi qadimiy va mashhur mozor o‘rnida Ayub payg‘ambarning soxta qabri ustiga bunyod etilgan Buxoroning o‘ziga xos obidasidir. U ba’zan maqbara deb yuritiladi, vaholanki, u maqbara emas, balki qadamjodir, ya’ni payg‘ambarning qadam qo‘ygan joyi (Ayub alayhissalomning qadami ko‘zda tutilgan). Rivoyatlarga qaraganda, u bu suvsiz joydan o‘ta turib, hassasi bilan yerga urgan va chashma hosil bo‘lgan. Ayub payg‘ambarni e’zozlash islomdan oldingi davrlarda suvga sig‘inish bilan bog‘liq ravishda vujudga kelgan bo‘lsa kerak.

Tarixiy manbalarda aytilishicha, bino qurilishi bir necha davrni o'z ichiga oladi. Taxmin qilinishicha, uning qadimiy qismi XII asrga borib taqaladi. XVI asrda Abdulloxon bin Iskandarxon buyrug'i bilan maqbarada ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan. Binoda oltita xona bo'lib, ularning ichki qismida buloq joylashgan, uning ortida katta mehrobli masjid savlat to'kib turibdi. Maqbara g'arbdan sharqqa cho'zilgan to'rtburchak shaklga ega bo'lib, ko'p gumbazli va unitib turuvchi baland silindr shakldagi gumbazli qism ajralib turibdi. Rivoyatlarga ko'ra, bu gumbaz Amir Temurning Urganchga qilgan zafarli yurishlari va Xorazmni zabt etgandan keyin Buxoroga olib kelingan ustalar tomonidan bunyod etilgan. Xuddi o'sha davrda aynan xorazmlik ustalar Shahrisabzda Amir Temurning o'g'li Jahongir uchun chodirsimon gumbazli maqbara qurishgan. Binobarin, Buxoroning bulog'i ustidagi inshoot ancha oldin qurila boshlagan bo'lishi mumkin. Yana shuni aytish joizki, maqbarada Imom Buxoriyning ustozlari Abdulloh ibn Muhammad Musnadiy va Ahmad ibn Ishoq as-Surmoriy ham shu yerga dafn etilganligi aytilgan.

7.3. Somoniylar maqbarasi – sakkizinchi mo'jiza.

Ismoil Somoniy maqbarasi-Somoniylar davri me'morchiligining nodir namunalaridan biri bo'lgan bu tarixiy obida Ismoil Somoniy tomonidan bunyod etilgan.

Ismoil Somoniy maqbarasi o'rta asrlarning rivojlangan davrida 864-868-yillar oralig'ida, hozirgi Buxoroning eski shahar qismida qurilgan. Inshoot qabr vazifasini bajarganligi sababli, uning interyeri uch pog'onali (to'rtlik – to'rt devor, sakkizlik – devordan tomga o'tish qismi va gumbaz – tom ko'rinishdagi) bir xonali kvadrat shaklni burchagi ustunsimon shaklda ishlangan, gumbaz atrofiga 4 qubba o'rnatilgan.

Devor tepasida kungirasimon darcha (40 ta) mavjud. Har bir darcha hoshiyalangan. Uning qurilishida pishgan g'isht, tosh va yog'ochdan foydalanilgan. Maqbaraning dizayniga to'xtaladigan bo'lsak, jimjima g'ishtin bezaklari chiviqli to'siq yoki qamish, bo'yra to'qimasini eslatadi. Devor qalinligi – 1,8 metr., tarhi – tashqarisi 10,80×10,70 metr., ichkarisi 7,20×7,20 metr. Usti gumbaz bilan qoplangan.

Ravoq tepasidagi qanos g'ishtin tangachalar marjoni bilan chegaralangan. Ikki chetiga mayda-mayda g'ishtdan chorsu tumor yasalgan. Bino ichkarisi tashqaridagi bino bilan uzviy bog'liq bo'lib, uslub jihatidan bir xil. Ichki devor gumbaz osti bag'alidagi ustma-ust ravoqchalar – ustunchalarga tayangan. Ravoqchalar 8 qirrali gumbaz asosini tashkil qiladi. Qirralar burchagiga gumbazga tirgaklik qiluvchi ustunchalar ishlangan. Arxeologik qazilma vaqtida (1927) xona sahnida 2 yog'och sag'ana borligi aniqlangan. Ismoil Somoniy maqbarasi 4 tomoni

bir xil chordara shaklida, uning tuzilishida qadimiy sug‘d me‘morchiligining an‘analari saqlanib qolgan buyuk me‘moriy asar.

Ismoil Somoniy maqbarasi IX asrda Buxoroda me‘morchilik san‘ati, binokorlik texnikasining naqadar yuksalganligini va rivojlanganligini ko‘rsatadi. Ana o‘sha davrdan boshlab binokorlikda yuqori sifatli pishgan g‘isht, albastrli qorishmalar ishlatilgan. Ushbu nodir obidani tiklashgacha bo‘lgan davrda Buxoroda matematik bilimlar, xususan geometriya juda yaxshi rivojlangan.

Ismoil Somoniy maqbarasi markazlashma inshoot bo‘lib, uning asosiy hajmini to‘rt devori ko‘tarilgan sari bilinar-bilinmas yengil qiyshaytirilgan kub va fazoviy gumbaz tashkil qiladi. Devor kvadratlari bilan gumbazni tutashtiruvchi konstruksiya inshootning o‘ziga xos jihatlaridan hisoblanadi. Maqbaraning barcha fasadlari bir xilda bajarilgan. Devorlar ichkari va tashqi tomondan bezakli qilib yuqori sifatli pishgan g‘ishtdan bejirim terilgan, qurilishda o‘ymakorlik usullaridan ham foydalanilgan.

Demak, Ismoil Somoniy maqbarasining hajm–samoviy va konstruktiv strukturasi undan keyin qurilgan gumbazli binolarning rivojlanishini aniqlab bergan. Me‘moriy naqshlar, chiroyli jimjimador bezak elementlari, nihoyatda go‘zal va bejirim badiiy ifodalar o‘sha davrda g‘isht terish san‘atining gullab-yashnaganligidan dalolat beradi. Maqbaradagi g‘ishtlarning yuksak badiiy did bilan terilganligi uning jahon me‘morchiligi ajoyib durdonalari silsilasidan o‘rin olishiga asos yaratgan.

Maqbara gumbazsimon, Movarounnahr va Xuroson me‘morchiligining o‘ziga xos “Chor” uslubida qurilgan. Me‘moriy obidaning o‘ziga xos tomoni shundaki, u O‘rta Osiyo arxitektura va san‘at tarixidagi dastlabki maqbaralardan biridir. Ismoil Somoniy maqbarasi loyihasidan tortib, hajmiy tuzilishigacha geometrik tartib asosida yaratilganligi uning boshqa maqbaralardan farqlantiruvchi xususiyatidir. Maqbara o‘z davrida somoniy amirlari dafn etilgan daxma hisoblangan.

7.4. Imom Hojatbaror yoxud Abu Xafs Kabir Buxoriy maqbarasi.

Shaharning qadimiy Nov darvozasi yonidagi ko‘hna tepalikda joylashgan Abu Hafs Kabir Buxoriy qadamjosi shunday makonlardan. “Hazrati Imomi Hojatbaror” nomi bilan shuhrat qozongan ushbu allomaning buyuk xizmatlari va sharofatlari bois Buxoro IX asrdayoq “Qubbat ul -islom”, ya‘ni “Islom dinining gumbazi” degan unvonga sazovor bo‘lgan. Ulug‘ martabaga erishgan Abu Hafs Ahmad ibn Hafs az-Zirakon Abdulloh al-Buxoriy milodiy 767-yilda Buxoroda tug‘ilganlar. O‘z ismlari Sayyid Ahmad. Yuksak ilmi tufayli "Kabir" (Buyuk), sohibi karomat sifatleri sabab "Hojatbaror" deya e‘zozlangan.

Tarixchi Narshaxiy Buxorodagi qadim "Dari Haqrah" darvozasi haqida so‘z yuritib, Xoja Imom Abu Hafs Kabir o‘sha mahallada turganligini ... Bu viloyatda (Buxoro) unga teng kishi bo‘lmaganligini, ham olim, ham zohid sifatleri

hurmatidan "Qubbatul Islom", deb atalgani va xususan: "Buxoro ahlining ilmli bo'lishiga, Buxoroda ilm keng tarqalishi, imom va ulamolarning hurmatli bo'lishiga u kishi sabab bo'lgan", deb ta'kidlaydilar.

Xoja Imom Abu Hafs bir kecha-kunduzda Qur'oni Karimni ikki marta xatm qilar va toliblarga ilm o'rgatar ekanlar. Keksaygan chog'larida kuniga bir marotaba, umrlari oxirida yarmini xatm qilganlar. Etti yoshlarida Qur'oni Karimni to'liq yodlaganlar. Hazrat Abu Hafs Kabir 832- milodiy yilda Buxoroda olamdan o'tganlar. Qabrlari hurmat ila ziyorat etiladi. Hujralar, hovuz, minora va boshqa obidalar orasta ta'mirlanib, bir bog' ham barpo etilgan hamda ulkan xayrli ishlar amalga oshirilgan.

7.5. Sayfiddin Boharziy maqbarasi. Turki Jandi maqbarasi. Xo'ja Ismat ziyoratgohi. Bayonqulixon maqbarasi.

Sayfiddin Boharziy maqbarasi—Buxorodagi me'moriy yodgorlik (XIII — XIV asrlar). Buxoroning sharqiy qismi (eski Fathobod mavzei) da 2 maqbara — Bayonqulixon maqbarasi va Sayfiddin Boharziy Maqbarasi bunyod etilgan. Sayfiddin Boharziy maqbarasining kichik go'rxonasi (XIII asr 2-yarmi) va ziyoratxonasi (XIV asr 2-yarmi) charxi gumbazli. Bosh tarzidagi peshtoq chuqur ravoqli, 2 yoniga guldastalar ishlangan. Peshtoq va guldasta oralig'idagi yassi mehrobiy tokchalarga tuynuklar qilingan. Peshtoq yuqorisida ravoqli darchalar bor. Ziyoratxona va go'rxona ichidagi gumbaz osti bag'ali 8 va 16 qirrali muqarnas bezaklar bilan to'ldirilgan. Maqbaraga Shayx Sayfiddin Boharziy, uning 2 o'g'li Jamoliddin Muhammad va Mazhariddin Mutahhar, shuningdek, nevarasi Abu Mufaxir Yahyo, evaralari Xovand Burhoniddin, Ruhiddin Shayx Dovudlar dafn etilgan.

Amir Temur Buxoroga tashrif buyurganda Shayx qabrini albatta, ziyorat qilgan. Uning farmoni bilan maqbara obod qilinib, ziyoratxona va sharqiy peshtoq qurilgan. Shayx qabri ustidagi yog'och sag'ananing yasalish uslubi, zarhal bezaklari Amir Temur davri yog'och o'ymakorligi san'atining noyob yodgorligi hisoblanadi. Sag'anada tug'ilgan va vafot etgan sana, Qur'ondan oyatlar, Shayxni madh etuvchi madhiyalar, rang-barang naqshlar o'zaro uyg'unlashgan. Mustaqillikdan keyin Sayfiddin Boharziy maqbarasi qayta ta'mirlanib, yodgorlik atrofida go'zal "Fathobod bog'i" bunyod etildi.

Turki Jandi maqbarasi. X asrda yashab o'tgan, asl ismlari Abu Nasr Ahmad ibn al-Fazl ibn Muso al-Muzakkir bo'lgan. Bu ulug' zot Turki Jandi hazratlari nomi bilan mashhur bo'lganlar. Yoshliklarida ilm olish, Buxoro madrasalarida o'qish maqsadida Jand (Sirdaryo bo'yidagi qadimiy shahar)dan Buxoroi Sharifga kelgan bul zot olim, orif, muhaddis va valiyulloh darajasiga yetganlar. "Tuhfat az zoirin" va "Kitobi Mullazoda" (XV asr) asarida Turki Jandi maqbarasi zikri haqida quyidagi ma'lumotlar bitilgan: "Uning qabri shaharning janubida joylashgan va

shahar imoratlariga tutashib ketgan: ash–shayx ul-imom Abu Nasr Ahmad ibn al-Fazl ibn Muso al-Muzakkir al-Jandiyning munavvar qabri o‘sha yerda joylashgan va u shayx Abu Bakr ibn Ishaq al-Kalobodiyning o‘quvchilari va sahobalaridan biri, Alloh Taollo uning ruhini muqaddas qilsin va u odamlar va parilar peshvosi, viloyat va karomat sohibi edi”.

Shayx Turki Jandi xoklari qo‘yilgan joy Buxoro shahridagi mashhur ziyoratgohlardan biri hisoblanib, shu nomdagi (xalq orasida Tayi pushta ham deyiladi) guzarda joylashgan. U yerda XX asrning 70-yillariga qadar bir necha qavatli pushta (sag‘ana)lar joylashgan ziyoratgoh bo‘lgan. Bu ziyoratgoh hozir Buxoro shahridagi Namozgoh ko‘chasida joylashgan. Bu ziyoratgohda XII, XIV, XVI asrlarda barpo etilgan masjidida shayx va karomat sohibi Turki Jandi maqbarasi o‘rnashgan.

O‘z davrida buxoroliklar orasida shunday odat taomilga kirgan:

Turki Jandi ziyoratgohi oldidan yo‘lovchilar ulovlaridan tushib piyoda o‘tganlar. Shayxning hurmatini joyiga qo‘ymagan yoinki, shunday odat borligini bilmagan chavandozlar esa bu hududdan o‘tayotganda o‘z ulovlaridan yiqilib tushganligi haqidagi rivoyatlar keng tarqalgan.

Turki Jandi masjidi ichidagi quduq ham tabarruk hisoblanadi. Quduq suvining shifobaxshligi Makkai Mukarramadagi “Zam-Zam” qudug‘i bilan ko‘rinmas yo‘l orqali bog‘langanligi bilan izohlanadi.

Rivoyatlarga qaraganda, Turki Jandi qudug‘i ustida turadigan sirtiga Qur‘on oyatlari bitilgan mis jom quduqqa tushib ketib, bir muddat o‘tgach, Makkatullo qudug‘idan chiqqan. Bir qancha vaqtdan keyin esa o‘sha jom Makkatullo qudug‘iga tushib ketib, yana Turki Jandi qudug‘idan topilgan.

Turki Jandi va Chashmai Ayub maqbaralari bir davrga mansub inshootlar bo‘lib hisoblanadi. Temuriylar davrida esa XII asrga barpo etilgan maqbara gumbazi ta‘mirlangan va ziyoratxona barpo etilgan.

Ziyoratgohning maqbara qismi tashqi gumbazi baland silindrik asosga o‘rnatilgan bo‘lib, uzoqdan ko‘zga tashlanib turadi va binoning shakl-u shamoyilini namoyish etadi. Ichki konstruktiv gumbaz esa qalqonsimon bag‘allar yordamida ko‘tarilgan to‘rtta o‘zaro kesishgan ravoqlar ustiga o‘rnatilgan. Temuriylar davrida vujudga kelgan gumbaz osti konstruksiyalar shaklini Buxoroda ilk bor aynan Turki Jandi maqbarasida uchratish mumkin.

Maqbaraga XVI asrda qurilgan peshtoq orqali kiriladi. XIX asr boshida o‘rnatilgan kirish eshigi ikki tabaqali bo‘lib, uning har ikkala dilagida arab hatotlik yozuvi turlaridan bo‘lmish “nasta‘liq xatida” tarix bitilgan. Turki Jandiy maqbarasiga kelib ma‘naviy ozuqa olgin, Ko‘ngillar Haq Taoloning yodida ekanligini ko‘rgin. Hojatmandlar uchun hojatlari bo‘ladi ravo, ruhiy kasalliklar uchun davo borligini ko‘rgan.

Hazrati Rahmon muvaffaqiyat berib, Iltijolar makonida toza niyatlar ijobatini ko‘rgin. Uning boshi yaqiniga bosh urib ta’rixni yozdi: “Firdavs jannatin yonidan bir eshik ochilganini ko‘rgin”.

Xo‘ja Ismat ziyoratgohi. Buxoro shahrining Shayx Jalol darvozasidan chiqib, janub tomonga yurilsa, Hazrat Xoja Ismatulloh ziyoratgohlari ko‘rinadi. Viloyat kasalxonasi janubida joylashgan Xoja Ismatullo maqbarasi va chashmasi mavjud. Xoja Ismatning haqiqiy nomi-Xoja Faxriddin Ismatullo Buxoriy binni Xoja Ma’sud. U 1365-yilda tug‘ilgan va 1436-yilda vafot etgan. Xoja Ismatullo o‘zining davrining yirik shoiri, faylasufi, ulug‘ tarbiyachi, sufiy, pir, ma’rifatparvar zot bo‘lgan.

Xoja Ismatulloh poklik, halollik, ezgulik timsoliga aylanib, faqirona hayot kechirganlar. O‘z taxalluslari “Ismat”-poklik, begunohlik, ma’sumlik, degan ma’noni anglatgan. Xoja Ismatulloh islom dini yo‘lida xizmat etganlari bois Faxriddin, ya’ni dinning faxri unvoniga sazovor bo‘lganlar. U kishining tashabbuslari bilan Buxoroyi sharifda juda ko‘p savob ishlar amalga oshgan. Xojaning kulbalari yetim, beva-bechoralarga boshpana bo‘lgan. Xoja Ismatulloh hovlilarining atrofida katta bog‘ barpo qilganlar. Bu bog‘dan tushgan daromadni beva-bechoralarga, yetim, kambag‘allarga berganlar.

Mavloni Xoja Ismatulloh valiyulloh edilar. Alloh Taollo u kishiga karomat ato etgan. Teri kasalligiga chalinganlar Xoja Ismatulloh huzuriga kelib, u yerdagi chashma suviga yuvinsa, chashma loyidan olib surtsa va Alloh Taollodan dardiga shifo tilasa, beshak Alloh Taollo uning dardiga shifo ato etadi.

Buxoro ahli shuning uchun ularning qabrlarini nafaqat diniy, balki tibbiy ziyoratgohga aylantirgan. Hozirgi davrga ham ushbu muqaddas qadamjoyga yuzlab kishilar davo maqsadida keladilar, u yerda joylashgan quduq suvidan ishlatadilar.

Rivoyat etishlaricha, Xoja Ismatulloh vasiyat qilib: “Meni o‘z xonamga dafn qilinglar! Men Buxoroning qalqoni bo‘lgum, janubdan hargiz yov xuruj qilib bilmas. Mabodo yov kelsa, mening suyaklarimni bosib, maydalab-maydalab o‘tsin!”-degan ekanlar. Darhaqiqat, ul zoti sharif ona –shaharlari qalqoni bo‘lganki, mana shu valiyulloh sharofatlaridan yov hargiz Buxoro janubidan shaharga xuruj qilmagan ekan. Bu ham avliyoning karomatidir!

Bayonqulixon maqbarasi — O‘rta Osiyo me’morligi noyob namunasi (XIV-asr o‘rtasi). Buxorodagi Shayxul olam Sayfiddin Boharziy qabri yaqinida Chig‘atoy ulusi xoni Bayonqulixon qabri ustiga qurilgan. Maqbara binosi mo‘jaz va serhasham. Ayniqsa peshtoqi mayda va nafis naqshga, sirkor bezaklarga boy. Ichkarisi gumbazli, sirkor bezakli ziyoratxona va kichik go‘rxonadan iborat. Ular lojuvard, feruza, oq rangli, islmiy va girih naqshli o‘ymakor sopol parchinlari bilan ishlangan. O‘rta Osiyo maqbaralaridagi mana shunday rangdor manzarali

bezak uslubi Shohizinda ansambli (Samarqand)da yanada rivoj topgan. Bayonqulixon maqbarasi Amir Temur davri me'morligining ilk namunalaridan hisoblanadi.

7.9. Xonaqohlar.

Xonaqoh-katta bino yoki uning asosiy xonasi: 1) diniy me'moriy inshootlar (masjid, madrasa va b.)dagi katta xona (zal), ziyoratchilar uchun qurilgan jamoatxonalar, hujralar ham shunday ataladi; 2) sufiylar mashg'ulotlarini o'tkazishga mo'ljallangan katta xona va uning atrofiga qurilgan hujralardan iborat me'moriy maskan; 3) mahalla, qishloq masjidlarining tomi (yopmasi) gumbazli, yoki tekis bo'lgan qishki qismi.

Xonaqoh odatda, murabba, yoki to'rtburchak tarhli bo'lib, bir necha kirish eshigiga ega bo'lgan. Asosiy kirish eshigi an'anaviy usulda baland peshtoqli qilib qurilgan, eshiklar tobadoniga yog'och panjaralar o'rnatilgan, ichi oddiy, ravoqli, tokchali, mehrobi serhasham bezatilgan. Binolar tarkibidagi xonaqoh maqbara bo'lgan, yoki shunga o'xshash vazifani bajargan. Mahalla masjidleri xonaqoh gumbaz tomli qilib qurilsa ham, ayvonining shifti tekis bo'lgan. Ko'p holatlarda xonaqoh ham, ayvon ham bir xil to'sinli qilib qurilgan. Yirik xonaqohlar amaliy bezak san'ati namunalari (ganch va yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik va b.) bilan jozibador bezatilgan.

Buxorodagi Xo'ja Zaynuddin, Chor Bakr, Qosim Shayx, Fayziobod xonaqosi, Nodir devonbegi va Abdulazizxon xonaqohlari diqqatga sazovor. Xonaqoh maxsus bino sifatida O'rta Osiyoda Amir Temur davrida ham ma'lum bo'lgan, XVI asrdan keng miqyosda qurila boshlagan. Vaqt o'tishi bilan xonaqohning vazifasi o'zgarib borgan, so'nggi o'rta asrlarga kelib xonaqoh darveshlar zikr-u samo, qiladigan maskanga aylana boshlagan.

Buxoroda xonaqohlar institutining vujudga kelishi IX asr oxiri va X asr boshlariga to'g'ri kelib, bu bosqichda islomiyatda ro'y bergan xufiyona sufiylik harakati bu o'lkada endigina shakllanib boshlagan edi. Bu davrdagi xonaqohlar sufiylar uchun ilk boshpana rolini bajarib shaharlardan chekkalarda joylashgan va sufiylarning miskin hayot kechirishi uchun xizmat qilgan. Ayrim xonaqohlar hovlilarida (masalan, Buxoroda Fatxobodagi Sayf ad-din Boharzi xonaqosida) hovuz bo'lgan. Undan nafaqat ichimlik suvi manbai, balki xo'jalik ehtiyojlari uchun ham foydalanilgan.

Tayanch iboralar: maqbara, tug', ziyoratgoh, qadamjo, xonaqoh, qabr, ziyorat, dahma, Ismoil Somoniy, inshoot, me'morchilik, Chashmai Ayub, bino, Hafs Kabir, arxitektura.

Savol va topshiriqlar

1. Maqbara deganda nimani tushunasiz?
2. Chashmai Ayub maqbarasi qachon barpo etilgan?

3. Tugʻlarning koʻrinishini izohlab bering.
4. Ismoil Somoniy maqbarasi kim tomonidan va qachon qurilgan?
5. Abu Xafs Kabir Buxoriy maqbarasi haqida qanday maʼlumotga egasiz.

Manba va adabiyotlar

1. Нарзулла Йўлдошев Бухоро авлиёларнинг тарихи. Бухоро. Бухоро. 1997. Б-144.
2. Садриддин Салим Бухорий Бухоронинг табаррук зиёратгоғлари. Тошкент. Наврўз. 2015. Б-359.
3. Бабаджанов Б.М., Некрасова Е. Туг // Ислам на территории бывшей Российской империи: энциклопед. слов. М., 2006. Том I. С. 384.
4. Терлецкий Н.С. Некоторые древние атрибуты мусульманских мест паломничества и поклонения (к вопросу о функциях и символизме туга). Рахимов Р.Р., Резван М.Е. (отв. ред.) Центральная Азия. Традиция в условиях перемен. Выпуск 2. СПб. 2009. С. 149
5. Йўлдошев Н. IX-XIV асрларда авлиё даражасига кўтарилган бухоролик машоих ва авлиёлар. Бухоро. 1992.

8-Mavzu: Buxoro minoralari va ularning me'morchiligi

8.1. Minoralarining qurilish maqsadlari va vazifalari.

O'zbekistonning boy me'moriy an'analari jahon madaniy merosi rivojining barcha bosqichlari, nodir me'moriy asarlarining turli-tuman ko'rinishlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, minoralar kabi o'ziga xos inshootlar me'morchiligida ham ma'lum darajada sezilarli iz qoldirgan.

Minora (arab. — mayoq) — gorizonttal (eni) o'lchamiga nisbatan vertikal (tik) o'lchami ortiq bo'lgan baland inshoot. Minoralar aylana, ko'p qirrali yoki to'rtburchak shaklida barpo qilinib, yuqoriga tomon ingichkalashib boradi. Inshootning yuqorisiga chiqish uchun uning ichida aylanma zina bo'ladi. Qadimdan minoralar masjid va madrasalar yonida yoki ularga tutash qurilgan. Muazzin minoraga chiqib azon aytib, namozxonlarni namozga chorlagan. Shuningdek, minoralardan soqchixona vazifasida ham foydalanilgan.

Ba'zi minoralar shaharga, ma'lum bir ansamblga ko'rk va salobat berish hamda uni qurdirgan shaharning kuch-qudratini namoyish qilish uchun ham bunyod etilgan. Buxorodagi „Chor minor“ o'ziga xos to'rt minorali me'moriy yodgorlik hisoblanadi.

Buxoro hududidagi qadimiy minoralarining tuzilishi o'ziga xos milliy me'morlik an'analari asosida qurilgan. G'ishtni mavj uslubida terib, yozuvlarni qo'llash orqali badiiy ifodaviylikka erishilgan. Minoralarga joziba baxsh etilgan. Qadimgi me'morchilik an'alariga tayangan mahalliy me'morchilik maktablarining rivojlanishi bilan minoralar bezagida rangli sopol koshinlar qo'llangan. Buyuk Ipak yo'li madaniy, savdo yo'llarida muhim markazlar hisoblangan Buxoroda bunyod etilgan minora dastlab ular karvon yo'llarini belgilovchi mayoq, shaharlar aholisini tashqi xavfdan ogoh etuvchi kuzatuv minoralari vazifalarini o'tash uchun qurilgani shubhasizdir.

IX-X asrlardan boshlab bu turdagi inshootlar diniy maqsadlarda qurilgan. Buxorodagi bu davr minoralarining me'moriy-konstruktiv yechimi yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarishga mos qilingani bundan dalolat beradi. XII asrdayoq Markaziy Osiyoda minoralarining keyingi rivojlanish bosqichlarini belgilab bergan Minorai Kalonning me'moriy yechimi va badiiy-estetik ko'rinishlari, uning me'moriy qismlari, nisbatlari, kompozitsiyaviy tugalligi Yaqin Sharq va Mag'rib minoralaridan farqli ravishda XIX asrgacha Markaziy Osiyo me'morchiligida bunyod etilib kelingan aksariyat minoralar uchun etalon vazifasini o'tagan.

O'zbekiston hududidagi minoralarining balandligi ancha yuqori bo'lganlarining aksariyati qadimda poytaxt maqomini olgan shaharlarda bunyod etilgani aniqlangan. Buxoro minoralari shular jumlasidandir.

8.2. Minorai Kalon- sharif shaharning boqiylik timsoli.

Buxoroda ko'plab minoralar mavjudki, ular qariyb o'ttiz asrni qarshilagan Sharif shahar husniga ko'rk qo'shib kelmoqda. Buxoro minoralari orasida Minorai Kalon (Kalon minorasi) o'zining mahobati, naqshlarining murakkabligi, bejirimligi hamda ne-ne jang-u jadallar va tabiat sinovlariga dosh berib kelayotganligi bilan alohida ajralib turadi. Minoralar turli davrlarda turli vazifalarni bajargan. Qadimdan minoralar masjid va madrasalar yonida ularga tutash qurilgan.

Minorai Kalon Buxorodagi betakror me'moriy yodgorlik hisoblanadi. Qaysidir ma'noda qadim Buxoroning ramzi desak ham bo'ladi. Minora Poyi Kalon me'moriy majmuasining bir qismi. U Mir Arab madrasasi hamda Kalon Masjidining o'rtasida qad rostlagan. Eski Buxoroning eng baland inshootidir. Minorai Kalon tojik tilidan tarjima qilinganda katta minora ma'nosini anglatadi. Minora arabcha so'z bo'lib, «Baland inshoot» degan ma'noni anglatadi. Minora, aslida, masjid va madrasalar yonida yoki ularga tutash qurilgan bo'lib, namoz o'qishga undaydigan azon chaqirish uchun mo'ljallangan joy vazifasini bajaradi. Tarixiy manbalarda minoralarning ayrimlari dushman qo'shinlarini kuzatuvchi soqchixonasifatida va bir majmuaga ko'rk va salobat berish hamda uni qurdirgan shaxsning kuch-qudratini namoyish qilish uchun ham bunyod etilgan.

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kitobida yozilishicha, birinchi Minorani Buxoroda Abu Abdulloh al Jahoniy 918-919 -yil qurdirgan. Bu Minora qulagandan so'ng Arslonxon yangi Minora binosini qilishga farmon beradi. Minora qurilishi oxiriga yetmay qulaydi.

Uning o'rnida avval ham minora bo'lgan, u qulab tushgach, mustahkam qilib qayta qurilgan. Minoraning hozirgi ko'rinishi o'sha vaqtda bunyod etilgan. O'z vaqtida Minorai Kalon yuqoridan kuzatish, hamda aholini namozga chaqirish uchun xizmat qilgan.

O'shanda bundan ko'zlangan asosiy maqsad hammani namozga chorlashdan iborat bo'lgan. Ammo minora so'zining lug'aviy tarjimasi, arabchada "mayoq" ma'nosini bildirib, gorizontal o'lchamga nisbatan vertikal o'lchami ortiq bo'lgan baland inshootni ifodalaydi. Shu sababdan muhim savdo-sotiq markazi, Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan Buxoroga ko'plab karvonlar, savdogarlar qum barxanli sahrolardan oshib kelishgan.

Buxoro atrofidagi suvsiz sahrolarga karvonlar yo'ldan adashib halok bo'lish hollari uchrab turardi. Shuning oldini olish maqsadida Arslonxon shaharda baland bir inshoot qurdirishni niyat qiladi. Inshoot loyihalari bo'yicha tanlov e'lon qilishadi. 1124-yili mashhur me'morlar tomonidan taqdim etilgan loyihalar bilan Arslonxon shaxsan o'zi tanishadi va o'z davrining mashhur me'mori usta Baqoning loyahasini ma'qullaydi. Shu tariqa 1124-yilning 21-mart kuni – Yilboshi bayram ayyomida minora qurilishiga oq fотиha beriladi va birinchi g'ishtni —

tamal toshini hoqon Arslonxonning o‘zi qo‘yadi. Qurilish uch yarim yilcha davom etadi.

Minora 1127-yilda so‘nggi qoraxoniylar hukmdori Arslonxon farmoniga muvofiq, Usta Baqo boshchiligida qurilgan bo‘lib, Poydevori tosh va maxsus qorishmadan terilgan. Yer sathidan 9 m chuqur, pishiq g‘ishtdan geometrik naqshinkor shakllar uslubida ishlangan. Uning balandligi 47 yarim metr (poydevori bilan 50 metr), aylanma eni 9 metr. Tepaga minora ichidagi 105 pillapoya aylanma zina orqali chiqiladi. Minoraning yuqori qismi salla shaklida g‘isht o‘ymakorligi bilan bezatilib, karniz holatiga keltirilgan. O‘qsimon tirgak (ba‘zi olimlar fikriga binoan) o‘rtasida Arslonxonning nomi bitilgan. Binokor ustaning nomi (Baqo) ham topilgan bo‘lib, mahalliy aholi uning qabrini qo‘shni mahalladagi uylar orasida, deb ko‘rsatadi. Usta Baqo Movarounnahrda xos bo‘lgan, yuqoriga qarab ingichkalashib boruvchi dumaloq o‘qli g‘ishtin minora bunyod etgan. Minora ichida g‘ishtin aylanma zinapoya bo‘lib, u hashamdor stalaktitli karniz-sharafa ko‘rinishida terilgan g‘ishtlarga tayanuvchi ravoqli rutonda-fonus maydonchasiga olib chiqadi.

Uning eng yuqori qismida (ya‘ni mezana qismida) 16 ta doirachalar qo‘yilib, tunda hamma darichalar yonida shamchiroqlar yonib turgan. Natijada tunlari 50-60 chaqirim masofadan chiroqlar yorug‘ini mo‘ljal qilib savdo karvonlari Buxoroga adashmay kelganlar. Buxoroning Buyuk ipak yo‘lidagi yirik savdo markazlaridan biri bo‘lib qolishida bu minoraning ahamiyati kattadir.

Usta Baqo Minorai Kalonni qurishda suv o‘rnida tuyaning suti, tuxumning oqidan foydalangan. Minorani ko‘tarishda tayyorlanadigan maxsus qorishmaga yulg‘un kukuni, uzum shirasi, qora tovuq tuxumi, tuya juni va sutidan foydalanishadi. Bu esa minoraning mustahkam bo‘lishiga xizmat qilgan bo‘lsa, ajabmas.

Albatta, minoraning asosiy vazifasi–azon aytish–najotga chorlovdir. Minora bilan yonma-yon joylashgan Jo‘me masjidining muazzini har kuni besh marotaba shu minoraga chiqib azon aytgan. Qoraxoniylar davrida masjid imomlari u yerdagi aniq quyosh soatiga qarab, shahar ahlini namozga da‘vat etib turganlar. Shundan keyin shahardagi boshqa masjidlarda azon aytila boshlagan, namozxonlar ibodatga oshiqqanlar.

Minoraning yana bir vazifasi shuki, tashqi hujumdan o‘z paytida ogoh bo‘lish uchun durbin orqali tevarak-atrof kuzatib turilgan, bu uning harbiy ahamiyatga ham ega ekanligidir.

Minora tepasining yopiq o‘chog‘idagi olov o‘n metrlardan oshiq balandlikka ko‘tarilib, gurillab yonib, kechasi chor-atrofnı yoritib turgan. Buxoroi sharifga kelayotgan karvonlar adashmay yo‘l topib kelgan bo‘lsa, yaqin atrofdagi mahalla ahli sayillar uyushtirgan, bolalar esa kechalari bemalol o‘ynab yurishgan. Masjidga

namozga kelayotganlar qish-qirovli kunlarda fonus ko'tarib yurish tashvishidan qutilishgan.

Minoraning nafosati, salobati, go'zalligi, ajoyib naqshlarga boyligi bilan kishilarga zavq-shavq bag'ishlagan. U ayniqsa, chet elliklar – elchilar, savdogarlar, sayyohlarni ham maftun etgan. Bu hol o'z navbatida davlatning kuch-qudrati, shukuhi va shavkatini, poytaxt Buxoroning dong'ini olis-olislarga yetkazardi.

Sharqdagi birinchi uyg'onish davrida, VIII-XII yani asrlarda Buxoroda ko'pgina buyuk obidalar qurilgan edi. Usta Baqo shu obidalardagi eng go'zal naqshlardan ko'chirma olib, minorada 24 ta katta-kichik halqalar yaratgan. Asosan Chingizxon bosqini davrida qisman keyingi asrlarda buzilib ketib, bizgacha etib kelmagan binolarning naqshlari shu minoradagina saqlanib qolgan. Shu bois bu minorani Buxoro me'morchiligining qomusi, deyish mumkin. Shunisi alohida tarixiy ahamiyatga egaki, minoraning eng yuqorigi halqalaridan birida naqshli g'ishtlar bilan bo'rtma qilib "Usto Baqo amali", "Arslonxon minorasi" degan so'zlar yozilgan. Binobarin, Minorai Kalonning asl nomi Arslonxon minorasidir.

Masjidi Kalon tomonidan minoraga o'tiladigan ko'prikcha bo'lgan. Minora sathi turli ajib bezaklar bilan ishlangan. Ular orasida tarixiy va diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Minorai Kalon shu turdagi qadimiy inshootlar orasida alohida o'rin tutadi. Shakllarning o'zaro uyg'unligi, ajoyib ko'rk va mahobatlilik Minorai Kalonga chinakam go'zallik bag'ishlaydi. Xalq orasida minora haqida ko'plab rivoyat va afsonalar mavjud.

Bezak g'ishti o'rniga qarab turli shaklda, sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil handasaviy shakldagi bejirim bezakli halqalari g'ishtin dandanalar bilan hoshiyalangan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi. Muqarnas ostidagi moviy rang sirkor halqalarning har biri turli xil handasaviy shaklda bezatilgan (keyinchalik to'kilib ketgan). Minorai Kalon shu turdagi qadimiy inshootlar orasida alohida o'rin tutadi. Shakllarning o'zaro monandligi va mutanosibliigi, handasaviy uyg'unlik, ajoyib ko'rk va mahobatlilik Minorai Kalonga chinakam go'zallik bag'ishlaydi.

Rivoyatda qilishlaricha, minoraning asl poydevorini tugatgan usta, Buxoroni tark etadi. Oradan ikki yil o'tib, Buxoroga qaytib keladi. Ikki yildan so'ng usta podshohning yoniga kelib: "Shohim, bir qoshiq qonimdan kechsangiz pinhon bo'lganim sirini bildiraman!"-deydi. Shoh: "Kechdim, gapir",-deb ijizat berganidan keyin, Usta: "Binoning asosi ikki yilda o'rnashadi. Endi qiyomatgacha Minorai Kalon qulamaydi. Sizning shuhratingizni olamga yoyadi. Agar men pinhon bo'lmasaydim, siz besabrlik etib, Minora qurilishini tezroq bitkazishni talab qilardingiz. Natijada Minora avvalgiday shikast topardi. Inshaolloh, bu Minora dunyo turguncha beofat bo'lgay. Zilzilalar ham unga ta'sir etmagay!"-

deydi. Buxoroni tark etganlarining asosiy sababi poydevorning mustahkam o'rnatishini ko'zlaganliklarini bildirgach, minorani qurishni davom etadilar.

Naql etilishicha, Usto Baqoning umri poyoniga yetay, deb qolganda shunday vasiyat qilibdi: "Meniig janozamni Masjidi Kalonda o'qing, jasadimni esa shu Minorai Kalon yonidagi hovliga ko'ming. Agar Minora qulasa, qabrim ustiga qulasin. Suyaklarimni mayda-mayda etib sindirsin! Lekin, Xudo shohid! Qiyomatgacha Minorai Kalon qulamagay!"

Minora tanasi g'olasimon, yuqorisi ingichkalashib boradi va muqarnasli qafasa bilan tugaydi. 900 yildan buyon barchaning hayratiga sabab bo'lib kelayotgan "Minorai Kalon"ni yanada jozibali hamda nafis qilib bezash maqsadida uning belbog'ida g'ishtlarga shakl berish yo'li bilan 20 dan ortiq naqshinkor halqalar hosil qilingan. Bezaklar bir-birini aslo takrorlamaydi. Minoraning belbog'ida ko'fiy yozuvlar bilan "Yunus surasi"ning 107-109-oyatlari bitilgan.

1514-1516-yillarda Buxoro xoni Ubaydulloh ibn Mahmud (1504-1539) Hirot yurishidan qaytgach, ushbu minora va yonidagi Masjidi Kalonni ta'mirlashni buyurib, ma'lum miqdorda mablag' ajratdi. Minorai Kalon Buxoro vohasida XX asr boshiga qadar qurilgan keyingi barcha minoralar uchun namuna bo'ldi.

1920-yil Frunze buyrug'i bilan juda ko'p obidalar, jumladan, Minorai Kalon ham aeroplan orqali bombardimon qilindi. Arslon Minorasining bir necha joylari "jarohatlandi", ya'ni 7-8 joyini o'q teshib o'tadi. Lekin Frunzening to'plari ham Minorani qulatomadi. Sobiq Ittifoq zamonida Minorai Kalonni kamsitish odat bo'lgan edi. Buyuk inshootni "o'lim minorasi" deb aytar va kitoblarga yozardilar.

Inshoot yovlarning hujumidan ko'p ziyon ko'rgan bo'lsada qulamagan. Faqat bir muddat ta'mirtalab ahvolga kelib qolgan. Minora sho'rolar inqilobi davrida bir necha bor xarobaga aylantirilgan. 1924-yilda (tanasi va muqarnaslari) usta Shirin Murodov boshchiligida ta'mirlangan. 1929-yildan so'ng Minorai Kalondan azon aytish taqiqlandi. Uning atrofi didsizlik bilan asfaltlandi, Minora zaxga yem bo'la boshladi. Yer ostida qolib ketgan kursi qismini 1960-yilda usta Ochil Bobomurodov ochib, qayta ta'mir etgan. 1997-yil Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan minorada yana bir bor ta'mirlash ishlari olib borildi.

Bu minora Buxoro shahrining eng yirik minoralaridan biri hisoblanadi. Rivoyatlarga qaraganda, razm solinsa, u insonning xushbichim qomatini eslatadi. Ayrim tarixchilar Odam alayhissalomning bo'yi oltmish gaz bo'lganligini, Minorai Kalon ham xuddi shu o'lchamda qurilganini aytishadi. Minorai Kalonni Buxoro me'morchiligining o'ziga xos qomusi, ensiklopediyasi ham deyishadi. Gap shundaki, turli bosqinlar, tabiiy ofatlar oqibatida shahardagi ko'plab me'moriy obidalar vayron bo'lgan, izziz yo'qolgan. Usta Baqo minoraga naqshlar solayotib o'sha yodgorliklardagi betakror bezaklardan nusxa olgan ekan.

Minorai Kalon qadimda savdo karvonlari uchun mayoq vazifasini o'tagan. Uning ustiga kechalari chiroq yoqib qo'yilgan. Buyuk ipak yo'li bo'ylab harakatlangan karvonlar uchun minora olis-olisdan ko'rinib turgan. Unda azon ham o'qilgan. Bundan tashqari, minora dushman bosqinidan ogoh bo'lishda ham qo'l kelgan. Yov qo'shini osmono'par minoradan ko'ringan zahoti mudofaa uchun harakat qilingan. Rivoyat qilishlaricha, Buxoroni bosib olib, shahar himoyachilariga zarracha shafqat ko'rsatmagan, ko'plab qadimiy osori-atiqalarni yer bilan yakson etgan Chingizxon Minorai Kalon ro'parasida bir lahza to'xtab qoladi. Osmono'par minoraga tikilar ekan, bexosdan boshidagi qalpog'i tushib ketadi. Asta egilib, uni yerdan olarkan, "Men shu paytgacha hech kimga bosh egmaganman. Lekin bu minora shu qadar mahobatliki, uning oldida bosh egsang arziydi", deydi.

Bu bir afsona. Ammo har qanday rivoyat zamirida haqiqat ham bo'ladi. Minorai Kalon asrlar davomida nimalarni ko'rmadi, qanaqangi voqealarga shohid bo'lmadi, uning oldida kimlar bosh egmadi, deysiz. Buni qarangki, minoraning qismati ham xalqimiznikiga o'xshab ketadi. Deylik, sho'rolar bosqini chog'ida xalqimiz katta yo'qotishlarga uchradi. Minoraning boshiga ham mushkul savdolar tushdi. Frunze boshchiligidagi sho'ro qo'shinlari bosqini paytida u to'pga tutildi, aeroplardan turib nishonga olindi. Ustiga bomba tashlandi. Minora qattiq shikastlandi. Ammo talato'plardan omon qoldi. Aslida uni yer bilan yakson qilmoqchi edilar. Biroq xuddi xalqimiz kabi bo'yin egmadi. Ta'bir joiz bo'lsa, imon-e'tiqod, yurtga sadoqat timsoliga aylandi.

U o'tgan asrning suronli 20-yillarida yurt fidoyilari kuch – g'ayrati bilan ta'mirlanib, asl holiga keltirildi. 1976-yilgi zilziladan ziyon ko'rganida ham mahoratli me'morlar tomonidan talafot bartaraf etildi.

Mustaqillik yillarida uning atrofida marmartoshlar yotqizildi. Minorai Kalon ko'z qorachig'idek asralmoqda. Ushbu tarixiy obida xalqimiz faxriga aylandi. Arslonxon minorasi Buxoroi sharifning ramzi bo'lib, xalqimiz, davlatchiligimiz va madaniyatimizning shukuhi bo'lib hali yana ming asrlar qad ko'tarib turajak. Uzoq yillar davomida Kalon minorasi o'z mahobati bilan shaharga tashrif buyuruvchilarni lol qoldirib kelgan.

Minorai Kalon Buxoro shahrining noyob va ko'hna yodgorligi hisoblanadi. Shaharga tashrif buyurgan mehmonlar uning mahobati, salobati, murakkab me'moriy echimiga maftun bo'ladi. Hozirda ko'hna Buxoro deganda har bir kishini ko'z oldiga dastlab, albatta, Minorai Kalon keladi. Minorai Kalon Buxoro shahrining noyob va ko'hna yodgorliklari qatoridan markaziy o'rin egallagan.

Bugungi kunda noyob yodgorlik namunasi bo'lmish "Minorai Kalon" O'zbekiston javohirlaridan biri sifatida ko'z qorachig'iday asrab-avaylanmoqda. U hamisha sayohatchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda

noyob yodgorlik namunasi bo'lmish Minorai Kalon O'zbekiston javohirlaridan biri sifatida ko'z qorachig'iday asrab-avaylanmoqda. U sayyohlarning diqqat markazidagi maskanlardan sanaladi.

8.3. Vobkent minorasi.

Buxoro viloyatining Vobkent tumanida joylashgan Vobkent minorasi Qoraxoniylarning Buxorodagi noibi Sadr Burhoniddin Abdulaziz II tomonidan bunyod etilgan. XII asrda Qoraxoniylarning Buxorodagi noibi Sadr Burxoniddin Abdulaziz II davrida bunyod etilgan Vobkent minorasi o'zining nozik me'moriy yechimi bilan ajralib turadi. Manbalarda aytilishicha, u buyuk ajdodimiz, Buxorodagi Yetti pining dastlabkisi sanalgan Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning tashabbusi va mablag'i evaziga qurilgan.

Minoraning o'n ravoqli darchalaridan azon aytilgan, tunda esa chiroq yoqib qo'yilgan. Boshqacha aytganda, minora olis o'lkalardan kelayotgan savdo karvonlari uchun mayoq vazifasini o'tagan. U shaharsozlik an'analarini davom ettirishda ham asqotgan. Barcha yo'llar minoraga eltadi, degan ibora bejiz aytilmagan. XII so'nggi choragida Burxoniddin Abdulaziz II Buxoroda sadr, ya'ni vaqf ishlari boshqaruvchisi lavozimiga tayinlangan. U Abdulxoliq G'ijduvoniyning muridlaridan biri bo'lgan.

Umumiy balandligi 40,3 metr bo'lgan, geometrik jihatdan mashhur Minorai Kalonga o'xshab ketadigan ushbu obida yer osti sizot suvlari va tashqi dinamik ta'sirlar oqibatida ta'mirtalab ahvolga kelib qoldi. Shuni hisobga olgan Buxoro viloyat hokimligi, viloyat madaniy meros boshqarmasi inshootni restavratsiya qilish yuzasidan chora-tadbirlar belgiladi.

8.4. Chor Minor

Chorminor (fors.—to'rt minora)—Buxorodagi me'moriy yodgorlik (1807). Xalfa Niyozqul qurdirgan. Chorminor an'anaviy usulda qurilgan masjid, bir qavatli madrasa, atrofi bir qavatli hujralar bilan o'ralgan hovlidan iborat.

Sinchli peshayvon tipidagi masjid hovlining janubiy-g'arbiy burchagida joylashgan. Madrasaga 2 qavatli, gumbaz tomli darvozaxona orqali kiriladi. Murabba tarxli darvozaxona o'ziga xos mujassamot yechimiga ega: oldi peshtoqli, to'rt burchagida to'rtta minora joylashgan (nomi ham shundan), minoralarning tepa qismi gumbaz shaklida yakunlangan bo'lib, ular sirkori koshinlar bilan bezatilgan. 2 qavatli xonaning 1-qavati miyonsaroy ko'rinishida bo'lib, izoralari toshlar bilan qoplangan, tomi gumbazli, 2 qavati kutubxonona, kutubxonaning shifti pastak gumbazli bo'lib, sodda muqarnaslar halqasi bilan to'ldirilgan. 2-qavatga minoralarning biridagi zina orqali chiqiladi.

O'sha davr taqozo qilgan sharoitga ko'ra, Chorminor hujralarida yashagan fuqarolar 1961-1962-yillarda yangi qurilgan ikkita binoga ko'chirilgan. Bu yerdagi masjid tuz omborxonasi sifatida foydalanilganligi bois yaroqsiz holga kelgan va

buzib tashlangan. Madrasa hujralari buzilib, bir qismi namuna sifatida qayta ta'mirlab ko'yilgan. Bugungi kunga kelib, Chorminor kirish qismi minoralari, eski hovuz va madrasa qayta ta'mirlanib, oldingi shakliga keltirildi. Chorminor me'moriy obidasi Xalfa Niyozqul tomonidan bunyod etilgan. Ushbu inshootning qurilishiga homiylik qilgan Xalfa Niyozqul turkman urug'idan bo'lib, Amir Haydar hukmronligi davrida yirik davlat lavozimlarida ishlagan. U XIX asrning o'rtalarida vafot etgan.

Chor Minor Buxoroda mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida bunyod etilgan bo'lib, uning o'ziga xos tomoni shundaki, u to'rtta minora bilan o'rab olingan O'rta Osiyodagi yagona inshoot hisoblanadi.

Chor Minor me'morchilik majmuasi so'nggi o'rta asrlarning oxirgi davrlarida (XIX asrda), 1807-yilda bunyod etilgan. Me'moriy obidaning qurilishida har xil o'lchamdagi xom va pishgan g'ishtlar, loy, yog'och, tosh va shunga o'xshash mahsulotlardan keng foydalanilgan.

Majmua chor qavatli minora, an'anaviy usulda qurilgan masjid, bir qavatli madrasa, atrofi bir qavatli hujralar bilan o'ralgan hovlidan iborat. Sinchli peshayvon tipidagi masjid hovlining janubiy-g'arbiy burchagida joylashgan (nomi ham shundan). Minoralarning tepa qismi gumbaz shaklida yakunlangan bo'lib, ular sirkori koshinlar bilan bezatilgan. Ikki qavatli xonaning birinchi qavati miyonsaroy ko'rinishida bo'lib, izoralari toshlar bilan qoplangan, tomi gumbazli, ikkinchi qavati kutubxona, kutubxonaning shifti pastak gumbazli bo'lib, sodda muqarnaslar halqasi bilan to'ldirilgan. Ikkinchi qavatga minoralarning biridagi zina orqali chiqiladi. U o'z davrida masjid, madrasa, darveshlar va musofirlar tunab qolishi mumkin bo'lgan xonaqoh vazifasini bajargan. Chorminor majmuasi Sharq me'morchilik an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, an'anaviy "Chor" uslubda bunyod etilgan.

Me'moriy obida bugungi kunda ham o'z davridagi vazifasini saqlab qolgan. U Buxoro shahridagi boshqa me'moriy obidalar qatorida YUNESKO tashkilotining "Butun Jahon madaniy yodgorliklari" ro'yxatiga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan 2000-yil 30-avgustda "Madaniy meros ob'yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish" hamda 2008-yil 12-sentabr "Muzeylar to'g'risida"gi qonunlari madaniy meros ob'yektlarining huquqiy kafolatidir. Yuqoridagi qonunlar ijrosi sifatida me'moriy obidaning ta'mirtalab qismlari qayta tiklandi, yon-atroflari ko'kalamzorlashtirildi.

Tayanch iboralar: *minora, me'morchilik, masjid, madrasa, saroy, mayoq, Buyuk Ipak yo'li, inshoot, Minorai Kalon, Arslonxon, Usta Baqo, Masjidi Kalon, Vobkent minorasi, Chor minor, to'rt minora, Xalifa Niyozqul.*

Savol va topshiriqlar

1. Minoralar qanday maqsadda qurilgan?
2. Buxorodagi minoralarning vazifasi nimadan iborat bo‘lgan?
3. Minorai Kalon kim tomonidan va qachon qurilgan?
4. Buxoro vohasida mavjud bo‘lgan minoralarni sanab bering.
5. Vobkent minorasi kim tomonidan va qachon qurilgan?

Manba va adabiyotlar

1. Исмат Муҳсинов. Минораи Калон. Бухоро мавжлари. 2009 №1 Б.36
2. Исмат Муҳсинов. Вобкент минораси. Бухоро мавжлари. 2012 №1 Б.57.
3. Бобожонов Ш. Шариф шаҳар ёдгорликлари (Бухоро тарихий обидаларига саёҳат). Бухоро. “Бухоро”. 2017. Б-184.
4. Бухоро шарқ дурдонаси. Т., “Шарқ”. 1997. Б-207
5. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Форс-тожик тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1966. Б–120.

9-MAVZU: Buxoro madrasalari va me'morchiligi

9.1.Madrasalarning klassifikatsiyalashuvi.

Madrasalar qurilishiga hukmdorlar katta e'tibor qaratsalar-da, ular xususiy xayr-ehson evaziga faoliyat ko'rsatgan. Madrasalar xolis xususiy mulk hisobidan qurilishi shart bo'lib, xon va amirlar, yirik amaldorlar tomonidan bunday inshootlarni davlat mulkidan bunyod etilishi shariatga xilof hisoblangan.

Buxoro madrasalarining binolari asosan pishiq g'ishtdan, ikki qavatli yoki bir qavatli qilib qurilgan. Odatda madrasalar ichki va tashqi sahnga, baland va mustahkam devorga, hashamatli toq va ravoqlarga ega bo'lib, ba'zilarining peshtoqlari, gumbazlari va devorlari rang-barang koshinlar bilan bezatilgan. Madrasalar ichki va tashqi maydoniga ega bo'lgan. An'anaviy tarzda uning birinchi qavatida darsxonalar, kutubxona, masjid, tahoratxona, ikkinchi qavatida esa talabalar yashaydigan hujralar bo'lgan.

Madrasalar qurish ishi Buxoro amirligida o'ziga xos tarzda amalga oshirilgan. Asrlar osha bu ish bilan shug'ullanilganligi bois, bu borada boy tajriba ham shakllanib bo'lgan edi. Shuning uchun Buxoro madrasalari nafaqat o'quv yurti, balki o'ziga xos me'moriy inshoot ham edi.

Bu davrda Buxoro madrasalarining soni haqida turli manbalarda va asarlarda turlicha ma'lumot qayd etiladi. N.Xanikov madrasalar sonini 180-200 ta, talabalar sonini esa 15-16 ming nafar deb ko'rsatgan.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Buxoro amirligidagi madrasalar sonini o'sha davrda yashagan Abdurauf Fitrat va Sadridin Ayniy 200 ta, Sadr Ziyoyev 204 ta, Muhammad Ali Baljuvoni esa 400 ta deb ko'rsatadi. Xullas, turli ma'lumotlar umulashtirilganda Buxoro amirligida 200 dan 400 tagacha madrasa mavjud bo'lgan. Buxoro amirligiga qo'shni, ilgari mamlakat tarkibida bo'lgan Samarqand viloyatida 217 ta madrasa bo'lganligi nazarda tutilsa, amirlikda 400 taga yaqin madrasa mavjudligi haqiqatga ancha yaqinligi ma'lum bo'ladi. Turkiston general-gubernatorligi hisoboti bilan bog'liq arxiv hujjatlardan birida 1914-yilda Buxoro amirligida 350 ta madrasa faoliyat ko'rsatayotgani qayd etilgan.

Shuningdek, O.A.Suxarevaning fikricha, birgina Buxoro shahrining o'zida 133 madrasa bo'lgan. Yana bir tadqiqotchi L.I.Rempel XX asr boshlarida Orenburgda chiqadigan "Sho'ro" jurnalining ma'lumotlariga asoslangan holda Buxoroda oliy darajadagi madrasalar - 34 ta, o'rtalari - 35 ta, quyilari esa - 100 tadan ortiq bo'lganligini ko'rsatib o'tadi. Demak, faqat Buxoro shahrining o'zida 170 tadan ortiq madrasa bo'lgan.

9.2. Farjak- islom olamidagi ilk madrasa.

Islom olamidagi ilk madrasa Buxoroda IX asr boshida hanafiy mazhabi faqihlaridan Abu Hafsiy Kabiyr Buxoriy (767-832 y) rahnamoligida asos solingan.

Bu madrasa manbalarda “Forjak” madrasasi deb zikr qilingan. Madrasa soʻzi arab tilidan olgan boʻlib, lugʻatda: “dars oʻqiladigan joy, darsxona” maʼnolarini bildiradi. Musulmon mamlakatlarida oʻrta va oliy diniy oʻquv yurtlari “madrasa” deb atalgan. Movarounnahr va Xurosonda, Shom, Koʻfa, Bogʻdod, Hijoz, Misr kabi oʻlkalarda minglab madrasalar ishlab turgan. Ushbu madrasalarda ilmlar diniy va dunyoviylikka ajratilmasdan, Qurʼon, hadis, fiqh, aqida kabi ilmlar qatorida falsafa, tibbiyot, jugʻrofiya, handasa, adabiyot kabi fanlar oʻqitilgan. Mana shu madrasalarning ibtidosi Buxoro zaminida yuzaga kelishi yuksak eʼtirofqa sazovordir.

Ushbu “Forjak” madrasasi tarixi koʻpgina manbalarda “Abu Hafs madrasasi” deb, zikr qilinadi. Jumladan: Tojiddin Subukiyning “Tabaqot ash-shofiiya al-kubro”, Ibn Kasirning al bidoya van nihoya asarlarida, Nishopurlik olim, Muhammad ibn Ahmad ibn Ali ibn Shahivayh Abu Bakr Al –Qozi Al-Farisiy (h.361/971y vafot.) Nishopurda bir muddat imom boʻlib, soʻng Buxoroga kelib, “Abu Hafs madrasasi”da dars berganligi taʼkidlanadi. Bu madrasa koʻpgina Imom Buxoriy, Ibn Sino, Farobiy va juda koʻplab Buxoro zaminiga kelib ilm olgan kishilarga ilm maskani sanalgan.

Abu Bakr Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida keltirilishicha, Abu Hafs tomonlaridan asos solingan “Forjak” madrasasi 937 -yil Buxoroda sodir boʻlgan katta yongʻin oqibatida yonib ketganligi quydagicha hikoyat qilinadi:

“Hikoyat. Yana Amiri saʼid Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil davrida uch yuz yigirma beshinchi yil rajab oyida (937yil may-iyul) Buxoroga oʻt tushib hamma bozorlar kuydi. Oʻt bir halimpazning doʻkonidan boshlangan. U doʻkon Samarqand darvozasnda boʻlib, halimpaz halim qozoni tagidagi kulni tomga olib chiqib, tomda chuqurlik bor ekan, uni toʻlgʻizmoqchi boʻlgan, kul orasida bir boʻlak choʻgʻ bor ekan, halimpaz uni sezmagan va shamol choʻgʻni olib borib qamishdan yasalgan bir uyga urgan. U uyni oʻt olib, undan hamma bozorlarga oʻt ketgan va Samarqaid darvoza mahallasi butkul kuygan. Olov osmonda bulutdek suzib yurgan. «Koʻyi bikor» — «Qizlar koʻchasi», bozorning timchalari, Madrasayi Forjak, kovushdoʻzlar timi, sarroflar va bazzozlar bozori, (xullasi) Buxoroning ana shu tomonida to anhor labiga borguncha nimaiki boʻlsa, hammasi kuygan. Bir parcha olov sachrab Masjidi Moxni oʻt oldi va u (ham) tomoman yonib ketdi. Olov ikki kecha-kunduz yonib, buxoroliklar uni oʻchirishdan ojiz qoldilar, koʻp mashaqqat chekdilar va nihoyat. uchinchi kuni oʻchirdilar. U yogʻochlar tuproq tagida bir oygacha kuyib turdi. Buxoroliklarga yuz ming dirxamdan ortiq ziyon etdi. Shundan keyin Buxoro imoratlarini hech qachon unday (ilgarigisidek) qilib qura olmadilar”.

Islomning uzoq mintaqalaridagi tolibi ilmlar bu madrasada taʼlim olishni orzu qilishgan. Mazkur madrasada Abu Hafs Kabir, oʻgʻli Abu Hafs Sagʻir (Abu

Abdulloh), nevaralari Abdulloh ibn Muhammad fiqh, hadis, kalom (islom falsafasi – teologiya), tasavvuf kabi ilmlardan saboq berishgan. Manbalarda Imom Abu Hafs al-Kabir bomdod namozidan keyin odamlarga dars bergan, deb qayd etiladi. Abu Hafs Kabirning ayollari ham yirik fiqhshunos olim bo‘lib, ayollarga saboq berganlar. Alloma ba’zi masalalarda qiynalgan paytlari ularni hal qilishga ayollari ko‘maklashgan. Manbalarda yozilishicha, X asrning taniqli qozisi Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Ali ibn Shohivayh (vaf.h.361/m.971 y.) Buxoroga borib “Abu Hafs al-Kabir” madrasasida ta’lim olgan. Ya’ni madrasa bu sanadan oldinroq ham bo‘lgan. Narshaxiy “Kular Tekin madrasasi”ni zikr etadi. Kular Tekin xurosonlik Muqanna inqilobchisi sarkardalaridan biridir.

Imom Abu Hafs al-Kabir al-Buxoriyning madrasasi islom olamining turli o‘lkalaridagi olimlar va tolibi ilmlarning orzu qilgan madrasasi bo‘lgan. Bu madrasalarning Buxorodagi odamlar va unga qo‘shni turklar orasida islomni yoyishda hissasi beqiyos bo‘lgan.

9.3.Mir Arab madrasasi.

Mir Arab madrasasi ulug‘ piri murshidi, sohibkaromat avliyo hazrat Mir Arab nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning to‘liq ismi Mir Arab Abdulloh al-Yamaniy bo‘lgan. Abdullohni “Mir Arab Yamaniy” deyishlariga sabab, u kishining millati, amirligi va tug‘ilgan joylariga ishoradir. Xalq orasida Mir Arab (Arab amiri) nomi bilan mashhur bo‘lgan Sayyid Abdulloh al-Yamaniy Yamanda tug‘ilganlar.

Miri Arab nomida barpo etilgan madrasaning qurilishiga sarf qilingan mablag‘ning katta qismini Ubaydulloxon bergan. Ubaydullaxon in’om etgan mablag‘ hisobiga madrasa qurilishi boshlangan. 1530-yildan Mir Arab hazratlari madrasa qurishga kirishadilar. Afsuski, madrasa qurilishi bitmay turib Mir Arab 1536-yilning boshida vafot etadi va uning vasiyatiga ko‘ra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga etkazgan. Madrasa binosini milodiy 1530–1536 (hijriy 936–942) yillari qurilgan.

Mir Arab madrasasi-Buxorodagi Minorai Kalonning qarshisida joylashgan me’moriy yodgorlik. Ushbu madrasa shahar markazida, qadimiy Shahrisonda joylashgan bo‘lib, ikki ulkan gumbazi bilan boshqa tarixiy binolardan ajralib turadi. Madrasaning kirish qismi kunbotar tomonda. Darvoza ulkan peshtoq ostida joylashgan. Madrasa binosi to‘rtta peshtoqdan iborat. Ayniqsa, shimoliy va janubiy peshtoqlar baland qilib qurilgan. Bu shimol bilan janubdan esadigan shamoldan saqlash hamda madrasa havosini tozalab turish imkonini beradi. Peshtoqlarning balandligi taxminan o‘ttiz ikki metr. G‘arbiy va sharqiy tomonda joylashgan peshtoqlar pastroq qurilgan. Bularning hammasi bino ichida o‘ziga xos mikroiklim yaratadi.

1530-yilda bunyod etilgan bu madrasa shaharning markaziy qismida qurilgan, uning baland peshtoqlari va gumbazlari bo‘lib, shimoliy gumbazi yarim koshin bilan qoplangan, janubiy gumbazi esa bezatilmagan. Koshinlarga kam miqdorda tilla, kumush, mis, qo‘rg‘oshin qo‘shilgan. Bularning hammasi ko‘p yillar xizmat qila oladigan hamda sifatligi bilan ajralib turadigan kvarts qumiga aralashtirib ishlatilgan.

Madrasaga hashamatli baland peshtoqdan kirilgan. Bir vaqtlar peshtoqlar juda baland bo‘lgan. Tuzilishi jihatidan naqshinkor. Peshtoqning dastlabki qiyofasi saqlanib qolgan, bu naqshlarning tarkibiy qismida yulduzsimon bezaklar uchraydi. Undagi bezaklarning saqlanib qolgan ayrim parchalaridan naqshlar g‘oyat nafis va nozik bo‘lganligini bilish mumkin. Bino to‘rt qavatdan iborat bo‘lib, unda 114 ta xona bor. Madrasaning me‘moriy shakli to‘rtburchak – Qur‘on kitobini eslatadi. Hujralarining 114 taligi esa Qur‘on suralari soniga mos keladi.

Madrasaning g‘arbiy tomoni Masjidi Kalon nomi bilan atalgan masjidga tutashgan. Madrasa bilan masjid orasida shahar aholisi yuradigan yo‘l bo‘lgan. Madrasaning rejasi va undagi binolar xuddi Ulug‘bek madrasasidagidek joylashtirilgan. Madrasaga kirganda go‘rxona ham mavjud bo‘lib, dabdabali qilib bezatilgan. Miri Arab madrasa shimolidagi gumbaz ostida dafn etiladi, chap tomonda uning qarindoshlari, shuningdek unga yaqin boshqa kishilar dafn etilgan go‘rxona joylashgan. Miri Arabning oyoqlari tomonida o‘z vasiyatiga binoan Amir Ubaydulloxon dafn qilingan.

Madrasaning ichki qismi ham ajoyib tarzda loyihalashtirilgan. Hujralarni to‘rtta ulkan peshtoq ajratib turadi. Madrasa hovlisining chor atrofi ikki qavatli hujralar bilan o‘ralgan. Hujralar ikkiga bo‘lingan. Ayrim hujralarning old tomoniga kichkina ayvon solingan va unda qishga kerakli o‘tin, ko‘mir, oziq-ovqat mahsulotlari saqlangan. Ayrim hujralarning ayvoni ichkarida bo‘lgan, u yerda zarur zaxira buyumlar saqlangan.

Hovlining burchaklaridagi hujralarga kiriladigan qulay ravoqli eshiklar, qirrador kosasimon tokchalar, murakkab iroqi bezaklar bularning hammasi XVI asr madrasasi tipini egallaydi. Katta xonalarning ichi ayniqsa, diqqatga sazovor: to‘rt tarafda baland ravoqli chorsi xona, tepasi ravoqlar kesishini oqibatida qalqonsimon iroqi shakli joylashgan. Gumbaz o‘rtasi esa fonusdek. Mayda darchalar orqali tushgan yorug‘lik xonaga ulug‘vor ko‘rinish baxsh etadi. Madrasa hujralariga kichkina qozonxona (uni muri deb ham atashgan) ham o‘rnatilgan. Unda bir yoki ikki kishilik ovqat pishiriladigan o‘choq bo‘lgan. O‘choqda ovqat pishirilgandan keyin olovning cho‘g‘i qish kezlari sandalga solingan. Ham uy isigan, ham ovqat pishgan. Madrasadagi 114 hujra murshtari bir-biriga payvandlab tutashtirilganligi bois, olov yoqilganda, hujralarni tutun bosmagan. Madrasaga kirishning o‘ng tomonida dars tayyorlash, mashg‘ulotlar o‘tkazish xonasi mavjud bo‘lgan. Bu

qadimiy ustalarning avlodlari Buxoro tosh solnomasini yangi ajoyib sahifa bilan bezaganligidir.

Bosh tarzi ulkan peshtokli, darvozasi orqasida 5 gumbazli miyonsaroy, ikki yonida baland gumbazli keng darsxona va masjid, go'rxona joylashgan. Miri Arab madrasasining go'rxona va madrasaga kirganda o'ng qo'lda joylashgan darsxonasi ustida ikkita moviy gumbaz qad ko'targan. Koshinkori naqshlar yozuvlar bilan uyg'unlashgan (saqlanmagan). Go'rxona ichi gumbaz osti bag'ali qalqonsimon muqarnasli, shipi va devorlari ganch o'ymakorligida bezatilgan, izorasi rang-barang koshinli. Go'rxonada Ubaydullaxon (1537 y. v. e.)ning yog'ochdan xotamkori usulida ishlangan sag'anasi va Mir Arab, uning qarindoshlari qabrlari bor. Madrasaning umumiy tarhi 68,5x51,8 m, hovli 35,4x31,3 m, darsxona 8x8 m.

Hovlisi to'rtburchak shaklida bo'lib, atrofini oldi ravoqli, ikki oshyonli hujra o'rab turadi. Tomonlar o'rtasidagi 4 baland peshtoqli darsxona — ayvon hovli mahobatini oshiradi. Tuzilishi jihatidan naqshinkor. Peshtoqning dastlabki qiyofasi saqlanib qolgan, bu naqshlarning tarkibiy qismida yulduzsimon bezaklar uchraydi. Undagi bezaklarning saqlanib qolgan ayrim parchalaridan naqshlar g'oyat nafis va nozik bo'lganligini bilish mumkin.

Madrasa qurilganda uning faqat baland va chiroyli bo'lishi emas, balki bino ichidagi havoning almashishi, oqava suvini shahar tashqarisiga chiqarib yuborish va boshqa shu kabi masalalarga ham jiddiy e'tibor berilgan. Rivoyatlarga ko'ra, madrasa asosi chuqur qilinib, tog' toshlari bilan mustahkamlangan, qor, yomg'ir suvini qochirish uchun tazarlar ishlangan, ular orqali suvlar shahar qo'rg'onidan tashqariga chiqarilgan. Mir Arab madrasasida O'rta Osiyo diniy maktablari qurilishiga xos an'anaviy loyiha va mujassamot o'z ifodasini topgan. Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan madrasa peshtog'i va gumbazlaridagi to'kilib ketgan koshinkori naqshlar va yozuvlar qayta tiklandi.

Madrasani bezashda, asosan, oq, sariq, yashil ranglardan unumli foydalanilgan. Qizil rang kishining qon bosimini ko'taradi, deb hisoblashgan. Bundan tashqari, Buxoro issiq hudud bo'lganligi bois bu rang odamlarga ko'p ham yoqmagan.

Madrasaning ichki hovlisida to'planib qoladigan qor, yomg'ir suvlari chiqib ketishi uchun tashnav qilingan. Tashnav shahardagi oqava suvlar chiqib ketadigan tazar - kanalizatsiyaga ulangan. Tazar orqali ortiqcha suvlar shahar tashqarisidagi zaxkashga borib tushgan.

Mir Arab madrasasi peshtoklarining baland qilib qurilishi astronomik kuzatishlarni olib borish imkonini bergan. Shu tariqa madrasa oliy o'quv dargohi sifatida mudarris, olim, adabiyotchi, amaldor, elchi, harbiy, imom, siyosiy arbob va hatto ma'rifatparvarlarni yetishtiradigan oliy o'quv yurtiga aylanib borgan.

Bu madrasaning asrlar davomida ilm maskani bo'lib, ziyo nuri taratib kelayotganiga yana bir sabab bu madrasaga asos solgan ulug' zot naqshbandiya tariqatining ulug' piri Miri Arab sayyid Abdulloh Yamaniyning sharofati va barokotlaridan desak hech mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Zero rivoyatlarda aytilishicha, shayx Mir Arab hazratlari, madrasa qiyomatgacha ilm va ta'lim maskani bo'lib qolishligini so'rab duo qilgan ekanlar.

9.4. Ulug'bek qurdirgan madrasalar.

Buxoro shahrida joylashgan Ulug'bek madrasasi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan bunyod etilgan. U Amir Temurning kenja o'g'li Shohruxning to'ng'ich o'g'li bo'lib, 1394-yil 22-martda Eronning Sultoniya shahrida tug'ilgan. U 1409-yil otasi Shohruxning yordamida Movarounnahr taxtini egallaydi va u yerda 40 yil, 1449-yilgacha hukmronlik qilgan. U buyuk olim bo'lib, astronomiyaga oid "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asarini, tarixga oid "To'rt ulus tarixi" asari va musiqaga oid 5 ta risola yozgan. Madrasa qurilishi o'rta asrlarning so'nggiga to'g'ri keladi. U XV asrning birinchi choragida, ya'ni 1417-yilda qurib bitkazilgan. Temuriylar sulolasi hukmronligi davrida bunyod etilgan bu obida Buxoro shahrining eski shahar qismida, Abdulazizxon madrasasi ro'parasida bunyod etilgan.

XV asrning birinchi choragida Movarounnahrda Temuriylar o'rtasida taxt uchun kurash kuchayib ketdi. Movarounnahr va Xurosondan tashqari barcha hududlar Temuriylar qo'lidan chiqib ketdi. Me'moriy obidaning qurilishida guvala va paxsadan tashqari xom va pishiq g'isht, yog'och (tut va yong'oq daraxti)lardan keng foydalanilgan.

Me'moriy inshootdagi (dizayn) ustunlar, derazalar, devorlar ganch o'ymakorligi asosida ishlangan. Shiftlar g'isht o'ymakorligi asosida naqshlangan. Bosh tarzida mahobatli peshtoq, 2 qanotida 2 qavatli hujralar va burchaklarida guldastalar joylashgan. Guldastalar tepasi qubbali qilib ishlangan. Madrasaning asosiy bezagi peshtoqida bo'lib, unda sirkor g'ishtchalardan tashqari, rang-barang gulli parchin va koshindan foydalanilgan.

Hovlining shimoliy va janubiy tomonlari qisqaroq ko'rinishga ega bo'lib, devorlari, ravoq va peshtoqlari oq, feruza va binafsha rang va sirkor g'ishtlar bilan pardozlangan. Hujralar ichi ganch suvoqli. Madrasa 53 metr ga 41,6 metrni tashkil etadi. Masjid 15,5 metr ga 5,5 metrni tashkil etadi. Darsxona esa 5,5 ga 5,5 metrni tashkil etadi. Madrasa eshigining tabaqalariga arab yozuvida "Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir", deb yozib qo'yilgan.

Bundan tashqari peshtoqda Amir Temur davrida Erondan keltirilgan ustaning avlodi Ismoil ibn Tohirning nomi ganchkor va turli bezaklar asosida yozilgan nasta'liq xatida saqlanib qolgan. Naqshlarida yulduzsimon bezaklar ko'p va ayvon ustunlari zarhallangan.

Me'moriy inshoot Sharq an'alarini o'zida mujassamlashtirgan gumbazsimon, arkli, to'rtburchak va "Chor" uslubda qurilgan. Madrasaning o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, u balandligi jihatidan Buxorodagi boshqa madrasalarga qaraganda pastroq va hujralarining ko'pligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bu Ulug'bek tomonidan qurdirilgan dastlabki madrasadir. Madrasaning boshqa madrasalardan farqi shundan iboratki, uning ikki chetida minoralar mavjud emas. Xonaqoh pesh ayvonlari esa 8 tani tashkil qiladi.

Bugungi kungacha me'moriy obida atroflarida bog'lar tashkil qilingan. Bizgacha Ulug'bek madarasasi ancha o'zgargan holda yetib kelgan. 1950-1970 va 1990-1996-yillarda ta'mirlangan. Madrasaning ta'mir talab yerlari qayta rekonstruksiyadan chiqarilgan. Madrasa ko'chasiga esa o'rta asr uslubida toshlar yotqizilib, yo'llar hosil qilingan. Hozirgi kunda madrasa ochiq osmon ostidagi muzey sifatida chel el sayyohlari hamda O'zbekistonlik milliy madaniy merosga qiziquvchilarning ziyoratgohiga aylangan.

O'zbekiston hukumati tomonidan berilayotgan e'tiborga to'xtaladigan bo'lsak, 1997-yilda Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan Buxorodagi barcha obidalar qatorida Ulug'bek madrasasi ham qayta ta'mirdan chiqdi. YUNESKO tashkilotining Butun Jahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. 1993-yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi (1-sessiya, Kolumbiya) "Butunjahon madaniy meroslari ro'yxati"ga kiritilgan.

Me'moriy inshoot rivojlangan va so'nggi o'rta asrlarning eng yirik ta'lim muassasasi bo'lgan. Abdullaxon II davrida Jo'ybor shayhi Xoja Sa'd tomonidan (1586) butunlay qayta tiklangan va yirik madaniyat va ma'rifat maskani vazifasini o'tagan. Manbalarda aytilishicha, Ulug'bek 1419-yil 28-noyabrda madrasaga tashrif buyurgan va ta'lim olayotgan talabalarga in'omlar ulashgan.

9.5.Amir Olimxon madrasasi.

Amir Olimxonning buyrug'iga ko'ra, 1913-yilda Buxoro shahrida yangi madrasa qurilib, unda tafsir, hadis, kalom, fikh, usuli fikh, hisob, tajvid, tarix fanlaridan ta'lim berish belgilab qo'yiladi. "Vaqt" gazetasida chop etilgan Imom Sobirjon Mustofiyning "Buxoroda madrasa ta'sis etiluv munosabatila" nomli maqolasida madrasaning bosh mudarrisi etib toshkentlik Xolmurod afandi tayinlangani, mudarris Sadriddin mahdum Hisob, Handasa, Faroiz, mudarris Ibodulla Maxdum Fatvo fanlaridan dars o'tgani haqida ma'lumot berilgan.

Madrasaning nizomnomasida bu o'quv muassasasida tahsil olayotgan o'quvchining ikkinchi madrasada o'qishi taqiqlab qo'yilgan bo'lib, har yili tahsilning oxirida talabalarni imtihon qilish qat'iy belgilab qo'yilgan. Madrasa tashkil etilgan vaqtda unga faqat buxoroliklarni qabul qilishga ruxsat berilgan bo'lib, keyinchalik chetdan kelgan o'quvchilar ham qabul qilingan. Buxorodan

“Vaqt” jurnaliga kelgan bir maktubda 1915-yilda tataristonlik Ishoq Sayfiddin madrasaga tahsil olish uchun qabul qilinganligi qayd etilgan.

Madrasada dunyoviy fanlarning o‘qitilishiga keng o‘rin ajratilganidan norozi bo‘lib, mulla Qamariddinning ta’siri ostida bir necha mufti va beklar madrasani tashkil etilishiga qarshi chiqishgan. Qozikalon bu ishning boshida shaxsan amirning o‘zi turganini aytib, ularning noroziligiga chek qo‘ygan. Madrasa binosi Buxoro shahar X. Ibodov ko‘chasida, ya’ni Poyi kalon me’moriy majmuasining janubiy qismida joylashgan. Madrasaning qurilishida 250 ming tilla sarflangan. Binoning umumiy maydoni - 1438,3 m³ tashkil etib, konstruktiv ikki qismdan iboratdir. Madrasa 51 hujradan iborat. Hovli to‘rtburchak shaklda bo‘lib, o‘rtasida quduq joylashgan. Kirish qismi esa shimoldan katta dumaloq shakldagi oddiy gumbazli xonadan va janubiy qismdan bir necha to‘rtburchak va bir dona kichik gumbazli xonalardan iborat. Peshtoqi janub tomonda bo‘lib “koshinkor” uslubida bezatilgan.

Madrasaning kirish darvozasi yuqori qismi gumbazsimon bo‘lib, koshinlar bilan bezatilgan. Madrasaning ichki darvozasi yog‘och o‘ymakorligining ajoyib namunasi hisoblanadi. Darvozaning yuqori qismida “Nasxi buxoriy”da quyidagi hamdu-sanolar yozilgan: “Allohga hamdu sanolar bo‘lsinkim, Jahonni yaratgan parvardigorning lutfi karamidan fikh, tafsir va hadis kabi fanlar o‘qitiladigan bu benazir makon (joy)ni barpo etish, Jahon sultonining amri bilan nihoyasiga yetdi. Hayol ko‘zqusining yaratilishi, ya’ni qurilish sanasini oxirgi jumladan izlang. Bu bilim dargohini bino qiluvchi adolatli shoh (amir) Sayyid Olimxondir”.

9.6. Ayollar qurdirgan madrasalar.

Madrasalarning ayrimlari ayollar tomonidan ham qurdirilgan. 1700-yilda qurilgan Bibi Xalifa madrasasining vaqf hujjatida shunday jumla mavjud: “Iffatpanoh, ismatdastgoh, zayn ul-mashvarat, ayollar sharaflisi, afifa, soliha, sojida, haramayn ul-sharifaynni haj qilishga muyassar bo‘lgan Hoji Bibi Xalifa binti marhumi mag‘furi g‘ariq ur-rahmat va rizvon Mulla Muhammad Sa’id Buxoroda hazrat qutb ul-aqtob (mir Tahur devon) masjid va xonaqohi guzarida madrasa qurishga kirishdi”. Madrasa tosh, pishiq g‘isht va yog‘ochdan qurilib, uning 30 ta hujrasi, 4 ta gumbazi, darsxona, ichki va tashqi hovlisi bor edi.

Boloyi Hovuz madrasasini ham ayol kishi qurdirgan. Ushbu madrasani Buxoro xoni Subhonqulixonning Podshohbibini ismli xotini 1703-1704-yilda qurdirgan. Podshohbibining ikkinchi nomi Sitorayi Moh xonim bo‘lgan. Madrasaning vaqf hujjatiga aynan “Sitorayi Mohi Xossa madrasasi vaqfi” deb yozilgan.

Buxoro qal’asidan tashqarida, Jo‘ybor mavzesining g‘arbida joylashgan madrasani 1790-yilda Muhammadxon Elbarsxon qizi Oyshabibi qurdirgan. Madrasaning ichi, hovlisi va hujralarining hammasi pishiq g‘ishtdan bo‘lgan. Bu

madrasa Nafas qishlog'idagi eng mashhur madrasalardan biri hisoblangan. Oyshabibi Mudin qishlog'idagi to'rtburchakli, 150 tanob (bir tanob-3600 kv. ga ega) yerini ham madrasa xizmati uchun bergan.

Buxoroning oxirgi qozi kalonlaridan biri bo'lgan Sadri Ziyo o'z asarlarida Buxoro shahridagi 204 ta madrasani tadqiq etgan. Uning yozishicha, Buxoroda quyidagi madrasalar ayollar nomi bilan atalgan: Saroy Oyim madrasasi, Zubayda Oyim madrasasi, Mang'it Oyim madrasasi, Bibi Xalifa madrasasi, Modarixon madrasasi, Sharofatbonu madrasasi, Qalmoqjon Oyim madrasasi, Chuchuk Oyimning Sangin madrasasi.

***Tayanch iboralar:** madrasa, Farjak, masjid, Mir Arab, Ko'kaldosh, karvonsaroy, Nodir devonbegi, Ulug'bek Abdulazizxon, Chor minor, Amir Olimxon, Ernazar elchi, Abdullaxon, Modarixon, Domla Tursunjon.*

Savol va topshiriqlar

1. Buxorodagi dastlabki madrasa qaysi madrasa hisoblanadi?
2. Mir Arab madrasasi qachon va kim tomonidan qurilgan?
3. Ulug'bek tomonidan qurilgan madrasalarni sanab bering.
4. Qo'sh madrasaga qaysi madrasalar kiradi?
5. Olimjon madrasasi qachon qurilgan?

Manba va adabiyotlar

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Форс-тожик тилидан А.Расулов таржимаси. – Тошкент: Фан, 1966. Б–120.
2. Бобожонов Ш. Шариф шаҳар ёдгорликлари (Бухоро тарихий обидаларига саёҳат). Бухоро. “Бухоро”. 2017. Б-184.
3. Бухоро шарқ дурдонаси. Т., “Шарқ”.1997. Б-207
4. Сухарева О.К. Бухара XIX – начало XX в. – М.: Наука, 1966. С– 327.
5. Наимов Н. Бухоройи Шарий. Holy Bukhoro (тарихий очерклар). Бухоро.1997.

10-Mavzu: Buxoroning savdo inshootlari

10.1.Buxoro – “madinat at-tujjor” – “savdogarlar shahri”.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida sharq mamlakatlari orasida Buxoro amirligi, tijoratning muhim markazi sifatida mashhur bo‘lib, o‘z qulay iqtisodiy, geografik o‘rni tufayli Osiyoning sharqi va janubini, uning shimoli va g‘arbi bilan, Rossiya orqali esa Evropa mamlakatlari bilan bog‘lagan. Mana shunday imkoniyat bois, Buxoro o‘zining savdo va turli mamlakatlar savdogarlarining uchrashuv joyi bo‘lgan bozorlari bilan alohida ajralib turar edi.

Buxoro amirligidagi mashhur Chorsu, asosan Toqi Zargaron (zargarlar toqi), Toqi Telpakfurushon (bosh kiyimlar sotilgan), Toqi Sarrofon (pul ayirboshlovchilar markazi) kabi savdo rastalarini bir-biri bilan birlashtirib turgan. Bozorlarning sharqona o‘ziga xos tomoni shundaki, savdo-sotiq ishlarining issiq va sovuqdan himoya etilgan yopiq toq va timlarda amalga oshirilganligidir. Alohida savdo inshootlari sanalgan “tim”lar ham qizg‘in savdo markazlari sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Ulardan eng yirigi Timi Abdullaxon bo‘lgan. Bu ko‘plab gumbazlarga ega bo‘lgan to‘g‘ri burchakli inshootning devorlari bo‘ylab 100 tagacha do‘kon mavjud bo‘lgan. Do‘konlar asosan yog‘ochdan barpo qilingan. Timlarda asosan zarbof, baxmal shoyidan tayyorlangan mahsulotlar, tayyor oziq-ovqat mahsulotlari sotilgan.

Telpakdo‘zlik Buxoroda eng tarqalgan kasblardan biri bo‘lib bozorlarlarda alohida telpakfurushlar rastalari (toqi telpakfurushon) bo‘lgan. 1913-yilda faoliyat olib borgan telpakdo‘z Murod Axmedov ma‘lumotlariga ko‘ra, shaharda 34 ta telpakdo‘zlik do‘koni bo‘lib, shundan 13 tasi Toqi Telpakfurushonda joylashgan

Buxoro shahridagi Abdullaxon timida joylashgan kitob bozorida 25-30 kishi savdo qilgan. Kitob va qo‘lyozma manbalar mahalliy, rus va boshqa mamlakatlar qog‘ozlarida turli ranglarda yozilgan. Kitobfurushlarning har birida 20-30 tadan qo‘lyozma kitoblar mavjud bo‘lgan. Kitobfurushlar, qo‘lyozmalarni masjid, madrasalar va badavlat kishilarga sotganlar. Manbalarda qayd qilinishicha, G‘uzor begi yangi qurilgan madrasa kutubxonasi uchun Buxoro kitob bozoridan umumiy qiymati 75000 tangadan iborat har xil kitoblar sotib olgan.

10.2.Savdo chorrahilari: Toqi Sarrofon. Toqi Telpakfurushon. Toqi Zargaron. Usti yopiq bozorlar. Abdullaxon timi.

Toqi Sarrafon (forscha — sarroflar toqi) — Buxorodagi me‘moriy yodgorlik (XVI asr). Pul almashtiradigan bosh savdo markazi. Shahristonning 2 ko‘chasi kesishgan joyda, qad ko‘targan va Shohrud arig‘i ustida sarroflarning do‘konlari qurilgan. Bino 8 qirrali (tarhi 25×24 m), gumbazining ichki diametri 12 m. XVI asrning ikkinchi yarmida toqning 4 kesik burchaklaridan biriga masjid, boshqasiga Sarrofon hammomi, qolgan 2 tasiga sarrofon do‘konlari kelib

tutashgan. Shayboniylar davrida qurilgan bo‘lib, Buxoro xususiy tadbirkorlik, qarz berish va pul almashtirish markaziga aylangan.

Toqi Zargaron (fors.—zargarlar toqi)—Buxorodagi me‘moriy yodgorlik (XVI asr). Zargarlik buyumlari sotish uchun mo‘ljallangan savdo markazi. Gumbazi arablar bosqiniga qadar qurilgan deb taxmin qilinadi. Vosifiyning XVI asr boshlarida yozgan asarida Buxoro chorsusi sifatida tilga olingan. Toqi zargaron Ulug‘bek madrasasi yonida, qadimiy shahriston markazi—2 katta ko‘cha kesishgan chorraha ustini qoplab turadi. Bino, asosan, XV asrda qurilgan (XVI-asrda to‘la-to‘kis ta‘mirlanganligi sababli shu yili bunyod etilgan deb taxmin qilinadi). Ulkan gumbaz 8 ta toqiga o‘rnatilgan. Tarhi 45,4×43,5 m, balandligi 16,7 m, gumbazining asos aylanasi 14 m, poygumbazi ko‘p qirrali, undagi 16 ta darcha orqali bino ichiga yorug‘lik tushib turadi. Atrofni o‘rab turgan do‘konlar gumbazi balandligi 5 — 7 m. O‘tmishda uning dalonlarida 36 zargarlik ustaxonasi va do‘konlar bo‘lgan. Atrofiga savdo rastalari, ombor, karvonsaroylar qurilgan. Toqi zargaron Buxorodagi toqilarning eng yirigi va mujassamoti jihatidan murakkabi hisoblanadi.

Toqi Telpakfurushon (fors telpakfurushlar toqi)—Buxorodagi me‘moriy yodgorlik (XVI asr). Bosh kiyimlar tayyorlash va sotishga mo‘ljallangan gumbazli bino. Vaqf hujjatlariga ko‘ra, turli tomonlardan kelib tutashgan 5 ko‘chaning kesishgan joyida qurilgan (1570—1571). Bino choxarso‘ki Axanin, Toqi kitobfurushon, Toqi Xo‘ja Muhammad Parron kabi nomlar bilan atalgan. Bosh gumbazi 6 qirrali devor ustiga o‘rnatilgan, atrofi—ko‘cha, ko‘chalardan kirish qismlari esa kichik gumbazchalar bilan yopilgan. Gumbaz diametri 38 m, zal shifti 10 m, savdo ko‘chasining saqlanib qolgan maydoni 28 m, ko‘cha kengligi 14 m. O‘tmishda gumbaz ostida bosh kiyim va kitob sotuvchi muqovasoz ustalarning do‘konlari bo‘lgan.

Abdullaxon timi — Buxorodagi eng katta usti berk savdo rastasi. Abdullaxon davrida kurilgan.(1577 yil). Abdullaxon timi asosi murabba tarxli (39x42 m), 3 tomoniberk, bosh tarzidagi peshtoq opqali kiriladi. Devorlarining 2 tomonida ravoqli tokchalar joylashgan. Baland gumbazli bostirma timni o‘rab turadi. O‘rtadagi miyonsaroy (diametri — 10 m) baland gumbaz bilan yopilgan. Gumbaz ostidagi ravoqli teshiklardan yorug‘ tushadi. Miyonsaroy atrofi dalon. Dalondagi mayda ravoqlar ichida gumbaz tomli do‘konlar bo‘lgan. Bino pishiq gishtdan (22x27x3,5 sm) qurilgan, devorlari ganch suvoqli, naqshin bezaklari deyarli saqlanmagan. O‘tmishda bu yerda shoyi, jun gazlama bilan savdo-sotiq qilingan. Abdullaxon timi Buxoro sholdagi savdo rastalari, chorsu—toq binolari ichida eng kattasi va shakl-u shamoyili jihatidan ancha murakkab va xushbichim hisoblanadi. Bir necha bor ta‘mirlangan, savdo do‘konlari joylashgan.

10.3. Buxoroning qadimiy bozorlari.

Bozorlar savdo qatorlari, binolar, tim va toqlardan, ya'ni o'zida ma'lum bir tovarni sotish ishlari amalga oshirilgan maydondan tashkil topgan. Bozorlar va savdo rastalari mahsulotlar turlariga ko'ra Labihovuzdan (o'zbek, tojikchada ko'l bo'yida) shaharning markaziy maydoni Registongacha cho'zilgan edi. Buxoro bozorlari o'zining mahobati bilan mashhur bo'lib, hatto XIX asrning boshlarida Buxoroda bo'lgan sayyohatchilar tomonidan ham qayd etilgan. Buxoroning o'nlab bozorlariga Rossiya, Hindiston, Eron, Xitoy va Afg'onistondan har yili 15 ming tuyada turli mollar keltirilgan. Xususan, afg'on savdogarlari choy savdosi bo'yicha yetakchi bo'lishgan. Hindistondan hind va ingliz matolari, qimmatbaho toshlar, tilla buyumlar, Erondan rang-barang buyoqlar va murch, Xitoydan choy, chinni idishlar hamda kumush olib kelingan. Rossiyadan esa metall, fabrika gazlamalari, shakar va yog'och mahsulotlari keltirilgan. Buxoro bozorlari butun sharqda mashhur bo'lib bozorning to'kin-sochinligini, unda Shanxay, Rangun, Hind va Evropa tovarlarining serobligidan bilsa bo'ladi.

XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi bozorlar faoliyati ilmiy tahlil etilgan. Xususan, rus, ingliz, hind, afg'on va eron mollari bilan to'lib-toshgan Buxoro bozorlari Toshkent bozorlaridan bir necha marotaba katta bo'lib, ularda nafaqat mahalliy mahsulotlar, balki chet ellardan keltirilgan tovarlar nisbatan ancha arzon sotilgan. Buxorodan tashqari bir qator tumanlar bozorlarining ham dovrug'i baland bo'lgan. Jumladan, G'ijduvon bozori, Buxoro shahri bozorlaridan so'ng, hududdagi eng yirik savdo-sotiq markazi sanalgan. Bu yerda juda katta hajmdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari va chorva mollari bilan savdo qilingan.

Xususan, qozoq chorvadorlari G'ijduvon bozorlariga har oyda 10000 bosh qo'y-echki keltirib sotishgan. XX asr boshlarida G'ijduvon bozorida bir kunda 4000 botmongacha paxta sotilgan. Bozorda E.Sindel, Zinger va Nobellar savdo uylari kabi xorijiy firmalarning bo'limlari faoliyat yuritgan.

Buxoroda bozorlar bir necha turlarga bo'linib, ular shahar iqtisodiy hayotining markazi vazifasini o'tagan. Shaharda savdo-sotiqqa ixtisoslashgan turli-tuman mollar sotiladigan alohida bozorlarning yo'lga qo'yilganligi savdo madaniyatining ancha yuksak bo'lganligidan nishonadir.

Amirlik poytaxtidagi bozorlarda 3 xil savdo markazlari faoliyat ko'rsatgan. Bular eng avvalo timlar: shoyi, turli xil mato savdosi bilan shug'ullanadigan markaz, ikkinchisi turli kiyim kechak, idish tovoqlar va attorlik buyumlari bilan savdo qilinadigan rastalar: chorsu hamda pul almashtirish sarroflik rastalariga bo'lingan.

XX asr boshlaridagi Buxoro hayotini chuqur o'rgangan sharqshunos A.A.Semyonov, mahalliy bozor rastalarining boyligi hamda rang-barangligi, Sharq va G'arbda ishlab chiqarilgan mollarni sotib olish imkoniyatining kengligi haqida

quyidagicha guvohlik beradi: “Buxoro bozorida Shveysariyadan keltirilgan quyultirilgan sut, Germaniyadan konsentrat holda keltirilgan Libix quruq sho‘rvasi, Shanxayning quruq zanjabil murabbosini, Birma poytaxti Rangundan olib kelingan xushbo‘y shamlar, Hindistondan keltirilgan zardo‘zlik ro‘mollarini, Meksikaning kumush dollari, Turkiyaning oltin lirasi, ingliz funt sterlingini bimalol xarid qilsa bo‘lardi”.

Buxoro bozorlarining yana bir turi ot bozori. Ot sotiladigan bozor o‘sha davrlarda 2ta bo‘lgan. Biri shahar ichida, Registon yaqinida bo‘lgan. Bu joyda savdo har haftada 3 kun shanba, dushanba va seshanba kunlari olib borilgan. Ikkinchi ot bozori Bahouddin mozori yaqinida bo‘lib, bu yerda savdo, chorshanba kunlari o‘tkazilgan. Manbalarda, Buxoroda otlarning narxi yuqori bo‘lganligi qayd kilinadi. Bir ot 10 tillo (oltin tanga) 15 tillogacha xarid qilingan. Asl zotli otlarni bozorga chiqarmaganlar. Ularni vositachilar orqali savdogarlar hovlisidan tanlab olganlar. Bunday mumtoz otlar narxi 100-150 tilloga yetgan. XIX asr oxirida Buxoro shahrida 50 taga yaqin yopiq bozorlar bo‘lib, har bir bozorda uziga xos mahsulot sotilgan. Jumladan, 3ta don bozori, 1 ta baliq, 1 ta un, 1 ta tuz, 3 ta ko‘mir, 1 ta metal buyumlar sotiladigan bozor, 2 ta oyoq kiyim, 2 ta quruq mevalar, 1 ta tibbiyotda qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklar sotiladigan bozor, 2 ta poliz mahsulotlari, 2 ta meva bozori, 6 ta sut va sut mahsulotlari bozori, 2 ta yog‘ bozor va boshqa bozorlar shular jumlasidandir.

Shahar markazidagi yirik bozorlardan tashqari Buxoroda ko‘plab kichik bozorlar bor edi. Ular Gavkushon madrasasida (bozori Xo‘ja), G‘oziyon Paxtabofon va Jo‘ybordagi Havzinavda, Xiyobonda, Shergirondan uzoq bo‘lmagan Havzi baland, Mirdo‘stim guzarida va Bozori navda, havzi Lesakda parranda (tovuq, kaklik, kabutar, bedana) savdosi bozori joylashgan. Kichkina bozorlar shahar darvozalari yonida, shahardan tashqarida va ichkarida joylashgan. Shahar ichida 50 ta, shahar tashqarisida 22 ta bozor mavjud bo‘lgan.

Shaharda savdogarlar yashaydigan mahallalar ham kichik bozorlarga aylangan. Masalan, Arabon mahallasida yashagan yirik savdogar Salimoxun qorako‘l teri sotish bilan shug‘ullangan. Natijada, bu mahalla qorako‘l teri savdosi bilan shug‘ullanadigan markazga aylangan.

Amirlikda nafaqat savdogarlar, balki chorvadorlar ham qorako‘l teri savdosi bilan shug‘ullangan. Jumladan, Choriqulboy, Murodboy kabi yirik chorvadorlar har yili Buxoro bozorlarida 20-30 ming donadan qorako‘l teri sotishgan. Shuningdek, Haqqulboy, Po‘latboy kabi badavlat chorvadorlarning har biri yiliga 15 ming donagacha, Yusufboy ismli boshqa bir shaxs esa 8-9 ming dona qorako‘l terini shahar bozorlariga yetkazib bergan.

Buxoro shahri darvozalari yaqinida ham bozorlar mavjud bo‘lgan. Xususan, Samarqand darvozasi yaqinidagi gavjum bozorda asosan non va go‘sht

mahsulotlari, sanoat usulida to‘qilgan matolar va bo‘yoqlar hamda hunarmandchilik buyumlari bilan ulgurji savdo qilingan.

Buxoro atrofidagi bozorlar savdogarlar va xaridorlar manfaatlaridan kelib chiqib, belgilangan hafta kunlariga qarab ishlagan. Masalan, dushanba kuni G‘ijduvon, Vardonze, Hazrati Mir Kulol, Galaosiyo bozorlari ishlagan bo‘lsa, seshanba kuni Kogon bozori, chorshanba kuni Mozori Bahouddin, Xayrobod bozorlari, payshanba kuni Kumushkent, Bo‘ston, Qum Mozor, yakshanbada esa Romitan, Vobkent bozorlari faoliyat olib borgan.

Ancha qadimiy tarixga ega bo‘lgan Vobkent bozorida ham savdo-sotiq nihoyatda qizgin kechgan. Joylardagi bozorlarning har xil kunlarda faoliyat yuritishi savdo ahli, tadbirkorlar uchun ayni muddao edi. Vaholanki, ularning ko‘pchiligi hafta davomida bir necha bozorlarda savdo qilishga harakat qilishgan.

XX asr boshlarida qishloq xo‘jaligida paxtachilikning rivojlanishi natijasida paxta savdosi bilan bog‘liq bozorlar ko‘paya boshlagan. Amirlik hududida 70 dan ortiq paxta bozorlari mavjud bo‘lib, haftaning belgilangan kunlari savdo ishlari amalga oshirilgan va bozorga paxta chanog‘i bilan yoki yog‘och mashinalarda tozalangan holda keltirilgan.

Paxta buyurtmachilar va tarozidorlar orqali sotib olingan. Tarozidorlar bir vaqtning o‘zida sotuvchi va sotib oluvchi o‘rtasidagi sotuv-oluvni tashkil etgan, davlat bojini terib olgan hamda ikkala tomondan kelishilgan xarajatni amalga oshirishgan. Natijada ular bozorning yagona xo‘jayinlari hisoblanishgan. Bozorlarda kerakli paxtaning kamligini hisobga olib sotib oluvchilar tarozidorlarga bo‘nak (avans) berib qo‘yishardi. Tarozidorlar esa mavsum davomida kerakli paxtani yetkazib berishardi.

O‘z navbatida tarozidorlar bo‘nakning qismini ishlab chiqaruvchilar (paxtakash)larga berishgan. Sotilgan mahsulotdan foyda olgan ijarachi va tarozidor ko‘proq mahsulotni jalb qilishga harakat qilar edilar. Natijada past navli tovarlar ham realizatsiya qilinardi. Bu holatdan voqif bo‘lgan Rossiya hukumati Buxoro paxta bozorlarida 1893-yildan boshlab o‘z nazoratchisini tayinladi. Nazoratchi Buxoro davlat nazoratchisi bilan birgalikda paxta bozorlarini vaqt-vaqti bilan aylanardi. Natijada paxtaning past navlisi sotuvga chiqarilsa, Buxoro qozisi tomonidan sotuvchi qamchi bilan savalashga hukm chiqarilardi.

Buxoroning markaziy bozorlari bilan sharqiy Buxoro, ya‘ni tog‘li bekliklar o‘rtasida Qarshi shahri vositachi vasifasini bajargan. Qarshi, G‘uzor shaharlariga sharqiy Buxorodan yiliga 7-8 mingdan ortiq tuyalarda guruch, bug‘doy, kunjut, zig‘ir, tariq va boshqa mahsulotlar olib borilgan.

XIX asrda G‘uzor bozori chorva mollarini sotish va sotib olishda eng katta bozor hisoblangan. Buxoro amirligining shimoliy qismidagi bozorlarda qishloq xo‘jalik mahsulotlari va chorva mollarining narxlari janubiy qismiga nisbatan farq qilgan.

Janubdagi bozorlarga Xiva, Rossiya, Afg'oniston, Hindistondan ko'proq mahsulot olib kelingan. Shimoliy qismidagi bozorlarga esa chetdan keltirilgan mahsulotlar ancha kam olib borilgan.

Buxoro amirligi hududidagi bozorlarning iqtisodiy ahamiyatiga e'tibor qaratar ekanmiz, amirlik poytaxtida shunday bir turdagi bozor bo'lganligiga uning ma'naviy qadr-qimmatini hech qanday mezon bilan o'lchab bo'lmasligiga guvoh bo'lamiz. Bu mashhur kitob bozoridir. XX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Buxoroda qadimiy qo'lyozma asarlar savdosiga bo'lgan talab yanada kuchaydi. XIX asrning 80-90-yillarida, deb yozgan edi qadimshunos olim V.L.Vyatkin, Buxoroda O'rta Osiyodagi eng yirik boy va muhim kitob bozori bo'lgan. Bu yerda musulmon adabiyotlari kitob qo'lyozma manbalar arab fors va turkiy tillarda bo'lib ular orasida qimmatbaho va noyob kitoblar ko'p. Samarqand, Qo'qon, Qarshi Shahrisabz, Toshkent kabi shaharlardagi kitob bozorlari Buxoronikiday boy emas edi. Bu qadimiy shaharning bozorlari va kitob do'konlaridan hamda kitobfurushlar qo'lidan xohlagan kitobni topish mumkin bo'lgan. Bozor rastalarida kitob va qo'lyozma asarlar uyulib yotgan.

10.4. Buxoro karvonsaroylari.

Karvonsaroy—bu uzoq va mashaqqatli yo'l bosib, xalqaro aloqalarni savdo munosabatlari orqali bog'lovchi savdogar-karvon ahllari uchun o'ziga xos vaqtinchalik qo'rg'on-qarorgoh, mehmonxona, ularning ot-ulovlari va chorvalari uchun ham uzoq yo'ldan keyin hordiq olib, kuch to'playdigan joy bo'lgan. Karvonsaroydagi "saroy" so'zi katta jamoa, ko'pchilikni sig'diradigan, jamlaydigan, ko'pchilik foydalanishi uchun mo'ljallangan ijtimoiy ob'yekt, bino-inshoot ma'nosida keladi. Karvonsaroy bilan bir qatorda bog'chasaroy, poshshosaroy kabi so'zlar ham yuqoridagi ma'nolarni ifodalaydi. Odatda karvonsaroylar savdo yo'llari yoqasida qurilgan. Savdo yo'llarining eng mashhuri bo'lmish Buyuk ipak yo'li savdo markazlaridan biri, Buxoroyi Sharif hududida 50 dan ziyod har xil karvonsaroylar bo'lib, bu karvonsaroylarda kuniga 5000 nafargacha savdogarlar qabul qilinib, ularga turli xizmatlar ko'rsatilgan.

Karvonsaroylar odatda baland paxsa devor bilan o'rab olingan, bir yoki ikki qavatli binolardan iborat bo'lgan. Abdullaxon II tomonidan qurilgan karvonsaroylar asosan pishiq g'ishtdan qurilgan. Tog' va tog'oldi hududlarda rabotlarni qurishda toshlardan keng foydalanilgan. Bunga misol sifatida Hisor tog'larida, Yakkabog'dan Denovga o'tadigan tog' yo'lida Toshrobot nomi bilan mashhur inshootni, G'uzordan Darbandga ketuvchi tog' yo'lida barpo etilgan Oqrabot manzilgohini keltirib o'tish mumkin.

Ikki qavatli qilib barpo etilgan karvonsaroylarning birinchi qavati ot-ulovlar, podalar uchun mo'ljallangan xonalar, yem-xashak saqlanadigan joylar, turli mol, buyum, mahsulotlarni saqlaydigan omborxonalar, oshxona, nonvoyxona, sartoroshxona, tahoratxona va boshqa har xil maxsus xona va binolardan iborat

bo'lgan. Ikkinchi qavat esa yotib dam oladigan xonalardan tashkil topgan. Odatda, karvonsaroyning o'rtasida suv quduqlari bo'lib, bu ham Buxoro xonligidagi karvonaroylarga xos muhim xususiyatlardan hisoblanardi.

O'rta asrlarda barpo etilgan karvonsaroylar tuzilishi jihatidan bir-biriga o'xshash, asosan, to'rtburchak shakldagi ichki hovliga 176 va uning atrofida joylashgan yashash xonalariga ega bo'lgan. Yirik karvonsaroylardagi ichki hovli bo'ylab ayvonlar ham qurilgani, ayrim yirik karvonsaroylarda musulmon savdogarlari uchun masjid ham bo'lganligi ma'lum. Shaharlardagi karvonsaroylar hajmi, me'moriy bezaklari va boshqa xususiyatlari jihatidan karvon yo'llari bo'yida qurilgan karvonsaroylar va rabotlardan farq qilganini ham aytib o'tish kerak. Agar savdo yo'llari bo'yida qurilgan karvonsaroylar va rabotlar ichida ulovlar uchun mo'ljallangan maxsus otxonalar bo'lsa, yirik shaharlarda asosiy ulov vositalari ko'p hollarda karvonsaroydan tashqarida, ba'zi hollarda esa hatto ozodalikni saqlash maqsadida, shahar tashqarisiga joylashtirilgan. Karvonsaroylarning ba'zilarida savdogarlarning otlarini saqlash uchun maxsus otxonalar ham ajratilgan. XVI asrga oid oldi-sotdi hujjatlarining birida yozilishicha, Buxorodagi Sarroflar bozorida joylashgan va shu nom bilan ataluvchi karvonsaroy "ko'pgina hujralar, ular bilan bog'langan ayvon va otxonadan" iborat bo'lgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoroda karvonsaroylar qurilishi kuchayib, XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Buxoro shahrining markaziy bozori atrofida 4 ta yana karvonsaroy qurilgan. 1820-yilda Buxoroga savdo ishlari bilan kelgan rus savdogari o'sha davrlarda bu yerda 13 ta g'ishtin karvonsaroylar bo'lganligidan guvohlik beradi. 1840-1842-yillarda Buxoroga kelgan N.Xanikov shaharda jami 38 karvonsaroy bo'lib, shundan 24 tasi pishiq g'ishtdan, 14 tasi yog'ochdan qurilganligini yozib qoldiradi.

Buxoro karvonsaroylarning qurilishi oddiy bo'lib, juda kam hollarda ikki qavatli binolardan iborat bo'lgan. Ammo barcha karvonsaroylar atrofi devorlar bilan o'rab olingan, savdogarlar o'z savdo yuklari va o't-ulovlarini shu yerda saqlaganlar.

XX asr boshlarida Buxorodagi jami karvonsaroylar soni 70 dan ortiq bo'lgan. Jannat-Makon karvonsaroyi, Domli Sher karvonsaroyi, Hakim Oyim karvonsaroyi, Xoja Kalon karvonsaroyi, Qushbegi yoki Qozikalon karvonsaroyi, Sandiqsozlar karvonsaroyi, Badriddin karvonsaroyi, Rashid karvonsaroyi, Jo'rabek karvonsaroyi, Hindular karvonsaroyi, No'g'ay karvonsaroyi, Ulug'bek karvonsaroyi, Tamaki karvonsaroyi va boshqalar shular jumlasidandir.

Shuningdek, Buxoroda qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan savdo qiluvchi karvonsaroylar bo'lgan. Bularga Mayiz karvonsaroyi, G'alla karvonsaroyi, Zig'ir karvonsaroyi, Anor karvonsaroyi, G'o'za karvonsaroyi, Jun karvonsaroyi, Sabzi

karvonsaroyi, G'olib karvonsaroyi, Anjir karvonsaroyi, Tarosha karvonsaroyi, Guruch karvonsaroylarini misol keltirish mumkin.

Buxoro karvonsaroylari hamma davrlarda ham davlat va shaharlar rivojini ta'minlovchi muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Shuningdek, karvonsaroyga ega bo'lgan amaldorlar shaharning boy kishilari sanalgan. Misol uchun, Ubaydullaxoja karvonsaroyining bir kunlik daromadi 15 ming rublni tashkil etgan. Amirlikning No'g'ar karvonsaroyida Qori Ismatkalla sudxo'rlik bilan shug'ullanib, uning bir kunlik tushumi 1000 rublga yetgan. Bu karvonsaroyda 30 ta savdogar joylashgan. Har bir hujarning o'z xo'jayini bo'lgan. Karvonsaroyning bir kunlik daromadi esa taxminan 5000 rublni tashkil etgan.

G'ulomjon karvonsaroyiga bir necha Muqimovlar egalik qilishgan. Karvonsaroy savdosida choy mahsuloti muhim o'rin tutib, u Afg'oniston va Xitoy o'lkalaridan keltirilgan. Paxta karvonsaroyi yog'ochdan qurilgan bo'lib, bir qavatli qurilgan va ayvoniga ham ega. Bu yerda paxtalarni o'lchash uning 14 juft tarozi qo'yilgan. 40 ta o'lchov pallalari usti pillalar bilan band bo'lib, 150 ta yuk tashuvchilar xizmatga hozir-u nozir turishgan.

Pashm karvonsaroyi esa amir tomonidan Abulvaxob Samiboy va Abduqayum Samiboylarga ijaraga berilgan. Ularga olti nafar o'lchovchilar yordamlashib, matolarni o'lchash va ular savdosini amalga oshirishgan.

E'tiborlisi, ommaviy savdo hududlari va karvonsaroy boshliqlarining tabiblar uchun ajratilgan maxsus joylari bo'lgan. Tabiblar o'zlarining bemorlarini qabul qilish uchun karvonsaroylar bilan bevosita hamkorlik qilib turishgan. Mirzo Gul, Qozi-kalon va boshqa karvonsaroylar jular jumlasidandir. Tarixda karvonsaroylar savdoni jonlantirish, tijoratni rivojlantiruvchi muhim markazlar sifatida dong taratgan. Xalqlar u yerlardan nafaqat mol ayirboshlash yo savdo qilish, balki, madaniyatlar almashinuvini ado etishgan. Karvonsaroylar bora-bora Buyuk ipak yo'lining o'z ahamiyatini yo'qotishi, temir yo'l va boshqa zamonaviy transport rivojlanishi natijasida o'z ahamiyatini yo'qotgan.

Buxoro shahrida 3 ta karvonsaroyda teri savdosi olib borilgan. Bular saroyipo'st, saroybarra, saroy urganji edi. Saroyi po'stda mavsum davomida o'ziga xos qorako'l birjasi paydo bo'lardi. Teri savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogarlar, vositachilar (dallol) bu yerda yig'ilardi. Ko'p savdogarlar qorako'l terilarini o'z uylarida sotib olishardi, qaysikim, ularda teri uchun omborlar, terini oshlash uchun maxsus uylari mavjud edi. Masalan, yirik qorako'lchi Jo'rabek Arabovning "Saroyi Jo'rabek" deb nomlangan xususiy karvonsaroyi bo'lib, bu yerda u sotib olgan qorako'l terilari oshlanar va navlarga ajratilgan.

O'sha davrda karvonsaroylar ichki va tashqi savdoda muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu soha taraqqiyotiga monand ravishda karvonsaroylarning soni ham yil sayin ko'payib borgan. 1830-yillarda Buxoroda 25 ta karvonsaroy mavjud bo'lgan bo'lsa, 1840-yillarda bu raqam 38 taga, XIX asr oxiriga kelib esa 60 taga etgan.

Jumladan, “Saroyi Rashid”, “Saroyi Badriddin” buxorolik taniqli savdogar Jurabek Arabovga tegishli “Saroyi Jo‘rabek”, moskvalik fabrikant Emil Sindelga tegishli “Saroyi Sendel” karvonsaroylari ancha mashhur bo‘lgan. Bu davrda buxorolik 20 nafar ko‘zga ko‘ringan yahudiy savdogarlarining har biri 30 ming rubldan 400 ming rublgacha sarmoyaga egalik qilishgan.

Buxorodagi “Toqi zargaron” savdo rastalarida turkman va Qarshi gilamlari bilan qizgin savdo qilingan. “Saroyiqolin” karvonsaroyini asosan gilamfuroshlik bilan shugullanuvchi tadbirkorlar band etishgan. O‘rta asrlarning so‘nggi pallasida Buxoro hududida juda ko‘plab karvonsaroylar barpo etildi. Ayniqsa, Buxoro xonligining ko‘p tarmoqli karvon yo‘llarida yo‘lbo‘yi inshootlarini barpo etish bo‘yicha shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida, xususan, Abdullaxon II tomonidan (1558-1598) keng ko‘lamli ishlar olib borildi.

Bugungi kunda Buxoroda saqlanib qolgan karvonsaroylar shaharning savdo aloqalari, pul va moliya masalalar tarixidan xabardor etib, avlodlarni ajdodlarining boy savdo-sotiq tajribasidan voqif etmoqda.

Tayanch iboralar: toq, tim, bozor, qorako‘l savdosi, sarrof, chorvador boy, tijorat, karvonsaroy, birja, vositachi, savdogarlar shahri.

Savol va topshiriqlar

1. Nima sababdan Buxoro—“madinat at-tujjor”—“savdogarlar shahri” deb nomlanadi?
2. Buxoroda mavjud bo‘lgan toq va timlarni sanab bering.
3. Buxoroning qadimiy bozorlariga ta’rif bering.
4. Buxoro karvonsaroylariga sanab bering.
5. Toqi Sarrofon, Toqi Telpakfurushon, Toqi Zargaronning bir-biridan farqlovchi tomonini izohlang.

Manba va adabiyotlar

1. Остонова Г. Бухоро савдоси ва тимлар тарихи. // Савдогар газетаси. 2005 йил, 7 январь. № 1 (596)-сон.
2. Очилова И. Бухоро тоқлари. // Бухоро ҳафтанома. 1997 йил, 6 сентябрь. № 36 (200)-сон.
3. Юсупов Ё. Тим ва тоқилар. // Бухоро ҳақиқати. 1969 йил, 26 апрель. № 83 (12.157)-сон.
4. Аҳмедов Муҳаммад Қосимович. Ўрта осий меъморчилиги тарихи. Тошкент. Ўзбекистон. 1995. Б-146.
5. Наргиза Ғаниевна Қаландарова. Бухоро шаҳри архитектура обидаларининг ўзига хослиги. б-4-11. Ўтмишга назар. 3 жилд, Тошкент-2020. №10.

11-MAVZU: Buxoroning tarixiy – meʼmoriy majmualari

11.1. Buxoroning tarixiy – meʼmoriy majmualarining oʻziga xos jihatlari.

Ark majmuasiga quyidagi binolar kiradi: Darvozaxona (XVII asr), Nogʻoraxona (XVIII asr), Jomiy masjidi (XIX asr), Taxt(XIX asr), Childuxtaron binosi qoldiqlari (XVII asr), Hammom qoldiqlari (XVIII asr), Abdulgʻozi xonaqosi qoldiqlari (XIX asr), Arxeologiya xududi Qoldiqlari (III — XVIII acrlar), Qushbegi hovlisi qoldiqlari(XVIII asr), Dolon(III—XVIII asrlar).

Labi Hovuz majmuasiga quyidagi binolar kiradi: Koʻkaldosh madrasasi, Nodir Devon Begi madrasasi (1622-1623-yillar), Nodir Devon Begi xonoqosi (1619-1620-yillar), Nodir Devon Begi hovuzi (1620-yil).

Xalifai Xudoydod majmuasiga quyidagi binolar kiradi: Sardoba (XVII asr), Madrasa (XVII asr), Masjid (XVIII asr).

Poyi Kalon majmuasiga quyidagi binolar kiradi: Masjidi Kalon (1514-yil), Mir-Arab(1526—1537-yillar), Minorai Kalon (1127—1129 yillar)

Bolo Hovuz majmuasiga quyidagi binolar kiradi: Masjid (1712-1713 yillar), Hovuz (XVII asr), Minora (1916-1917-yillar).

Gavkushon majmuasiga quyidagi binolar kiradi: Gavkushon madrasasi (1562—1566 yillar), Xoja Kalon masjidi (1573—1579 yillar), Xoja Kalon minorasi(1573—1579 yillar), Abdurahmani Aʼlam madrasasi (XIX asr), Xoja Kalon hovuzi (1573—1579 yillar).

Xoja Zayniddin majmuasiga quyidagi binolar kiradi: Masjid (XVI asr), Hovuz (XVI asr).

Hazrati Imom majmuasiga quyidagi binolar kiradi: Hazrati Imom masjidi va bogʻI (XVI — XX asrlar), Hovuz (XVI — XX asrlar), Minora (XVI — XX asrlar), Maqbara (XVI — XX asrlar), Chillaxona (XVI — XX asrlar), Maktab (XVI — XX asrlar), Gʻuslxona (XVI — XX asrlar), Mazor Pushtayi Hazrati Imom mazori (XVI — XX asrlar)

Sitorai Moxi-Xossa majmuasiga quyidagi binolar kiradi: Olimxon saroyi (1911—1916 yillar), Ayvon (1911 — 1916 yillar), Sakkiz qirrali bino (1911—1916 yillar), Haram (1911—1916 yillar), Ikki qavvatli yotoqxona (1911 — 1916 yillar), Hovuz (1911—1916 yillar), Shiypon (1911—1916 yillar), Otxona (1911—1916 yillar), Darvozaxona (1911—1916 yillar), Ahadxon hovlisi va bogʻI (1911—1916 yillar),

Abdulqodir Jeloniy majmuasiga quyidagi binolar kiradi: Maqbara (XIX asr), Hovuz (XIX asr), Minora(XIX asr).

Malonoi Sharif majmuasiga quyidagi binolar kiradi: Madrasa (XVI—XIX asrlar), Masjid (XVI—XIX asrlar), Maqbara (XVI—XIX asrlar), Darvozaxona (XVI—XIX asrlar),

11.2. Labi Hovuz majmuasi.

Labi Hovuz (“hovuz bo‘yida”, “havza bo‘yida”)—Buxoroning markaziy maydonlaridan biri bo‘lmish me‘moriy ansambr XVI — XVII asrlarda yaratilgan. Maydoni Ko‘kaldosh, Devon Begi madrasalari hamda Devon Begi xonaqohi binolaridan tashkil topgan, atrofi Nodir begi hovuzi bilan birlashtirilgan. Ansambl o‘lchami, taxminan 150x200 metrdir.

Labi Hovuz jonli savdo maydoni bo‘lgan, sababi, bosh savdo ko‘chasining savdo gumbazlariga yaqinligi (ulardan biri maydondan 200 metr masofada joylashgan) va Buxorodagi qurilishlarning nihoyatda zichligidir. Labi Hovuzda saqlanib qolgan ilk inshoot 1569-yilga tegishli bo‘lib, u shayboniylarning mansabdorlaridan bo‘lmish Abdullaxon II ning O‘rta Osiyoda yirik Ko‘kaldosh madrasasini qurilishi haqidagi buyrug‘i bilan boshlangan. 1619-1620-yillar boshlarida vazir Imomqulixon davrida o‘zbeklarning arlat sulolasi vakili bo‘lmish Nodir Devonbegi tashabbusi va mablag‘iga qurilgan. 1623-yil vazir Nodir Devonbegi tomonidan keyinchalik Devonbegi madrasasiga aylangan karvonsaroy binosi qurdiriladi. 1920-yillar Buxoroning ko‘plab boshqa hovuzlari kabi ko‘pchilik tomonidan barpo qilingan hovuz mo‘jizaviy tarzda qurishdan to‘xtaydi, hovuzning saqlanib qolishida ansamblning badiiy qimmati katta rol o‘ynagan.

Keyinroq maydonga Xo‘ja Nasriddin haykali o‘rnatiladi. Shaharning ko‘plab hovuzlari kabi Labi Hovuz ham II-jahon urushidan so‘ng sport maydoni qurdirilib, u yerda voleybol hamda kurash bo‘yicha bellashuvlar o‘tkazilgan. Hovuzga yaqin yerlarda sovet hukmronligi paytida “Gastronom”, “Buxoro” restorani, “Komsomolets” kinoteatrlari joylashgan. 1950-yillar Gastronomda yong‘in sodir bo‘lib, do‘kon batamom kul bo‘ladi, yonidan oqib o‘tuvchi “Shoxrud” arig‘idan oqib o‘tuvchi suv ham yong‘inni to‘xtatishga yetmaydi. Ushbu nohush hodisadan so‘ng shahar ma‘muriyati hovuzni suv bilan to‘ldirib qo‘yishga qaror qilishadi. 1950-yillar oxirida esa hovuz atroflariga quvurlar o‘tkazib, favvora qurilgan bo‘lib, u hozirgi kungacha ishlab turmoqda.

11.3. Xalifai Xudoydod majmuasi—Buxoro viloyatidagi me‘moriy yodgorlik (1777—1855). Majmua madrasa, masjid, hovli, sardoba va qabristondan iborat. Hovli uch tomondan bir qavatli hujralar bilan o‘ralgan. Hovlining janubi-g‘arbida joylashgan masjid murabba tarxli, gumbaz bilan yopilgan, uch tomoniga yog‘och ustunli ayvon ishlangan, tarzi ganch o‘ymakorligida, ustunlari o‘ymakori naqshlar bilan jozibador bezatilgan. Sardobaga zinapoya orqali kiriladi. Madrasaning old tomonida koshin qoldiqlari saqlangan. Hovlining shimoliy markazi orqali Xalifa Xudoydod qabri bo‘lgan qabristonga o‘tiladi, qabr yaqinida 2 ustunli, shifti bo‘yama naqshlar bilan pardozlangan ayvon bor. Xalifai Xudoydod majmuasi turli diniy va memorial inshootlarni o‘z ichiga olgan majmua namunasi, tarhi hamda shakli jihatidan XVIII—XIX asrlar me‘morligi uchun xos. Tarixchi Nosiruddin al-Hanafiyning “Tuhfat uzzoirin” (“Ziyoratchilarga

tuhfa”) asarida yozilishicha, Xalifa Xudoydod majmuasi shayx, yassaviylik tariqatining namoyandasi shayx Xudoydod ibn Toshmuhammad Azizon al Buxoriy tomonidan qurilgan. Shayx Xudoydod, Xalifa Xudoydod ibn Toshmuhammad Azizon al-Buxoriy (XVIII asrning I-choragi, Xorazm—1801 yil iyun, Buxoro) - mashhur shayx, yassaviylik tariqatining yirik namoyandasi. U 16—17 yoshlarida ilm olish uchun Buxoroga kelgan va shu yerda yashab qolgan. Mir Arab madrasalarini tugatib, unda dars bergan. Ko’li Odina qishlog’iga kelgan va bu yerda xonaqoh va masjid qurdirgan hamda yassaviylik tariqatining murshidi sifatida faoliyat olib borgan. Tarixchi Nosiruddin al Hanafiyning yozishicha, 1785—1786 yillarda Buxoro shahriga qaytib, bu yerda ham xonaqoh, Madrasa, sardoba, ularga vaqf ajratadi. Shayx Xudoydod shariat va tariqat masalalariga oid qator asarlar yozgan.

11.4. Poyi Kalon majmuasi.

Buxoroning Registon maydonidagi ulug’vor Kalon minorasi etagida joylashgan Poyi Kalon me’moriy ansambli XII-XVI asrlarda barpo etilgan. Majmua ikki madrasa - Miri-Arab va Amir-Olimxon madrasalari, Kalon minorasi va shu nomdagi masjiddan iborat. Qizig’i shundaki, bu joyda arablar istilosidan keyin VIII asrda ham minorasi bo’lgan jome masjid mavjud edi.

XII asrda shaharni qayta qurish boshlanadi, bu esa yangi masjid va minorani qurilishiga olib keladi. Markaziy Osiyolik tarixchi Narshaxiyning guvohlik berishicha, minora chiroyli yasalgan bo’lsada, bardoshli emas edi. Uning so’zlari bashoratli chiqadi, chunki qurilish tugashi bilanoq minora yiqilib, masjidning katta qismini vayron qiladi. 1127-yilda shu kungacha saqlanib qolgan yangi masjid va Kalon minorasi qurilgan. Minorai Kalon XII asrning boshlarida qurilgan. Shundan beri u biror marotaba ta’mirlanmagan. Savdo karvonlari Buxoroga kelishda unga qarab yo’nalishni olishgan. O’sha paytda minora eng baland bino bo’lgan — 46,5 metr. Me’morlar minorani tepasi kichrayib borgan konus ko’rinishida qurganlar. Uning devorlarini esa bo’rtib chiqqan g’ishtlar bilan bezashgan.

Buxoroning bosh masjidi shahar Qal’asi yonida VIII asrda qurildi. Zamonaviy Kalon masjidini esa XV asrda biroz uzoqroqda bunyod etishdi. Binoning old tomonidagi yozuvlarga ko’ra pardoqlash ishlari 1514-yilga kelibgina yakunlangan. U Samarqandda joylashgan Bibi Xonim masjididan so’ng Markaziy Osiyodagi ikkinchi eng yirik masjiddir. Uning hovlisida 12 ming kishi bir vaqtda ibodat qila oladilar. Unda Temuriylar davri me’morchiligi an’analari ko’rinib turadi. Masjid devorlariga boy sharqona koshinlar bilan ishlov berilgan.

“Arab Amiri” ma’nosini beruvchi Miri Arab madrasasi 1536-yilda barpo etiladi. Ubaydullaxon uni Shayx Abdulla Yamaniyga bag’ishlagan. 111 hujradan

tashqari inshoot yana ikkita zalni o'z ichiga oladi. Biri masjid va darsxona sifatida xizmat qilgan. Ikkinchisi esa Ubaydullaxon, Abdulla Yamaniy va boshqa a'yonlarning maqbarasiga aylandi. Shu tarzda olti asr davomida bu joy hozirgi ko'rinishga keladi va Buxoroning eng yodda qolarli ansambllaridan biriga aylandi.

11.5. Bolo Hovuz majmuasi.

Bola Hovuz majmuasi-Registon maydonidagi yagona saqlanib qolgan yodgorlikdir. U amir qal'asi Arkning to'g'risida joylashgan. Majmua hovuz, juma machiti va minoratdan iborat. Majmuaning eng qadimiy qismi Bolo-hovuz (ma'nosi "bolalar hovuzi") hisoblanadi. U Buxoroda saqlanib qolgan hovuzlardan bittasi hisoblanadi.

Bolo-Hovuz – masjidi 1712 yilda Buxoro hukumdorining xotining qarori asosida qurilgan. Yana bir talqinlarga ko'ra, Amir Shohmurod (1785-1800) ushbu masjidni xalqqa yaqin bo'lish maqsadida jamoat ibodati uchun qurgan. O'sha davrda Buxoro amirligida madaniy, iqtisodiy jihatdan inqirozga uchragan bo'lishiga qaramasdan Buxorodagi eng chiroyli masjid qurib bitkazilgan.

Ushbu ko'p ustunli ajoyib ayvonli masjid XVIII asrga tegishli. Jozibador ustunlarga tirangan ayvonning yog'ochli shifti yog'och o'ymakorligi va gulli hamda geometrik naqshlar bilan bezatilgan. U yerda asosan shahar hukmdorlari ibodat qilishgan.

11.6. Gavkushon majmuasi.

Govkushon majmuasi (Gavkushon majmuasi) — Buxorodagi me'moriy yodgorlik (XVI-asr) Jo'ybor xojalari qurdirgan madrasa, masjid, minora, hovuz va saroydan iborat majmua (Govkushon—qassoblar bozori). Madrasa va masjidning o'rtasidan Shoxrud arig'i o'tgan. 1930-yillarda hovuz ko'mib tashlangan. Madrasaning sharqiy tarafi ikki qavatli, yon va orqa tomonida bir qavatli hujralar va mezana bor. Peshtog'i g'arbida Ravoq ustidagi qanosi o'simliksimon sirkori naqshlar, kitoba qismi esa suls xati bilan bezalgan. Kiraverishda, o'ngda xonaqoh masjid (darsxona) bor. O'rtadagi hovli (25×35 m)ning to'rt tomoni hujralar bilan o'ralgan. Xo'ja masjidi kirish peshtog'i, hovli atrofi g'ishtin ravoqli ayvonlar, xonaqoh va minoradan tashkil topgan. Minora (bal. 19,5 m)ga masjid tomidagi ravoqli ko'prik orqali chiqilgan. Minora turli shakldagi g'ishtlardan terilgan. Naqshlar yuqoriga tomon noziklasha borib, fonusning ravoqli darchalari bilan birga minoraga nafislik bag'ishlaydi.

O'rta asr Buxorolik me'morlar san'atining hodisasidir. XVI—XVII asrlar, ayniqsa, XVI asr boshlari Shayboniylar sulolasining birinchi xonlari hokimiyatining beqarorligi va poytaxtning Samarqanddan Buxoroga navbatma-navbat ko'chirilishining notinch davri bo'ldi. Ammo o'shanda ham quruvchilarning bunyodkorlik ruhi qashshoqlashib, so'nmaganiidan dalolat beruvchi o'ziga xos asarlar yaratildi. Shaharda Mir Arab madrasasi (Miri Arab madrasasi) va Kalon masjidi qurilgan bo'lib, ular Poyi Kalon markaziy ansambli

(Pai-i Kalon yoki Poi Kalon majmuasi), Xo'ja Zaynidining ajoyib chorak masjidlarini shakllantirishni yakunladi. Din va Baland (Baland masjidi) shahar atrofidagi Bahouddin (Bahouddin ansambli) ansamblining boshlanishiga asos solindi.

XV—XVII asrlar Buxoro me'morchilik maktabi ustalari, qurilish tuzilmalari va dekoratsiyalarda arzon va mehnat talab qiladigan, ammo ajoyib va samarali usullardan foydalaniladi. Masalan, kesishgan arklar ustidagi shiftlar, ikki rangli ganch dekoratsiyasi "qirma" va "chaspak". XVII asrda mayolika dekorasida islomgacha bo'lgan qadimiy manzarali rang-barang, ba'zan monumental zoomorfik tasvirlar qo'llanilgan, bu yerda quyosh tomon uchayotgan qushlar va qush ilonlarining naqshlari ustunlik qilgan. Buxoro maktabining xususiyatlari, ayniqsa, madrasa, minora, sardob va yodgorlik binolari—xaziralarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Buxoro maktabi XV—XVII asrlarda O'rta Osiyoda yetakchi maktabga aylanib, mintaqa davlatlari me'morchiligiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Xoja-Govkushon (Xoja-Govkushon ansambli)—shahar markazidagi eng yirik ansambllardan biri. Gaukushon — “buqalarni o'ldirish”, o'tmishda Buxoroda yirik savdo maydoni bo'lib, uning o'rnida qassobxon bo'lgan. XVI asrda maydonda katta madrasa va diametri baland va keng minorali sobor masjidi qurilgan bo'lib, u hajmi jihatidan faqat XII asrdagi Kalon minorasidan past edi. Gaukushon maydonidagi inshootlar “Xo'ja Kalon” (“buyuk Xo'ja”) taxallusi bilan mashhur bo'lgan Juybar shayx Xoja Sa'd mablag'lari hisobidan qilingan bo'lib, bu masjid va butun majmua nomida o'z aksini topgan.

“Xo'ja Kalon” madrasasi 1570-yilda ko'chalardagi vilkada qurilgan, bu uning trapezoidal shaklini tushuntiradi, ammo bu an'anaviy hovli sxemasining saqlanib qolishiga to'sqinlik qilmagan. 1598-yilda madrasa shimolida “Xoja masjidi” deb nomlangan sobor masjidi (masjid-i jomiy) qurilgan. Sobor masjidi quruvchisi Xoja Kalon Juybar shayxlari oilaviy nekropoli - Chor-Bakr hududiga dafn etilgan. Govkushon madrasasi Buxorodagi jo'ybor shayxlari tomonidan bunyod etilgan.

Govkushon madrasasi Mazkur majmua XVI asrda, ya'ni Shayboniylar hukmronlik qilgan davrda qurilgan. Avvallari bu yerda mol bozori, qushxona va shu nomli mahalla bo'lgan emish. Bu shahar markazidagi eng yirik qadamjolardan biri bo'lib, uning tarkibiga madrasa, masjid va minora kirgan.

Govkushon madrasasi so'nggi o'rta asrlarning dastlabki bosqichida, shayboniylar hukmronligi davrida, XVI asrda bunyod etilgan. Uning bunyod etilishda har xil o'lchamdagi xom va pishgan g'isht, yog'och, loy, tosh, tunuka va shu kabi ashyolardan foydalanilgan. Govkushon madrasasi va masjidning o'rtasidan Shohrud arig'i o'tgan. Lekin bu ariq 1930-yillarda ko'milib ketgan. Madrasaning sharqiy tarafi ikki qavatli, yon va orqa tomonida bir qavatli hujralar va mezana mavjud. Peshtoqning g'arbidagi ravoq ustidagi qanosi o'simliksimon sirkori naqshlar, kitoba qismi esa suls xati bilan bezalgan. Kiraverishda, o'ngda

xonaqoh-masjid (darsxona) bor. O'rtadagi hovli (25×35 m) ning to'rt tomoni hujralar bilan o'ralgan. Xo'ja masjidi kirish peshtoqi, hovli atrofi g'ishtin ravoqli ayvonlar, xonaqoh va minoradan tashkil topgan. Minora (19,5 m)ga masjid tomidagi ravoqli ko'prik orqali chiqilgan. Minora turli shakldagi g'ishtlardan terilgan. Naqshlar yuqoriga tomon noziklasha borib, fonusning ravoqli darchalari bilan birga minoraga nafislik bag'ishlaydi. Govkushon madrasasi Sharq an'analarini o'zida mujassamlashtirgan, naqshdor, "Chor" uslubida ishlangan.

11.7. Xoja Zayniddin majmuasi.

Xo'ja Zayniddin masjidi - XVI asrga tegishli. Qadimiy Buxoroning durdonalaridan bo'lgan Xo'ja Zayniddin masjidi eski mahalla ichida joylashgan. Masjid Xo'ja Zayniddin hazratlarining tashabbuslari bilan Imom al-Buxoriy hazratlari sharafiga Buxorodagi eng qadimiy hovuz bo'yiga, usta Mir Dustumbiy tomonidan qurilgan. Xo'ja Zayniddin 1465-1480-yillari Buxoroda qozi kalon lavozimida ishlagan. Masjid Abdulaziz ibn Ubaydullaxon davrida ta'mirlangan.

Buxorodagi eng qadimiy hovuz bo'yiga qurilgan bu masjid uylar zich joylashgan eski mahalla ichidadir. Hovuzning qirg'oqlari marmar bilan qoplangan, suvga zina bilan tushiladigan joyida ajdaho ko'rinishdagi suv quyg'ich bor. Masjid murakkab naqsh va epigrafika bilan ulkan gumbaz, tashqari qismining janubi-sharqiy tomoni ochiq ayvonlar bilan bezatilgan. Tarixiy manbalarda aytilishicha, masjid Xo'ja Zayniddin hazratlarining tashabbusi bilan XV asrda qurilgan.

Xo'ja Mahmud Zayniddin kubraviya-zayniya tariqatining Buxorodagi peshvolaridan bo'lgan. Uning asli kelib chiqishi Xorazmdan bo'lib, Buxoroda qozikalon lavozimini bajargan. Masjid Abdulaziz ibn Ubaydulloxon davrida ta'mirlangan. Keyingi ta'mirlash ishlari 1904-yili Ahadxon bin Muzaffarxon (1885–1910) buyrug'i bilan amalga oshirilib, masjid hovlisida katta hovuz qurdirilgan.

Xo'ja Zayniddin yashagan mahalla guzari Paykondiyon, yoki Imom Buxoriy mahallasi deb atalib, mahalla ilm-u fan ahllari bilan mashhur bo'lgan. Masjid qurilishi paytida hovuzning tuprog'i loy qilinib, masjid yonidagi xumdonda g'isht pishirilib, bino barpo etilgan. Shu davrda Mir Arab madrasasi ham qurilgan, o'shanda Miri Arab (Abdulloxon Yamaniy) da'vo qilib, hovuzning zahi madrasaga ta'sir etishi mumkinligini bildirgan. Xo'ja Zayniddin esa, madrasaga hech qanday zax ta'sir etmasligini ilmiy jihatdan asoslab bergan ekan.

11.8. Hazrati Imom majmuasi.

Abu Hafs Ahmad ibn Hafs ibn Zibarqon ibn Abdulloh ibn Bahr al-Kabir al-Ijliy al-Buxoriy al-Faqih al-Hanafiy hijriy 150 (milodiy 767) yili Buxoroning Fagsodara mahallasida tavallud topib hijriy 217 (milodiy 832) yilning muharram oyida shu yerda vafot etganlar .

Hazrat Abu Hafsi Kabir Bog'doddan Buxoroga qaytib fiqh va hadis ilmini shu darajada rivojlantirdilarkim ularning shogirdlari yuz ming kishidan ko'proq

edi. Hazrat Abu Hafs Kabir rohimahulloh kelganlarida Buxoroda otashparastlar hali ko‘p bo‘lgan va bu zot sharofatlaridan Buxorodagi otashparastlar ham islom dinini qabul qilgan. Buxoroi Sharif shu zot barakotlari sababli Qubbatul Islom “islom dining markazi”, deb ataldi. Imom Al-Buxoriydek zot shu kishidan ta‘lim olganlar. Katta shogirdlari va ilmlarining merosxo‘ri buyuk olim Abu Hafsi Kabirning o‘g‘illari Abdulloh ibn Ahmad rohimahulloh (hijriy 264, m. 877 yilda vafot etgan) bo‘lib, u kishini Abu Hafsi Sag‘ir, deb atashgan. Yana bir katta shogirdlari Abdulloh Supadmuniy rohimahulloh bo‘lib u kishining qabrlari ham Abu Hafs Kabir hazratlarining yonida joylashgan.

Abu Hafs Kabir uyi yaqinidagi yangi darvozaga kiraverishda o‘ng tomonda Qurayshiyalar masjidi joylashgan bo‘lgan. Mazkur masjidni Quraysh qabilasiga mansub payg‘ambarzodalardan Muqotil ibn Sulaymon al-Qurayshiy qurgan. Bu masjidda Arabistondan Abu Hafs Kabir rohimahullohdan ta‘lim olish uchun kelgan tolibi ilmlar istiqomat qilishgan va o‘qishgan.

Ziyoratgoh xalqimizning Buxoro shahridagi eng serqatnov va gavjum ziyoratgohlaridan biri sifatida e‘zozlanadi, buxoroliklar mazkur mozorda dafn qilinishni o‘zlariga faxr deb bilishadi.

Mustaqillik sharofatidan va birinchi prezidentimiz I.A.Karimov sa‘y-u tashabbuslari tufayli barcha tabarruk ziyoratgohlar obod bo‘ldi. Abu Hafs Kabir ziyoratgohi ham shular qatorida qayta qurilib hozirgi holatiga keltirildi.

Qayta qurish va obodonlashtirish ishlari 2009-yilning avgustida boshlandi. Abu Hafsi Kabirning qabrlari ustida hashamatli maqbara eski Buxoro uslubida barpo qilindi. Namozxonlar va ziyoratchilar uchun kirish qismida zamon talablariga javob beradigan hashamatli yarim gumbazli masjid qurildi. Qurilish ishlari yangi tahoratxona qurilishi bilan 2010-yil sentyabr oyida nihoyasiga yetkazildi. Ziyoratgoh qabristondan devor bilan ajratildi, bog‘lar tashkil qilindi va turli manzarali daraxtlar o‘tkazildi, shuningdek ko‘milib yotgan hovuz ochildi. Qadimiy masjid ichki qismi ta‘mirlandi. 2017-yilda eski masjid ro‘parasidagi minora ayni ko‘rinishida qayta qurildi.

Qabrlari hurmat ila ziyorat etiladi. Hujralar, hovuz, minora va boshqa obidalar orasta ta‘mirlanib, bir bog‘ ham barpo etilgan hamda ulkan xayrli ishlar amalga oshirilgan.

11.9. Abdulqodir Jeloni majmuasi.

Buxoro shahrining janubida Hazrat Shayx Abdulqodir Jeloni (Geloni) Piri Dastgir ziyoratgohlari bor. Bu mavzening nomi qadimda Sepulon bo‘lgan. Qadimda bu ziyoratgohda minora, marmartoshli hovuz, chashma (quduq), maqbara va masjid bo‘lgan. Maqbara ichida qabrlar bor. Bu qabrlar Hazrat Piri Dastgirning muridlari xokjoyi degan rivoyatlar mavjud.

Sobiq Ittifoq zamonida ushbu majmuadagi masjid buzib tashlandi. Hovuz ichi axlatxonaga aylantirildi. Ziyoratga kelish, chashma suvidan bahramand bo‘lish

taqiqlandi. Istiqlol sharofatidan Hazrat Piri Dastgir ziyoratgohi qayta obod etildi. Chashma ustida gumbaz tiklandi, hovuz qayta ta'mirlanib, asl holiga keltirildi. Ayni shu kunlarda bu yerda imom-xatib Hoji Jonmuhammad Gulovning say-harakati bilan 35 gumbazli ulkan jome' masjidi bino qilindi.

Ma'lumki, Hazrat Shayx Abdulqodir Jeloni 1079-yil Eronning Jelon (Gelon)degan mavzeida tug'ilib, 1166-yil Bag'dodda vafot qilganlar. Qabrlari Bag'dodda, u yerda ulkan, go'zal maqbara bunyod qilingan. Hazratning qadamjolari juda ko'p joylarda bor. Samarqandda, Dushanbeda, Buxoroda, Shofirkonda va boshqa joylarda Hazrat Piri Dastgir ziyoratgohlari mavjud.

Hazrat Abdulqodir haqlarida Jomiyning "Nafohatul uns", Navoiyning "Nasoimul muhabbat", Muhammad Siddiq Rushdiyning "Avliyolar sultoni" kitoblarida va boshqa manbalarda ma'lumotlar berilgandir.

Hazratning nasablari ota tomonidan Hazrat Imom Hasan raziyallohu anhuga, ona tomonidan esa Imom Husaynga borib taqaladi. Ota tomonidan nasablari quyidagichadir: Shayx Sayid Muhiddin Abdulqodir ibn Sayid Abu Solih Muso ibn Sayid Abdulloh Jayliy ibn Sayid Yahyo Zohid ibn Sayid Dovud ibn Sayid Abdulloh ibn Sayid Muso al Javon ibn Sayid Abdulloh Muhas ibn Sayid Hasan ibn Hazrat Ali raziyallohu anhu.

11.10. Mavlonoi Sharif majmuasi.

Hazrat Mavlono Sharif buyuk olim, ulug' tarbiyachi, naqshbandiya tariqatining piri murshidi, valiyulloh, faylasuf, faqih hisoblanadilar. Bu zoti sharif 1617-yil Buxoro shahrida tug'ilib, 1690-yil vafot qiladilar.

Hazrat Mavlono Muhammad Sharif falsafa, tarix, she'riyat, huquqshunoslik, tilshunoslik va boshqa sohalarga doir yigirmadan ortiq asar yozgan va bu kitoblar bizgacha yetib kelgan. Jumladan, Hazratning "Sharhi Mullo" (A.Jomiyning arab grammatikasiga doir kitoblarining sharhi), "Sharhi aqid", "Hujjat az zokirin". "Tuhfat as solikin", "Dar bayoni suluki jahriya", "Dar bayoni suluki xufiyai naqshbandiya", "Favoidi hoqonyya" kitoblari mashhur. Mavlono Sharifning "Sharhi Mullo" kitoblari hozirgi kungacha madrasalarda darslik hisoblanadi. Hazrat Mavlono Sharif Ko'kaldosh madrasasining oxundi edilar. Mavlonodan minglab kishilar saboq olgan. Shoh Mashrab Buxoroga kelib Mavlono Sharifdan ta'lim olganlari manbalarda yozilgan. "Tuhfat az zoirin"da yozilishicha, Mavlono Sharifning nasablari ota-tomonidan Hazrat Imom Muhammad Hanifaga, ona tomonidan esa Amir Sayid Oqil Kirmoniyga borib taqaladi. Tariqatdagi nasablari Hazrati Azizon nomi bilan mashhur Hazrat Olim Shayxga borib ulanadi. Olim Shayxdan so'ng silsila quyidagicha: Hazrat Fatxulloh, Hazrat Xoja Ismoil, Hazrat Kamoliddin.

Zohiriy ilmlarni Hazrat Mavlono Muhammad Sharif Buxoriy Hazrat Mavlaviy Qosim va Hazrat Mavlono Yusufdan olganlar. Buxoro hukmdori Amir Abdulazizxon ibn Nodirmuhammad Hazrat Mavdono Sharifning muridlari

bo'lgan. Bu amir Buxoroda 1645-1680-yillarda hukmdorlik qilgan edi. Abdulazizxon Hazrat Mavlono maslahatlari, o'gitlariga doimo amal etgan. Hazratning duolarini olgan. Tarixdan ma'lumki, Xiva xoni Anusha (1663-1687) Buxoroga bir necha bor hujum qilib, xalqni taladi, qishloqlarni vayron qildi. Mana shunday hujumlaridan birida Anusha Jo'ybor mavzeigacha bosib keladi, xalqqa zulm etadi. U paytda Buxoro amiri Abdulazizxon Karmanada bo'lgan. Abdulazizxon lashkar bilan Buxoroga kelganda, darvozalar xivaliklar tomonidan ishg'ol qilingan, shaharga kirishga imkon yo'q edi. Shunda Hazrat Mavlono Sharif butun Buxoro aholisini yovga qarshi jangga boshlaydilar. Natijada dushman chekinadi va Abdulazizxon ularni tor-mor etadi.

***Tayanch iboralar:** me'moriy majmua, Ark, Labi Hovuz, Xalifai Xudoydod, Poyi Kalon, Bolo Hovuz, Gavkushon, Xoja Zayniddin, Hazrati Imom, Sitorai Moxi-Xossa, Abdulqodir Jeloniy, Malonoi Sharif, maqbara, madrasa, xonaqo, minora, maschit.*

Savol va topshiriqlar

1. Buxoroning tarixiy – me'moriy majmualarini sanab bering.
2. Ark majmuasiga qaysi binolar kiradi?
3. Sitorai Moxi-Xossa majmuasi qaysi amirlar tomonidan qurilgan?
4. Abdulqodir Jeloniy majmuasi qachon barpo etilgan?
5. Hazrati Imom majmuasi qayerda joylashgan?

Manba va adabiyotlar

1. Нарзулла Йўлдошев Бухоро авлиёларнинг тарихи. Бухоро. Бухоро. 1997. Б-144.
2. Садриддин Салим Бухорий Бухоронинг табаррук зиёратгоғлари. Тошкент. Наврўз. 2015. Б-359.
3. Бабаджанов Б.М., Некрасова Е. Туг // Ислам на территории бывшей Российской империи: энциклопед. слов. М., 2006. Том I. С. 384.
4. Терлецкий Н.С. Некоторые древние атрибуты мусульманских мест паломничества и поклонения (к вопросу о функциях и символизме туга). Рахимов Р.Р., Резван М.Е. (отв. ред.) Центральная Азия. Традиция в условиях перемен. Выпуск 2. СПб. 2009. С.149
5. Йўлдошев Н. IX-XIV асрларда авлиё даражасига кўтарилган бухоролик машоих ва авлиёлар. Бухоро. 1992.

12-MAVZU: Buxoro amirlarining saroylari me'moriy obida sifatida.

12.1.Sitorai Mohi Xossa saroyi.

Mohi Xossa saroyi Buxoro amirligining mang'it sulolasiga mansub amirlari Amir Nasrullo (1826-1860), Amir Muzaffar (1860-1885), Amir Abdulahad (1885-1910), Amir Olimxon (1910-1920)lar tomonidan qurilgan. Amir Abdulahad davrida me'moriy inshootning katta qismi bunyod etildi.

Sitorai Mohi Xossa saroyining qurilishi yangi tarix davriga, Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining protektoratligi davriga to'g'ri keladi. Me'moriy inshootning qurilishida bir qator ashyolar ishlatilgan: g'isht (xom va pishgan), faner, yog'och ayniqsa tut va yong'oq daraxti, marmar, oyna, tunuka, tosh, cho'yan, temir va boshqalar. Uning dastlabki imoratlari Amir Nasrullo hukmronligi davri (1826-1860-yillar) qurilgan. Biroq bu yerda saroy va hushmanzara bog' barpo etish Amir Abdulahadxon hukmronligi davrida (1885-1910-yillar) boshlangan.

Amir Olimxon hukmronligi davrida (1910-1920-yillar) yangi saroy tiklangan va shu davrdan boshlab saroy kompleksi yangi va eski saroyga ajratilgan. Eski saroy uch hovlidan va ko'pgina xonalardan iborat ansambldir. Bu yerdagi eng eski xona Amir Muzaffarxon mehmonxonasi (1860-1885-yillar) keng va baland zal, ikki tomonidagi boloxonali ayvonlar, yevropacha eshik va derazalar bilan ajralib turadi. Mehmonxonaning devoriy rasmlari va ranglarida motivlar uyg'unlashtirilgan. Uch qismga bo'lingan kvadrat xonani tashkil etuvchi Abdulahadxon zali boshqacharoq ishlangan. Bir-biriga ro'para joylashtirilgan va bir xilda bezatilgan ikkita zal o'rtadagi baland supa orqali birlashtirilgan. Supaning g'arb tomonida taxt o'rnatilgan.

Abdulahadxon va Muzaffarxon zallarining badiiy bezaklarida o'xshashlik tomonlari juda ko'p. Eski Sitorai Moxi Xossaning sharq tomonida Amir Olimxon hukmronligi davrida qurilgan bosh qarorgoh alohida me'moriy ahamiyatga ega. Unga koshin va rangli shisha bilan bezatilgan tantanavor peshtoq muhtasham toqli darvoza orqali kiriladi. Bu kompleksni tiklashdan avval Buxoroning eng yaxshi ustalari Rossiyaga rus me'morlarining tajribasini o'rganish uchun yuborilgan. Shundan keyin Xoja Hofiz rahbarligidagi buxorolik ustalar kuchi bilan hovlining janub tomonida ansamblning birinchi binosini tiklashga kirishgan. Qurilish rus injenerlarinig nazoratida bo'lgan. Bosh binoni barpo etish jarayonida Yevropa bilan Isfagan saroylari arxitekturasi va Buxoroning boy turar joylari binolarining me'moriy yechimlaridan foydalanilgan. Bino chiroyli me'moriy yechimga ega, biroq sintez ishi sohasida uncha tajribaga ega bo'lmagan ustalar uchun murakkab bo'lganligi sababli, binodagi tron zali antresol va arkalar bilan tig'izlashtirib yuborilgan. Ushbu binoga kiraverishda eshikning ikki tarafiga o'sha vaqtda hali unchalik tajribaga ega bo'lmagan nuratolik ustalar tomonidan marmardan

tayyorlangan sherning haykali o'rnatilgan. Biroq keyinchalik katta tajriba ega bo'lgan o'sha ustalar kompleksdagi hovuzning suv tushishi uchun mo'ljallangan marmar novalarni kam-ko'ssiz tayyorlab berganlar.

Hovlining ikkinchi tomoniga, bu bino bilan yonma-yon, unga tik qilib g'arb tomonda 1912-1914-yillarda katta badiiy ahamiyatga ega bo'lgan noyob Oq zal qurilgan. Bu zal va uning dahlizi buxorolik ustalar tomonidan milliy uslubda ko'rkam ishlangan. Oq zal ganchkorlik va ganch o'ymakorligi san'atining eng so'nggi yutuqlari asosida usta Shirin Murodov rahbarligida 25-30 ta qo'li gul ustalar tomonidan ikki yil davomida ajoyib qilib ishlangan. Bino ichi noyob me'moriy yechimga ega.

1917-1918-yillarda zinali hovuz barpo etilgan, u ansambl me'morchiligida katta ahamiyat kasb etgan. 1917-1918-yillarda hovlining uchinchi-shimol tomonida hovuz oldida yevropacha uslubda ishlangan peshayvonli bino qurilgan. Demak, me'moriy kompleksni barpo etishda aralash, milliy va yevropacha usullardan foydalanilgan. Sitorai Moxi Xossaga kiraverishda tashqi hovli, uning janubiy-g'arbiy tomonida kichik hovlili xazinaxona, janubiy-sharqdagi qarama-qarshi burchakda yozgi dam olish joyiga kiriladigan darvoza bor.

Saroyning shimol qismida amirning shaxsiy hayotiga aloqador yana bir inshoot bor. Bu ikki qavatli haram binosidir. Uning xonalari va ayvoni ichkari hovli tomoniga qaragan. Haramning janub tomonida "salloti" g'ishtdan katta uy, g'arb va sharq tomonidan birinchi qavatda "cho'bkori" uslubida qurilgan kichikroq uylar, shimol tomonidan ayvon joylashgan. Haramning yog'ochdan qurilgan qismi ikkinchi qavatda uch tomondan ensiz ayvon bilan o'ralgan. Hovli o'rtasida aylana shaklidagi favvora qurilib, u saroy bekasining hovlichasi bilan ichkari tomondan tutashtirilgan.

12.2. Shirbudin saroyi

Buxoro amirlarining siyosiy qarorgohi Shirbudun saroyidir. Dastlab Shirbudun atamasiga to'xtalib o'tsak. Shirbudun-Shirbadan, Sherbudin tarzida talaffuz qilinib, bu so'zlar bir-biridan farq qiladi. Masalan, Shirbadan so'zi fors-tojik tilida Shir-sut, badan-tana, degan ma'noni bildirsa, Shirbudun so'zi shir xalqi, elati ma'nolarini anglatadi. "Shir", "sir", "chir", nomlari bilan qadimgi turkiy xalqlardan biri nomlangan. Sir budun -"sir xalqi", "sir qavmi ma'nosida kelgan yodgorligida uchraydi.

Shirbudun saroyi Buxoro registonidan 4 km uzoqlikda, shahar tashqarisida joylashgan bo'lib, uning qurilishi Amir Muzaffarxon (1860-1885), Amir Abdulahadxon (1885-1910) nomlari bilan bog'liq. Shirbudunda gilkor (ganchkor) usta Rahim Hayotov, durezgar (yog'och ustasi) usta Abdurasul va boshqalar ishtirokida saroy, masjid, tomoshagoh kabi binolar barpo etilgan. Saroyning tashqi ko'rinishidan Yevropa va Eron arxetekturasi belgilari sezilib turadi.

Saroy asosan elchilarni kutib olish, turli xil sayllar va yarmarkalar o'tkazish va yoz faslida amirlar uchun dam olish maskani vazifasini o'tagan. Shirbudun saroyida Yevropa dizayniga xos mebellar, qandillar o'rnatilgan bo'lib, o'zining bebaholigi bilan ajralib turgan. Amir Muzaffarxon ushbu saroyda elchilar va nufuzli mehmonlarni kutib olishdan tashqari xalq sayllari, to'ylar va turli tadbirlarni o'tkazib turgan. Sayllar davomida Shirbudun saroyida 500 tacha chodir qad ko'targan. Bu hodisa Buxoro shahridagi o'ziga xos yarmarka edi.

"Tarjimon" gazetasining 1897- yil 22- aprel 16-sonida, 1897-yil 9-15-mart kunlari Buxoro amirining "Shiri badin (Shirbudun) saroyida har yilgi bayram o'tkazilgani, saroy bog'lari hamma uchun ochiqligi, turli tomoshalar, kurash, xo'roz va qo'chqor urushtirish kabi xalq o'yinlari o'tkazganligi qayd qilingan. Saroyda Amir Muzaffarxonning o'g'li Amir Abdulahadxon davrida ham qurilish ishlari davom etgan. Jumladan, Amir Abdulahadxon inshoot tarkibida hashamatli zal va ko'plab saroy xonalari qurdirgan. Saroy haqida mahalliy tarixchilardan Mirza Abdulazim Somiy, Mirza Salimbek, Muhammad Ali Baljuvoni va Sadridin Ayniy kitoblarida ma'lumotlar mavjud bo'lib, inshoot haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Buxoro amirligi saroyida yuqori lavozimlarda faoliyat ko'rsatgan Mirza Salimbek devonbegi har olti oyda Toshkentdan Buxoroga borganida Amir Muzaffarxon bilan Shirbudin chorbog'ida uchrashib turganini yozadi.

Saroy tarixchisi Mirza Abdulazim Somiy esa o'z asarida: "Qudratli amir (Amir Abdulahadxon nazarda tutilyapti) 1303(1885-1886) yilda o'z shuhratli otasining o'rniga Buxoro amirligi taxtiga o'tirib, ajdodlariga o'xshab azamatlik va hukmronlik gilamida hamda mana o'n yilga yaqin, hukmronlik qilmoqda. U vaqtining ko'p qismini Buxoroda, Arkda, Shirbudin va Sitorai Mohi Xossa chorbog'larida o'tkazadi", deb qayd qilgan.

Muhamad Ali Baljuvoni mang'it hukmdorlari haqida to'xtalib: "Hukmdorlar saroyda (Shirbudun nazarda tutilyapti) dam olish uchun ayonlari bilan birga kelgan. Qarshi, Shaxrisabz, va Buxoro tumanlarda ham xos joylar bisyordir. Har xil chorbog'lar yasatilgan va qasrlar boshqa joylarda ham bor", deb yozib qoldirgan.

Sadridin Ayniy o'zining esdaliklarida esa: "Shirbadandagi asosiy saylgoh amir chorbog'i oldidan o'tadigan katta yo'lning ikki tomonida joylashgandi. Shahardan borayotganda chap tarafda atrofi devor olingan maydon bor edi, uni "chil tanobi" (o'n gektarlik) deyishardi, uning katta darvozasi bor. Bu o'rab olingan maydonda jome masjid, chavki (umumiy bazm maydonlari) va tomoshaxonalar joylashgandi, maydonning bundan bo'lak joylarini qassoblar va oshxonalar egallagan. Bu maydonning oxiridan darvoza orqali katta yo'lga

chiqilardi, bu yerning janub tarafida amir bog'ining darvozaxona yo'li va bog' darvozasi tomonda ayvon bo'lardi, bu yerni xalq ahli tomosha qilardi", deb yozadi.

O'sha davrda Buxoro amirligiga tashrif buyurgan Rossiya rassomlar akademiyasi akademigi Dmitriy Kavkazkiy (1849-1916), buyuk britaniyalik ofitser O.Olufsen (1865-1929), rossiyalik fotograf Sergey Mixailovich Prokudin-Gorskiy (1863-1944) kabi xorijlik sayyohlarning kundalik va esdaliklarida ham Shibusun saroyi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Buxoro amirligida 1888-yil 20-fevralda tashrif buyurgan fotograf Dmitriy-Kavkazkiy o'z kundaligida Shibusun saroyini quyidagicha ta'riflaydi: "Bulutli kunlarning birida, bir inoq (amir saroyida xizmat qilgan mulozim) bir mirza yuborib amirning saroyini ko'rsatishga ruxsat berganini aytdi. Sayohat kutganimizdan ham yaxshi o'tdi. Biz saroyga kiraverishimizda askarlar uch qator bo'lib, tizilib turardi. Bizni kelganimizni eshik og'a e'lon qildi. Saroyga kirganimizda dasturxon bezatilgan bo'lib, nonushta qildik. Biz ovqatlanib bo'lgandan so'ng saroyni aylanishga chiqdik. Saroy juda ko'p xonalardan iborat bo'lib, biz bir qancha kichik arab-fors uslubida bezatilgan xonalarni aylandik. Ba'zi xonalar devoriy suratlar bilan bezatilgandi. Xonalardagi medalyonlar ichidagi naqqoshlik namunalari Sharq bilan G'arbni uyg'unlashtirgan. Nihoyat men ajoyib oynali xonaga keldim, oyna balandligi 4 arsh (1 arsh-0,711 metrga teng) keladigan, xona devorlari hoshiyasiz oynalar bilan o'ralgan. Kishida xona xuddi tugamaydigandek taassurot qoldiradi. Xonaga fransuz gilami to'shalgan, Shiftida fransuz bronzasidan ishlangan qandil osilgan. Mebellar yevropadan keltirilgan. O'rtadagi gumbaz arab uslubidagi bezaklar bilan bezatilgan va oltin suvi yuritilgan edi. Keyingi zal juda hashamdor bo'lib, kishida g'aroyib taassurot uygo'tadi. Hovli markazida oq tosh(marmar)dan ishlangan hovuz va favvora o'rin olgan. Saroy yonida shinamgina bog' bor. Ba'zi katta-kichik hovlilar va bog' hali tugatilmagan. Saroy xoriydan maxsus muhandis-quruvchilar jalb qilinmasdan qurilgan. Yevropa binolari uslubini o'rgangan me'morlar saroyini qurishda ushbu elementidan foydalanishgan. Yana bir xona haqida yozishni unutibman. Saroyda amir Rossiyaga toj kiyish uchun borgan poezd vagoniga o'xshash xona ham bo'lib, uning ichiga kirgan odamda qiziqarli taassurot qoldiradi. Saroy bo'ylab sayohat men uchun unutilmas bo'ldi. Afsuski, saroyni to'liq aylanishga ulgurmadim va biror rasmni chizolmadim", deb yozadi.

Sharqiy qismda otxona, xizmatkorlar turar joyi bor, deb yozadi. 1907-1911 yillarda Buxoroda bo'lgan rossiyalik fotograf Sergey Mixailovich Prokudin-Gorskiy (1863-1944) dastlabki rangli fotosuratlarini olishga muyassar bo'ladi. Jumladan, Amir Olimxon portreti, xalqning ahvoli tushirilgan manzaralar, Shibusun saroyining old va orqa qismi, taxt joylashgan saroy hamda bog'ni suratga oladi.

12.3. Karmanadagi Chorbog‘i xossa saroyi va Kogon saroylari.

Karmana saroyi. Karmana Zarafshon daryosi bo‘yida joylashganligi, xushmanzara, xushhavo shahar bo‘lganligi tufayli deyarli barcha mang‘it amirlarining diqqat markazida bo‘ldi. O‘sha davr qoida-qonunlariga binoan, Karmana begi Buxoro amirining taxt vorisi sanalib, valiahd hisoblangan. Shuning uchun Karmana Buxoro amirlarining norasmiy ikkinchi poytaxti bo‘lib qoldi. Abdulahad barpo etgan saroylar, afsuski, sho‘ro davrida asossiz buzib tashlandi.

Krestovskiy boshliq rus elchilari Karmanada amir qarorgohining muhtashamligi va salobatligi haqida o‘z taassurotlarini bildirib, hatto Abdulahadxonga davlat boshqaruvida “ancha tajribali va bilimdon”, deb baho berishgan. Krestovskiyning yozishicha, Karmanada 400 hovli bo‘lgan. Bu davrda mavjud saroy va bog‘lar ta‘mirlanib, obod joylarga aylantirilishi bilan bir qatorda, yangi bog‘ va saroylar – Askarobod, Jarchorbog‘, Mirzochorbog‘, Bog‘iolchin, Gulchorbog‘, Xayrobod kabi go‘zal va ko‘rkam joylar bunyod etildi. Muhammad Ali Baljuvoni o‘zining kitobida mang‘it amirlari davrida Buxoro davlatida Karmanadagi Chorbog‘i Mirzo va Chorbog‘i Charmgariy hamda Chorbog‘i Olchin poytaxt amirlarining dam oladigan joyi sifatida ma‘lum bo‘lganligini yozadi. Bu joylar haqida xotira va ma‘lumotlar ham saqlanib qolingan.

Ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz: “Mirzochorbog‘” saroylar ichida o‘zining go‘zalligi, hayratomuz me‘morchiligi, nafis ganchkorli naqshlari bilan ajralib turardi. “Mirzochorbog‘” saroyi Amir Abdulahadxonning topshirig‘i bilan Zarafshon daryosi sohilidagi so‘lim bog‘ o‘rtasida (hozirgi Qodir Rahimov nomli jamoa xo‘jaligi 6-brigadasida, eski urug‘chilik zavodi joylashgan yerda) taxminan 1900–1905-yillarda qurilgan. Saroy murakkab me‘morchilik uslubida ishlangan bo‘lib, loyihasi amirning o‘zi ishtirokida mashhur me‘mor Xo‘ja Abdurahim tomonidan tayyorlangan. “Mirzochorbog‘” saroyi va boshqa qurishlarda o‘sha vaqtda nom chiqargan ganchkor usta Shirin Murodov ishtirok etgan va bevosita rahbarlik qilgan. “Mirzochorbog‘”ni tiklashda karmanalik usta Sulton Qori, Najjor To‘ra, usta Do‘st, usta Latif kabilar qatnashganlar. Bu kishilarni ko‘rgan-bilganlarning xotirlashicha, saroy qurilishiga mingga yaqin ustalar jalb etilgan. Saroy asosan yog‘och va g‘isht (cho‘pkori)dan tiklangan bo‘lib, bino 20 xonadan iborat bo‘lib, xonaning ichki qismi nafis o‘ymakor va naqshinkorlik san‘atining g‘oyat go‘zal, noyob uslublari bilan bezatilgan. Devor va yog‘och ustunlariga o‘yib ishlangan betakror naqshlar binoga kirgan kishini lol qoldirgan. Amir mehmonxonasining g‘arbiy tomonida yana bir o‘n xonali bino bo‘lib, u arxitekturasi jihatidan sodda ko‘rinishli, g‘oyat hayratomuz geometrik shaklda qurilgan. Bino xonalarining ichi ham sharqona usulda bezatilgan. Usta Shirin Karmanaga sarboz sifatida olib kelinib, saroylar tiklashga kirishdi. U Karmanada 15 yil davomida Askarobod, Charmgar chorbog‘, Gulchorbog‘, Bog‘iolchin,

Jarchorbog‘, Mirzochorbog‘larni qurish, bezash ishlarida ishlab ko‘p qiynaladi, hatto u qahraton qishda ishlab, qo‘llarining barmoqlarini bir umrga sovuqqa oldirdi. Karmanadagi bog‘-u chorbog‘ va saroylar usta Shirinning iste‘dodi, mohirligi, san‘atkorona naqshlari bilan uni butun Sharqqa mashhur qildi.

Abdulahad Karmanada turgan vaqtida o‘zining Charmgar chorbog‘dagi saroyida she‘riy kechalar o‘tkazib, unga mahalliy shoirlarni, olim va fozillarni taklif qilgan. Uning sevgan shoiri Shohin Malik bo‘lib, u saroy shoiri hisoblangan.

Buxoroning so‘nggi amiri Sayid Olimxonning otasi Sayid Abdulahadxon 1894-yildan vafotiga qadar amirlikni Karmanadan turib boshqargani haqida ma‘lumotlar bor. Shu davrda u Karmana atrofida Charmgarchorbog‘, Gulchorbog‘, Bog‘i olchin, Jarchorbog‘ kabi bir nechta chorbog‘lar qurdirgan. Shulardan bugungacha faqat bittasi saqlanib qolgan. Bu–Karmana tumanining Ko‘hnaqo‘rg‘on mahallasida, Zarafshon daryosiga yaqin hududda joylashgan Mirzachorbog‘. Mazkur obida Sayid Abdulahadxonning yozgi qarorgohi hisoblangan. 1900-1905-yillarda barpo etilgan, betakror me‘moriy uslubga ega ushbu saroy nafaqat tarixiyliigi, balki naqqoshlik, ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi san‘atining o‘sha davrga xos namunalari aks etgani bilan qimmatlidir. Saroy 1942–1943 yillarda polyak askarlari uchun kazarma qilib berilgan. So‘ngra qishloq xo‘jaligi uchun foydalanishgan, jumladan, pillachilik idorasi bo‘lgan.

Kogon saroyi Buxoro amiri Abdulahadxon 1894-1903-yillarda Yevropa va Sharq uslublarini uyg‘unlashtirib qurdirgan hashamatli saroyi (1947-yildan shahar temir yo‘lchilari madaniyat saroyi) saqlanib qolgan. Yangi saroyning qurilishi 1895-yil 14-avgustda amir Sayid Abdulahadxon farmoni bilan Yangi Buxoroda boshlanib, 1898-yilda qurib bitkazildi. Saroyning loyihachisi Aleksey Leontevich Benois, muhandis Dubrovin qurilishga rahbarlik qilgan, buxorolik va rus hunarmandlari binoni qurib, tugatishgan. Ko‘p minoralari, gumbazlari va ustunlari bo‘lgan saroy eklektik bo‘lib, barokko va imperiya bilan uyg‘unlashgan neo-mavriy uslubda qurilgan. Dizaynda tipik yevropacha uslubdan tashqari arabcha naqshlar ham qo‘llangan. Saroyni qurish maqsadining turli xil versiyalari mavjud. Ulardan biriga ko‘ra, amir o‘zi uchun saroy qurishni buyurgan, biroq binoni qurib bitgach, ko‘zdan kechirib, uni yetarlicha muhtasham va hashamatli, deb hisoblagan. Sayid Abdulahadxon vafotidan so‘ng uning vorisi amir Sayid Olimxon temiryo‘l vokzaliga yaqin joyda joylashgan saroydan Buxoroga kelgan yuqori martabali amaldorlar uchun qarorgoh sifatida foydalana boshlaydi. Bugungi kunda temir yo‘lchilar madaniyat saroyi joylashgan ushbu bino me‘moriy yodgorlik maqomiga ega. Tashqi tomondan, saroy Evropa va Sharq me‘morchiligining organik aralashmasi bo‘lib, Buxoro me‘morchiligidan hayratlanarli darajada farq qiladi. Ko‘pchilik saroyni O‘zbekistondagi “Evropa oroli” deb ataydi.

Kogon dastlab Yangi Buxoroning kichik bir qishlog'i sifatida yaratilgan bo'lib, u yerda temiryo'lchilarni joylashtirish rejalashtirilgan edi. Shahar 1888-yilning yozida Buxoro shahri yaqinida tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi Kaspiy dengizi uchastkasining temiryo'llariga xizmat ko'rsatish edi. Vaqt o'tishi bilan Kogonning o'ziga xos elchixonaga aylandi. Shiva bilan qoplangan dabdabali bino klassik, barokko bilan uyg'unlashgan Marvning nafis uslubida, shuningdek, ko'p sonli minoralar, gumbazlar va ustunlar bilan qurilgan. Natijada yangi saroy binosi Buxoro amirligiga kelgan barcha yuqori martabali amaldorlar uchun qarorgohga aylandi. Shunday qilib, to'g'ri, bizning davrimizda uning xizmatlaridan foydalanishning iloji bo'lmaydi, chunki bugungi kunda bu saroy vokzal ishchilarining madaniyat uyi sifatida xizmat qilmoqda. Ammo ko'plab sayyohlar saroyini yaratishda ishlagan me'morlarning mahoratidan bahramand bo'lish uchun ushbu ajoyib diqqatga sazovor joylarga shaxsan tashrif buyurishni afzal ko'rishadi.

12.4. Buxoro amirlarining xorijdagi saroylari.

Jeleznavodsk saroyi. Buxoro amirining saroyi - Rossiyaning Jeleznavodsk shahridagi ikki qavatli sharqona saroy. Buxoro amirligi hukmdori Abdulahadxon tashabbusi va rus imperatori Nikolayning ruxsati bilan 1907-yildan boshlab qurila boshlangan va Olimxon hukmronligi davrida, 1912-yili qurib bitkazilgan. Amirning Rossiyadagi ikkinchi yirik qarorgohi. Hozirda u Rossiyaning Federal ahamiyatga ega memoriy yodgorligidir. Markaziy Osiyo hududida temiryo'l o'tkazilgandan so'ng, Abdulahadxon yoz oylarini Kavkaz va Qrimda otkazishga odatlanib qolgan. Uning tashabbusi bilan, ushbu hududlarda sharqona saroylar qurilgan. Kavkazning Jeleznavodsk shahrida qad ko'tara boshlagan saroy, Abdulahadxonning o'g'li, Amir Olimxon hukmronligi davrida qurib bitkazilgan. Aytishlaricha, Buxoro amiri hech qachon Kavkazdagi saroyiga tashrif buyurmagan. Mahalliy afsonalarga ko'ra, xurofotli amir, saroy qurilishi paytida, ustalardan biri yuqoridan yiqilib, qulab tushganini bilib Jeleznavodskga borishga sovgan.

Saroy o'zining imorat gumbazi, minorasi, o'zbekcha bezaklari, mavriy uslubidagi nafis taqasimon kamarlari bilan ajralib turadi. Saroy cho'yan panjara bilan o'ralgan. Nafis tosh zinapoya ustunlar ustidagi yarim doira arkada ko'rinishidagi asosiy kirish joyiga olib boradi. Parkga qaragan panjara burchaklarida egasining qudratini ifodalovchi sherlar haykallari tushirilgan ustunlar bor edi.

1898-yilda Buxoro amiri Qrimdan yer sotib olib, bu yerda istirohat bog'i, to'rtta xo'jalik binosi va mehmon uyi qurdirdi. Saroy xorazmlik tosh ustalar tomonidan qurilgan. Qurilish 5 yil davom etdi va 1912-yilda yakunlandi.

Buxoro amiri saroyi go'zal, garchi hajmi jihatidan unchalik katta bo'lmasada, sharqona me'morchilik uslubining namunasidir. U arab yozuvida stiliz qilingan naqshli temir panjara bilan o'ralgan va asosiy kirish eshigi tepasida sherlar haykallari o'rnatilgan. Yaqin atrofda dekorativ emas, balki juda funktsional minora joylashgan. Bundan tashqari, saroy mavriy archa, uchli derazalar, an'anaviy oq va ko'k rangli sopol mozaikalar va balkonlar, deraza romlari va ayvonlarda o'yilgan yog'och bezaklar bilan bezatilgan. Saroy imperator Aleksandr davrida kadetlar korpusidagi sobiq kursdoshi, amir va rus generali Sayid Abdullaxon uchun qurilgan. Binoni tugatish uchun buxorolik va xorazmlik eng yaxshi ustalar Jeleznovodskka yetib kelishdi. Ammo ma'lum bo'lishicha, bosh arxitektor binoni bunyod etmay tark etishga majbur bo'lgan. Qolaversa, Abdullaxonning o'zi ham 1910-yilda vafot etib, uning tugashini ko'rmagan. Buxoroning yangi amiri qurilishni davom ettirgan, lekin bu qarorgohga unchalik qiziqmagan va qurib bitkazilgan saroyni 1913-yilda imperator oilasiga hadya qilgan. Shundan so'ng saroy sanatoriya, so'ngra harbiy gospital vazifasini bajargan. O'tgan asrda saroy ko'p marta qayta qurildi va tiklandi, ammo bugungi kunda u juda jozibali ko'rinadi va hali ham kurort muassasasi bo'lib qolmoqda. Saroyga yaqin joyda ko'plab qo'shimcha binolar, sobiq otxonalar mavjud.

Qrimdagi (Yalta) saroyi. Buxoro amirining Qrim saroyi (Yalta shahrida) ikki qavatli sharqona saroy. Buxoro amirligi hukmdori Abdulahadxon tashabbusi va rus imperatori Nikolay II ning ruxsati bilan 1907-yildan boshlab qurila boshlangan va 1910-yilda qurib bitkazilgan. Amirning Rossiyadagi birinchi yirik qarorgohi (unga tegishli bo'lgan ikkinchi saroy Rossiyaning Jeleznovodsk shahrida joylashgan). Hozirda saroy Rossiyaning Federal ahamiyatga ega me'moriy yodgorligi bo'lib, unda Rossiyaga qarashli O'zbekiston sihatgohi joylashgan. Markaziy Osiyo hududida temiryo'l o'tkazilgandan so'ng, Abdulahadxon yoz oylarini Kavkaz va Qrimda o'tkazishga odatlanib qolgan. Uning tashabbusi bilan, ushbu hududlarda sharqona saroylar qurilgan. Qrimning Yalta shahrida qad ko'tara boshlagan saroy, 1910-yilda qurib bitkazilgan Saroyga Abdulahadxon "Dilkusho" (Maftunkor) deb nom bergan. Saroy 1917-yilga qadar Buxoro amirining mulki hisoblangan.

Mavritan uslubidagi gumbazli, minorali va shiyponli saroy mo'jaz va nafis qilib qurilgan. Yaltada joylashgan "O'zbekiston" sihatgohidagi Buxoro amiri Said Abdul Ahadxonning saroyi. U bir safar Qrimga borib, bu yurtni yoqtirib qoladi va shu yerda o'zi uchun saroy qurdirishga qaror qiladi. Yaltadagi bog' va muhtasham bino barpo etilgan yerni sotib olishga muvaffaq bo'ladi. Yalta shahri me'mori Tarasov loyihasi bo'yicha barpo etilgan gumbazli, minorali va shiyponli mo'jaz, biroq nafis saroy shahardagi eng go'zal maskanlardan biriga aylanadi. Amirning o'zi esa unga "Dilkusho", ya'ni "maftunkor" deb nom beradi. O'zidan oldin o'tgan ko'plab amirlardan farqli o'laroq, tez-tez Moskva, Peterburg, Tiflis, Kiyev, Odessa

kabi shaharlarga tashrif buyurib turgan. Keyinchalik Qrimga boradi va 1893- yildan boshlab har yozni Yaltada o'tkazadi. Yaltada amir ko'p yillar mobaynida qilgan saxovat borasidagi ishlari tufayli o'ziga xos saxiylik ramziga aylangan. Shahar oldidagi xizmatlari uchun "Faxriy fuqaro" unvoniga sazovor bo'lgan va hatto shahar ko'chalaridan biriga uning nomi berilgan. 1910-yilda u o'z mablag'i hisobidan Yalta shahrida bemorlar uchun bepul shifoxona qurdiradi. Ikki qavatli bino laboratoriya, xodimlar xonasi, jarrohlik va ginekologiya bo'limlari, 100 kishilik qabulxonadan iborat bo'lgan.

Buxoroning eng taraqqiyparvar amiri Abdulahadxonning Qrimga muhabbati tarixi ana shunday edi. Qrim tarixining ushbu noyob yodgorligining asosiy siri uning joylashgan joyi va tegishliligidadir. Majmua harbiy sanatoriyning bir qismi bo'lib, shahar bilan bir xil nomga ega-"Yalta". Buxoro amiri saroyi Sevastopolskaya ko'chasida, dengiz bo'yidagi bog'dan uncha uzoq bo'lmagan joyda joylashgan. 1898-yilda Yalta shahridan uchastka sotib olib, o'zining bo'lajak qarorgohi loyihasini ishga tushirdi va 1907-yilda bu yerda me'mor N.Tarasov rahbarligida ulkan qurilish ishlari boshlandi. To'rt yil davomida saroy va istirohat bog'lari ansambli ko'paydi.

Tayanch iboralar: saroy, me'moriy obida, Sitorai Mohi Xossa, Shirbudin, Karmana, Kogon, xorijdagi saroy, masjid,usta, Oq zal, usta Shirin Murodov, hovuz, evropacha uslub, chorbog'.

Savol va topshiriqlar

- 1.Buxorodagi ichki va tashqi saroylarni sanab bering?
- 2.Sitorai Mohi Xossa qaysi amirlar tomonidan qurilgan?
- 3.Shirbudin saroyiga ta'rif bering?
- 4.Kogondagi saroylari qachon va kim tomonidan qurilgan?
- 5.Buxoro amirlarining saroylari qaysi xorij davlatida mavjud?

Manba va adabiyotlar

- 1.Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи нофеий (Фойдали тарих). Тоҷик тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Ш.Воҳидов ва З.Чориев. – Тошкент: Академия, 2001. Б–122.
- 2.Қорёғди Жумаев “Ситораи Моҳи Хоса”.”Бухоро.,2010.
- 3.Наргиза Жумаева “Ситораи Моҳи Хоса бўйлаб”. “Дурдона”,.2016.
- 4.С.Айний “Бухара”.1981.-С.314
- 5.Шалатонин Б. С. Амир Сайид Абдулаҳад Баҳодурхон ва унинг сеvimли қароргоҳи–Кармана. Дўстлик байроғи. 1995, 5 июл.

13-Mavzu: Buxoroning qadimiy turar joylari me'morchiligi

13.1. Buxoroning qadimiy hovli joylarining o'ziga xosligi.

Buxoro amirligi hududida qadimiy turar joylari me'morchiligida umumiy jihatlar mavjud. Bu umumiylik shundan iboratki, ularning barchasida asosiy element hovli hisoblanadi. Hovlilar odatda dahlizlar vositasida bog'langan xonalar hamda ayvon va shu singari yozgi yashash joylari, xo'jalik hamda yordamchi xonalar bilan to'rt atrofdan o'rab olingan bo'lgan.

Hovlilarni shakllantirish, unga nisbatan xonalar va yozgi inshootlarni joylashtirish uslubi biz yuqorida aytib o'tgan shahar va viloyatlarda o'ziga xos regional ko'rinishni keltirib chiqargan.

Misol tariqasida izchil o'rganilgan va teran an'analarga ega bo'lgan Buxoro turar-joy tipini olib qaraylik. Buxoro uylari odatda darvozadan ancha narida usti berk yo'lak-dolonlardan boshlangan. Dolonning ahamiyati to'g'risida mashhur arman adibasi va shoirasi Marietta Shaginyanning juda ham ehtirosli so'zlari bor. "Harorat qirq darajada issiq edi. Quyoshning tik tushayotgan nurlaridan go'yo yonib borayotgan ko'chadan uncha baland bo'lmagan yarim toq shaklidagi darvozadan ichkariga kirdim va meni birdaniga qorong'ulik qamrab oldi. Yo'lak bog'gamas, hovligayam emas, balki tunnel bo'ylab davom etardi. Va koshinkorlik qilingan bu tunnel to'g'ri ketmasdan, har o'n-o'n besh qadamda "tirsaksimon" burilishlar yasab borardi. Koshinlarning tuproq rangi moviyroq tusini, ozorqqina ichiga botib turgan tokchalar va ulardagi ko'za ichidagi suvda qalqib yurgan atirgul yaproqlarini ko'z ilg'ab olishdan oldin, men dimiqib ketgan, ko'z ochishga qo'ymaydigan jaziramadan rohatbaxsh, salqin shabada esayotgan tomonga borayotganimni sezdim. Shabada go'yo yoningizda katta bir kapalak yelpitib ketayotgandek tuyulardi. Va siz ichkariga kirib borganingizda, bu shabboda sizning marjon terlaringizni qurutib, yuzingiz alangasini so'ndirib sizga huzur baxsh etadi, endi yuragingiz bir maromda urib, ko'zlaringiz orom olgan, teringiz yumshagan, sochingiz oralab salqinlik salqib o'tib va hatto go'yoki kovushingizdagi chang yo'l-yo'lakay tushib qolganday tuyuladi, uchinchi burulishdan so'ng sizning oldingizda uylarning ilohiyoti-holi namoyon bo'ladi..."

Va hamma narsa darrov ayon bo'lib qoladi: bu tirsaksimon yo'l ko'rkamlilik, yoki hovlining qing'ir-qiyshiqligidan emas, balki o'ziga xos soya va salqin saqlagich hamda havo va shamolni yo'naltiruvchi mexanizm sifatida bunyod etilgan".

Haqiqatan ham dolonning uy-joy qurilishi sohasidagi vazifasi muhim bo'lgan. O'z o'rnida u yana vestibul rolini ham bajargan. Bundan tashqari qo'shimcha qurilish maydoni, yog'in-sochindan boshpona bo'lib ham xizmat qilgan. Dolon ko'proq shahar hovlilarida ishlatilgan. Dolondan so'ng kirish yoki darvozaxona joylashgan. O'sha davrda uylar "tashqari" hamda "ichkari"

hovlilarga bo'lingan. Buning sababi bo'lgan. Birinchisi islom dini aqidalari ta'sirida ayollarni "begona ko'zdan" bekitish bo'lsa, ikkinchisi undan ancha oldin paydo bo'lgan odat-hovlining xo'jalik (tashqari) va madaniy (ichkari) zonalarga bo'linishidir. Xuddi shuning singari xonalarning faqat hovli tarafiga qaratilib qurilishi ham ikkiyoqlama xarakterga ega. Ya'ni dereza va eshiklarning tashqariga (ko'chaga) ochilmaganligi birinchidan shariat doirasida bo'lsa, ikkilamchi bu hovlini tashqi shovqin, chang va hokazolardan mustasno qilib, hovlidagi daraxt va gullarga qarata qurilishidir. Buning isboti sifatida O'rta Osiyo turar joylarida mana shu omilning arablar istilosigacha bo'lganligini keltirish mumkin.

13.2. Buxoro boy amaldorlari uylari.

Boy va zodagonlar xonadonida darvozaxonadan keyin ko'ngdalangiga devor ko'tarilgan. U "G'ulom gard", yani "qul, qaytgin!" yoki "qul qaytar joy" degan ma'nolarni anglatadi. Begona kishilarga bu devor chegarasidan ichkariga kirish ruxsat etilmagan.

Tashqari hovlida odatda mehmonxona, kitobxona (ko'pincha darvozaxona ustiga boloxona sifatida o'rnatilgan), do'konlar (hunarmandlar uyida), ombor, og'il, yordamchi xonalar (o'tin, ko'mir va boshqalarni saqlash uchun), hojatxona, qo'shimcha ayvonlar joylashgan bo'lgan.

Ichkari hovliga esa, tandirxona, oshxona, asosiysi ayvonlar va dahliz, istiqomat xonalari, madon turkumidagi xonalar bo'lgan. Buxoro uylari qurilishining bir necha o'ziga xos xususiyatlari bo'lgan. Shulardan biri xonalarning "tobistoni" (yozgi) va "zimistoni" (qishki) qismlarga bo'lib qurish an'anasidir. "Tobistoni" xonalar hovlining janub tomonida joylashgan bo'lib, shimolga qaratib qurilgan (oftob nurlari qizdirmasligi uchun). Xonaning ichida havo yaxshi aylansin uchun ularning balandligi taxminan 5,5 metrgacha qilib qurilgan.

"Zimistoni" xonalar esa buning aksicha-hovlining shimoliy tarafidan janubga qarata qurilgan. Balandligi 2,5 metrdan oshmagan. Eshik va derazalari ham chog'roq qilib bezatilgan.

Buxoro uylari dahliz, kunduzgi o'tirish xonasi, yotoqxona, shohnishin va madon kabi tarkibiy elementlardan tashkil topgan. Bular hozirgi tushunchada "kvartira" elementlarini tashkil etadi. Bundan tashqari hovlida oshxona, ombor, darvozaxona, uning ustiga kitobxona, yonida badrav (hojatxona) bo'lib, bu xonalarning ostida esa tagxona (podval) joylashgan. Qizig'i shundaki tagxonaning asosiy vazifasi salqin havo yetkazib beruvchi o'ziga xos konditsioner vazifasini o'tagan. Shuning uchun ham ko'pincha tagxonalar yozgi xonalarning ostini egallagan. Buning naqadar puxta o'ylanganligi shundan ko'rinib turibdiki, birinchidan podvaldan chiqqan zax havo hamma vaqt yuqoridagi xonaning polini sovutib turgan, uning hovli sahnida ko'tarinqirabroq joylashishiga sabab bo'lgan va nihoyat tagxonadagi ochiq tuynuklardan chiqqan salqin, nam havo hovlida

shamol aylanishi-tabiiy konversiyani va xonalar ichida ayeratsiyani yaxshilashga sabab bo‘lib, mikroiklim hosil qilgan.

Demak, yozgi xonalar shipi baland (5,5 metr) qurilishidan tashqari tagxona ustida joylashganligi tufayli yanada yuqoriroq qilib qurilgan va ularning bahavoligini ta‘minlagan. Xuddi mana shu xonalar oldida joylashgan sahn ham bir oz kengaytirilib, yuqorida aytib o‘tilgan yozgi xonaga ta‘sir etuvchi mikroiklim omilidan bu yerda ham foydalanilgan. Bu sahnlik Buxoroda supa (sufa), deb ataladi. U yozda o‘tirishda mo‘ljallanadi va pishiq g‘isht terib ishlanadi. Yoz paytlari bu supaga suv sepilganda pastdan chiqayotgan salqin havo ta‘siri yanada kuchayadi. Buxoro uylarida tagxonalar, supalar, xonalarning ayrimlarining poli pishiq g‘ishtdan, devorlari va yopmalari (sinchli qilib) yog‘och bilan ishlangan bo‘ladi. Odatda hovlining hamma yog‘i, gulzor va daraxt ekilgan joydan tashqari pishiq g‘isht bilan ishlab chiqilgan.

Buxoro uylari qurilishining yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, ko‘pgina hovlilarda tomlardan yozda yotish joylari sifatida foydalaniladi. Ayrim hollarda hatto boloxonalar tomlaridan ham shu maqsadda foydalanilgan. Bir hovli bilan ikkinchi hovli tomlari devor (tavora) bilan ajratib qo‘yilgan.

Ma‘lumki, qadimda ko‘pgina O‘rta Osiyo shaharlarida yashash uchun yaroqli hisoblangan yerlarga ehtiyoj kuchli bo‘lgan. Bu narsa Buxoroda yana boshqa bir tipdagi uylarning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Biz hikoya qilmoqchi bo‘lgan bunday uylarning hovlisi bo‘lmagan. Bu odatda tomonlari 20-30 metrdan oshmaydigan hududda imorat qurish san‘atidir. Bunday imoratlarning birinchi qavati to‘liqligicha tagxona (yerto‘la) qilingan. Bu yerda o‘rnatilgan mustahkam ustunlar (g‘isht yoki yog‘ochdan) yuqori qavatdagi imoratlarni hamda ular tashkil etadigan sahn-hovlini ko‘tarib turgan. Hovlining o‘rtasida pastdagi qavat – tagxonadan salqinlik urib tursin uchun tuynuk o‘rnatilgan. Tagxonada barcha xo‘jalik xonalari va yordamchi xonalar joylashgan. Yuqorida esa yashash xonalari o‘rin olgan. Ulardan ko‘chaga qarab darchalar chiqarilgan.

Buxoro qishloqlaridagi uylar ham xonalarning joylashuvi jihatidan shahardagilarga birmuncha o‘xshab ketadi. Biroq qishloq joylarida dolon aytarli ishlatilmagan va og‘ilxona tashqari hovlining anchagina qismini egallagan. Qishloq uylarining shaharlardagi uylardan yana bir farqi shundaki, dala joylarida ichkari hovlida joylashgan yozgi xonalar chorboqqa ochilgan.

Umuman olganda, O‘rta Osiyo xalqlarining turar joylari qurilishi uslubi ko‘p ming yillik madaniy rivojlanish mahsuli bo‘lib juda ham rang-barang me‘moriy an‘analarni o‘zida mujassam etgan. Masalan, birgina yozgi xonalarning o‘nga yaqin turi mavjud va ma‘lum. Bular – dolon, shiypon, ravon, ayvon, ters ayvon, kayvon, soyabon, nimayvon va hokazolardir.

13.3. Fayzulla Xo‘jaev uy – muzeyi.

Buxoro-katta karvon yo‘li yoqasida joylashgan qadimiy shaharlardan biridir. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoro amirlik poytaxti hisoblangan. Bu yerda uylar shahar sharoitidan kelib chiqqan holda, kichikroq qilib, ko‘cha shakliga mos ravishda qurilgan. Shuning uchun ham Buxorodagi uylar 2-3 qavatli bo‘lgan. Uylarning «birun» deyilgan tashqari qism, «darun» deyilgan ichkari qismi yordamchi binolardan iborat bo‘lgan. Buxoro turar joylari “tobiston”-shimolga qaragan yozgi xonalar, “zimiston”-janub yoki g‘arbga qaragan qishki xonalarga bo‘lingan. Har bir xonalar majmui eshiklar orqali markaziy xonaga birlashgan. Baland shiftli yozgi xona mehmonlar uchun mo‘ljallangan, u “madon”-markaziy va yordamchi xonalar ustida barpo etilgan. Koshinlar bilan bezatilgan “shohnishin” martabali mehmonlar uchun mo‘ljallangan. Zallarning ichki qismi ikki sinchli devor va to‘sinlar bilan yopilgan tomdan iborat bo‘lgan. Devorning har ikkala tomoniga baland va past tokchalar, shuningdek ularga mos ravishda o‘yma naqshli va bezak panjarali eshik, derazalar o‘rnatilgan. Gumbazli masjidning mehrobi devori tik, ba‘zan kvadratsimon botiq va bo‘rtiq shakllar bilan bezatilgan. Binolarning shifti to‘sin, vassa, naqsh o‘yilgan hovuzaklardan iborat bo‘lgan turar joylarning ichi mehmonxonalarga qaraganda boyroq bezatilgan. Devorlarining tepa qismi ganch suvoq qilinib, “sharafa” karnizi o‘rnatilgan.

Sumalaksimon osilib turgan solinchoqlar, ko‘p qismi qubbasimon tokchalar, o‘yma namoyonlar bezak vazifasini o‘tagan. Namoyonga geometrik shakllar yoki medalonlar, mehrob qubbalari, yassi dahana yoki davri-poya singari o‘yma yoki chizma naqshlar bilan bezatilgan. Tokchaning ustki qismi qori, muqarnas, iroqi singari gumbazchalarga ega bo‘lgan. Tokchalari bo‘lmagan bir sinchli devorlarga ganchdan quyma bo‘rtma tokchalar o‘rnatilgan. Tokchalar o‘rtasiga chobaka - uyma stillashgan ko‘za tasvirlangan panjara yoki tokchaning ichki qismi hamda alibastr taxtaga xatkash panjara o‘rnatish buxoroliklar uchun an‘anaviy hisoblangan. Tokchalar qizil, ko‘k, yashil kabi yorqin bo‘yoqlar bilan bo‘yalgan. Buxorolik boylarning uylari tokchalari mayda bo‘laklarga ajratilmasdan naqshlar va ganch bezaklar bilan bezatilgan.

Devoriy bezaklarning asosiy qismini guldonda turgan guldasta, gullayotgan daraxt shoxlari, majnuntol novdalari kabilar tashkil etadi. Tasvirlar bir qadarshartli bo‘lsada, bezaklar ancha erkin ishlangan. Ular bir-biriga mutanosib bo‘lib, ranglar yaxshi tanlangan, chiziqlar nafis. Bezaklar rangi to‘qdan och rangga tomon yoki aksincha o‘zgargan. O‘simliksimon bezaklar geometrik ganch bezaklari bilan uyg‘unlashib ketgan. O‘yma ganchlarga ko‘pburchakli yulduzlarning geometrik shakli, shuningdek, gul, novda, buta singarilar tasviri tushirilgan. Namoyonlar foni o‘rniga qarab turli ranglarga bo‘yalgan. Shiftga ishlangan bezaklar xona ichini

yanada ko'rkam qilib yuborgan. Shift yuzasi hovuzaklarga bo'lingan. Buxoro turar joylarining shift va devor bezaklari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Buxoro xonalari devorlari somonli loy, ganch bilan silliqlab suvab, pardoqlangan shokilasimon jimjimador araqilar, jozibador naqshlar, yakka- yakka o'yama oq naqshlar qo'llanilgan.

Qadimdan Turkistonning xalq me'morchiligida mehmonxonalar qurish, uni bezashga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, Buxoroning amaldor va boylari hovlilarida mehmonxona asosiy o'rin egallagan. Mehmonxonalarning hajmi, uning katta kichik qilib qurilishi xona sohiblarining jamiyatdagi mavqelariga bog'liq bo'lgan. Mehmonxona ko'pincha shimolga, ayrim hollarda sharqqa qaratib qurilgan. Mehmonxona xuddi yozgi va qishki xonalar kabi daxliz va madonga ega bo'lib, ularga nisbatan ikki baravar baland bo'lgan. Dahliz va madonlar ustida e'tiborli mehmonlar uchun alohida «shohnishinlar» (shoh o'tiradigan joy) qurilgan. Xalq me'morchiligidagi bu unsur saroy me'morchiligidan olingan. Bunday shohnishinlar Buxorolik ko'pgina amaldorlar uylarida bor. Misol qilib, Sharifbek, Ubaydullaxo'ja, Nurillaboy uylarida uchratish mumkin. Dahlizdan zina orqali shohnishinga ko'tarilganda g'arbiy devor ikki ravog'ining birida sovuq ranglarda ishlangan tog' manzarasi uzra xuddi osmondagi yulduzlar kabi qizil, ko'k gullar sochilgan. Ikkinchi ravoqda esa, an'anaviy ko'zali gulbutani eslatuvchi, ammo ko'k gultuvakdan unib chiqqan limon daraxti sariq mevalari bilan juda aniq chizilgan. Undan keyin joylashgan daricha ustidagi ravoqda esa, qirg'og'i tik qoyali dengizda suzayotgan oq yelkanli kema tasvirlangan. Sharqiy devorning yarmida esa, baland tog'li dengiz ko'rfazi va unda suzayotgan kemalar tasviri ham sovuq ranglarda amalga oshirilgan.

Tasvirning bajarilish uslubi ovrupachaga o'xshasada, uni bajargan kishi mahalliy naqqosh ekanligi toqlar peshtoqidagi gullarning tasvirlanishida, mevali daraxt shoxlari, barglari va mevalarning simmetrik joylashuvida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mehmonxona shohnishinida Ovrupo usulidagi tasvirlar paydo bo'lishiga tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, 1910-yillarda Buxoro madaniyatiga Ovruponing ta'siri kuchaygan va buxorolik naqqoshlardan Nabi Hafizov ba'zi uylarning naqqoshlik bezagida davriy matbuot, boshqalardan foydalanib, yuqoridagi kabi real tasvirlarni ishlagan.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoro aholi turar joylari orasidagi eng ko'zga namoyon bo'lgan hovlilardan biri bu yirik amaldor va savdogar Fayzullo Xo'jaev uylari hisoblanadi. Fayzullo Xo'jaev (1896-1938-yillar) uylari XIX asr oxirida (taxminan 1870- yillarda), Qadimiy G'oziyon ko'chasida barpo etilgan. Bu uy aslida Fayzullo Xo'jaev otasi Ubaydullo Xo'jaevga tegishli bo'lgan. Hovli 3 gektar yerdan iborat bo'lib, uy 2 qismdan iborat: ular — tashqi (erkaklar uchun) va ichki (ayollar uchun). Bundan tashqari uy yozgi va qishki xonalarga ham

bo'lingan. Har bir uyning o'z "dahliz"i va "madon"i bor. Uyning ayvoni, mehmonxonalari va alohida xonalarining o'zbek amaliy san'at turlari, ya'ni yog'och o'ymakorligi, ganch o'ymakorligi, naqqoshlik bilan bezatilganligi diqqatga sazovordir. Uylar devori 3 qismdan iborat: pastda — izora(uncha baland bo'lmagan poydevor), o'rta qismda — asosiy devor va tokchalar, namoyonlardan iborat bo'lgan. Yuqorida esa shiftga ulanib ketadigan hoshiya bezaklardan iborat. Uchinchi qism -sharafa qismi hisoblanadi. Hovlining barcha, ya'ni ham qishki, ham yozgi xonalarining izora qismida ko'pincha geometrik naqsh-girix va islomiy naqsh ishlatilgan.

Islomiy naqshlar buxorochoa uslubda-edirma tarzida bo'lib, asosan, yashil, pushti, osmonranglar ishlatilgan. Asosiy devor tokchalardan va namoyonlardan iborat. Devorning har ikkala tomoniga baland va past tokchalar, shuningdek ularga mos ravishda o'yima naqshli va bezak panjarali eshik, derazalar o'rnatilgan. "Bag'dodi", deb yuritiladigan eshik, darcha, derazalar keng tarqalgan.

Devordagi naqshlar odatiy buxorochoa uslubda, ya'ni edirma naqshlardan iborat bo'lib, unda ko'pincha guldondan o'sib chiqayotgan guldasta, gullayotgan daraxt shoxlari, majnuntol novdalari tasvirlangan. Ular "hayot daraxti", tabiat in'omi, abadiylik va osoyishtalik kabi ma'nolarni anglatadi. Xususan, anor butasi-hosildorlik ramzini, majnuntol-sevgi sog'inchi singarilarni ifodalaydi. Naqshlardagi gullar osmonrang, pushtirang, yashil, oxira, qizil ranglarda ishlangan. Bundan tashqari uy devorlarida biz islomiy naqshlarning geometrik ganch bezaklari bilan uyg'unlashib ketgan hollarini ham uchratishimiz mumkin. Gipsda o'yilgan o'yima naqshlarda ko'pburchakli yulduzlarning geometrik shakli, hamda, gul, novda, buta singarilar tasviri ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Namoyonlar foni turli ranglarga bo'yalgan, masalan: qizil, sariq, qizg'ish, ko'k, firuzarang, pushtirang, yashil.

Shuni alohida aytib o'tish lozimki, uy devorining uchinchi, ya'ni sharafa qismi ham o'zining alohida jozibadorligi bilan ajralib turadi. Ganchda o'yilgan o'yima naqshlar tilla suvi bilan yurgizilib, usta naqqoshlar tomonidan turli ranglarda bezatilgan.

Xullas, yirik amaldor va savdogar Fayzulla Xo'jaev uylari XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi eng ko'rkam ko'rinishga ega bo'lgan turar joylaridan biri hisoblanib, uy o'zining devorlaridagi bezaklari, kompozitsion yechimlari, ranglar jilosi bilan e'tiborni tortadi. Buxoro an'anaviy aholi turar joylari xususiyatlarini o'rganish O'zbekiston me'morchiligi va amaliy bezak san'ati tarixining eng qiziqarli sahifalaridan biri hisoblanadi. Bu boy merosni asrab-avaylash, uni o'rganish, ilm-fan va milliy madaniyat yutug'i sifatida ko'rsatish biz yosh avlodning ham qarzi, ham farzidir.

Tayanch iboralar: turar joy, hovli, imoratlar, boy amaldorlari uylar, dolon, uy-joy, dahliz, ayvon, xonalar, darvoza, yo‘lak, mehmonxona, boloxona, oshxona, dahliz.

Savol va topshiriqlar

1. Buxoroning qadimiy hovli joylarining o‘ziga xosligi nimada?
2. Hovli deganda nimani tushunasiz?
3. Dolonning uy joy qurilishi sohasidagi vazifasi nimadani iborat bo‘lgan?
4. Buxoro boy amaldorlari uylari oddiy uylardan qaysi jihatlari bilan farq qilgan?
5. Ichkari hovli bilan tashqi hovlining bir-biridan farqlovchi belgilarni sanab bering?

Manba va adabiyotlar

1. Пугаченкова Г.А, Ремпель Л.И. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. Ташкент, 1958.
2. Майкова.В.Н. Художественная культура народного жилища Узбекистана. Ташкент, 1990.
3. Уринбаева М.Б. Традиции и преемственность интерьера жилых домов в Узбекистане. Ташкент, 1992.
4. Вахитов М.М, Мирзаев Ш.Р. Меъморчилик тарихи. Тошкент, 2010.
5. Ахмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Тошкент, 1995.

14-MAVZU: Mustaqillik yillarida Buxoroda qayta tiklangan muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar

14.1.Buxoroning “Yetti pir” qadamjosi mustaqillik yillarida ta’mir lanishi.

Abdulxoliq G‘ijduvoniyy 1103-yilda G‘ijduvon shahrida tavallud topganlar. Ilm-u hol va ilm-u qolni o‘zlashtirib ulg‘aygan. Musulmonlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlab shayxlik darajasiga yetgan. Ul zotga “Xo‘jai Jahon”, “Qalb zikri sultoni”, “Ikki olam Xo‘jasi”, “Qutbi zamon”, “Ofoqi zamon” kabi ko‘plab nisbalar berilgan. Hazrat Xojagon tariqatiga asos solgan. Shu joyda tariqat peshvosi bo‘lib “bo‘z to‘qish” kasbi bilan shug‘ullangan. “Xojagon tariqati” asosi Qur‘on va hadisga tayanib, bid‘a-tu xurofot, soxta pir-u muridlikka qarshi qattiq kurashgan, insoniyatni ta’ma va minnatdan qaytarib, halol mehnat orqasidan kun kechirishga, Olloh bergan rizqni ko‘pchilik bilan baham ko‘rishga undagan. Hazrat Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyy 1179-yil (ba’zi manbalarda 1220-yil) G‘ijduvon shahrida vafot etgan, qabrlari ham shu yerda joylashgan.

Istiqlol sharofati bilan 2003-yili Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyy hazratlarining 900 yillik tavalludi munosabati bilan keng ko‘lamli obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Jumladan, hazrat qabrining ustida o‘n ustunli ayvon yangidan barpo qilinadi. Bu hazratning silsilai sharifda o‘ninchi o‘rinda turganligi ramziy belgisi edi. Maqbara yonida 1500 kishini sig‘dira oladigan yangi jome’ masjidi qurilib, sho‘rolar davrida ko‘mib tashlangan hovuz va quduq qayta tiklanadi. Masjid va majmua atrofida 4 gektarli ko‘rkam xiyobon barpo etiladi.

Yetti piring ikkinchisi, ya’ni “Xoja Muhammad Orif Revgariy Mohitobon” ziyoratgohi Shofirkon tumaniga joylashgan. Ziyoratgohdagi dahma yog‘ochdan o‘rab olingan bo‘lib, hazrat qabri ustida oppoq tikanli o‘simlik hech oqligini yo‘qotmasdan ko‘karib turar ekan. Ziyoratgohning qibla tomonida chillaxonalar bo‘lgan va uzun ayvon shimolga qaragan hamda yuqori tarafida katta mevali bog‘ bo‘lgan. Ko‘pchilik musofirlar ziyoratga kelib, shu bog‘ mevasidan tannovul qilganlar. Ayvon oldidagi katta hovuzdan suv ichilgan. Hozirgi ziyoratgohdagi 3 tomonli ayvon juda qadimiy.

Keyingi manzil Vobkent tumanidagi “Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy” ziyoratgohi. “Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy” ziyoratgohi sho‘rolar zamonida qarovsiz, juda xarob holda edi. Bu yerdagi masjid esa kolxoz omboriga aylantirilgan. Istiqlol yillari ushbu ziyoratgohda ham qayta qurish va obodonchilik ishlari amalga oshirildi. 1999-2000-yillarda hashar yo‘li bilan Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy qabri ustiga ikki qavatli maqbara, 300 kishini sig‘diradigan uch ayvonli yangi jome masjidi, hovuz, darvozaxona, mehmonxona, zamonaviy tahoraxona qurib bitkazildi. Masjid hovlisida manzarali va mevali daraxtlar o‘tkazilib, bog‘-rog‘lar tashkil qilindi. Ziyoratga va namozga keladiganlar uchun

barcha qulay sharoit yaratildi. Jome masjidi esa 1998-yil rasman ro'yxatdan o'tib, faoliyat ko'rsata boshladi. Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy silsilai-sharifda o'n ikkinchi halqaning piri murshidi, Xoja Orif Mohitobonning shogirdi, Xoja Ali Romitaniyning ustози bo'lib, XIII asrda Vobkent hududida yashab o'tganlar.

Yetti purning to'rtinchisi Romitan tumanida joylashgan "Xoja Ali Romitaniy" ziyoratgohi. Vobkent tumanidan salkam 37 kilometr yo'l bosiladi. Xoja Ali Romitaniy (Xojai Azizon nomi bilan ham atalgan) (Romitan tumani Qo'rg'on qishlog'i-1195/1324)-"Xojagon Naqshbandiya" tariqati vakili. To'quvchilik bilan mashg'ul bo'lgan. Xorazmda bir muddat yashab, xonaqo ochgan va "Xojagon" tariqatini mazkur hududda tarqatgan. Ma'naviy ustози Mahmud Anjir Fag'naviydir. U esa, o'z navbatida Xoja Muhammad Boboyi Samosiyning ustози hisoblanadi.

"Xoja Ali Romitaniy" nomidagi masjid 2004-yilda hashar yo'li bilan qurilgan. Unda darvozaxona, jome' masjidi, maqbara va milliy uslubda qurilgan ayvon, hovuz va toshquduq, mehmonxona va oshxonalar mavjud. Bundan tashqari, bu yerda ikkita mehmonxona, quduq va masjid atrofida mevali daraxtlardan iborat maxsus bog' ham tashkil etilgan. Qo'rg'on qishlog'idagi ushbu jome' masjidda juma namozlari, Ramazon va Qurbon hayiti namozlari ado etiladi. Namozxonlar uchun erkaklar va ayollar tahoratxonasi mavjud. Mohir naqqosh ustalar taklif etilib, 2014-yil kuzida "Xoja Ali Romitaniy" maqbarasidagi qabr toshi yangilandi. Ayni paytda qurilish va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Romitan tumanida joylashgan yana bir pir Xoja Ali Romitaniyning shogirdi Xoja Muhammad Boboyi Samosiy hisoblanadi. Xoja Muhammad Boboyi Samosiy ziyoratgohi Xoja Romitaniy ziyoratgohidan 5 kilometr masofada joylashgan. Ul zot Buxoroning buyuk shayxlaridan hisoblanib, Hazrat Boboyi Samosiy nomlari bilan mashhur bo'lganlar. Hazrat Samosiy (ba'zi manbalarda "Simos") masjid turgan hududda tavallud topgan. Manbalarda u zotning tug'ilgan yillari keltirilmagan. Vafotlari esa 1354- yilga to'g'ri keladi.

Pirlarning oltinchisi "Sayyid Amir Kulol" ziyoratgohi Kogon tumani Yangi hayot qo'rg'onida joylashgan. Romitan tumanidan salkam 47 kilometr uzoqlikda. "Sayyid Amir Kulol" jome' masjidi tarixiy shaxs nomiga qo'yilgan. Sayyid Amir Kulol (1281-1370 yillar) Buxorodagi etti purning oltinchisi bo'lib, 89 yil umr ko'rgan. Asl ismlari Sayyid Amir Kalon bo'lib, kasblari kulolchilik bo'lgani sababli Sayyid Amir Kulol, deb atashgan.

"Sayyid Amir Kulol" jome' masjidi mustaqillikka erishilganidan so'ng 1994- yilda hashar yo'li qayta bilan qurilgan. Masjid o'z faoliyatini hozirgi kunga qadar davom ettirib kelmoqda. Masjid binosining old va o'ng tomonida ayvon bor. Binoga kiraverishda-o'ng va chap tomonlarda 2 ta xona mavjud. Masjidning balandligi 4,70 metr, uzunligi - 24,4 metr, eni - 18,5 metr. Masjid gumbazining

balandligi-9 metr. Masjid minorasi 2007-yilda qurilgan. “Sayyid Amir Kulol” jome’ masjidida maqbarasi 2 ta xonadan iborat bo’lib, birinchi xonasi tilovatxona, ikkinchi xonada esa Sayyid Amir Kulolning qabrlari joylashgan. Maqbara 2007-yilda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan milliy me’morchilik uslubida gumbazli qilib qurilgan. Devorlari pishgan g‘ishtdan. Maqbara binosining balandligi–12 metr, uzunligi–15 metr, eni–8 metr.

Dunyoga mashhur Bahouddin Naqshband ziyoratgohi Kogon tumani Qasri Orifon qishlog‘ida joylashgan. Bu yergacha Sayyid Amir Kulol ziyoratgohidan 5 kilometr yo‘l yuriladi. Bahouddin Naqshband ziyoratgohi besh yuz yil mobaynida shakllandi. Uning ilk tarixi to‘g‘risida ma’lumot juda oz. Bahouddin Naqshband qabrlari oldidagi dastlabki binolar, taxminan hazrat vafotlaridan keyin paydo bo‘lgan. Me’moriy-arxeologik tadqiqotlar davrida ilk binolarning qoldiqlari va asoslari topildi. Bahouddin Naqshband vafotidan ko‘p o‘tmay hazrat maqbarasining g‘arbiy tomonida qabriston paydo bo‘lib, unda hazratning murid-muxlislari dafn qilina boshlagan. Keyinchalik bu yerda Buxoroning hukmron sulola vakillari dafn qilinadigan “Dahmai shohon” (“Shohlar xilxonasi”) paydo bo‘lgan.

14.2. Bahouddin Naqshband ziyoratgohining mustaqillik yillaridagi ko‘rinishi.

Mustaqillikning shonli va zafarli yillarida xalqimiz qo‘lga kiritgan yutuqlar son-sanoqsiz va ularning har biri asrlarga tatigulikdir. Bularning bari betakror va yagona jonajon O‘zbekistonimizning buyuk kelajak yo‘lidan sobitqadamlik bilan dadil odimlayotganidan darak beradi. Har bir O‘zbekiston xalqi ushbu amalga oshirilayotgan ishlarni teran anglab, mustaqilligimiz va tinchligimizni qadriga yetib, mamlakatimizdagi tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrashi lozim. Zero, tinchlik va totuvlik eng ulug‘ ne’matir.

1993-yili Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi munosabati bilan O‘zbekistonda Bahouddin Naqshband ta’limoti o‘rganishga ahamiyat kuchaydi. Buxoro davlat universiteti huzurida “Naqshbandiya” ilmiy markazi ish boshladi. U yerda tasavvufiy-irfoniy merosni tadqiq etish yo‘lga qo‘yildi. Buxoro davlat muzey qo‘riqxonasida ham “Naqshbandiya” markazi tuzildi.

Sharofatli odamning qadamida gul ochiladi, deyishadi. Islom Karimov 1993-yil 16-sentyabrda ilk bor islom olamining yirik vakili Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi tantanalariga tashrif buyurganda shu muborak manzilning baxti ochildi. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti tashabbusi va rahnamoligida ilgari qarovsiz yotgan joyda asrlarga tatigulik bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Necha asr muqaddam ko‘milib ketgan obidalar qayta ko‘z ochdi. Bu yerga qadam qo‘ygan mehmonlar ziyoratni,

eng avvalo, buyuk allomaning onasi mangu qo‘nim topgan qabrdan boshlaydigan bo‘lishdi. Birgina shu an‘ananing qayta tirilishi millatimizda onaga ehtirom ramzini ifodalaydi.

14.3.”Abu Hafs Kabir Buxoriy hojatbaror” ziyoratgohining qayta ta’mirilanishi.

Abu Hafs Kabir Buxoriy Hojatbarorning muborak nomini muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 2-sentyabrida Toshkent shahrida Islom taraqqiyot banki boshqaruvchilar kengashining to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘tkazilgan, 57 mamlakatdan vazirlar va rasmiy shaxslar, shuningdek, mamlakatimiz vazirlik va idoralari mutasaddilari, ishbilarmon doira vakillari qatnashgan 46-yillik yig‘ilishidagi nutqida faxr bilan tilga oldi.

“Asrlar davomida O‘zbekiston zamini musulmon olamining buyuk va noyob madaniyati, ilm-fani va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining markazlaridan biri bo‘lganidan sizlar, albatta, xabardorsiz. Qadimiy O‘zbekiston, ya’ni Movarounnahr diyori islom dunyosining yuksak madaniyati va sivilizatsiyasi rivojiga unutilmas hissa qo‘shgan alloma va mutafakkirlar yurtidir. Buxorolik buyuk ulamo – Imom Ahmad ibn Hafs Kabir Buxoriy va uning butun dunyoga tanilgan shogirdlari Imom al-Buxoriy va Imom Termiziy asarlarining islom falsafasi ilmiy-nazariy asoslarini yaratishdagi ahamiyati beqiyosdir”, – dedi davlatimiz rahbari.

Mustaqillik yillarida Buxoro viloyati hokimligi va hozirda Buxoro viloyati nuroniylar jamoatchilik kengashi raisi, 1996–2011-yillarda Buxoro viloyati o‘sha vaqtdagi hokimi Samoyiddin Husenov tashabbusi bilan Abu Hafs Kabir Buxoriy mangu makon tutgan majmua obod qilindi. Majmua darvozaxonasi, xuddi Ismoil Somoniy maqbarasiga o‘xshab ketadigan maqbara, yangi masjid, o‘z o‘rnida Buxoroning qadimiy Haqroh (Abu Hafs Kabir) darvozasi qurildi. Shu tariqa bu yer mamlakatimizning muqaddas ziyoratgohlaridan biriga aylandi.

Imom Abu Hafs Ahmad ibn Hafs Kabir Buxoriy milodiy 768-yili Buxoroda tug‘ilib, 832-yili ona shahrida vafot etgan. Bu ulug‘ zot islom olamiga Abu Hafs Kabir Buxoriy nomi bilan tanilgan fiqhshunos va faylasuf, ilohiyotshunos, buyuk muhaddis, benazir avliyo, ulamolar sultoni va sardaftari Imom Buxoriyning zamondoshi va ustoz.

Imom A‘zamning nevara shogirdlari Abu Hafs Kabir islom huquqshunosligi asoslarini yaratgan yirik olim bo‘lgan. Narshaxiyning yozishicha, uning sharofati bilan Buxoro “Qubbat ul-islom” – “Islom dinining gumbazi” unvonini olgan. Abu Hafsning o‘ziga “Kabir Buxoriy” – “Buxoriylarning kattasi” va “Imomi hojatbaror” – “Hojatlarni chiqaruvchi imom”, “Hazrati imom” degan unvonlar berilgan. Abu Hafs Kabirning “Fatovoyi Abu Hafs” (Abu Hafsning fatvolari) islom olamida ma’lum va mashhur bo‘lib, barcha faqihlar hazratning fatvolariga suyanib ish yuritgan.

Abu Hafs Kabir Buxorodagi Darvozai Nav qarshisidagi tepalikda dafn etilgan. Buxoroliklar u joyni muqaddas sanab, “Haqrah” (“Haq yo‘l”) va “Tali Xoja Imom Abu Hafs” (“Xoja Imom Abu Hafs tepaligi”) deb ataganlar.

Abu Hafs Kabir hanafiy mazhabi ta‘limotlarini birinchi bo‘lib Movarounnahrda olib keldi. Uning qo‘l ostida ko‘pgina faqihlar va olimlar yetishib chiqdi. Tarixchilarning ta‘kidlashicha, Buxoroda ilmning tarqalishi, imom va ulamolarning hurmat topishiga sababchi bo‘lgan kishi Abu Hafs Kabir bo‘lgan. Abdulkarim as-Sam‘oniyning aytishicha, Abu Hafs ko‘pgina faqihlarni tarbiyalab, kamolga yetkazgan.

Abu Hafs Kabirning shuhrati Buxoroga, qolaversa, butun islom olamiga tarqaladi. Hatto, arab diyori olimlari biror masalaning javobini topishga qiynalib qolishsa, Buxoroga Abu Hafs Kabirning oldiga bir kishini yuborib, o‘sha masalaning yechimini bilib olishar ekan. Abu Hafs Kabirning sharofatlaridan Buxoroda fiqh shu darajada rivojlanadiki, Buxoro faqihlari islom olamining asosiy shahri Bag‘dod faqihlaridan ustun bo‘lganlar. Narshaxiyning ta‘kidlashicha, odamlar Bag‘doddan qaytgan paytlarida Imom Abu Hafs al-Kabir al-Buxoriydan biror masalani so‘rash uchun ham kelardilar. Imom Abu Hafs al-Kabir ulardan ajablanib so‘rardi: “Nima uchun Iroq olimlaridan so‘ramadingiz?” Unga javoban: “Ulardan so‘radik, lekin ular javob berolmadilar, Iroq olimlari “Buxoroga borib, Imom Abu Hafs al-Kabir yo o‘g‘illari Abu Hafs as-Sag‘irdan so‘ranglar, deb aytishdi”. Abu Hafs Kabir boshliq Buxoro faqihlari fiqhni chuqur biladigan va kuchli xotirali ,deb tavsiflanganlar.

O‘sha davr ulamolari uning ilm-u fazlini baholab, uni “Muallimi islom”, ya‘ni islom dinining muallimi, uning sharofati bilan Buxoroni “Qubbat ul-islom”, ya‘ni “Islom dini gumbazi” va u kishi yashaydigan mahalla darvozasini “Haq roh”, ya‘ni “haq yo‘l”, deb atashgan.

Alloh Taollo Imom Buxoriyga o‘tkir zakovat, kuchli yod olish va barcha ishlarni yaxshilab qilish qobiliyatini bergan edi. Ushbu ilohiy ne‘matlarning alomatlari u kishini kichiklik chog‘laridanoq ko‘zga tashlana boshlagan edi. O‘n bir yoshlik bola bo‘la turib o‘z ustozlari Ad-Doxiliyning xatolarini tuzatishlari bunga dalildir.

Abu Hafs Kabirning sharofatidan islom dini ta‘limotining ravnaq topishi va targ‘ibotining kengayishi bois ko‘p o‘tmay, Buxoro shahri markazga aylandi. Abu Hafs Kabir madrasasidan juda ko‘p yetuk fiqhshunos olimlar, qozilar, avliyolar, zohid imomlar yetishib chiqdi.

IX–XII asrlar Sharq uyg‘onish davri va O‘rta Osiyoda ilm-u fan, ayniqsa fiqh ilmining rivoji uchun oltin davr hisoblanadi. IX asrda Abu Hanifaning mumtoz shogirdi Muhammad ibn Hasan Shayboniydan Iroq yo‘nalishi bo‘yicha fiqh ilmini

o'rgangan buxorolik faqih – Abu Hafs Kabir o'z vataniga qaytib, Buxoroni fiqh ilmi markaziga aylantirdi va ko'p sonli shogirdlar tarbiyalab, kamolga yetkazdi.

Fiqh ilmi o'sha asrda o'zining rivojlanish pallasiga kirgan edi. Mazkur ilmni to'la egallamay turib, diniy masalalarda hukm chiqarish mumkin emas edi. Shu davrga kelib kalom ilmi (teologiya) ham nihoyatda rivojlangan edi. Movarounnahrda juda katta kalomchilik maktabi yaratilib, uning asoschisi Abu Hafs Kabir Buxoriy hisoblanar edi.

Abu Hafs Kabir nafaqat fiqhshunos, hadisshunos, ilohiyotshunos olim, balki u xalqparvar homiy ham bo'lgan. Uning xalqqa shafqati shunchalik bo'lganki, bir yili Buxoroda qimmatchilik paytida u bir xarvor bug'doyni 100 dinorga sotib olib, 90 dinorga sotgan ekan. Oxiri hazratning karomatidan bir xarvor bug'doy narxi 10 dinorga tushibdi. Insonlarga manfaat yetishi uchun u o'z xazinasini ham sarf etibdi.

Hazrati Imom Abu Hafs bir xonaqoh bino etmoqchi bo'ldilar va buning uchun 80 ming dinor vaqf etishni niyat qildilar. Biroq istixora va mashvarat aylab aytdilarki: “Men mutavalliyning vaqf shartlariga xilof ish tutishidan qo'rqaman. Qiyomatda esa uning azobga tushishini xohlamayman”. Alqissa, xonaqoh qurilishining barcha sarf-xarajatiga teng bo'lgan 80 ming dinor qimmatdagi yer va mulkni faqirlar, g'arib va tolibi ilmlar, ulamoga sadaqa sifatida bo'lib berdilar.

Tarixchilar islom madaniyati tarixidagi birinchi tizimli madrasa h.459 /m.1066-yili saljuqiy vazir Nizom ul-Mulk barpo etgan Bag'dodda bo'lgan deyishadi. Ammo manbalarda Bag'dod madrasasidan taxminan bir asr avvalroq Buxoroda tizimli madrasalar bo'lganligini manbalar isbotlaydi.

U Abu Hafs Kabir madrasasidir. Buxorodagi eng qadimiy oliy o'quv yurti, 800-810-yillar atrofida asos solingan. Ilmiy faoliyatiga hozir 1220–1210-yil to'ldi. Unda mashhur imom Buxoriy hazratlari ham ta'lim olgan. IX – X asrlarda ko'plab yirik taniqli olimlar shu ilm dargohida o'qigan. Madrasa bilan bog'liq ayrim tarixiy yodgorliklar saqlanib qolgan. Ayrimlari ta'mirlangan. Sho'rolar inqilobiga qadar dars o'tilgan.

Islomning uzoq mintaqalaridagi tolibi ilmlar bu madrasada ta'lim olishni orzu qilgan. Mazkur madrasada Abu Hafs Kabir, o'g'li Abu Hafs Sag'ir (Abu Abdulloh), nevaralari Abdulloh ibn Muhammad fiqh, hadis, kalom, tasavvuf kabi ilmlardan saboq berishgan. Manbalarda Imom Abu Hafs Kabir Buxoriy bomdod namozidan keyin odamlarga dars bergan, deb qayd etiladi. Abu Hafs Kabirning ayollari ham yirik fiqhshunos olima bo'lib, ayollarga saboq berganlar. Alloma ba'zi masalalarda qiynalgan paytlari ularni hal qilishga ayollari ko'maklashgan.

Manbalarda yozilishicha, X asrning taniqli qozisi Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad ibn Ali ibn Shohivayh Buxoroga borib “Abu Hafs al-Kabir” madrasasida ta'lim olgan. Ya'ni madrasa bu sanadan oldinroq ham bo'lgan. Narshaxiy “Kular

Tekin madrasasi”ni zikr etadi. Kular Tekin xurosonlik Muqanna inqilobchisi sarkardalaridan biridir. Bu taxminan 779-yili bo‘lgan. Bu bizni VIII asr o‘rtalarida Buxoroda masjiddan mustaqil tizimli madrasalar bo‘lgan, degan fikrga olib keladi. “Ravzat ul-jannot” (“Jannat bog‘lari”) kitobi muallifi Al-Xavonsoriyning quyidagi gapi fikrimiz dalilidir: “Birinchi qurilgan madrasa Buxoroda bo‘lgan”. Shuningdek, bu fikrni islom madrasalari tarixini o‘rgangan iroqlik professor Nojjiy Ma’ruf ham bir necha kitobida ma’qullaydi.

Madrasalar nafaqat ilmiy muassasa, balki uzoq o‘lkalardan keladigan olim talabalar uchun maskan ham bo‘lgan. Imom Abu Hafs al-Kabir al-Buxoriyning madrasasi islom olamining turli o‘lkalaridagi olimlar va tolibi ilmlarning orzu qilgan madrasasi bo‘lgan. Bu madrasalarning Buxorodagi odamlar va unga qo‘shni davlatlar orasida islomni yoyishda hissasi beqiyos bo‘lgan.

Yuqorida bayon etilganlardan shu narsa ayonki, VIII–XI asrlarda Buxoroda ilm-ma’rifat gullab yashnagan. Ana shu muqaddas zaminda bunyod bo‘lgan ilm, madaniyat va ma’naviyat gulshanida bir-biridan ulug‘vor daholarning kamol topgani, fan olamining ulkan chinorlari osmon qadar yuksalgani tasodifiy hol emas, balki tabiiy bir jarayon hosilasi ekanidan dalolat beradi.

Abu Hafs Kabir – Imom Hojatbarorning Buxoroda tug‘ilib, islom olamiga shu zamindan tanilgani, uning ibratli hayoti, boy diniy va ma’naviy merosi ham bu tarixiy jarayondan istisno emas.

2022-yili Abu Hafs Kabir Buxoriyning vafotiga 1190, 2023-yili esa tavalludiga 1255-yil to‘ladi.

14.4. Dahmai Behishtiyon – jannatiylar dahmasi.

2007-yil Buxoro yuridik va maishiy xizmat kolleji shimolida Dahmai Behishtiyon obidasi qad rostladi. Ushbu majmuada maqbara ayvon, darvozaxona ham bor. Ayvorda Mozori Behishtiyon, Mozori Darvozai Qavola, Quzzotus sab’a (Yetti qozi), Pushtai Tug‘robekda dafn qilingan avliyolar, olim fozillar nomi, tarjimai holi yozildi. Ziyoratchilar kelib, ular haqida duoyi fotiha qiladigan bo‘ldi. Zero, ularning qabrlari sho‘rolar zamonida yo‘qotilgan edi.

Buxoro shahridagi “Dahmai Behishtiyon” obidasining nomlanishi o‘ziga xosdir. Uning bu nom bilan atalishi bejiz emas. Bu qutlug‘ maskanda o‘z davrining yetuk darg‘alari, ilm-fan fidoyilari bo‘lgan mashhur mufassirlar, muhaddislar, mufaqihlar, mutasavviflar, muarrixlar, mutakallimlar, mutafakkir allomalar dafn etilgan. Shuning uchun ham bu qabriston “Dahmai behishtiyon” (“Jannatiy zotlar dahmasi”) ,deb atalgan.

Ushbu ziyoratgohda Hazrat Abu Bakr Homid, Hazrat Abu Bakr Tarxon, Hazrat Abu Bakr Gulobodiy, Hazrat Abu Zayd Dabusiy, Hazrat Mustamliy, Hazrat Abu Ja’far ash Sha’biy, Hazrat Imom Zadzan, Hazrat Zahiriddin, Hazrat Ahmad ibn Umar ash Sheroziy, Hazrat Imom Badinddin, Hazrat Hasan Andoqiy,

Hazrat Abdulloh Barqiy, Hazrat Nuriddin Sobuniy, Hazrat Shayx Gulrez, Hazrat Muhammad ibn Abu Bakr Buxoriy, Hazrat Imom Sa'diddin, Hazrat Imom Rukniddin Shahid, Hazrat Mavlono Nosiriddin, Hazrat Mavlono Abdurahmon, Hazrat Muhammad Qosim Darvozai Obiy, Hazrat Xoja Muqim, Mavlono Hofiziddin Kabir Buxoriy, Hazrat Abu Abdulloh al Buxoriy, Hazrat Tojiddin al Masdar, Hazrat Hisomiddin, Mavlono Burhoniddin Anjir Fag'naviy, Mavlono Burhoniddin Arshadiy. Mavlono Xoja Yusuf, Shayx Sa'diddin G'ijduvoniyy, Qozi Xoja Najmiddin G'ijduvoniyy, Hazrat Xalifa Niyozquli, Mavlono Sirojiddin Asliy, Xalifa Muhammad Husayn, Mavlono Faxriddin ash Shoristoniy, Mavlono Rukniddin ash Shoristoniy, Mavlono Boboyi Modar ash Shoristoniy, Mavlono Jamoliddin ash Shoristoniy, Mavlono Jamoliddin Xalaf Buxoriy, Xoja Muhammad Yusuf Naqshbandiy, Hazrat Ahmad Donish, Hazrat Aburahim Qurro Torobiylar nomi va tarjimai holi yozilgan lavhalar mavjud. Ularning yozgan asarlari, qoldirgan ilmiy meroslari, hikmatli so'zlari xalqimiz qalbida abadiy muhrlanib qolgan.

Buxoro tarixidan ma'lumki, Behishtiyon mozori shaharning tabarruk qadamjolari sirasiga kirgan. Ko'plab avliyolar, ulug' zot va olimlar dafn etilgan bu mozor o'tgan asrning 30-40-yillarida va unga tutash qadimiy qal'a devori buzib tashlangan.

Ruhi toptalgan allomalarning xotirasiga ehtirom ramzi bo'lgan Behishtiyon maqbarasini tiklash loyihasi ishlab chiqildi. Dastlab uning texnik-iqtisodiy asoslari tayyorlangach, ishga kirishildi. Xullas, Abdulxoliq G'ijduvoniyy shoh ko'chasi bo'yida me'morchilikning qadimiy an'analari zamonaviy unsurlar bilan uyg'unlashgan Behishtiyon maqbarasi barpo etildi.

Buxoro yogoch o'ymakorligi an'analari asosida bezatilgan naqshinkor darvoza orqali ziyoratchi gumbazli maqbaraga kiradi. Peshtoklari ganch o'ymakorligi namunalari bilan chiroy ochgan qadamjo markazidagi daxmaga marmar bilan jilo berilgan. Burchakli g'isht bilan rostlangan ustunlar maqbarani ko'kka buy cho'zayotgan sehrli inshoot tarzida namoyon etadi. Cho'pkori va g'ishtkor usulida bunyod qilingan, hajm jihatdan uncha katta bo'lmagan bu obida Buxoro me'morchiligining go'zal namunalari qatorida turadi.

Maqbara qurilishi 2005-yilda boshlanib, 2006-yilda nihoyasiga yetdi. Ushbu ziyoratgoh o'sha davrdagi viloyat hokimi S. Q. Husenov tashabbusi bilan bunyod etildi. Ushbu qurilishda o'sha davrdagi Buxoro shahar hokimi K.J.Kamolov bosh-qosh bo'ldi. Mazkur obida viloyat bosh arxitektori M.Q.Axmedovning loyihasi asosida qad rostladi. Buxorolik qo'li gul usta Olim Abdiyev, Baxriddin Yo'ldoshevlar o'z shogirdlari bilan Dahmai Behishtiyonni qurdidar, "Dahmai Behishtiyon" kitobi nashr qilindi.

Tayanch iboralar: yetti pir, qadamjo, mustaqillik, Abdulxoliq G'jduvoniyy, Revgariy, Anjir Fag'naviy, Romitaniy, Boboyi Samosiy, Mir Kulol, Bahouddin Naqshband, Kabir Buxoriy, Dahmai behishtiyon, maqbara, qabriston, ziyoratgoh.

Savol va topshiriqlar

1. Buxoroning etti pirni sanab bering.
2. Bahouddin Naqshbandning yubileylari qaysi yillarda nishonlandi?
3. Abu Havs Kabir Buxoriy Hojatbaror ziyoratgohining qayta ta'mirlanishi qachon amalga oshgan edi?
4. Dahmai Behishtiyonda kimlar dafn etilgan?
5. Mustaqillik yillarida yana qaysi ziyoratgohlar ta'mirlandi?

Manba va adabiyotlar

1. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. (тарихий-маърифий рисола). Тўлдирилган, қайта ишланган иккинчи нашр. Т., “Наврўз”.2015.
2. “Кўхна ва боқий Бухоро тарихи ҳамда маданий мероси – комил инсон тарбиясида муҳим манба” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Бухоро.2012.
3. Йўлдошев Н.Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва фаолияти. Бухоро 2003.
4. Бўлдиева С. Бухоро сирлари. (Буюклик маъноси). Биринчи китоб. Т., “Тафаккур”.2009.
5. Баҳоуддин Нақшбанд мажмуаси.Бухоро.2008.

15-Mavzu: Buxoroning zamonaviy obidalari.

15.1. Ko‘hna va boqiy Buxoro madaniy markazi.

Buxoroda zamonaviy va milliy shaharsozlik an‘analari asosida qayta qurish, bunyodkorlik ishlari 2010-yildan keyin yanada kuchaydi. Shaharga sharq tomondan kiraverishdagi 107 gektarlik joy haqiqiy qurilish, bunyodkorlik maskaniga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning taklif va tashabbusi bilan bu yerda nihoyatda muazzam maydon, bog‘ xiyobon yaratishga kirishildi.

Bog‘ xiyobonning markazida viloyat musiqali drama teatrining muhtasham binosi barpo etildi. Old qismi yoy shaklida, ulug‘vor ustunlar bilan bezatilgan binoga tepadan nazar tashlasangiz, bino bag‘rini ochib, odamlarni kutayotganga o‘xshaydi. Binoning ichki qismlari ham nihoyatda hashamatli qilib bezatilgan.

Madaniy markaz yirik inshoot hisoblangan 700 o‘rinli viloyat musiqali drama teatri ham majmuaga ko‘rk bag‘ishlaydi. Teatr foyesi, zali tomoshabinlarning madaniy dam olishlari uchun qulay qilib yaratilgan. Zamonaviy, hamma imkoniyatlarga ega tarzda ishlangan teatr sahnasi drama san‘atining barcha turdagi asarlarini ijro qilishga mos tarzda bunyod qilingan. Shuning uchun ham bino haqiqiy san‘at koshonasiga aylandi. Teatr binosiga yaqin joyda yozgi 2000 tomoshabinga mo‘ljallangan amfiteatr ham qurildi. Bu yerda konsertlar uyushtirish, har xil anjumanlar o‘tkazish, teatrlashtirilgan tomoshalar tashkil qilish uchun barcha qulayliklar mavjud.

Bog‘ xiyobonning eng baland nuqtasida yana bir mahobatli inshoot- “Qo‘hna va boqiy Buxoro” monumenti qad rostladi. Monument yodgorlik bog‘ xiyobonning barcha nuqtalaridan ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Yodgorlikning eng tepa qismiga dunyo xaritasini namoyon qiluvchi globus joylashtirilgan. Globusda ona yurtimiz O‘zbekiston joylashgan hudud alohida bo‘rttirib ko‘rsatilgan. Mamlakatimiz xaritasining globusda alohida kattalashtirib ko‘rsatilishi bejiz emas. Unda O‘zbekiston Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Xiva, Toshkent kabi ulug‘vor shaharlar o‘rin olgan buyuk davlat ekanligi e‘tirof etilgan. Yodgorlikning o‘rta qismida Buxoroning olis va yaqin o‘tmishi tarixi bilan bog‘liq ko‘rinishlar-Ark, Somoniylar maqbarasi, Kalon masjidi va minorasi, Chor minor, Labi hovuz majmuasi, Mag‘oki Attor masjidi, shahar taqdiri bilan nomi bog‘langan ulug‘ allomalar, muarrixlar, shoirlar, adiblar, siyosatchi va jamoat arboblarning toshga o‘yma hamda bo‘rtma shaklda ishlangan tasvirlari o‘rin olgan. Tasvirlar markazida zaminga daraxt o‘tqazayotgan bobo va nabira holati ham mavjud. Bu ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib kelayotgan sharif shahar taqdiriga ham ishora.

Bir so‘z bilan aytganda, ushbu monument Buxoro shahriga, uning tarixi va bugungi kuniga, kelajagiga qo‘yilgan yodgorlikdir. Shuning uchun ham yodgorlik nomi “Ko‘hna va boqiy Buxoro”, deb ataladi.

Monument, viloyat musiqali drama teatri va amfiteatr atroflarida turli shakldagi favvoralar o'rnatilgan. Ular atrofga salqinlik taratish bilan birga tunda turfa rangli chiroqlar yog'dusida go'zal ko'rinish ham hosil qiladi. Bog'xiyobonning hamma qismi yashillik hosil qilib turadigan maysalar bilan qoplangan. G'aroyib ekolandshaft ko'rinishidagi bu tizim bag'rida kunduzi kamalaklar jilolansa, kechasi minglab chiroqlar nuridan bog'xiyobon o'ziga xos chiroy ochadi, bu yerga keluvchilarga, sayr qiluvchilarga mamnunlik, xursandlik, xush kayfiyat bag'ishlaydi.

Bog'xiyobonda salkam 29 mingtaga yaqin daraxt ko'chatlari o'tqazilgan edi. Shahar o'zining tarixida bunday yashillik, ko'rkamlik, go'zallikdan birinchi bor yasanmoqda, desam mubolag'a bo'lmas. Bu yerdan kun-u tun odamlarning oyog'i uzilmaydi. Kimdir dam olish uchun, kimdir konsert tomosha qilishga, yana kimdir teatrga keladi. Bog'xiyobon xalqimizning madaniyat maskaniga aylandi. Shuning uchun bu joyni "Buxoro madaniy markazi", deb atalgan.

Bu madaniy markaz shaharning bugungi kunda yaratilgan bunyodkorlik, boqiylik timsollaridan biriga aylandi. "Ko'hna va boqiy Buxoro" monumentining markaziy qismida uch avlod-baxtiyor yosh oila: ota-ona va bola, barhayotlik timsolidagi haykallari ifodalangan. Dunyoda mahobatli inshootlar, monumentlar ko'p, lekin birorta shaharga bag'ishlab qurilgan monument haqida hech eshitganmisiz?! "Ko'hna va boqiy Buxoro" majmuasi misolida sharif shahrimizga haykal qo'yildi, desam yanglishmagan bo'laman.

Madaniy markaz turli burchaklaridan boshlangan yo'laklar balandligi 18 metrli "Ko'hna va boqiy Buxoro" monumentiga kelib tutashadi. Monumentni taniqli haykaltarosh, O'zbekiston san'at arbobi Ilhom Jabborov ishlagan. Obida zinapoyalari orqali ko'tarilganda, diqqatingizni monument tevaragida zarhal koshinlar tortadi. Unda Buxoroning tuprog'i oltinga teng, degan ma'no mujassam. Chunki Buxoro azaldan oltin makoni bo'lgan. Asl va toza oltin konlari, yombilar shu yerdan topilgan.

Ayni chog'da monumentda nafaqat Buxoroning oltin zamini oldida, balki Buxoroni sharif shaharga aylantirgan uning fidoyi, mehnatkash odamlari oldida bosh egish kerak degan g'oya ifoda etilgan. Bu zamin kishilari ezgu ishlari bilan tilga tushganlar. Buyuk olim Abu Ali ibn Sino, tarixchi olim Narshaxiy, islom dini ravnaqi va madaniyatiga beqiyos hissa qo'shgan Imom Buxoriy, tariqat allomalari Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Xoja Orif Regariy, Xoja Mahmud Anjir Fag'naviy kabilar, shuningdek, millatimiz adabiyoti, madaniyati taraqqiyotida munosib iz qoldirgan Ahmad Donish, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jaev, xalqimizning boshqa asl farzandlari yetishib chiqqan. Ularning nomlari obidada zarhal harflarda naqshlangan. Bu bitiklar yuqorisida "Ilm o'rganmoq har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir" degan hadis o'zbek, arab va ingliz tillarida yozilgan.

Ajdodlarimiz va ularning bugungi vorislari bu da'vatni hayot mazmuniga aylantirishgan. Buxoroning dunyoda ilm-ma'rifat maskani sifatida shuhrat qozongani bejiz emas. Xuddi shu yerda Buxoroning ko'hnaligidan darak berguvchi me'moriy yodgorliklari – Mag'oki Attor, Ismoil Somoniy, Chorbakr, Minorai Kalon, Ark qal'asi, Labihovuz, Chorminor, Bahouddin Naqshband maqbarasi boshqa qator obidalarini tasviri toshda muhrlangan. “Dil ba yoru, dast ba kor”—ulug' pir Bahouddin Naqshbandning monumentga bitilgan bu hikmati donishmand ajdodlarimizning qoldirgan ulkan ma'naviy merosning o'ziga xos namunasi sifatida ko'zga tashlanish barobarida bugungi avlodni mazkur da'vatga amal qilishga chaqiradi. Eskizlari bevosita O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentimiz g'oyalari asosida tayyorlangan monument markazida uch avlod—baxtiyor yosh oila—ota, ona va bola, nihol o'tqazayotgan bobo va nabira hamda uy qurayotgan ota va o'g'ilning barefli haykallari aks ettirilgan. Bunda chuqur falsafa bor: hayot adabiy, umr o'tkinchi, insonning ezgu amallari mangu qoladi, bu dunyoda inson ezgu ishlar qilmog'i, farzandlari kelajagini, el-yurtining ertasini o'ylamog'i kerak.

Obida tepasiga o'rnatilgan balandligi 5 metr, vazni 32 tonnadan iborat, aylanib turuvchi ulkan Yer shari uzoq-uzoqlardan ko'zga tashlanadi. Unda O'zbekistonimiz xaritasi tasvirlangan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, dunyo bilan yuzlashdi, jahon hamjamiyatida o'z o'rnini egalladi, degan teran ma'no ifodalangan. Ushbu obida milliy ma'naviyatimizning monumental ifodasidir. Istiqlolning dastlabki yillarida respublikamizda qator teatrlar rekonstruktsiya qilinib, ijodiy jamoalar ixtiyoriga topshirilgan edi. Buxoro davlat musiqali drama teatrining madaniy markazdagi muhtasham binosi so'nggi chorak asrda mamlakatimizda poydevordan qurilgan yagona teatrdir. San'atkorlar va tomoshabinlarning bir necha avlodi armonlari ro'yobga chiqib, barpo etilgan bu teatr o'zining ko'rkamligi, zamonaviy sahna imkoniyatlari va yoritkichlari bilan jihozlangani, unda yaratilgan qulay shart-sharoitlari bilan Markaziy Osiyodagi eng go'zal san'at maskanidir.

“Ko'hna va boqiy Buxoro” monumenti, viloyat teatrining yangi binosi hamda zamonaviy loyiha asosida barpo qilingan amfiteatrnini o'z ichiga olgan, gulzor va xiyobonlardan iborat madaniy markaz ham ular qatoridan o'rin olib, istiqlolimiz sharofati, xalqimiz qudrati hamda birinchi Prezidentimiz tashabbuskorligi va rahnamoligi bilan sharif shahar yanada go'zallashib, chinakam Sharq gavhariga aylandi. “Ko'hna va boqiy Buxoro” panoramasida aks ettirilgan tarixiy obidalar: Poykent (er.av. V asr); Varaxsha (I-VI asrlar); Mag'oki Attor masjidi (IX asr); Buxoro arki (V asr); Ismoil Samoniy maqbarasi (X asr); Minorai Kalon (1127-yil); - Sayfiddin Boxarziy maqbarasi (XIV-XV asr); Xoja Abduxolliq G'ijduvoni me'moriy majmuasi (XV asr); Mir Arab madrasasi (XIV asr); Bahouddin Naqshband majmuasi (XIV asr); Chorbakr (XIV asr); Labi Hovuz majmuasi

(XVII asr); Chorminor (XIX asr); “Ko’hna va boqiy Buxoro” panoramasida aks ettirilgan tarixiy shaxslar: Abu Ali ibn Sino (980-1037-yillar); Imom Buxoriy (810-870-yillar); Muhammad Narshaxiy (899-959-yillar); Mahmud Torobiy (1238-yilda mo‘g‘ullarga qarshi ozodlik harakati rahbari); Xoja Abduxoliq G‘ijduvoni (1103-1179-yillar); Xoja Orif Revgariy (XIII asr); Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy (XIII asr); Xoja Ali Romitaniy (XIII asr); Boboi Samosiy (XIV asr); Amir Kulol (XIV asr); Bahouddin Naqshband (1318-1389-yillar); Ahmad Donish (1827-1897-yillar); Sadridin Ayniy (1878-1954-yillar); - Abdurauf Fitrat (1886-1938-yillar); Fayzulla Xo‘jaev (1886-1938-yillar); Olim Xo‘jaev (1910-1977-yillar); Mutal Burhonov (1916-2002-yillar).

15.2. Abu Ali ibn Sino nomidagi musiqali favvoralar xiyoboni.

Shaharning barcha nuqtalarida turli xildagi favvoralar ishga tushirilgan. Ayniqsa, uning markazida bunyod qilingan “Abu Ali ibn Sino” nomidagi favvoralar maydoni shaharning eng obod, ko‘rkam, xushmanzara maskanlaridan biriga aylangan. 6,5 gektardan oshiq joyni egallagan bu favvoralar shakl-shamoyili, ko‘rinishi, suvni g‘aroyib tarzda taratib berishi bilan e‘tiborni tortadi. Ba’zi nuqtalarda suv 20 metr dan oshiq balandlikka otiladi. Turfa rangdagi nurlar suvning otilishiga hamohang porlaydi. Suv va nurning hamohangligiga musiqa — “Shashmaqom” kuylari ham qo‘shiladi. Musaffolik, salqinlik, nurlar o‘yini, qalbni to‘lqinlantiruvchi kuylar og‘ushida har qanday odam dilida xush kayfiyat, o‘zgacha bir surur, faxr uyg‘onadi. Shuning uchun ham shaharning bu maskani — “Favvoralar maydoni” doimo gavjum bo‘ladi. Bu maydon tunda yanada g‘aroyib, go‘zal ko‘rinish hosil qiladi. Unga chetroqdan nazar tashlasangiz, bu yerda nafaqat shahar ahli, balki butun Buxoro orom olayotgandek, maydon bor go‘zalligini namoyon qilayotgandek tuyuladi.

Umumiy maydoni 6,88 gektarni egallagan xiyobonga yuzdan ortiq o‘rindiqlar, zamonaviy yoritgichlar o‘rnatilgan. Maydon markazidagi musiqali favvora va uning yonidagi ikki favvora kompyuter texnika vositalari orqali boshqariladi. O‘ziga xos uslubda bunyod etilib, aholining maroqli hordiq chiqarishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan bu inshoot qadim va navqiron Buxoroning yanada chiroy ochishiga xizmat qiladi.

15.3. Buxoro aeroporti.

Endilikda Buxoroning zamonaviy qiyofasini namoyon qiluvchi maskanlar, majmualar, inshootlar nihoyatda ko‘p. Buxoro aeroporti shulardan biri hisoblanadi. Bir paytlari ko‘rimsizgina bo‘lgan, kichkina binoda joylashgan aeroport endilikda nihoyatda ulug‘vor ko‘rinishga ega bo‘ldi. Barcha turdagi havo laynerlarini qabul qila oladi. Dunyoning ko‘plab shaharlari bilan havo yo‘llari orqali bog‘langan xalqaro aeroportga aylandi. Yoxud Buxoro temir yo‘l vokzali ham mustaqillikdan ilgari XX asr boshlarida qurilgan eski binoda joylashgandi. Unda yo‘lovchilar tugul temiryo‘lchilarning o‘zlari faoliyat yuritishlari uchun yetarli imkoniyatlar

yo‘q edi. Endilikda temir yo‘l vokzali to‘la qayta qurildi. Bugungi talablarga javob beradigan darajada texnik jihatdan jihozlandi. Yo‘lovchilar uchun barcha qulayliklar yaratildi. Endilikda vokzal “Talgo” kabi tezyurar elektrovozlar va boshqa zamonaviy tipdagi poezdlarni qabul qilmoqda. “Afrosiyob”ning Buxoroga qatnay boshlaganligi buning yorqin ifodasidir. Buxoroni uning ikkita darvozasi — vokzal va aeroport bilan bog‘laydigan yo‘llar nihoyatda obod, keng va ravon qilib bunyod etildi. Ularning ikki tomoni gulzorlarga, daraxtzorlarga, archazorlarga aylantirildi. Bugun shahar mehmonlarni ko‘rkam, yangidan chiroy ochgan, go‘zal qiyofada kutib olmoqda.

15.4. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi.

Buxoro neftni qayta ishlash zavodi — neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yirik sanoat korxonasi. Buxoro viloyati Qorovulbozor shahrida joylashgan. “O‘zbekneftgaz” milliy xolding kompaniyasi tarkibiga kiradi. 1993-yilda qurilishi boshlanib, 1997-yil avgustda ishga tushirilgan. Qashqadaryo va Buxoro viloyatlaridagi gaz va neft konlari asosida ishlaydi. Turli neft mahsulotlari — yuqori oktanli benzin (AI93, A76), dizel yoqilg‘isi, aviakerosin, mazut, suyultirilgan neft gazlari (butan, texnik propan, propanbutan, oltingugurt) va b. mahsulotlar ishlab chiqaradi. Birinchi navbatining yillik loyiha quvvati 2,5 mln. t gaz kondensatami qayta ishlashga mo‘ljallangan. 3dning loyiha qiymati deyarli 500 mln. dollar.

Korxonada qurilishini moliyaviy jihatdan ta‘minlash va qurilish jarayonida xorijiy mamlakatlarning ko‘pgina banklari, kompaniyalari va firmalari ishtirok etdi. “Cheyz Manxetten” (Amerika), “Kredi Kommersial de Frans”, “Pariba” (Fransiya), Yaponiya va AQSHning eksport-import banklari moliyaviy ko‘magidan foydalanildi. Loyihaning texnologik qismini amalga oshirish uchun Fransiyaning “Technip” firmasi, Yaponiyaning “Marubeni” va “JeGiSi” kompaniyalari ishtirokida konsorsium tashkil etildi, Turkiyaning “Gama” kompaniyasi va O‘zbekistonning quruvchilari qurilish montaj ishlarini bajardi. 3d mahsulotlari eksport ham qilinadi.

Zavodda turli neft mahsulotlari — yuqori oktanli benzin (AI 91, 92, 95, 80), dizel yoqilg‘isi, aviakerosin, mazut, suyultirilgan neft gazlari (butan, texnik propan, propanbutan, oltingugurt), “JET A-1” aviatsiya yoqilg‘isi, “EKO L” (yozgi), “EKO Z”(qishki) dizel yoqilg‘isi, “Evro K4” va “K5” dizel yoqilg‘isi, “M100” va “M40” rusumli o‘choq moylari, pirolizli gazolin, propan sovutgichi, suyultirilgan gaz, “S4-135 / 220” uglevodorod eritgichi va texnik oltingugurt ishlab chiqariladi.

2006 – 2008-yillarda ishlab chiqarilgan dizel yoqilg‘isi sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida yozgi va qishki turdagi ekologik xavfsiz “EKO” dizel yoqilg‘isi ishlab chiqarish texnologiyasi o‘zlashtirildi.

2007 – 2009-yillarda ishlab chiqarishga yangi mahsulotlarni – “Boing” va “Aerobus” havo laynerlari uchun standart yoqilg‘i bo‘lgan “Jet A-1” gaz turbinali

dvigatellar uchun aviatsiya yoqilg'isini ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Shu maqsadda zavod ustaxonalarining texnologik infratuzilmasi modernizatsiya qilindi. Yangi turdagi aviatsiya yoqilg'isini saqlash uchun sig'implar tayyorlandi. Ularning ichki yuzasiga maxsus qoplama surildi. Zavod tahlilxonasi zamonaviy laboratoriya uskunalari va xalqaro s "DEF STAN 91-91" standarti asosida «O'zstandart» agentligida "O'z DSt 1117: 2007" davlat standarti "Jet A-1" gaz turbinali dvigatellar uchun aviatsiya yoqilg'isi "Texnik shartlar" O'zbekistonning davlat standarti ishlab chiqildi va ro'yxatga olindi.

Yetakchi tadqiqot tashkilotlari bilan birgalikda "Buxoro NQIZ"da "Jet A-1" aviatsiya yoqilg'isini ishlab chiqarishni o'zlashtirish bo'yicha izlanishlar olib borildi. 2009- yil avgust oyidan buyon amalga oshirilgan ishlar natijasida "Buxoro NQIZ" "Jet A-1" aviatsiya yoqilg'isini sanoat ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Mahsulot "Uzbekistan Airways" AJ, "Uzbekistan airports" AJ, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi kabi iste'molchilarga etkazib berilmoqda. Standartlarga muvofiqligini tekshirish uchun asboblari bilan jihozlangan.

***Tayanch iboralar:** Ko'hna va boqiy Buxoro, madaniy markazi, zamonaviy obidalar, teatr, monument, yodgorlik, bog', xiyobon, musiqali favvora, Buxoro aeroporti, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, gektar, amfiteatr, xarita, globus.*

Savol va topshiriqlar

1. Ko'hna va boqiy Buxoro madaniy markazi qachon qurildi?
2. Ko'hna va boqiy Buxoro madaniy markazi necha gektardan iborat?
3. "Abu Ali ibn Sino" nomidagi musiqali favvoralar xiyobonining umumiy maydoni qanchani tashkil etadi?
4. Buxoro aeroportining zamonaviy qiyofasini qachon tiklandi?
5. Buxoro neftni qayta ishlash zavodining qurilishi qachon boshlandi?

Manba va adabiyotlar

1. "Kўхна ва боқий Бухоро тарихи ҳамда маданий мероси – комил инсон тарбиясида муҳим манба" мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Бухоро. 2012.
2. Бобожонов Ш. Шариф шаҳар ёдгорликлари (Бухоро тарихий обидаларига саёҳат). Бухоро. "Бухоро". 2017. Б-184.
3. Xolmurod Baxshullayevich Sayfiyev Buxoro viloyatidagi tarixiy arxitektura obidalarini ob'ektlarining turistik marshrutlari va infratuzilmalarini ishlab chiqish. Scientific progress volume 2 | issue 7 | 2021 issn: 2181-1601.
4. Botirjon Shahriyrov. Buxoroning sayohlik salohiyati. / xalq so'zi. 05 April 2018.
5. Halim To'raev Buxoro tarixi. O'quv qo'llanma. "Durdona" .Buxoro – 2020. B-316.

GLOSSARIY

Abdullaxon timi- Buxorodagi eng katta usti berk savdo rastasi bo‘lib, 1577 - yilda Abdullaxon davrida qurilgan.

Amir Olimxon madrasasi- Amir Olimxonning buyrug‘iga ko‘ra, 1913- yilda Buxoro shahrida yangi madrasa qurilgan.

Ark—ichki qal‘a. Poytaxtdagi qasr, amirning atrofi baland devor bilan o‘raglan qo‘rg‘on saroyi.

Bayonqulixon maqbarasi- O‘rta Osiyo me‘morligi noyob namunasi (XIV - asr o‘rtasida qurilgan). Buxorodagi shayxul olam Sayfiddin Boharziy qabri yaqinida Chig‘atoy ulusi xoni Bayonqulixon qabri ustiga qurilgan.

Boloi Hovuz masjidi-1712-yilda Ark qarshisidagi Registon maydonida Ashtarxoniylar sulolasining oxirgi podshohi Abulfayzxon hukmronligi davrida uning amaldorlaridan biri Muhammad Hakimbey tomonidan qurilgan.

Buxoroning “Yetti pir” qadamjosi- Endilikda umumiy uzunligi 120 kilometr bo‘lgan ushbu majmualardan: Abdulxoliq G‘ijduvoni (G‘ijduvon), Xoja Muhammad Orif Revgariy Mohitobon (Shofirkon), Xoja Mahmud Anjir Fag‘naviy (Vobkent), Xoja Ali Romitaniy (Romitan), Xoja Muhammad Boboyi Samosiy (Romitan), Sayyid Amir Kulol (Kogon), Bahouddin Naqshband (Kogon) iborat qadamjo.

Varaxsha- qadimiy shahar xarobasi. Buxorodan 40 km shimoliy-g‘arbda, Dashti Urganji ko‘lining qadimgi Rajfandun vohasida joylashgan.

Vardonze-Varzonze, Vardona, Vardanzi-Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi “Qo‘rg‘oni Vardonze” nomi bilan mashhur qal‘a, qo‘rg‘on yodgorlikdir.

Vobkent minorasi-Buxoro viloyatining Vobkent tumanida joylashgan Vobkent minorasi XII asrda Qoraxoniylarning Buxorodagi noibi Sadr Burhoniddin Abdulaziz II tomonidan bunyod etilgan.

Darvoza-shahar, qal‘a, saroy, qo‘rg‘onning kirish joyiga o‘rnatiladigan katta eshik.

Devor-qal‘a, qo‘rg‘on va shahar (hatto biror davlat)ni o‘rab, dushman hujumidan mudofaa qilish uchun quriladigan inshoot.

Jome masjid — shahar markazidagi yoki nisbatan katta hududdagi asosiy va eng katta bosh masjid. Jamoa uchun zarur turli xabarlar e‘lon qilinadigan, haftalik juma, hayit namozlari jamoa bo‘lib o‘qiladigan maxsus bino.

Imom Hojatbaror yoxud Abu Xafs Kabir Buxoriy maqbarasi- Abu Xafs Kabir 832-yilda vafot etgandan keyin qabrlari Hazrati Imom qabristonidagi tepalikka qo‘yilib, maqbara salobatli inshoot bo‘lib, u IX asr me‘morchilik uslubida barpo etilgan.

Ismoil Somoniy maqbarasi- Ismoil Somoniy tomonidan otasi dafn etilgan joyda o‘zi va uning farzandlariga atab taxminan 892-943 yillarda bunyod etilgan.

Karvonsaroy – bu uzoq va mashaqqatli yo‘l bosib, xalqaro aloqalarni savdo munosabatlari orqali bog‘lovchi savdogar-karvon ahllari uchun o‘ziga xos vaqtinchalik qo‘rg‘on-qarorgoh, mehmonxona, ularning ot-ulovlari va chorvalari uchun ham uzoq yo‘ldan keyin hordiq olib, kuch to‘playdigan joy bo‘lgan.

Kalon jome masjidi- Ark va shahriston bozori oralig'ida 770-771-yillarda masjidi jom'e bunyod etilgan ilk binosi edi. 1121-1122-yillarda Qoraxoniylar hukmdori Arslonxon buyrug'iga asosan o'z mablag'lari evaziga masjid hozirgi joyi, Minora yonida tiklanadi, inshootning ko'pgina qismlari Ubaydullaxon, Abdulazizxon va Abdullaxon davrida qurilgan.

Kanpir devor-Kampir devor, Devori kan(m)pirak — O'rta Osiyoda dehqonchilik vohalarini ko'chmanchilar hujumidan himoya qilish maqsadida barpo qilingan mudofaa inshootlari tizimining xarobalari.

Ko'hna va boqiy Buxoro- 2010-yilda qurilgan 107 gektarlik joy, 700 o'rinli viloyat musiqali drama teatri binosi, yozgi 2000 tomoshabinga mo'ljallangan amfiteatr, "Qo'hna va boqiy Buxoro" monumenti qad rostladi. Yodgorlikning eng tepa qismiga dunyo xaritasini namoyon qiluvchi globus joylashtirilgan.

Labi hovuz- 1620-yilda Buxoro xoni Imomqulixonning bosh vaziri Nodir Devonbegi tomonidan qurilgan Buxoroning eng taniqli va mashhur joylaridan biri.

Madrasa (arabchada, darasa—o'rganmoq) — musulmonlarning o'rta va oliy o'quv yurti bo'lib, ulamolar va maktabdorlar, davlat organlari xizmatchilarini ham tayyorlaydigan VII—VIII asrlarda islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida paydo bo'lgan.

Masjid-masjid (arabchada-sajda qilinadigan joy)- musulmonlar jamoa bo'lib, namoz o'qiydigan joy, ibodatxona.

Maqbara (arab, marqad, turbat)-biror mayitning jasadi joylashgan me'moriy inshoot yoki tosh tobut (daxma, sag'ana).

Mag'oki Attori masjidi- Moh yoki Mag'oki Attoriy mahalla masjidi Buxoroda XII – XVI asrlarda qurilgan. Arablar istilosigacha uning o'rnida Moh (oy) bozori bo'lgan, bu yerda but, dorivor va ziravorlar bilan savdo qilingan, otashparastlar ibodatxonasi ham shu yerda bo'lgan.

Mir Arab madrasasi- Ubaydulloxon davrida Mir Arab Abdulloh al-Yamaniy tomonidan 1530-yilda madrasa qurilishi boshlanib, so'ngda uning vasiyatiga ko'ra kuyovi Shayx Zakariyo 1536-yilda qurilishni oxiriga yetkazgan.

Minora (arab. — mayoq) — gorizontal (eni) o'lchamiga nisbatan vertikal (tik) o'lchami ortiq bo'lgan baland inshoot.

Minorai Kalon-1124-yili Arslonxon buyrug'i asosida usta Baqo tomonidan qurilgan, balandligi 47 yarim metrli minoradir.

Mudofaa devorlari—aholini dushman hujumidan saklash maqsadida qadimgi dehqonchilik vohalari atrofiga qurilgan devorlar.

Namozgoh masjidi- Hayit namozlarini jamoa bo'lib ado etish uchun ko'p mingli Buxoro ahlini bir poygohda jamlashni maqsad qilgan Namozgoh masjidi shaharning janubiy chekkasida, qoraxoniylar sulolasining yozgi qarorgohida, aniqrog'i Shamsiobod bog'ida 1119-1120 yillarda barpo etilgan.

Poykand — qadimiy karvon yo'li ustida qad ko'targan shahar xarobasi.

Raboti Malik- Shoh raboti O'rta Osiyodagi monumental me'moriy yodgorlik (taxm. 1069—1079). Qadim Buxoro-Samarqand yo'lining Cho'li Malikdagi yirik chegara va savdo bekatida bunyod etilgan.

Rudizar- Qadim Buxoroni suv manbai bilan ta'minlagan mashhur anhor, ariqdir.

Sardoba (fors, tojik, sard — sovuq va ob — suv) — suv tanqis hududlarda uni to'plash va saqlash uchun maxsus qurilgan gumbazli hovuz.

Sayfiddin Boharziy maqbarasi-uning kichik go'rxonasi (XIII asrning 2-yarmi) va ziyoratxonasi (XIV asrning 2-yarmi) charxi gumbazli qilib qurilgan.

Sayfiddin Boharziy masjid-Sayfiddin Boharziy masjidlari XIV asrda Boxarziyning nevaralari Ibn Yahyo tomonlaridan bunyod etilgan.

Sitorai Mohi Xossa saroyi- Buxoro amirligining mang'it sulolasiga mansub amirlari Amir Nasrullo (1826-1860), Amir Muzaffar (1860-1885), Amir Abdulahad (1885-1910), Amir Olimxon (1910-1920)lar tomonidan qurilgan.

Toqi Zargaron -(fors. — zargarlar toqi) — Buxorodagi me'moriy yodgorlik (XVI asr) bo'lib, zargarlik buyumlari sotish uchun mo'ljallangan savdo markazi.

Toqi Sarrofon-(forscha — sarroflar toqi) — Buxorodagi me'moriy yodgorlik XVI asrda qurilgan bo'lib, pul almashtiradigan bosh savdo markazi bo'lgan.

Toqi Telpakfurushon- (fors telpakfurushlar toqi) — Buxorodagi me'moriy yodgorlik (XVI asr). Bosh kiyimlar tayyorlash va sotishga mo'ljallangan gumbazli bino.

Tug'- eski turkiy tilda «bayroq, bayroq yuqorisidagi buyum, harbiy qism bayrog'i» kabi ma'nolarni anglatgan.

Ulug'bek madrasasi- Ulug'bek madrasasi Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tomonidan 1417-yilda bunyod etilgan.

Fayzulla Xo'jaev uy – muzeyi- Fayzullo Xo'jaev (1896-1938 y.) uylari XIX asr oxirida (taxminan 1870-yillarda), Qadimiy G'oziyon ko'chasida barpo etilgan. Bu uy aslida Fayzullo Xo'jaev otasi Ubaydullo Xo'jaevga tegishli bo'lgan.

Xo'ja Ismat ziyoratgohi- Xazrat Xoja Faxriddin Ismatulloh binni Mas'ud Buxoriy valiyulloh, buyuk shoir, faylasuf, ulug' tarbiyachi, ma'rifatparvar zot 1365-1436-yashab ijod etgan shaxsning qabrlari Buxoro shahrining Shayx Jalol darvozasi yaqinida janub tomonida joylashgan.

Chashma-Ayub maqbarasi- XII asrda barpo etilgan bo'lib, uning old qismi XIV asrda Amir Temur farmoni asosida qurilgan. Buni ziyoratxona devorida “Amir Temur farmoyishiga binoan, 1379-yilda unga taqab kulohiy gumbazli katta xona, burchaklarida minoralari bo'lgan dahliz qurilgan.

Chor minor (forschada — to'rt minora) —Buxorodagi me'moriy yodgorlik Xalfa Niyozqul tomonidan 1807-yilda qurdirgan.

Shuxov suv minorasi-Muhandis Vladimir Shuxov tomonidan Buxoroda 1920-yilda qurilib, shahar aholisini suv bilan ta'minlash uchun qurilgan suv bosimi minorasidir.


Hammom — cho'milish, yuvinish va poklanish uchun qurilgan maxsus bino.

Hovuz — suv yig'ish va saqlash uchun qazilgan chuqur joy; ichimlik suvi saqlanalgan sun'iy suv havzasi.


ILOVALAR




Buxoro 1925-yil.




Ko‘kaldosh madrasasi bir oz uzoqroqda — Ernazar elchi madrasasi. 1880-yil.




Buxoroning hozirgi korinishi




Poykent qadimgi manzilgohining xarobalar



Varaxshaning ko`rinishi



Labi Hovuz 1903-1916 yillar.



Labi Hovuz. 1925 yil



Buxoroi sharif hovuzlari.



Buxoro amirligi meshkobchisi




Labi Hovuz yonidagi meshkobchilar




Labi Hovuz yonidagi meshkobchilar



Havzi Lesak




Murdashuyon Xovuzi (Xavzi Murdashuyon)




Bolo hovuz masjid 1930 yil



Bolo Hovuz masjidi yonida meshkobchilar




Labi Hovuz



Xoja kalon Xavzi Xojai Kalon yoki Gavkushon



Hammomi Kunjak. Ayollar hammomi




Shohrud kanali. 1977-yil.



Shuxov suv minorasi




Ark. 1907-yil va 2008-yil. Orada 101 yil farq!




Ark.




Qarshi darvozasi. Buxoro. XIX asr



Mozor darvozasi




Samarqand darvozasi. 1890 yil. Muallif: Payl Nadar



O'g'lon darvozasi. 1890-1910 yillar



Talipoch darvozasi. 1954-yil




Shergiron darvozasi. 1930-1950 yillar




Qarako`l darvozasi




Shayx Jalol darvozasi. 1904-1905 yillar. Kolleksiya MAE RAN MAE № 1320-14




Namozgoh darvozasi. 1920-1930 yillar




Salloxxona darvozasi. Abdulazizxon tomonidan 1540-1549-yillarda qurilgan




Hazrat Imom darvozasi



Masjidi Kalon




Masjidi Kalonning ichki ko`rinishi. Buxoro. 1899-yil



Buxoro. 1920 Bolsheviklar tomonidan bombalangan keyingi Masjidi Kalon va uning atrofi. Arxiv: A. Otlivanchik



Mir Taxuri Devon masjidi



Boloi hovuz masjidining qadimgi ko`rinishi. Rekonstruksiyadan oldin



Boloi hovuz masjidining rekonstruksiyadan keying ko`rinishi




Boloi hovuz masjidining qadimgi ko`rinishi



Boloi hovuz masjidi



Xoja Zayniddin jome masjidi



Namozgoh masjidi 1890- yil. Avtor:Yermakov D




Masjidi Siddiqiyon XVII asr




Xo'ja Gavkushon masjidi






Labi Ro'd masjidi




Xoja Tabband masjidi



Fayziobod masjidi atrofidagi paxta dalasi 1940-yillar.



Abu Xafs Kabir ziyoratgohi 1957-1958 yillar



Abu Xafs Kabir ziyoratgohi tamirlangandan keyngi holati




Eshoni Imlo qabristoni. Parfyonov-Fenin xaritasida masjid 121 raqami ostida, qabristonning o'zi 120 raqami bilan belgilangan



“Xoja Ismat” jome’ masjidi




Chas
hmai Ayyub 1927-1934-yillar



Ismoil Somoniy maqbarasi 1927 yildan 1960 yilgacha



Labi Hovuz. Nodirdevonbegi xonaqosi. 1925-1928 -yillar



Bayonqulixon maqbarasi. Buxoro. 1905-yil




MINORAI KALON


1907- yil

1920-yil


2017- yil



Minorai Kalon XX asr boshlari




Minorai Kalon XX asr boshlari



Minorai Kalon XX asr boshlari



Poyi kalon 1887 yil. Xali Amir Olimxon madrasasi qurilmagan payt




Mir -Arab madrasasining ichki ko`rinishi




Mir -Arab madrasasi




Mir -Arab madrasasi



Poyi Kalon majmuasi




Mir -Arab madrasasining hozirgi ko`rinishi



Madrasa Tursunjon. Guzari Tanursozon




Ulugh'bek madrasasi




Ulug`bek va Abdalazizxon madrasalari.




Ulughbek va Abdulazizxon madrasalari. 1980-1990 yillar oraligida




1924-yil Abdullaxon madrasasi




1950yil Abdullaxon madrasasi ichki qismi



Abdullaxon madrasasi. 1966 yil



Abdullaxon madrasasi. 1969 yil




ABDULLAXON MADRASASI

1911-yil

1986-yil


2017- yil.




Abdullaxon madrasasi




Nihol madrasasi va Poyanda biy otaliq masjidi




Shodimbiy madrasasi



Olimjon madrasasi




Olimjon madrasasi




Labi Hovuz vaqinida joylashgan Ernazar Elchi madrasasi. 1905 yil.




Ko`kaldosh madrasasi



Bozori Go'sfand madrasasi




Bosori Go`sfand va Dorushifo madrasasi. 1922 yil.




Gavkushon madrasasi.




Turkman madrasasi




Chuqur madrasasi




Badalbek madrasasi 1924 yil




Abdulazizxon madrasasi.




G`oziyon madrasasi. 1961yil



G`oziyon madrasasining hozirgi ko`rinishi




XX asrning 30 yillari. Chor Minor madrasasi



G`oziyon madrasasi. Yotoqxona sifaatida ishlatilgan paytlar




Toshsaroy madrasasi.




Nodirdevonbegi madrasasi




Mavlono Assiri madrasasi




Abdulla Xofiz madrasasi




Toqi Tirgaron. 1887-1888 yillar.



Toqi Sarrofon 1959-yil.



Tim Abdulloxon 1934y




Toqi Zargaron 1979-yil




Toqi Telfakuro`shon




Buxoro Arki oldida bozor kuni, Buxoro. 1885-1888-yillar.



XX asr boshlari. Buxoro kitob bozori.



Buxoro amirligidagi anor bozoridagi mevafurush surati



Buxoro amirligidagi tandir va ko`zalar yasovchi usta



Buxoroning bozorlaridan biri




Meva-cheva sotuvchisi. Buxoro, 1890-yillar.




1898- 1899 yillar. Buxoroning bozor ko`chasi. Fotoalbom A.M.Levina




Markaziy xalq muzeyi. Moskva. Buxorodagi o'tin bozori. 1930-1932 yil




Do‘ppi sotuvchilari.Buxoro, 1900-yil.



Mis idishlar sotuvchisi, Buxoro, 1898-1899-yillar. Suratgir: Gyugo Kraft




Buxoroning savdo rastalari




Labi Hovuz yonida ko'cha non sotuvchisi. 1910 yil.




Qumg'on sotuvchilari. Buxoro. 1889-1890-yillar.




Qovun sotuvchi, Buxoro. 1898-1899-yillar.




Buxorodagi Labi-hauz meva bozori. 1898-1899 yillar.




Darvozasida erkaklar va ayollar uchun alohida «taqqillatgich» oʻrnatgan rashqli, xamiyatli, iffatli ajdodlarning avlodlarimiz..



Buxoro. Izvoshchilar (Foytun) bekati



Shirbuddin saroyi



Shirbuddin saroyi




Shirbuddin saroyi




Shirbuddin saroyi




Shirbuddin saroyi




Shirbuddin saroyi



Shirbuddin saroyi



Shirbuddin saroyi




Shirbuddin saroyi




Sitorai Moxi-Xossa saroyi



Buxoroning zindoni




lufsen suratga olgan Hind Karvonsaroy.Orqaroqda Ulug`bek va Abdulazizxon madrasasi suratlari bor.



Hinduyon karvonsaroyi xarobasi 1928y



Karvon saroy Saroyi barra 1890yil



Buxoro. 1920-1940-yillar. Sayfiddin karvonsaroyi


**Sayfiddin karvonsaroyining yuqoridagi suratdagidan oradan 80-90 yil
keyingi ko‘rinishi. 2015 yil**




1970-yillarda Karvonsaroy




Buxoro amirligidagi uy-joylar




Buxoro ko'chalari, XX asr boshlari.



Buxoroning qadimiy ko`chalari 1898-1902 yillar.



Sadriddin Ayniy teatri...Sharq va G'arb memorchiligi birlashgan nuqtasi



Qo`hna boqiy Buxoro monumenti

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. Т. “Ўзбекистон”. 2017.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Шарқ, 1999.
3. Каримов И.А. Бухоро шахрининг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи. // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6 т.: “Ўзбекистон”, 1998.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т. “Маънавият”.2008.
5. Абул Аббос Толиб. Матлаб ут-толибин. Т. “Мовароуннаҳр”.2016.
6. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. Т., “Фан”.1991.
7. Андреев М.С., Чехович О.Д. Арк (кремль) Бухары в конце XIX – начале XX в. Душанбе.1972.
8. Баҳоуддин Нақшбанд мажмуаси.Бухоро.2008.
9. Бухоро шарқ дурдонаси. Т., “Шарқ”.1997.
- 10.Бобожонов Ш. Шариф шаҳар ёдгорликлари (Бухоро тарихий обидаларига саёҳат). Бухоро. “Бухоро”. 2017.
- 11.Вамбери А. Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти”. 1990.
- 12.Йўлдошев Н.Баҳоуддин Нақшбанд. Бухоро 1992.
- 13.Йўлдошев Н. IX-XIV асрларда авлиё даражасига кўтарилган бухоролик машоих ва авлиёлар.Бухоро. 1992.
14. Йўлдошев Н.Бухородаги айрим авлиёлар тарихи. Бухоро 1993.
- 15.Йўлдошев Н.Баҳоуддин Нақшбанд. Бухоро 1993.
- 16.Йўлдошев Н.Ҳожатбарор имом Ҳафс Кабир Бухорий. Бухоро 1994.
- 17.Йўлдошев Н.Бухоро авлиёлари тарихи. Бухоро 1997.
- 18.Йўлдошев Н.Кўҳна тарих гувоҳи. Бухоро 2000.
- 19.Йўлдошев Н.Бухоро шахрининг таърифи, номлари ва дарвозалар тарихидан. Бухоро 2000.
- 20.Йўлдошев Н.Бухоро шаҳри ва унинг атрофидаги зиёратгоҳлар тарихи. Бухоро 2001.
21. Йўлдошев Н.Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва фаолияти. Бухоро 2003.
- 22.Жумаев Қ,Ситораи Моҳи Хосса. Бухоро.2010.
- 23.Жўраев М., Саидова Р. Бухоро афсоналари. Т., А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти”. 2002.
- 24.Жўраев Ҳ. Беназир санъат мутолааси. Т., “Наврўз”. 2014.
- 25.Инсониятнинг илмий ва маданий мероси учинчи минг йилликка; халқаро симпозиум тезислари; Т.: 1997.
- 26.Крюков К.С. Кўш мадраса. Т. “Ўзбекистон”. 1964.
- 27.“Кўҳна ва боқий Бухоро тарихи ҳамда маданий мероси – комил инсон тарбиясида муҳим манба” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Бухоро.2012.
- 28.Лукинская Н.М. Хўжа Зайниддин хонақоҳи. Т., “Ўзбекистон”.1976.

29. Мирзо Салимбек. Кашкўли Салимий таворихи муттақадимин ва муттаахирин. (Форс-тожик тилидан ўзбекчага доцент Нарзулло Йўлдошев ўгирган). Бухоро. 2003.
30. Музей истории водоснабжения Бухары. Бухара. 2016.
31. Муҳаммаджонов А. Зарафшон водисининг сув хўжалиги тарихидан. Т., “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока” ва “Ўзбекистони Сурх” бирлашган нашриёти. 1959.
32. Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. Т., “Фан”. 1991.
33. Муҳамедов Х. Қадимги мудофаа деворлари. Т., Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти”. 1993.
34. Муҳаммаджонов А. Бухоро шаҳри - 2500 ёшда // Бухоро: тарих саҳифалари. мақолалар тўплами. Бухоро. 1999. –Б.18.
35. Муҳаммаджонов А. Городу Бухаре — 2500 лет. Т., “Фан”. 1999.
36. Наршахий Абу Бакр Муҳаммад. Бухоро тарихи. Т. 1966.
37. Наимов Н. Бухоройи Шарий. Ноҳу Вуқҳого (тарихий очерклар). Бухоро. 1997.
38. Наимов Н. Бухоройи Шариф. Бухоро. 2005.
39. Немцева Н.Б. Ханака Шайх Сайфиддин Бохарзи в Бухаре. Бухоро. 2003.
40. Пугаченкова Г.А. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана. Т., 1958.
41. Пугаченкова Г.А. Самарканд. Бухара (По древним памятникам). Изд. Второе. М. 1968.
42. Пугаченкова Г.А. Бухоро тим ва тоқлар. Бухара. Торговые купола. Т., “Ўзбекистон”. 1969.
43. Ремпель. Далёкое и близкое. Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. Бухарские записи. Т.: лит. и искусства имени Гафура Гуляма. 1981.
44. Саййид Мансур Олимий. Бухоро – Туркистон бешиги.
45. Садриддин Салим Бухорий., Тўраев Ҳ. Чор Бакр ёки Жўйбор авлиёлари. Бухоро. 2001.
46. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. (тарихий-маърифий рисола). Тўлдирилган, қайта ишланган иккинчи нашр. Т., “Наврўз”. 2015.
47. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. М. “Наука”. 1976.
48. Турдиев М. Бухоро бўйлаб сайр. Бухоро. 2012
49. Шишкин. Варахша. М., 1963.
50. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т. Давлат илмий нашриёти. Т., “А”, “Б”, “В”, “Г”, “З”, “К”, “Л”, “М”, “Н”, “С”, “Т”, “Ш”, “П”, “У”, “Қ” томлари.
51. Ўзбекистон обидаларидаги дурдона битиклар. Т., 2011.
52. Қадимий Бухоронинг музейлари. Бухоро. 2015.
53. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланом. (“Шарафномаи шоҳий”). Биринчи китоб. Т., “Шарқ”. 1999.
54. Ҳусенов С., Ражабова И. Чор Бакр. Т., “Шарқ”. 2001.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
1-mavzu: Kirish.Buxoro meʼmoriy obidalari tarixi fanining maqsad va vazifalari	5
2-mavzu: Buxoro vohasidagi qadimiy qalʼa qoʻrgʻonlar tarixi.....	14
3-mavzu: Buxoroning suv taʼminoti va gidrotexnik inshootlari	24
4-mavzu: Ark qalʼasining meʼmoriy obida sifatida oʻrganilishi.....	33
5-mavzu: Buxoroning mudofaa inshootlari.....	42
6-mavzu: Buxoroning masjidlari.....	51
7-mavzu: Buxoroning muqaddas qadamjolar meʼmorchiligi	60
8-mavzu: Buxoro minoralari va ularning meʼmorchiligi	69
9-mavzu: Buxoro madrasalari va meʼmorchiligi.....	78
10-Mavzu: Buxoroning savdo inshootlari.....	87
11-mavzu: Buxoroning tarixiy – meʼmoriy majmualari	96
12-mavzu: Buxoro amirlarining saroylari meʼmoriy obida sifatida	105
13-Mavzu: Buxoroning qadimiy turar joylari meʼmorchiligi	114
14-mavzu: Mustaqillik yillarida Buxoroda qayta tiklangan muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar	121
15-Mavzu: Buxoroning zamonaviy obidalari	130
Glossariy	136
Ilovalar.....	139
Fordalanilgan manba va adabiyotlar roʻyxati.....	279

ОГЛАВЛЕНИЕ

Предисловие.....	3
Тема 1: Введение. Цели и задачи истории архитектурных памятников Бухары	5
Тема 2: История древних крепостей в Бухарском оазисе	14
Тема 3: Водоснабжение и гидротехнические сооружения г. Бухары.....	24
Тема 4: Изучение крепости Арк как архитектурного памятника	33
Тема 5: Оборонительные сооружения Бухары.....	42
Тема 6: Мечети Бухары.....	51
Тема 7: Архитектура священных мест в Бухаре	60
Тема 8: Бухарские башни и их архитектура	69
Тема 9: Бухарские медресе и архитектура.....	78
Тема 10: Торговые объекты в Бухаре	87
Тема 11: Историко-архитектурные комплексы Бухары.....	96
Тема 12: Дворцы бухарских эмиров как памятники архитектуры.....	105
Тема 13: Архитектура древних городищ Бухары.....	114
Тема 14: Святыни и святыни, восстановленные в Бухаре за годы независимости.....	121
Тема 15: Современные памятники Бухары.....	130
Глоссарий	136
Приложения	139
Список использованных источников и литературы	279

CONTENTS

Preface	3
Topic 1: Introduction. Goals and objectives of the history of Bukhara architectural monuments	5
Topic 2: History of ancient fortresses in the Bukhara oasis	14
Topic 3: Water supply and hydraulic structures of Bukhara	24
Topic 4: The study of the Ark Fortress as an architectural monument	33
Topic 5: Bukhara's defense facilities	42
Topic 6: Mosques of Bukhara.....	51
Topic 7: Architecture of sacred sites in Bukhara	60
Topic 8: Bukhara towers and their architecture.....	69
Topic 9: Bukhara madrassas and architecture	78
Topic 10: Trade facilities in Bukhara	87
Topic11: Historical and architectural complexes of Bukhara	96
Topic 12: Palaces of Bukhara emirs as architectural monuments	105
Topic 13: Architecture of ancient settlements of Bukhara.....	114
Topic14: Holy shrines and shrines restored in Bukhara during the years of independence	121
Topic 15: Modern monuments of Bukhara.....	130
Glossary	136
Applications.....	139
Bibliography	279

FERUZA BOBOJONOVA

BUXORO ME'MORIY OBIDALARI TARIXI

O'quv qo'llanma

Muharrir:

D.Mahmudov

Texnik muharrir:

O.Xolmatov

Musahhih:

G.Akramova

Sahifalovchi:

N.Zayniyeva

Nashriyot litsenziyasi № 2429-2461-f10c-dbed-b481-5659-4039. 26.01.2022.
Original-maketdan bosishga ruxsat etildi: 20.10.2022. Bichimi 60x84. Kegli 14
shponli. «Times New Roman» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset bosma
qog`ozi. Bosma tobog`i 17,75. Adadi 100. Buyurtma № 9354.

Buxoro viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi “FAN va TA’LIM” nashriyoti:
Buxoro shahri Q.Murtazoyev ko`chasi, 16 -uy.
Bahosi kelishilgan narxda.